2. Tsallis, C.: Possible generalization of Boltzmann–Gibbs statistics. J. Stat. Phys. 52, 479–487 (1988)


3. Rényi, Alfréd. On measures of entropy and information. Proceedings of the fourth Berkeley symposium on mathematical statistics and probability. Vol. 1. No. 547-561 (1961)

4. Gulyamov G., Davlatov A.B., Juraev Kh.N. Concentration, thermodynamic density of states, and entropy of electrons in semiconductor nanowires. Low Temperature Physics, **48**. 148 (2022).

MAGNIT MAYDON VA YORUG’LIKNING TA’SIRIDAGI DIODNING VOLT-AMPER XARAKTERISTIKALARI

G.Gulyamov, K.Umarov, A.Soliyev, Q.Yo’ldoshev, Sh.Mamadaliyev
Namangan muhandislik qurilish instituti

Qattiq jismlarga yorug’lik tushishi natijasidagi fotoelektrik effekt hodisasi o’z xarakteri bilan tashqi va ichki fotoelektrik effektlarga bo’linadi. Yarimo’tkazgichli diodlarda bir qator fotoelektrik hodisalar asosida ichki fotoelektrik effekt – nurlanish ta’sirida elektronlarning past energetik holatdan yuqori energetik holatga o’tish jarayoni yotadi. Quyida biz fotoeffekt hodisasiga asoslangan ba’zi yarimo’tkazgichli asboblarga yoruglik va magnit maydon ta’sirining fizik xossalari haqida mulohazalar olib boramiz.



1-rasm. Yarimo’tkazgichlarda ichki fotoelektrik effekt


Yarimo’tkazgichli diodlarning fotoo’tkazuvchanligi zaryad tashuvchilarning elektromagnit to’lqin – yorug’lik ta’sirida qo’zg’olish hodisasiga asoslangan. Bunday fizik jarayon elektron va kovaklarning yorug’lik ta’sirida bog’langan holatdan qo’zg’olgan holatga o’tishi – ichki fotoelektrik effekt deb ataladi (1-rasm). Tajribalarning ko’rsatishicha yorug’lik bo’lmagan paytdagi o’tkazuvchanlikda ishtirok etgan elektronlar va kovaklarning harakatchanligi bilan yorug’lik ta’sirida hosil bo’lgan elektronlar va kovaklarning harakatchanligi bir-birlariga teng bo’ladi. Shuning uchun, yorug’lik ta’siridagi yarimo’tkazgichli diodlarning to’liq elektr o’tkazuvchanligi quyidagiga teng bo’ladi:

$$\sigma = \sigma_q + \sigma_f = eu_n(n_q + n_f) + eu_p(p_q + p_f) \qquad (1)$$

1-ifodani *p-n* o’tishli yarimo’tkazgichli ideal diodlarning volt-amper xarakteristikasi uchun Shokli ifodasiga qo’yib, ya’ni magnit maydon va yorug’likni ta’sirini kiritsak, *p-n* o’tishli yarimo’tkazgichli diodlarga magnit maydon va yorug’lik ta’sir etgan hol uchun quyidagi ko’rinishdagi tenglama hosil bo’ladi [1]:

$$j = j_s\left(e^{\frac{e\varphi_0}{kT}-\frac{e\left(\varphi_0-U+\frac{R_x JB}{l}\right)}{kT_e}}-1\right)-J_f \qquad 2$$

Tajribada *p-n* o’tishli diodlarga magnit maydon va yorug’likni ta’sir ettirganimizda hosil bo’lgan volt-amper xarakteristikalarni 2-ifoda orqali tushuntirish mumkin bo’ldi.



3-rasm. *p-n* o’tishli diodlarga magnit maydon va yorug’likning ta’siri

Demak *p-n* o’tishli diodlarga magnit maydonning o’zini ta’sir ettirganimizda VAX ning o’zgarishi sezilmasligining sababiga diodning bazasining yetarlicha kichik bo’lganini sabab qilib ko’rsatishimiz mumkin. Ya’ni magnit maydon zaryad tashuvchilar harakatiga tik yo’nalgan bo’lsa zaryad tashuvchilarning magnit maydon ta’sirida og’ishi kuzatilishi kerak. Bu esa magnitoqarshilikni hosil qiladi. Bazasi yetarlicha kichik diodlarda esa magnit maydon zaryad tashuvchilarni og’dirishga ulgurmaydi, natijada bunday diodlarga magnit maydonning ta’siri deyarli sezilmaydi. *p-n* o’tishli diodlarga yorug’likning o’zini ta’sir ettirganimizda VAX ning o’zgarishi adabiyotlardan ma’lum [2]. Agar ushbu diodga bir vaqtning o’zida ham magnit maydon, ham yorug’lik ta’sir ettirsak grafik yuqoriga surilishini kuzatamiz. Bu esa magnit maydon yorug’lik ta’sirida hosil bo’lgan elektronlar va kovaklarning og’ishiga yetarli bo’lishini ko’rsatadi. Natijada fotomagnitoqarshilik hosil bo’lib fototokning kamayishiga olib keladi.

Adabiyotlar.

1. Gulyamov, G., Majidova, G. N., Mukhitdinova, F. R., & Suvanov, A. X. (2022). Effect Of Magnetic Field On Photoelectric Characteristics Of PN Junction Diode. *Journal of Optoelectronics laser*, *41*(9), 451-459

2. G. Gulyamov, G. Majidova, *Romanian journal of physics* **68,** (3-4), 110-115 (2023). https://rjp.nipne.ro/2023_68_3-4/RomJPhys.68.607.pdf.

YUQORI SAMARADORLIKDAGI FOTOQABULQILGICHLARNI GETEROSTRUKTURALAR ASOSIDA YARATISHNING BAZI XUSUSIYATLARI

A.A. Pulatov
Namangan Davlat univesiteti

Annotatsya. Ushbu ishda geterostrukturalar asosida tayorlangan fotoqabulgichlarni bazi ijobiy xususiyatlari ko’rsatib o’tilgan.

Kalit so’zlar. fotoqabulqilgichlar,geterostrukturalar, taqiqlangan soha, electron –teshik.

Fotoqabulqigichlarning rivojlanishi va takomillashuvi geteroo’tishlardan foydalanish bilan bog'liq.Chunki fotoqabulqilgichlarni yaratish uchun ideal geterostrukturalarni qo'llanilishi nafaqat spektral sezuvchanlik sohasini boshqa- rishga imkon berad.Balki kvant samaradorligini va fotodetektorlarni tezkorligini oshirish, qorong'ulikdagi toklarni kamaytirish va shu bilan ularning qo'llanish sohalarining kengayishi tufayli nurlanishni qabul qiluvchilarining parametrlari va xususiyatlariga qo'yiladigan barcha talablarni qondirish.

Barcha geterofotodetektorlarda keng sohali soha odatda yorug'lik kiritish uchun "oyna" kabi vazifani bajaradi.Taqiqlangan soha kehgligi keng E_{g_2}yarim o'tkazgich- ning to'g'ri tanlangan parametrlari bilan erkin tashuvchilarda yutilishini e’tiborga olmaslik mumkin va h$\nu < E_{g_2}$ energiyali yorug'lik deyarli yo'qotishsiz **muvozanat siz zaryad tashuvchilarni** (MZT) ajratish sohasiga yetib boradi. Aniqki,“oyna”- ning roli ayniqsa (MZT)larning kichik diffuziya uzunligiga va sirt rekombinatsiya- sining yuqori tezligiga ega bo'lgan to’g’ri zonali materiallarga asoslangan fotode- tektorlarda muhimdir.Bu holat qisqa to'lqin uzunlik chegarasini boshqarishga im- kon beradi.Kehg sohali materialning taqiqlangan soha kengligini o'zgartirish orqa- li spektral sezuvchanlik sohasini qisqa to’lqinli chegarasini boshqarish imkonini beradi.

Shuningdek “oyna” effekti , MZT generatsiya sohalarini birlashtirish va ularni ajralish imkonini beradi. Shunday qilib, keskin geteroo’tishalarda kvant samaradorligi faqat elektron-teshik juftlarini ajratish koeffitsienti bilan belgilanadi, bu esa o'z navbatida energiya diapazoni diagrammasining xususiyatlariga bog'liq bo'ladi[1]. Keskin heterostrukturada MZTlarni ajratish nuqtai nazaridan, eng maq- buli - bu zona uzilishlaridan biri nolga yaqin bo'lgan struktura, ya'ni: valentlik sohasidagi uzilishlar n-P uchin $\Delta E_\vartheta \approx 0$ va p -N – geteroo’yish uchun $\Delta E_c \approx 0$. Aks holda, ΔE_co'tkazuvchanlik diapazonidagi uzilishlar yoki valentlik zonasida ΔE_ϑ va p-N - yoki n-P – geteroo’tishlar MTZni geteroo’tishning kontakt sohasi bilan ajratilishiga to'sqinlik qiladi va ajratish koeffitsientining qiymati darajaga bog'liq taqiqlangan keng sohali

material, qo'yilgan teskari kuchlanish va uzilish sohasining kattaligi, ya'ni to'siqning shaffofligidan. [2]. Shu sababli, ligerlangan tor sohali qotishma materialdan foydalanilganda, MZTni yanada to'liq yig'ish uchun, geterochegaraning qorong'u toklar qiymatiga ta'sirini kamaytirish uchun ko'pincha ajratilgan getero- va elektr chegaralari bo'lgan tuzilmalar n –p-P va p – n-N, tipidagi geterostrukturalar tez-tez ishlatiladi da batafsil ko'rib chiqilgan.Agar masofa p -n- o’tish chegarasidan geterochegaragacha bo’lsa MZTning mos kela- digan diffuziya uzunligidan kam,yani qalinligi p- yoki n – sohalaru holda fotosez- girlikning spektral xarakteristikasining shakli birlamchi geteroo’tishga o'xshaydi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, geteroo’tishlarga asoslangan fotoqabulqilgichlarda sezgirlik chegarasi uzun to'lqin uzunlikdagi tor sohali materialining taqiqlangan zona kengligi bilan aniqlanadi, qisqa to'lqin uzunligi chegarasi esa -to'lqin uzunligi oyna materialining taqiqlangan soha kengligi va sirt rekombinatsiyasi tezligi bilan belgilanadi.

Yorug'lik nurining yuqori energiyasiga h$\boldsymbol{\nu}$> E_{g_2} yordamida spektral sezuv-chanlik hududini kengaytirish uchun, silliq geterostrukturalarga imkon beradi, bunda taqiqlangan zona kengligi p-n - tish joyidan yoritilgan yuza yo'nalishi bo'yicha ortadi.Qisqa to'lqinli oblastda energiyaning sirtdagi taqiqlangan soha kengligidan oshib ketadigan nurga nisbatan sezuvchanlik pasayishining oldini olish uchun tashuvchilarning sirtdan chiqib ketish tezligi ϑ_n sezilarli darajada s_n rekom- binatsiya tezligidan yuqori bo'lishi kerak, ya'ni $\vartheta_n = \frac{1}{q}\mu_n grad E_g \gg s_n$

Bundan tashqari, silliq geterostrukturalarda yuqori samaradorlikka erishish uchun, MZTning generatsiyalanuvchi sohasidan ajralish sohasigacha uchib o’tish vaqti uning yashash vaqtidan ancha kichik bo'lishi kerak:$t_{uch.v} \ll \tau$, ya'ni

$\frac{1}{q} grad\, E_g \gg \frac{kT}{L_n^2} d,$ bu erda d- p-n o’tishdan yoritilgan yuzalargach bo’lgan masofa, L_n -o'zgaruvchan tarkibli p –sohadagi elektronlarning diffuziya uzunligi, к-Больцман доимийси,Т-температуры.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Korol’kov V.I. Photodetectoros based on heterostrutures. Semiconductor optoelektroniks /Ed. M.A.Herman.1997.pp-301-308

CdTe QATLAMLARI ASOSIDAGI FOTOSEZGIR TUZILMALARDAGI CdS VA CdO BUFER QATLAMLARINING TASHQI KVANT SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

[1]Kabulov R.R., [1]Shuhratova L.U., [1]Qosimov F., [2]Shosaitov Sh.Sh.
[1]O‘z R FA FTI
[2]O‘zR EV QTEMITI

Annotatsiya. Polikristall CdTe qatlamlariga asoslangan geterostrukturali CdS/CdTe va CdO/CdTe fotosezgir tuzulmalarda eng muhim fotoelektrik xususiyatlarini aniqlovchi tashqi kvant samaradorligi o‘rganildi. CdS buffer qatlami o'rniga keng ta’qiqlangan zonali CdO qatlamidan foydalanilganda, tashqi kvant samaradorligining, CdS ga nisbatan, qisqa to'lqin uzunliklari tomon siljiganligi aniqlandi. Kuzatilgan effektlar CdTe qatlamining fotoaktiv qismida buffer qatlamidan ko’proq otgan yorug’lik kvantlarining muvozanatsiz zaryad tashuvchilarning fotogeneratsiyasining kuchayishi bilan bog'liq.

Kalit so'zlar: geterotuzulma, polikristal qatlam, CdTe, CdS, CdO, tashqi kvant samaradorligi.

Kirish. Hozirgi vaqtda zamonaviy fotovoltaik energika va asbobsozlikda kristall kremniy fotodetektorlarini muvaffaqiyatli almashtira oladigan arzon, yuqori samarali, kam materiai talab qiluvchi, uzoq xizmat muddatiga ega bo'lgan yupqa qatlamli foto sezgir tuzulmalarni ishlab chiqishga alohida e'tibor berilmoqda. Asosiy nomzodlar Mendeleev davriy jadvalning ikkinchi va oltinchi guruhining ko'p komponentli polikristalli yarimo'tkazgichlari - AIIBVI, masalan, kadmiy tellurid (CdTe) [1], kadmiy sulfidi (CdS), rux sulfidi (ZnS), rux telluridi (ZnTe) va ko'p komponentli qotishmalar, masalan, ZnCdS [2,3], ZnCdTe [4]. CdTe va davriy jadvalning AIIBVI guruhining boshqa ko'p komponentli polikristalli yarimo'tkazgichlar to'g'ri optik o’tishli bo'lib, ularning ta’qiqlangan zonasi (E_g), 300 K da, 1,45 eV dan 3,6 eV gacha oraliqda joylashadi. Ularda yutish koeffisienti fundamental sohada yuqori qiymatlrga ega (10^5 sm^{-1}). Bu quyosh nurining asosiy qismini yutish uchun bir necha mikrometr qalinlikdagi qatlamning etarligigini bildiradi.

Polikristal p-tipli CdTe qatlamlari turli xil geterostrukturali foto sezgir qurilmalarda fotoaktiv qatlam sifatida ishlatiladi [5]. Biroq, fotosezgir strukturaning elektromagnit nurlanish spektrining ultrabinafsha va qisqa to'lqinli qismlarida samarali ishlashi uchun n-tipli frontal qismida ishlatiladigan buffer qatlami, CdTe ga nisbatan, keng ta’qiqlangan zonali yarim o'tkazgich materialidan tayyorlangan bo’lishi kerak. Odatda buning uchun Eg = 2,45±0,05 eV bo'lgan CdS qatlami iashlatiladi [1].

Natijalar, muhokamalar va xulosalar. Polikristall CdTe qatlami 100 mkm qalinlikdagi molibden (Mo) tagligining yuzasiga vodorod oqimida gaz tashish reaktsiyalari metodi orqali sintez qilib o’stirildi [1]. n-tipli CdS buffer qatlami vakuumli termal bug'lanish yo'li bilan o’stirildi va uning Eg = 2,45±0,05 eV [1]. n-tipli o'tkazuvchanlikka ega CdO qatlami argon va kislorod

atmosferasida Cd nishonining o’zgarmas tokda magnetron ionli uchirish orqali tayyorlandi, uning Eg = 2,70±0,05 eV ga ega edi [5]. CdS va CdS ustiga taroq shaklida matallik indiy (In) qatlami uchirilda va u yuza qismi uchun yig'uvchi elektr kontakti bo'lib xizmat qilsa, molibden taglik pastki yig’uvchi elektr kontakti bo'lib xizmat qiladi. CdS va CdO qatlamidan o'tadigan elektromagnit nurlanish kvantlari, CdTe fotoaktiv qatlamiga tushib, unda yutiladi, hamda elektron – kovak juftligini hosil qiladi, ular p-CdTe/n-CdS p-n o'tishida hosil bo'lgan ichki elektr maydoni yordamida ajratilib, yug’uvchi kontaktlarga uzatiladi. Foto sezgir tuzilmalarning tashqi kvant samaradorlgi, 300 K haroratda, PVmeasurements QEX10 QE/IPCE/SR ilmiy tadqiqot tizimida qayd etildi.

Natijalar va xulosalar. Eksperimental natijalar shuni ko'rsatadiki, n-CdS/p-CdTe va n-CdO/p-CdTe tuzilmalari uchun spektral sezgirlik oralig’i 500 nm dan 850 nm ni o’z ichiga oldi. Uzun to'lqin mintaqasidagi chiziqli kesim CdTe ning E_g = 1,45±0,05 eV qiymatini berdi. CdS (E_g = 2,45±0,05 eV) o'rniga CdO (E_g = 2,70±0,05 eV) ni bufer qatlami sifatida foydalanilganda, fotosezgirlik chegarasi qisqa to'lqinli hududga ≈ 480 nm dan ≈ 520 nm ga siljishini ko’rsatda. Bunday holda, tashqi kvant samaradorligi 630 nm to'lqin uzunligida maksimal darajaga etadi va 800 nm to'lqin uzunligigacha o'zgarmaydi, CdS/CdTe heterostrukturasida esa maksimalga 760 nm to'lqin uzunligida erishiladi va 820 nm gacha o'zgarishsiz qoladi. Kuzatilgan effektlar CdTe qatlamining fotoaktiv qismida muvozanatsiz zaryad tashuvchilarning fotogeneratsiyasining CdO/CdTe da CdS/CdTe nisbatan kuchayishi bilan bog'liq. Tashqi kvant chiqishidagi bu o'sish, shuningdek, o'rnatilgan oq yorug'lik AM1.5 bilan yoritilganda qisqa tutashuv toki va ochiq zanjir kuchlanishining oshishiga olib kelishini bildiradi.

Ishlatilgan adabiyotlar ro’yxati

1. R. R. Kabulov, and et.al. Injection Photodiode Based on an *n*-CdS/*p*-CdTe Heterostructure. Semiconductors // 2013, Vol. 47, No. 6, pp. 825–830. **DOI:** 10.1134/S106378261306016X.

2. Witsey.wp.txstate.edu/files/2018/Bandgapworkfn-Heavens-3.8.pdf.

3. Берченко Н.Н., и др. Полупроводниковые твердые растворы и их применение: Справочные таблицы. М.: Воениздат, 1982. 208 с.

4. S.M. Sze, K.Ng. Kwok. Physics of Semiconductor Devices”, 3rd ed., Hoboken-New Jersey: Wiley-Interscience Publication, 2007, p. 823.

5. R. R. Kabulov, et.al. Applied Solar Energy, 2023, Vol. 59, No. 2, pp. 118–124. © Allerton Press, Inc., 2023. **DOI:** 10.3103/S0003701X22601065

FinFET TRANZISTORLARI ISTOK (STOK) SOHALARI LEGIRLANISH KESIMI VA KANAL LEGIRLANISH DARAJASINING O‘Z-O‘ZINI QIZDIRISH EFFEKTIGA TA’SIRI

A. E. Atamuratov, B.O. Jabborova, M.M. Xalilloyev
Urganch davlat universiteti Fizika-matematika fakulteti, Xamid Olimjon ko‘chasi 14-uy, Urganch , 220100, Xorazm , O‘zbekiston.

Abstrakt: Ushbu ishda izolyator-ustida-kremniy struktura asosidagi FinFET tranzistori kanalining turli legirlanish darajasida va istok va stok sohalari turli legirlanish kesimining o‘z-o‘zini qizdirish effektiga ta'siri modellashtirish yordamida organilgan. Istok va stok sohalari legirlanishining birjinsli va analitik kesimilari ko‘rib chiqilgan. TCAD Sentaurus dasturida o‘z-o‘zini qizdirish effektini modellashtirishda termodinamik transport modelidan foydalanilgan. Modellashtirish natijalari o‘z-o‘zini qizdirish effekti kanal legirlanish darajasi hamda istok va stok sohalarining legirlanish kesimiga kirishma profiliga sezilarli darajada bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.


Kalit so‘zlar: FinFET, Legirlanish kesimi, birjinsli legirlanish kesimi, analitik legirlanish kesimi.

Kirish. Hozirgi kunda zatvor uzunligi 5 nm va undan kichik bo‘lgan metall-oksid-yarimo‘tkazgichli maydoniy (MOYa) tranzistorlarni olish bo‘yicha ishlar olib borilishiga qaramasdan [1], dunyodagi ko‘pchilik ishlab chiqaruvchilar hali ham 7-10 nm va undan yuqori o‘lchamdagi tranzsitorlarni ishlab chiqarishadi. Shu sababli bunday tranzistorlarni xarakteristika va undagi jarayonlarni o‘rganish hozir ham juda dolzarbdir [2]. Jumladan MOYa tranzistorlarda turli degradatsion, jumladan qisqa kanal effektlari va o‘z-o‘zini qizdirish effektlarini [3] o‘rganish nanoelektronikaning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Zatvor uzunligi 20-25 nm dan kichik bo‘lgan va qisqa kanal effektlariga yuqori immunitetga ega tranzistorlardan biri bu vertikal uch zatvorli maydoniy tranzistor (FinFET) [4] hisoblanadi. Ko‘pgina ishlarda FinFET tranzistorlarining geometrik parametrlarining, materiallarining va tuzilishining o‘z-o‘zini qizdirish effektiga ta’siri o‘rganilgan [5, 6]. Biroq, FinFET tranzistorlarda istok va stok sohalari legirlanish kesimining va kanal legirlanish darajasining degradatsiya effektlariga ta'sirlari hisobga olinmagan. Shuning uchun istok va stok sohalarida optimal legirlanish kesimi va kanalning legirlanish darajasi o‘z-o‘zini qizdirish effektiga qarshi immunitetni yaxshilash imkonini beradi. Ushbu ishda kanal haroratining yuqorida ko‘rsatilgan legirlanish kesimi va kanal legirlanish darajasiga bog‘liqligi o‘rganildi.


3D modellashtirishni amalga oshirish uchun TCAD Sentaurus dasturidan foydalanildi. Modellashtirishda bir biri bilan bog‘langan diffuzion-dreyf va termodinamik transport modellaridan foydalanildi. Tranzistorning TiN zatvori (G) uzunligi 10 nm, zatvor osti HfO_2 qatlami ekvivalent qalinligi t_{eff} = 1.2 nm. Orqa oksid qatlami SiO_2 kengligi W_{box} = 69.4 nm, va qalinligi 145 nm qilib olingan. Modellashtirishda tranzistor kanali kengligi W_{Si} = 22 nm va qalinligi T_{Si} = 9 nm qilib olingan. Istok va stok sohalari kirishma legirlanish kesimi birjinsli va analitik (1-rasm) bo‘lgan hollarda hamda kanal legirlanish darajasi 10^{15} - 10^{17} cm^{-3} oraliqda bo‘lgan holda transistor xarakteristikalari modellashtirilgan.

Modellashtirish natijalari shuni ko‘rsatadiki istok va stok sohalarining birjinsli va analitik kesimlarida ham kanal markazidagi harorat kanal legirlanish darajasi ortishi bilan monoton ravishda kamayishi kuzatildi (1-rasm). Ammo kanal legirlanish darajasining barcha qiymatlarida istok (stok) sohasining birjinsli legirlanish kesimida, analitik kesimga nisbatan

harorat yuqoriroq ekanligi kuzatiladi. Haroratning bunday bog‘lanishlarini tushuntirish maqsadida kanal markazidagi zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi baholab ko‘rildi (2-rasm). 2-rasmdan ko‘rinib turibdiki kanal legirlanish darajasi ortishi bilan kanaldagi zaryad tashuvchilar konsentrastiyasi kamayishiga olib keladi va legirlanish darajasining barcha qiymatlarida tashuvchilar konsentratsiyasi istok sohasining birjinsli legirlanish kesimida, analitik kesimga nisbatan yuqoriroq ekanligi nomoyon bo‘lib turibdi. Tashuvchilar konsentratsiyasi stok tokini va demak issiqlik generatsiyasi tezligini va kanal haroratini aniqlaydi.



1-rasm. Turli xil tranzistorlar uchun kanal markazidagi haroratining kanal legirlanish darajasiga bog‘liqligi.



2-rasm. Kanal markazidagi elektron kontsentratsiyasining turli tranzistorlar uchun kanal legirlanish darajasiga bog‘liqligi. V_{IS} =0,75V va V_Z =1,0 V

Olingan natijalar tahlil qilish orqali quidagi xulosalarni qilish mumkin. Istok va stok sohalari legirlanish kesimi FinFET da o‘z-o‘zini qizdirish effektiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu xususiyat istok (stok) legirlanish kesimi va kanal legirlanish darajasining kanaldagi zaryad tashuvchisi konsentratsiyasiga ta’siri bilan bog‘liq. Bundan tashqari o‘z-o‘zini qizdirish effekti istok va stok sohalarini birjinsli legirlanish kesimida yuqoriroq ekanligi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sunitha Bhukya, et al., Design optimization of junctionless bottom spacer tapered FinFET: Device to circuit level implementation, Microelectronics Journal, Volume 139, 2023, 105907, ISSN 0026-2692, https://doi.org/10.1016/j.mejo.2023.105907.

2. Kallolini Banerjee, Abhijit Biswas, Improved digital performance of charge plasma based junctionless C-FinFETs at 10 nm technology node and beyond, AEU - International Journal of Electronics and Communications, Volume 124, 2020, 153350, ISSN 1434-8411, https://doi.org/10.1016/j.aeue.2020.153350.

3. Abdikarimov, A.E., et al., The Effect of the Fin Shape and Thickness of the Buried Oxide on the DIBL Effect in an SOI FinFET. Technical Physics Letters, 2018, 44(11), p. 962–964.

4. Ferain I., et al., Multigate transistors as the future of classical metalo-xide-semiconductor field effect transistors. *Nature*, 2011, 479, P. 310–316.

5. L. Wang, et al., Impact of self-heating on the statistical variability in bulk and SOI FinFETs, IEEE Transactions on Electron Devices 62 (7) (2015) 2106–2112, https://doi.org/10.1109/TED.2015.2436351.

6. Atamuratov, A.E., et al., The Self-Heating Effect in Junctionless Fin Field-Effect Transistors Based on Silicon-on-Insulator Structures with Different Channel Shapesб Technical Physics Letters, 2021, 47(7), p. 542–545.

ELEKTRONNING ENERGETIK SATHI VA EFFEKTIV MASSASI ORASIDAGI BOG’LANISH


P.J. Baymatov, B.T. Abdulazizov, M.S. Tohirjonov, A.Sh. Bahodirov, A.A. O’rinov, A.O. Xoshimov

Namangan davlat universiteti, 161 Bobur shox ko’chasi, 160119 Namangan

Annotatsiya. Ikki barerli geterotuzilmalarda orasiga qo’shimcha nanoqatlam kiritilganda, kiritilgan qatlam qalinligining o’zgarishi bilan sathlarni to’lqinsimon chiziqlarining maksimum va minimum nuqtalarini alohida ajratish mumkin. Agar elektronning energiyasini hisoblashda noparabolik zona modelidan foydalanilsa, bu nuqtalar orasidagi farqlar ancha bosiladi.

Kalit so’zlar: Noparabolik model, kvant o’ra, nanoqatlam

AlAs/InGaAs geterotuzulma energetik sathlariga o’rtasiga kiritilgan InAs yupqa nanoqatlam ta’siri sezilarli darajada bo’lishi [1-3] ishlarda ko’rilgan. Parabolik zona modelida, kiritilgan nanoqatlam ta’sirida, sathlarni to’lqinsimon chiziqlarining maksimum va minimum nuqtalarini farqlarini yaqqol ko’rish mumkin. Agar zonaning noparabolikligi hisobga olinsa, bu nuqtalar orasidagi farq sezilarli darajada kamayar ekan.



1-Rasm. Effektiv massalar farqini energiyaga bog‘lanishi

Zonaning noparabolikligini hisobga olish uchun elektronni effektiv massalari m_1, m_2, m_3 ni energiyaga bog‘liqligini nazarda tutish kerak [4]

$$\begin{aligned} m_1(E) &= m_{n1}[1+(E-U_1)/E_{g1}] && AlAs \\ m_2(E) &= m_{n2}[1+E/E_{g2}] && InGaAs \\ m_3(E) &= m_{n3}[1+(E+U_2)/E_{g3}] && InAs \end{aligned} \qquad (1)$$

Bu yerda m_{n1}, m_{n2}, m_{n3} va E_{g1}, E_{g2}, E_{g3} - mos holda 1,2,3 qatlamlarda elektronni zona tubidagi effektiv massalari va taqiq zonasini kengligidir.

Zona noparabolikligi hisobiga elektronning barcha energiya sathlari parabolik model natijasiga nisbatan pastga siljiydi. Sath qancha yuqorida bo‘lsa,

shuncha ko‘proq siljiydi. To‘la energiya qatlamlardagi m_3 va m_2 effektiv massalar farqiga proporsional. Bu InAs qatlam qalinligi o‘zgarishidagi energiya sathi siljishini hamda [1-3] adabiyotlarda keltirilgan grafikdagi to‘lqinsimon chiziqlarni maksimumlari kattaligini belgilaydi

1-rasmda elektronni turli qatlamlardagi effektiv massalari farqini (1) formula yordamida chizilgan energiyaga bog‘lanishi grafigi keltirilgan. Rasmdan ko‘rinadiki, energiya orta borishi bilan bu farq monoton kamayuvchi ekan. Demak, zona noparabolikligi hisobiga [5] ishlarda keltirilgan grafikdagi to‘lqinsimon chiziqlarni maksimumlari kamayar (bosilar) ekan. Zona noparabolikligi sababli, maksimumlari kamayishi bilan bir vaqtda barcha energiya sathlar pastga siljir ekan.

Adabiyotlar

1. Broekaert, T. P. E., Lee, W., & Fonstad, C. G. (1988). Pseudomorphic $In_{0.53}Ga_{0.47}As$/AlAs/InAs resonant tunneling diodes with peak-to-valley current ratios of 30 at room temperature. Applied Physics Letters, **53(16),** 1545–1547. doi:10.1063/1.99951 (https://doi.org/10.1063/1.99951)

2. V.D. Dymnikov, O.V. Konstantinov, Fiz. Tekh.Poluprovodn. (St. Petersburg)29, 133, (1995) (Semiconductors 29, 70 1995).https://journals.ioffe.ru/articles/viewPDF/18062

3. В.В.Филиппов, А.А.Заваротний, С.В.Мицук. Энергетический спектр носителей заряда в структурах наноэлектроники, Липецк, ЛГПУ, 2012. с.46-53

4. D.F. Nelson, R.C. Miller, D.A. Kleinman, Band nonparabolicity effects in semiconductor quantum wells. Phys. Rev. B **14**, 7770–7773 (1987)

5. Paziljon Baymatov, Bakhrom Abdulazizov, Makhmudjon Tokhirjonov. Electron eigenvalues in quantum well of AlAs/$In_xGa_{1-x}As$/AlAs heterostructures with InAs nanoinserts. Eur. Phys. J. B(2023) 96:118 pp 1-7 https://doi.org/10.1140/epjb/s10051-023-00586-z

NANO O‘LCHAMLI YARIMO‘TKAZGICHLARNING MAGNITOOPTIK YUTULISH KOEFFISIENTINI ELEKTR O‘TKAZUVCHANLIGI OSSILYATSIYALARINI KUCHLI ELEKTROMAGNIT MAYDON VA HARORATGA BOG‘LIQLIGINI MODELLASHTIRISH

U.I. Erkaboev, N.A. Sayidov, J.I. Mirzayev, R.G’. Rahimov
NamMTI
E-mail: sayidovnozimjon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu kvant o‘lchamli strukturalarning katta e’tibor bilan o‘rganishiga asosiy sabab, bunday materiallarning fizik xususiyatlari bir qator qiziqarli ilmiy jarayonlarga ega bo‘lib, bu jarayonlarning turli xil tashqi omillar ta’sirida tubdan o‘zgarishlarini to‘liqroq tushunishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: geterostruktura, nanoo‘lcham, kvant o‘ra, holatlar zichligi, holatlar zichligi, ossillyatsiya, nanoo‘lcham, magnit maydon.

So'nggi yillarda, kvant o‘rali yarimo'tkazgichli strukturalarni o'rganishga qiziqish uni kichik o'lchamli diapazonda ishlaydigan nanotexnologik asboblar sifatida, shuningdek, turli xil spintronik qurilmalarda qo'llash imkoniyati bilan belgilanmoqda.

[1-2] ishlarda tajriba tadqiqotlari, ya`ni kvant o‘lchamli materiallarning elektr o‘tkazuvchanlik ossilyatsiyalarini kuchli elektromagnit maydon ta`sirini aniqlashda elektroparamagnit rezonans (EPR) o‘rnatish bo‘yicha o‘tkazilgan. Sababi, EPR usuli kvant o‘rali geterostrukturali materiallarning magneto qarshilik yoki elektr o‘tkazuvchanlik ossilyatsiyalarini tashqi maydonlarga bog‘liqligini aniqlash imkonini beradi. Bunda, kuchli elektromagnit maydon quvvatining maksimal kamayishi (dP) EPR ta`sirini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘lchashda elektromagnit to‘lqinining energiyasi tufayli energetik sathlar o‘rtasida (bir sathdan ikkinchi sathga) o‘tishlar hisobiga sodir bo‘ladi. Ya`ni, dP ning yo‘qolishlari elektromagnit to‘lqinining energiyasi kvanlovchi magnit maydondagi (H) erkin zaryad tashuvchilarini tezlashtirishlariga xizmat qiladi. Bu energetik sathlar Landau sathlari bo‘lib, ushbu sathlar soni magnit maydon kuchlanganligi (dH) ga bog‘liq. Har bir Landau diskret sathlarida EPR hodisasini kuzatish uchun dP ni orttirib borish kerak. Umuman olganda $\frac{dP^{2d}(H,T,d,E_E,N_L,n_z,)}{dH}$ nisbat kvant o‘lchovli yarimo‘tkazgichlarda EPR tajribalarini o‘tkazishida muhim ahamiyatga ega. Bu tajribalar nazariyasini, uning yangi modulini ishlab chiqishda formuladan foydalanish mumkin.


Kvant o‘rali geterostrukturalarda o‘ta yuqori chastotali elektromagnit maydonning elektr o‘tkazuvchanlik ossilyatsiyalari sezgirligini kuzatish maqsadida formuladan magnit maydon kuchlanganligi bo‘yicha birinchi tartibli hosila olinadi [3]. Natijada quyidagi formula:

$$\frac{dP^{2d}(H,T,d,E_E,N_L,n_Z)}{dH} = \frac{d\left[\frac{e^3B}{2\pi m^* c}\sqrt{\frac{2}{\pi G}}\frac{1}{2}\int_0^\infty \sum n_L \exp\left[-2\left(\frac{E-\left[\hbar\cdot\frac{eH}{m^*c}\left(n_L+\frac{1}{2}\right)+\frac{\pi^2\hbar^2}{2m^*d^2}n_Z^2\right]}{G}\right)^2\right]\gamma_\perp(k_0T)^\beta E^{\alpha+\frac{3}{2}}\left(\frac{\partial f_0(E,T)}{\partial E}\right)dE\right]}{dH}\cdot E_E^2 \quad (1)$$

Ushbu (1) formula yordamida o‘ta yuqori chastotali maydondagi kvant o‘rali geterostrukturalarning elektr o‘tkazuvchanlik ossilyatsiyalarini hisoblash mumkin. Agar, yanada kvant o‘raning har bir diskret Landau sathlaridagi mikroto‘lqinli maydon yutulishni yuqoriroq aniqlikda kuzatishga sabab tug‘ilsa, (1) dan magnit maydon kuchlanganligi bo‘yicha hosila olinadi [4-6]. Ya`ni:

$$\frac{d^2P^{2d}(H,T,d,E_E,N_L,n_Z)}{dH^2} = \frac{d^2\left[\frac{e^3B}{2\pi m^* c}\sqrt{\frac{2}{\pi G}}\frac{1}{2}\int_0^\infty \sum n_L \exp\left[-2\left(\frac{E-\left[\hbar\cdot\frac{eH}{m^*c}\left(n_L+\frac{1}{2}\right)+\frac{\pi^2\hbar^2}{2m^*d^2}n_Z^2\right]}{G}\right)^2\right]\gamma_\perp(k_0T)^\beta E^{\alpha+\frac{3}{2}}\left(\frac{\partial f_0(E,T)}{\partial E}\right)dE\right]}{dH^2}\cdot E_E^2 \quad (2)$$

(1) va (2) formulalar asosida yangi matematik model ishlab chiqildi. Bu yangi matematik model, albatta bir qator tajriba natijalarini tushuntirishga xizmat qiladi.



1-rasm. a) *InAs/GaSb* kvant o’rali yarimo’tkazgichlar uchun $\frac{dP}{dH}$ ni haroratga bog’liqligi [1]. b) Ushbu grafiklar taklif etilayotgan model (1) bo’yicha olingan [7]

Jumladan, 1-rasmda kvant o‘ra qalinligi d=8nm (*GaSb* uchun) kuchli magnit maydondagi mikroto‘lqinli yutulish koeffisitentini ($\frac{dP}{dH}$)ni haroratga bog‘liqligi ossilyatsiyalari keltirilgan. Bu ushbu tajriba natijalari EPR ustanovkasida harorat T=2.7K – 250K intervalida olingan. Magnit maydon kuchlanganligi vektori Z o‘qi bo‘ylab (H/Z) yo‘nalgan, bu yerda Z – kvant o‘ra qalinligi yo‘nalishiga to‘g‘ri keladi. Tajribada, kuchli mikroto‘lqinli elektr maydon kattaliklari quyidagicha olingan: mikroto‘lqin chastotasi $\nu = 9.35\,GGrts$, kvant energiyasi $E = \hbar\omega = \hbar 2\pi\nu = 0.04\,meV$, elektromagnit maydon quvvati P=1mVt [1]. Ushbu kattaliklar

yordamida elektromagnit maydonning elektr maydon kuchlanganligini hisoblash mumkin:

Ushbu tajribada keltirilgan fizik kattaliklardan foydalanib, nazariy tahlilni boshlaymiz. Taklif etilayotgan model yordamida ((1) formula asosida) *dP/dH* ni *1/H* ga bog‘liqligini aniqlash mumkin. Lekin, (1) formuladan ko‘ri ribdiki, ushbu tenglama transtendent bo‘lib, nazariy yo‘l bilan yechimini topib bo‘lmaydi. Buni, kompyuter dasturlari yordamida (Maple, Matchad, Matlab, Mathematika) va grafik usulida kerakli natijalarga erishiladi [7-8]. Matematik modelni dasturiy taminotini (Maple) yaratishda protsedura funksiyalardan foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кочман И.В., Михайлова М.П., Вейнгер А.И., Парфеньев Р.В. Магнитофононные осцилляции магнитосопротивления в квантовой яме InAs/GaSb с инвертированным зонным спектром // Физика и техника полупроводников, 2021, том 55, вып. 4, стр.313-318. http://dx.doi.org/10.21883/FTP.2021.04.50731.9569

2. А.И. Вейнгер, И.В. Кочман, Д.А. Фролов, В.И. Окулов, Т.Е. Говоркова, Л.Д. Паранчич. Микроволновое магнитопоглощение в HgSe с примесью Co и Ni // Физика и техника полупроводников, 2019, том 53, вып. 10. Стр.1413-1418. http://dx.doi.org/10.21883/FTP.2019.10.48299.9149

3. Erkaboev U.I., Rakhimov R.G., Sayidov N.A. Mathematical modeling determination coefficient of magneto-optikal absorption in semiconductors in presence of external pressure and temperature // *Modern Physics Letters B.* 2021. Vol.35, Iss.17, pp. 2150293-1-2150293-10. (№3, Scopus. IF: 1.9, Q3; https://www.scopus.com/sourceid/29055).

4. Erkaboev U.I., Negmatov U.M., Rakhimov R.G., Mirzaev J.I., Sayidov N.A. Influence of a quantizing magnetic field on the Fermi energy oscillations in two-dimensional semiconductors // *International Journal of Applied Science and Engineering.* 2022. Vol.19, Iss.2, pp. 2021123-1-2021123-8. (№3, Scopus. IF: 1.4, Q3; https://www.scopus.com/sourceid/21100822732).

5. Erkaboev U.I., Rakhimov R.G., Negmatov U.M., Sayidov N.A., Mirzaev J.I. Influence of a strong magnetic field on the temperature dependence of the two-dimensional combined density of states in *InGaN/GaN* quantum well heterostructures // *Romanian Journal of Physics.* 2023. Vol.68, Iss.5-6, pp.614-1-614-14. (№3, Scopus. IF: 1.5, Q2; https://www.scopus.com/sourceid/11500153309).

6. Erkaboev U.I., Rakhimov R.G., Mirzaev J.I., Negmatov U.M., Sayidov N.A. Influence of a magnetic field and temperature on the oscillations of the combined density of states in two-dimensional semiconductor materials // *Indian Journal of Physics.* 2024. Vol.98, pp.189-197. (№3, Scopus. IF: 2.0, Q3; https://www.scopus.com/sourceid/145208).

7. Gulyamov G., Erkaboev U.I., Rakhimov R.G., Mirzaev J.I., Sayidov N.A. Determination of the dependence of the two-dimensional combined density of states on external factors in quantum-dimensional heterostructures // *Modern Physics Letters B.* 2023. Vol.37, No.10, pp.2350015-1-2350015-14. (№3, Scopus. IF: 1.9, Q3; https://www.scopus.com/sourceid/29055).

8. Erkaboev U.I., Rakhimov R.G., Mirzaev J.I., Sayidov N.A., Negmatov U.M., Mashrapov A. Determination of the band gap of heterostructural materials with quantum wells at strong magnetic field and high temperature // *AIP Conference Proceedings.* 2023. Vol.2789, Iss.1, pp.040056-1-040056-7. (№3, Scopus. IF: 0.5, Q4;https://www.scopus.com/sourceid/26917).

Nanoiplarda Energiya Satxlari va To’lqin Funksiyalari

A. Davlatov, D. O’rinboyev, R. Muxiddinov
[1]Namangan davlat universiteti.
[2]Namangan muhandislik-texnologiya instituti. E-mail: litsey111213@gmail.com

Annotatsiya: Bu ishda asosi muntazam n-burchak bo’lgan InAs nanoiplarida energiya satxlari va to’lqin funksiyalari aniqlangan. Asosi muntazam uchburchak, to’rtburchak, beshburchak, oltiburchak va doira bo’lgan nanoiplarda energiya satxlarini ko’ndalang kesim yuzalariga bog’liqlik qonuniyatlari topilgan. WOLFRAM MATHEMATIC 14 dasturidan foydalanib asosi muntazam ixtiyoriy n −burchak bo’lgan nanoiplarida energiya satxlari va to’lqin funksiyalari aniqlash imkonini beruvchi dastur tuzilgan. Har-bir energiya satxi uchun mos keluvchi to’lqin funksiya 2D grafik ko’rinishida tasvirlangan.


Kalit so’zlar: nanoip, energiya satxi, to’lqin funksiya, potensial o’ra, yarimo’tkazgich, chekli orttirmalar usuli.

Hozirgi kunda dunyo miqiyosida kichik o‘lchamli kvant ip, kvant nuqta va kvant qatlamlarni tadqiq etish dolzarb hisoblanib kelmoqda. Yarimo’tkazgichli nanoiplarda tok tashuvchilar energiya satxlari va to’lqin funksiyalarni aniqlash nanoelektronika fanining muhim muammosi bo’lib kelgan. Nanoo‘lchamli tuzilmalar fizikasi yangi avlod yarimo‘tkazgichli asboblar yaratilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki yarimo’tkazgichli nanoiplar asosida lazerlar, yorug‘lik diodlari, maydon-effektli tranzistorlar, fotodetektorlar va quyosh elementlari ishlab chiqilmoqda. Ularni tushunish, ishlab chiqarish va nazorat qilish ko’p jihatdan ushbu qurilmalarda harakatlanadigan elektronlar, teshiklar va boshqa tok tashuvchilarning energiyasini aniq bilish bilan bog’liqdir. [1] ishda yarimo‘tkazgichli InP nanoipining uzunligi va radiusi orasidagi bog‘lanishlar chuqur tahlil qilingan va bog‘lanish grafiklari olingan. Bundan ko‘rinadiki nanoipning uzunligi uning ko’ndalang o’lchamidan juda ko‘p marta katta bo‘ladi. Shuning uchun nanoiplarga oid masalalarni bir o‘lchovli masala sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Nanozarrachalarni biror maydondagi harakati-kvant mexanikasi orqali bayon qilinib, Shredinger tenglamasini yechib topiladi. InP/InAs/InP geterotuzilmali nanoiplarda elektronlar energiyasini hisoblashda cheksiz va chekli chuqur potensial o‘ra modellarini ko‘rib chiqilgan [2]. Asosi muntazam to’g’ri to’rtburchakli va doiraviy shaklda bo’lgan nanoiplarda energiya sathlari hisoblangan[3, 4]. Asosi muntazam to‘rtburchak va doira shaklida bo’lgan yarimo’tkazgichli nanoiplarda energiya satxlarini aniqlash uchun ishlarda Shredinger tenglamasi chekli orttirmalar usuli yordamida yechilgan [5]. Lekin asosi muntazam $n-$burchak shaklida bo’lgan yarimo’tkazgichli nanoiplarda tok tashuvchilar energiya satxlari va to’lqin funksiyalari aniqlanmagan.


Asosi muntazam, qabariq $n-$burchak bo’lgan nanoiplarda energiya satxlari tekshirish uchun asosi uchburchakli, to’rtburchakli, beshburchakli, oltiburchakli va doiraviy shaklda bo’lgan hollarni ko’rib chiqildi. Ko’pburchak asosining ko’ndalang kesim yuzasi $36\,nm^2$ bo’lganda:

- uchburchakli nanoipda energiya satxi doiraliga nisbatan 24,8 %;
- to’rtburchakli nanoipda energiya satxi doiraliga nisbatan 8,2 %;
- beshburchakli nanoipda energiya satxi doiraliga nisbatan 3,7 %;
- oltiburchakli nanoipda energiya satxi doiraliga nisbatan 1,8 %;


farqlarni ko’rishimiz mumkin. Bunda n qancha katta bo’lsa, energiya satxlari kichiklashadi va doiraga yaqinlashishini kuzatishimiz mumkin. Nanoipning ko’ndalang kesim yuzalari ortganda energiya satxlari kamayib boradi va muntazam ko’pburchaklarda energiya satxlari bir biriga yaqinlashadi, juda katta yuzalarda deyarli tenglashadi.




1-rasm. Muntazam, qabariq ko’pyoq tomoni uzunligi va tashqi chizilgan aylana radiusi orasidagi munosabat uchun.



2-rasm. Asosi muntazam, qabariq ko’pyoq bo’lgan nanoiplarda (1,1) energiya satxini ko’ndalang kesim yuzasiga bog’liqligi



3-rasm. Asosi muntazam, qabariq ko’pyoq bo’lgan nanoiplarda (1,2) energiya satxini ko’ndalang kesim yuzasiga bog’liqligi



4-rasm. Asosi muntazam, qabariq ko’pyoq bo’lgan nanoiplarda (2,2) energiya satxini ko’ndalang kesim yuzasiga bog’liqligi

5-rasmda asosi muntazam qabariq uchburchakli, to’rtburchakli, beshburchakli, oltiburchakli va doiraviy shaklda bo’lgan nanoiplarda to’lqin funksiyalarni birinchi uchta satx uchun 2D tasviri keltirilgan. Muntazam ko’pburchak ichki burchagi kichik bo’lgan hollarda to’lqin funksiya uchlik joylarda juda kichik va markazlarda katta qiymatlarda bo’ladi. n −burchak ortib borganda to’lqin funksiyalar silliqlashib boradi va doira beradigan natijaga yaqinlashib borishini ko’rishimiz mumkin.

Asosi muntazam, qabariq n −burchak bo’lgan InAs nanoiplarda energiya satxlari va to’lqin funksiyalarini aniqlash jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

ixtiyoriy asosi muntazam qabariq n −burchak bo’lgan nanoiplarda ko’ndalang kesimning ortishi energiya satxlarini kamayishiga olib keladi;


nanoip ko’ndalang kesimi uchburchakli bo’lganda eng katta va doira bo’lganda eng kichik energiya satxlari hosil bo’ladi;

n −qancha katta bo’lsa, energiya satxlari asosi doirali nanoipdagi energiya satxiga yaqinlashadi;

juda katta yuzalarda nanoip asosi shakli deyarli ahamiyatini yo’qotadi;

muntazam ko’pburchak ichki burchagi kichik bo’lgan hollarda to’lqin funksiya uchlik joylarda juda kichik va markazlarda katta qiymatlarda bo’ladi;

n –burchak ortib borganda to’lqin funksiyalar silliqlashib boradi va doira beradigan natijaga yaqinlashib borishini ko’rishimiz mumkin.



5-rasm. Asosi muntazam qabariq uchburchakli, to’rtburchakli, beshburchakli, oltiburchakli va doiraviy shaklda bo’lgan nanoiplarda to’lqin funksiyalarni 2D tasviri.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qian Gao, Vladimir G. Dubrovskii, Philippe Caroff, Jennifer Wong-Leung, Li Li, Yanan Guo, Lan Fu, Hark Hoe Tan, and Chennupati Jagadish. Simultaneous Selective-Area and Vapor–Liquid–Solid Growth of InP Nanowire Arrays. Nano Letters (2016) 16 (7), 4361-4367.

2. Bouazra A., Abdi-Ben Nasrallah S., Poncet A., Bouazra Y., Said M. Numerical simulation of coupling effect on electronic states in quantum wires. The European Physical Journal B, (2009). 67(2), 245–250.

3. G. Gulyamov, A. Gulyamov, A. Davlatov, B. Shahobiddinov. Electron energy in rectangular and cylindrical quantum wires. Journal of Nano-and Electronic Physics. (2020) 12, 04023.

4. Gulyamov, G., Gulyamov, A. G., Davlatov, A. B., Juraev, Kh. N., Energy Levels in Nanowires and Nanorods with a Finite Potential Well, Advances in Condensed Matter Physics, (2020), 4945080, 2020.

5. Gulyamov, G. and Davlatov, A. B. and Inoyatov, S. T. and Makhmudov, S. A. Calculation of the energy levels and wave functions of electrons in nanowires by the shooting method. Journal of Applied Science and Engineering. (2021). 25(1), 31-36.

ВЛИЯНИЕ ГАММА-ОБЛУЧЕНИЯ НА ФОТОЛЮМИНЕСЦЕНТНЫЕ СВОЙСТВА ПЛАСТИКОВОГО СЦИНТИЛЛЯТОРА UPS-923A

И.Нуритдинов, З.У.Эсанов, Ш.Ирисов

Институт ядерной физики Академии наук Узбекистана, ул. Хуросон 1, пос. Улугбек, Ташкент, 100214

*E-mail: izzatilloh@yahoo.com,

Аннотация. Исследовано влияние γ-излучения на люминесцентные свойства (ФЛ) образцов с полистирольной (PS) основой и добавками pTP и POPOP. Обнаружено уменьшение интенсивности ФЛ облученных образцов в областях 300−380 нм и 380−500 нм, что обусловлена деградацией структуры ароматического бензольного кольца в матрице полимерной основы и деструкцией добавок.

Ключевые слова. γ-облучение, температура, фотолюминесценция, полистироль, pTP, POPOP, ароматическое бензольное кольцо.

Полимерные сцинтилляторы (ПС) широко используются в ускорителях заряженных частиц для детектирования субъядерных частиц благодаря высокой чувствительности [1,2]. Целью данной работы является исследование влияния γ-облучения на фотолюминесценцию (ФЛ) образцов UPS-923A. Образцы облучались γ-лучами источника ^{60}Co в пределах дозы 10^5-10^7 рад. Облучения проводились при температурах 310К и при 273,15К. Измерения ФЛ проведены на флуоресцентном спектрофотометре Cary Eclipse в спектральной области 190-1100 nm, при температуре 300К.

На рис. 1 приведены спектры ФЛ образцов после γ-облучения дозами 10^5 и 10^7 рад, при температурах 273,15 и 310 К. В спектрах ФЛ в диапазоне 300-380 нм и 380-500 нм наблюдаются группы свечений (рис.1 a,b), относящийся к флуоресценции люминесцирующие добавки (ЛД) 2% птерфенилом $C_{18}H_{14}$ (pTP) и спектр смещающей добавки 0,03 % дифенилоксазолилбензолом $C_{24}H_{16}N_2O$ (POPOP) соответственно [2,9]. При облучении образцов γ-лучами до 10^6 рад интенсивность полосы в области 300-380 нм увеличивалась, а интенсивность полосы 380-500 нм уменьшалась. С повышением дозы γ-облучения ($\geq 10^6$ рад) интенсивности обоих групп люминесценции уменьшаются, что может быть обусловлена деградацией структуры ароматического бензольного кольца в матрице полимерной основы и деструкцией структуры добавок.

Для выяснения основной причины таких изменений образцы подвергали γ-излучению при температуре 273 К. Проведение измерений при температуре 273 К позволяет минимизировать тепловые эффекты, которые могут влиять на поведение люминесценции, что даёт более реальные данные о влияния радиации и температуры канала облучения. Из сопоставления спектров ФЛ облученных при разных температурах было

выявлено, что изменения интенсивностей ФЛ более ощутимо при облучении температуре канала. А при температуре 273К эти изменения не чувствительные (см.рис.1. а,б). Это указывает на то, что на изменения интенсивностей ФЛ в области 300-380 нм 380-500 нм, обусловлено влиянием γ-радиации и температуры канала. Облучение при температурах 273 К изменения в интенсивностях ФЛ не наблюдаются. Это также косвенно показывает, изменения обусловленные с температурой канала в процессе облучения.




Рис. 1. Спектры ФЛ, возбужденные на полосе 300, исходного (1) и γ-облученного дозами 5x10^5 Рад (2) 10^7 Рад (3) 10^8 Рад(4) образцов UPS - 923A, при температурах 310(a) и 273 (b)К.

Литература

1. Knoll G. F. Radiation detection and measurement. – John Wiley & Sons, Michigan, 1999. pp. 220–222.

2. Kharzheev Y. N. Radiation hardness of scintillation detectors based on organic plastic scintillators and optical fibers //Physics of Particles and Nuclei. – 2019. – Т. 50. – С. 42-76.

3. Ирисов Ш., Нуритдинов И., Саидахмедов К.Х., Эсанов З.У., Юлдашев Б.С. Спектрально-люминесцентные характеристики органических сцинтилляторов UPS-923A после воздействия ионизирующего излучения // Доклады Российской академии наук. Физика, технические науки. - 2024. - Т. 514. - №1. - С. 14-19.

4. Afanasiev S. V. et al. Optical characteristics of polymer scintillators irradiated with gamma-rays //Optics and Spectroscopy. – 2020. – Т. 128. – №. 9. – С. 1249-1253.

ВЛИЯНИЕ ГАММА И НЕЙТРОННОГО ОБЛУЧЕНИЯ НА СПЕКТРАЛЬНО-ЛЮМИНЕСЦЕНТНЫЕ СВОЙСТВА КРИСТАЛЛОВ Y_2SiO_5: Eu^{3+}

И.Нуритдинов, З.У.Эсанов, Х.М.Мажидов
Институт ядерной физики АН Республики Узбекистан, г.Ташкент
izzatilloh@yahoo.com,

Исследованы спектры поглощения, облученные γ-лучами и нейтронами кристаллов Y_2SiO_5:Eu. После облучения обнаружено, что в кристаллах YSO: Eu возникают структурные дефекты и изменения валентности ионов Eu.

Ключевые слова: кристаллы, γ-лучи, облучение, поглощение, вакансия кислорода.

Кристалл Y_2SiO_5, легированный Eu^{3+} (YSO:Eu^{3+}), широко используются как превосходный материал с оптической памятью [1]. Целью данной работы является исследование влияния γ и нейтронного облучения на оптическое свойства т.е. спектры поглощения (СП) и фотолюминесценцию (ФЛ) образцов YSO: Eu^{3+}.

Образцы облучались гамма-лучами до дозы 10^8 рад и нейтронами флюенсами 10^{15}-10^{18} н/см^2. Измерения ФЛ проведены на Флуоресцентном спектрофотометре Cary Eclipse в спектральной области 190-1100 нм. Спектры оптического поглощения снимались на спектрофотометре «Лямбда 35» фирмы Перкин Элмер.

На рис. 1 приведены СП кристаллов YSO:Eu, где наблюдаются полосы поглощения (ПП) в УФ-области спектра с максимумом при 230 нм. После γ и нейтронного облучения обнаруживаются наведенные ПП с максимумами при 280, 330, 390 и 430-460 нм (рис. 1.а). Эти ПП хорошо видны на разностных спектрах поглощения облученного и исходного образцов (см. рис. 1.б). Следует отметить, что с увеличением дозы облучения, наблюдаемые эффекты усиливаются. В предыдущих работах [2] показано, что полосы 280, 390 нм обусловлены ионами Eu^{2+}, а полоса 300 нм принадлежит F-центру.




Рис. 1.СП исходного (1) и γ-лучами дозой 8x10^7 рад (2) и облученного нейтроннами 10^{17}см$^{-2}$ (3) образцов YSO-Eu (a); разностные спектры (b) для 2 и 1 (4), 3 и 1(5);

В спектре люминесценции кристаллов YSO:Eu (рис. 2) наблюдается серия полос примесной люминесценции. На ПП ионов Eu^{3+} возбуждаются

полосы ФЛ с максимумам 250 нм (рис.2). После облучения в спектрах ФЛ происходят некоторые изменения: наблюдается перераспределение интенсивности свечении отдельных линий ионов Eu^{3+} (рис.2, а). В разностных спектрах ФЛ, облученных и исходных образцов эти изменения явно наблюдаются, особенно в области спектра 600-620 нм.

С учетом того, что аналогичные явления наблюдались и в других семейств силикатов [2], то можно предполагать, что для кристаллов YSO:Eu, увеличение интенсивности поглощения ионов Eu^{3+}, при облучения, то изменения интенсивностей можно объяснить следующей реакцией которое наблюдалось выше отмеченной работе:

$$O^{2-} + 2Eu^{3+} + t \rightarrow O^{o}\uparrow + 2Eu^{2+}$$

Так как при соответствующих условиях выращивания образцов YSO:Eu, часть активаторов Eu находиться в состоянии Eu^{3+}. При облучении кристаллов, происходят валентные изменения, образуются вакансия кислорода приводящие к координационным изменениям Eu1→Eu2 центров.




Рис. 2.Спектры ФЛ, возбужденные на полосе 250 исходного (1), нейтронно облученного с флюенсом 10^{17} н/см^2 (2), и разность спектров облученного и исходного образца (3)

Таким образом:

Экспериментально показано, что при облучения кристаллов YSO:Eu происходит увеличение число ионов Eu^{2+}, обусловленное уменьшением количества трехвалентных ионов Eu за счет перехода $Eu^{3+} \rightarrow Eu^{2+}$, и увеличение Eu2 центров.

Литература

1.Macfarlane R. M. et al. Journal of luminescence. – 2004. – Т. 107. – №. 1-4. – С. 310-313.
2. Pang H. et al. Journal of crystal growth. – 2006. – Т. 286. – №. 1. – С. 126-130.

Unraveling the Effects of Non-Parabolicity on Electron Energy Levels in InP/InAs/InP Heterostructures

A. Davlatov[1*], G. Gulyamov[2], E. Feddi[3], A. Abdukarimov[1]

[1]Namangan State University, 316 Uychi Street, Namangan 716019, Uzbekistan.

[2]Namangan Institute of Engineering and Construction, 12 Islam Karimov Street, Namangan 160103, Uzbekistan.

[3]Institute of Applied Physics, Mohammed VI Polytechnic University, Lot 660, Hay Moulay Rachid Ben Guerir, 43150, Morocco. *Corresponding author: litsey111213@gmail.com

Abstract: In this research, electron energy levels were calculated analytically using Nelson's formula, the shooting method, and Garrett's formula for effective mass. These calculations were performed for a rectangular finite deep potential well, focusing on the InP/InAs/InP heterostructure, which is a narrow-bandgap semiconductor system. The transcendental equation for the energy levels is linearized, yielding a fourth-order equation that provides results within 98% accuracy compared to the original equation. These findings contribute to the understanding of the energy distribution in InP/InAs/InP heterostructures with a view to their application in optoelectronic devices such as lasers, light-emitting diodes.

Keywords: Quantum Heterostructure, nonparabolicity, effective mass, Shooting method, Garrett’s approximation.

The rapid advancement of semiconductor technology has led to the development of novel heterostructures, such as quantum wells, wires, and dots, which have garnered significant interest due to their unique properties and potential applications in cutting-edge optoelectronic devices[1,2]. However, the accuracy and applicability of these methods are influenced by the specific heterostructure under investigation and the assumptions made regarding the effective mass and dispersion relation of the charge carriers. In narrow-bandgap semiconductors, the conduction band exhibits significant nonparabolicity, which greatly affects the electron energy levels and challenges the validity of the commonly used parabolic approximation [3]. The Kane model [3] and the Nelson model [4] have been widely used to describe the non-parabolic dispersion in these materials. Additionally, the effective mass of charge carriers varies across the different layers of the heterostructure, resulting in a discontinuity at the interfaces [5, 6]. To account for this discontinuity when solving the Schrödinger equation, the BenDaniel-Duke boundary condition [5, 6] is often employed. Previous studies have explored the electron energy levels in various heterostructures using different approaches. Barsan and Ciornei [7] provided approximate analytical results for semiconductor quantum wells considering the BenDaniel-Duke boundary conditions. However, a comprehensive analysis of the electron energy levels in the InP/InAs/InP heterostructure, taking into account the non-parabolicity of the dispersion and the effective mass discontinuity, is still lacking.

Analytical Method. The movement of nanoparticles in a field is described by quantum mechanics by solving the Schrödinger equation. The Schrodinger equation

with position-dependent mass is in the one-electron approximation in the three-dimensional case in Cartesian coordinates has the form:

Conclusion We focused on the non-linear effect of electrodynamics and the electric charge together with BH spin on various BH properties. The rotating BH metric is obtained by incorporating modified NJA. The real and imaginary parts of quasinormal modes have been studied related to the radius of the photon sphere for the static BH. The horizon radius is investigated for the rotating BH in terms of spin a. To study the shadows, we incorporated the HJ formalism, and by using Bardeen’s method for an observer located at infinity, we obtained the effective potential, shadows, and distortion. We also estimated parameters using the shadow area and oblateness. The shadows are compared with the EHT observations for supermassive BHs Sgr A* and M87*, and constraints on BH parameters are obtained. Lastly, the rate of energy emissions is discussed. The results presented in previous sections are summarized below:

- The angular velocity associated with quasinormal modes increases with an increase in q. For a small value of q, the angular velocity remains constant with respect to b. When the value of q is increased, the angular velocity increases rapidly and then gradually becomes constant with respect to b. A very similar behavior of the Lyapunov exponent has been observed.

- The event horizon of the BH decreases with an increase in spin up to its extremal value. Moreover, with respect to b and q, the event horizon also decreases. However, the decrease with respect to b is prominent for larger values of q.

- The effective potential determines the unstable circular null orbits. The unstable circular null orbits are found to shrink with increasing b, q, and a. • The shadows also follow the behavior of unstable circular null orbits. That is, the shadow size decreases with respect to increases in b and q. However, for a small value of q, the shadow size is almost constant with respect to b. The shadows shift towards the right as we increase a and the maximum flatness is seen for extremal a.

References

[1] H. Reissner, Ann. Phys. 355 (9) (1916) 106–120.

[2] G. Nordström, Proc. Kon. Ned. Akad. Wet. 20 (1918) 1238–1245.

[3] J. Bardeen, in: C. DeWitt, B. DeWitt (Eds.), Proceedings of GR5, Gordon and Breach, Tbilisi, USSR, 1968, p. 174.

[4] E. Ayón-Beato, A. García, Phys. Rev. Lett. 80 (1998) 5056–5059, arXiv:grqc/9911046.

V SHO‘BA

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish muammolari, istiqbolli yechimlar, innovatsion texnologiyalar

Проблемы использования возобновляемых источников энергии, перспективные решения, инно-вационные технологии

Problems of using renewable yenergy sources, promising solutions, innovative technologies

QURUQ IQLIM SHAROITLARIDA FOTOISSIQLIK BATAREYALARDAN YER RELYEFINING NOTEKIS JOYLARINI TOMCHILATIB SUG‘ORISHDA FOYDALANISH

M. N. Tursunov, X. Sabirov, U. M. Nasimov
O‘z. Res. FA, FTI
+998 90 454 40 87.

Annotatsiya. Ushbu tezisda quruq iqlim sharoitlarida fotoissiqlik batareya (FIB) dan yer relyefining notekis joylarini (qirliklarni) tomchilatib sug‘orish sistemasini energiya bilan ta’minlash masalasi o‘rganilgan. FIB 150W quvvatga ega fotoelektrik batareya (FEB) asosida tayyorlangan. FIB ning orqa qismiga FEB ni sovitish uchun kollektor o‘rnatilgan. Kollektordan suv o‘tishi hisobiga FIB soviydi va uning salt yurish kuchlanishi tashqi ta’sir tufayli kamayishini oldi olingan.

Kalit so‘zlar: fotoissiqlik batareya (FIB), fotoelektrik batareya (FEB), fotoissiqlik qurilma (FIQ), qirliklar, suv idishi, kollektor.

Kirish. Yildan yilga suv taqchilligi ortishi esa istiqbolda oziq-ovqat mahsulotlari narxi qimmatlashishiga va ishsizlik ko‘rsatkichlari ortishiga olib keladi. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo suv resurslari eng ko‘p miqdorda isrof qilinadigan mintaqalardan birihamdir. Xususan, birgina O‘zbekistonni olsak, suvni iste’molchilarga yetkazish vaqtida (o‘ta eskirgan va chirigan infratuzilma sababli sug‘orish tizimlaridagi yo‘qotishlar 35-40% ni tashkil qiladi) va iste’mol jarayonida ham (sug‘oriladigan yerlarning faqat 3-5% da suv tejovchi texnologiyalar tatbiq etilgan) bu jarayonni yaqqol kuzatish mumkin [1].

Bugungi kunda respublikada qishloq xo‘jaligini suv bilan taminlashga bo‘lgan talab oshib bormoqda. Shu bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi quruq iqlim mamlakati hisoblanib, katta qismi cho‘l va yarim cho‘l hududlarini tashkil qiladi. Intensiv sug‘oriladigan hududlar esa 4,3 mln. gektarni tashkil etadi. Yerdan foydalanish bo‘yicha islohotlar asosan qishloq xo‘jaligida sug‘oriladigan yerlarga ko‘proq yo‘naltirilib, uning maydoni jami hududning 9,7% ga yaqinini egallaydi [1]. Oziq-ovqat va suv muommosini inobatga olib respublikamizning ko‘plab foydalanilmay yotgan relfi notekis va suvsiz yerlarda tomchilatib sug‘orish sistemalarini joriy etishni maqsad qildik. Prezidentimiz tomonidan 2020-yil, 11-dekabrda qabul qilingan “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4919-son qarorida ta’kidlanganidek, tobora kuchayib borayotgan suv taqchilligi hamda suv resurslariga bo‘lgan ehtiyoj o‘sib borayotgani qishloq xo‘jaligida suvdan foydalanish samaradorligini keskin oshirishni talab etmoqda.

Biz taklif etayotgan metod bilan an’anaviy energiya bilan ta’minlanmagan va notekis relyefli yerdalardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Tajriba qurilmasi va o‘rganilayotgan obyekt. Tajriba sinovlarni o‘tkazish uchun Fizika-texnika instituti geliopoligonida gorizontga nisbatan qiyaligi 45^0 bo‘lgan $100m^2$ yer tanlab olindi. Bu $100m^2$ yerda 16 tub mevali daraxt bo‘lib, shu daraxtlarni tomchilab sug‘orishda FIB dan foydalanildi [2].



1-rasm. Tanlab olingan $100m^2$ bo‘lgan qiyalik yer maydonining past tomondan ko‘rinishi**.**



2-rasm. Tanlab olingan $100m^2$ bo‘lgan qiyalik yer maydonining yuqori tomondan ko‘rinishi**.**

1 va 2-rasmlarda 16 tup mevali daraxt va tomchilatib sug‘orish sistemasi keltirilgan. Tomchilatib sug‘orish sistemasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: 1) Tomizgichli shlang suvni tarqatish quvuridan ekin ildizigacha (o‘simlik ehtiyojiga mos ravishda) yetkazib berish uchun xizmat qiladi. 2) Tomchilatib sug‘orish tizimining tomizgichlari tizim quvurlaridagi suv bosimni pasaytirib, suvni shlangdan tomchi ko‘rinishida chiqarish uchun xizmat qiladi. 3) 250W quvvatli suv nasosi. 4) 300W gacha quvvat beradigan FIQ.

Xulosa: Ushbu ishda quruq iqlim sharoitlarida relfi notekis yerlarni tomchilatib sug‘orish orqali o‘zlashtirish va oziq-ovqat muommosinga yechim toppish yo‘llari yoritilgan. Suv nasosini elektr energiya bilan taminlashda FEB dan ko‘ra FIB dan foydalanish bir muncha foydaliroq ekanligi aniqlandi. Keyingi ilmiy ishlanishlarda tomchilatib sug‘orish tizimlarini chuqurroq tahlil qilish maqsad qilindi.

Adabiyotlar

[1]. M.Xamidov, B.Suvanov, K.Isabaev. “SUG‘ORISH MELIORATSIYASI” o’quv qo’llanma. C. 148. Toshkent. 2019.

[2]. М.Н. Турсунов, Х. Сабиров, Ю.Р. Холов, М. Эшматов. Исследование параметров фототермических батарей в экстремальных природных условиях. Гелиотехника.Т. 57. №4. С. 354-361. 2021.

УДК 621.311

УСТАНОВКИ ПОЛУЧЕНИЯ ПИТЬЕВОЙ ВОДЫ ИЗ МИНЕРАЛИЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СОЛНЕЧНОЙ ЭНЕРГИИ

М.Н. Турсунов[1] , Х. Сабиров[2] , Т.З. Ахтамов[1], Ш. Абриев[1], Ж.А. Жабборов[2]
[1]Ан. РУз. ФТИ, [2]ТГТУ
+998 99 938 02 70

Аннотация. В результате глобального изменения климата площадь ледников в высокогорьях Центральной Азии за последние 50-60 лет сократилась примерно на 30%. Дефицит водных ресурсов увеличивается с каждым годом в государствах Центральной Азии из-за изменения климата, роста населения, быстрого развития различных отраслей экономики и растущей потребности в воде.

Ключевые слова: солнечных элементов, кристаллического кремния, тепловом коллекторе, опреснения минерализованной воды.

В данной статье приводится результаты разработки новой технологии опреснения минерализованной воды и установки теплового преобразования слабо концентрированного солнечного излучения (СИ) для нагрева и опреснения воды. Производительность установки опреснения воды существенно зависить от эффективности преобразования солнечной энергии в тепловом коллекторе (ТК). Поэтому необходимо достижения полного поглощения падающей на поверхность ТК солнечной энергии и минимизации потери тепловой энергии из ТК. В ТК установки опреснения воды для полного поглощения СИ использованы структуры солнечных элементов (СЭ) из кристаллического кремния [1]. Дно теплового коллектора из нержавеющей стали (или алюминия) толщиной 1мм покрывают структуры высокоэффективных СЭ из кристаллического кремния. Структуры СЭ из кристаллического кремния практически полностью поглощают, падающей на них СИ. К тому же для увеличения интенсивности СИ, падающего на поверхность ТК и интенсификации процесса теплового преобразования солнечного излучения, падающий на поверхность ТК интенсивность СИ увеличивается до 2000Вт/м^2, с использованием боковых рефлекторов с площадью равной площади коллектора. Коэффициент отражения излучения поверхности рефлекторов составляет ~ 0,5.

Конструкция ТК состоит из двух частей, верхней и нижней в форме коробки. Верхная часть устройства имеет четырехугольную форму и предназначен для получения очищенной воды. С фронтальной стороны (сверху) коробка закрыта каленым стеклом толщиной 3-4мм. Потери СИ при прохождении стекла составляет 4-5%. Коробка изготовлена из

нержавеющей стали толщиной 0,5-1мм с установленными на нижней плоскости структур СЭ на основе кристаллического кремния (без фронтальных сетчатых коммутированных токосъемныхов контактов) для эффективного поглощения СИ. Лицевая сторона кремниевых СЭ покрыта просветляющим покрытием из нитрида кремния. Изготовлены ТК с разными расстояниями между стеклом и структур СЭ от 10 до 22см с целью определения оптимального расстояния при получении чистой воды с максимальной производительностью. На основе проведенных экспериментов произведена нами оценка оптимального расстояния (толщины воды) между верхней (стекло) и поверхности структур СЭ. В зависимости от интенсивности падающего на фронтальную поверхность теплового коллектора солнечного излучения оптимальная толщина воды составляет 8-12мм.

Литература

1. М.Н. Турсунов, Ҳ. Сабиров, Т.З. Ахтамов. Қуёш энергияси ёрдамида шўр сувни ичимлик сувига айлантириш қурилмаси. "Irrigatsiya va melioratsiya" jurnali №2(36).2024. С. 64-67.


HAVONI SOVITISH TIZIMIDA IKKI REJIMLI BUG‘LANISHLI SOVITISH QURILMASI

Usmonov N.O.
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalari universiteti
nizomiddin1981@mail.ru

Annotatsiya: Issiq va quruq iqlimda havoni sovitish va shamollatish tizimlarida bug‘lanishli sovitishga asoslangan issiqlik va massa almashtirish qurilmasini ikki rejimda, ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita rejimda ishlashini tadqiq qilish.

Kalit so‘zlar: ho‘l va quruq kanal, regenerativ bug‘lanishli sovitgich,

Ikki rejimli bug‘lanishli sovitish tizimi regenerativ sovitgichga o‘xshab issiqlik almashtirgichdan tashkil topgan, hamda qo‘shimcha ravishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri rejimda ishlaganda quruq kanallarda harakatalanayotgan havo oqimini to‘xtatish uchun klapan o‘rnatilgan. Regenerativ rejimda ishlaganda esa keltirilayotgan havo quruq kanallar bo‘ylab oqadi va harorati tushadi, keyin ho‘l kanallar orqali harakatlanishi natijasida, qo‘shimcha ravishda harorat pasayadi va namlanadi. Shu maqsadda regenerativ sovitgichga qo‘shimcha havo ventilyatori o‘rnatilgan, qo‘shimcha ventilyator atrof-muhitdan berilayotgan havoning bir qismini ho‘l kanallardan olib o‘tadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri rejimda asosiy ventilyator o‘chiriladi, shundan keyin tashqi havo ho‘l kanallardan harakatlanadi. Ushbu qo‘shimcha ventilyator bitta qurilmani ikkala rejimda ishlashi uchun qo‘llaniladi [1, 2, 3].



1-rasm. Ikki rejimli bug‘lanishli sovitgich fizik modeli, shuningdek sinov natijasini model natijasi bilan taqqoslash

Ushbu tadqiqot ishi mos ravishda issiq-quruq va issiq-nam havo sharoitlari uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita rejimlarda ishlaydigan “ikkitasi birda” qurilma bo‘lgan yangi ikki rejimli issiqlik va massa almashinuv qurilmasi yaratildi. Regenerativ sovitgich to‘g‘ridan-to‘g‘ri issiqlik va massa berish rejimi

uchun ho‘l kanaldan, hamda bilvosita regenerativ issiqlik va massa almashtirgich rejimi uchun ham nam, ham quruq kanallardan iborat bo‘lgan havo oqimi yo‘nalida ishlaydi. Taklif etilayotgan issiqlik almashinish qurilmasi yordamchi elementlari qo‘shimcha parrak va boshqariladigan ventilyator bo‘lib, ya’ni regenerativ bilvosita issiqlik almashinish apparatiga o‘xshaydi.

Qurilmaga kiruvchi havo ko‘rsatkichlari: tarkibiy namligi 11 $\frac{\text{гр}}{\text{кг}}$; oqim tezligi 3,6 $\frac{\text{м}}{\text{с}}$; taqsimlanish darajasi 0,45; quruq termometr bo‘yicha harorat o‘zgarishi 35 dan 41℃ gacha. 1-rasmda ko‘rsatilganidek, havoning kirish va chiqish haroratlari deyarli o‘xshash, shu bilan birga tajriba-sinov va bashorat qilingan ma’lumotlar o‘rtasidagi og‘ish quyidagi sabablarga ko‘ra bo‘lishi mumkin: quruq va nam kanallar elementidagi issiqlik va fizik xususiyatlari hamda issiqlik va massa almashinuv koeffisiyentlari doimiy deb qabul qilingan; kirish quruq termometr bo‘yicha yuqori haroratda haqiqiy tajribalardan farq qiladi va modellashtirishda atrof-muhitdan ajratilgan deb taxmin qilingan. Sovitilgan nam havoning quruq termometr bo‘yicha harorati va tajriba-sinov ma’lumotlari orasida maksimal 3,42% og‘ish kuzatildi [4], shu bilan birga hozirgi matematik model maqbul bo‘lgan natijani bashorat qiladi.

Ikki rejimli bug‘lanishli sovitgichning sovituvchi nasadka uzunligi $l = 1200$ мм, sovituvchi nasadka kengligi $d = 400$ мм, modul ichidagi kanallar soni $n = 60$ (30 ta quruq va 30 ta ho‘l kanal) kabi ko‘rsatkichlari asosida ishlash xususiyatlari turli iqlim uchun o‘rganildi va baholandi. Sovitgichga berilayotgan havo tezligi 1 $\frac{\text{м}}{\text{с}}$ va havoning taqsimlanish darajasi 0,4 ga teng $\left(K_{\text{тақсим}} = \frac{V_{\text{ҳўл канал}}}{V_{\text{қуруқ канал}}} = 0{,}4\right)$.

Shunday qilib, taklif etilayotgan tizim juda oddiy va samarador bo‘lib, shuningdek, ushbu qurilmani issiq va quruq iqlim sharoiti uchun tadbiq etish energiya tejash imkonini beradi.

Adabiyotlar.

1. Sarvesh Kashyap, Jahar Sarkar, Amitesh Kumar. Performance assessment of dual-mode evaporative cooler for futuristic climatic scenarios considering climate change effect. Journal of Building Engineering 42 (2021) 103043.
2. Kokorin O.Ya. i dr. Ustanovki kondisionirovaniya vozduxa. Osnovi rascheta i proyektirovaniya. – M.: Mashinostroyeniye, 1978. – 264 s.
3. Usmonov N.O. Energosberejeniye v sistemax kondisionirovaniya vozduxa s primeneniyem isparitelnogo oxlajdeniya // Monografiya. – T.: TashGTU, 2023. – 123 s.
4. Usmonov N.O. Eksperimentalniye raboti dvuxstupenchatix isparitelnix oxladiteley // Jurnal problemi informatiki i energetiki. – 2020. – № 5, – S. 89-95.

QUYOSH PANELLARIDA SODIR BO‘LADIGAN DEGRADATSIYA JARAYONLARINI KECHISH TEZLIGINI TASHQI VA ICHKI OMILLARNI HISOBGA OLGAN HOLDA ANIQLASH.

[a] M.M. Komilov., [v]U.O. Odamov., [a] Z.N.Obidova

[a]Guliston davlat universitet,O‘zbekiston

[v] O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi Energetika muammolar instituti, O‘zbekiston

Corresponding author: mirziyo@85mail.ru

Anotherauthor. umarbay@mail.ru., obidova.83@mil.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada real iqlim sharoitlarda quyosh fotoelektrstansiyalarida va quyosh panellarda degradatsiya jarayonlarining kechish tezligini tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holda aniqlashning matematik algoritmi blokini ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: quyosh fotoelektrstansiyalari,temperatura, degradatsiya, ishlab chiqarish koeffisiyenti, regressiya chizig‘i, shamol tezlishi, intensivlik, quyosh panellari, samaradorlik, maksimal quvvat.

Xalqaro standart IEC-61724 talablaridan foydalanib, quyosh panellarida paydo bo‘ladigan kamchiliklarni e’tiborga olgan holda quyosh fotoelektr-stansiyaning ishlab chiqarish imkoniyati quyidagicha aniqlanadi:

$$PR_D = \left(\frac{PR}{D}\right); \quad (1)$$

Bu yerda: PR_D–quyosh fotoelektrstansiyasining ishlab chiqarish koeffisiyentining foydalanish imkoniyatiga nisbatiga tengdir. PR –ishlab chiqarish koeffisienti, D–foydalanish imkoniyati, bu quyosh fotoelektrstansiyasining aniq ishlash vaqti va bunda maksimal quvvatlarda ishlashda xech qanday ta’sirlar hisobga olinmaydi va u quyidagicha ifodalanadi[1].

$$D = 1 - \left(\frac{\sum(DI*TP)}{DP_R}\right); \quad (2)$$

Bunda, DI – butun hisobot davri uchun hodisa(lar)ning davomiyligi. Bu muddat ishga tushirish/to‘xtatish signali bilan aniqlanadi, u quyosh panellardan biri ishdan chiqqanda avtomatik tarzda yoki boshqaruv tizimida ishlaydigan texnik xodim tomonidan qo‘lda boshqariladi; TP-hodisa darajasiga nisbatan ta’sirlangan eng yuqori quvvat darajasi; DP_R – hisobot davrining soatlardagi uzunligi. Hisobot davri yil boshidan beri mutlaq soatlar soniga, boshqacha aytganda, 1 yanvardan 31 dekabrgacha bo‘lgan kunlar soniga mos keladi (24 soat) va u quyidagicha ifodalanadi[2].

$$PR_{CD} = \left(\frac{PR_C}{D}\right); \quad (3)$$

bunda: PR_{CD}– quyosh fotoelektrstansiyasining temperaturaga moslashtirilgan ishlab chiqarish koeffisiyentini foydalanish imkoniyatiga nisbatiga teng.

Degradatsiya tezligi D_g to‘g‘ridan-to‘g‘ri yillik ishlab chiqarish koeffisiyenti PR_{CD} o‘zgarish qiyaligiga teng bo‘lib, bunda temperaturaga moslashtirilgan ishlab chiqarish koeffisiyentini va foydalanish imkoniyalari e’tiborga olinadi. Bu quyosh fotoelektrstansiyasining ishlash samaradorligini pasayishini ko‘rsatadi.


$$D_g = \left(\frac{y_2 - y_1}{x_2 - x_1}\right); \quad (4)$$

bunda: D_g – degradatsiya koeffisiyenti; $(y_2 - y_1)$ va $(x_2 - x_1)$lar regressiya chizig‘idagi ikkita nuqta koordinatalari. Formulalardan foydalanib, degradatsiya jarayonining kechish tezligini tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holda aniqlashning matematik algoritmi blokini ishlab chiqamiz. Dastlabki ma’lumotlar uchun quyidagi parametrlar olinadi[3].

$$Y = f(J, T_x, V_{sh}, P_0, T_m, \varphi); \quad (5)$$

bunda; J-quyosh nurining tushish intensivligi, [Vt/m^2]; T_x -tashqi muhit temperaturasi, [^{0}C]; V_{sh}-shamol tezligi, [m/s]; R_0- QFES ga o‘rnatilgan nominal quvvat, [kW$_p$]; T_m-quyosh panelning temperaturasi, [^{0}C]; φ quyosh panelliga quyosh nurlarining tushish burchagi, [grad].

Quyosh panellarda degradatsiya jarayonlarining kechish tezligini tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holda aniqlashning matematik algoritmining blok sxemasi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Degradatsiya jarayonlarining kechish tezligini tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holda aniqlashning matematik algoritm blok sxemasi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Одамов У.О., Комилов М.М., Ниязов Ш.К., Кутлимратов А. Анализ деградации и изменения производительности солнечной фотоэлектрической станции Пап-Наманган. Международный журнал Гелиотехника. Ташкент.2023.ISSN 0130-0997 Том 59, № 3-4, С. 218-232.

2. Mohamed El Hacen Jed, Pierre-Olivier Logerais, Christian Malye, Olivier Riou, Fabien Delaleux, Menny El Bah, “Analysis of the performance of the photovoltaic power plant of Sourdun (France)”, International Journal of Sustainable Engineering, 2021. R.1576-1768

3. U.O. Odamov., M.M. Komilov. Assessment of the degradation process of solar photovoltaic plants in the climatic conditions of Uzbekistan Scientific and Technical Journal Namangan Institute of Engineering and Technology Volume 8 Issue 4 2023 ISSN 2181-8622. P. 68-75

AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV TIZIM ORQALI KATTA QUYOSH PECHINI MONITORING QILISH.


t.f.n.Sh. Nurmatov[1]., J.Ziyovaddinov[1]., A Gofurov[1].
[1]*O‘zRFA Materalshunoslk instituti.*
e-mail: jahongirziyo@mail.ru
(97-409-48-18)

Annotatsiya. O‘R Fanlar akademiyasi Materialshunoslik institutining Katta quyosh pechini (KQP) modernizatsiya qilish bo‘yicha olib borilgan ilmiy-texnikaviy va muhandislik ishlari natijalari, xususan, boshqaruvning avtomatlashtirilgan tizimini ishlab chiqishga oid masalalar taqdim yetilgan. Bu ishlab chiqilgan sistema operatorga ish rejimini dasturiy nazorat qilish va baxolash imkonini beradi.


Kalit so‘zlar: Geliostat, Katta quyosh pechi, avtomatlashtirilgan tizim, mikroprosessor.

Qayta tiklanuvchi energiyalarni ishlarb chiqarish va texnik texlologiyalarga tadbiq qilish muxim muammolardandir. Bu borada Respublikamizda ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan Fanlar Akademiyasi xuzuridagi Materialshunoslik institutida joylashgan Katta Quyosh Pechini (KQP) avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi yaratilgan bo‘lib mazkur sistemada o‘zining tegishli dasturiy ta’minotga ega bo‘lib, markaziy kompyuter nazorati ostida har bir aloxida geliostat uchun mikroprosessorga asoslangan mahalliy boshqaruv tizimi bilan ta’minlangan. Geliostat aylanish o‘qlarining aylanish burchaklari uchun yuqori aniqlikdagi sensorlar, hamda quyoshni kuzatuvchi raqamli sensorlar o‘rnatilgan. Ushbu tizim barcha mahalliy tizimlar va markaziy kompyuter o‘rtasida buyruqlar va ma’lumotlarning ikki tomonlama almashinishini ta’minlaydi. Mazkur dasturiy tizim orqali olingan natijalar bilan geleostatlarni nuqson va kamchilariklarini baholash va bartaraf etishda kattta rol o‘ynaydi.

1-rasmda Xs vaYs kod ko‘rinishidagi quyosh koordinatisi, geliostat xarakatidagi real xolatdagi koordinatalari keltirilgan. X0,Y0- bu koordinatalar geliostat joylashuvi kerak bo‘lgan real xolatdagi quyosh kordinatalari, X47, Y47- geliostatning ayni vaqtdagi burchak koordinatalari, (47-geliostat misolida olingan) (dX47, dY47- geliostat orqali aniqlanagan quyosh koordinatalari (ayni vaqtda geliostatni ko‘rsatgan koordinatalari, quyosh datchigi orqali), Vx47 va Vy47 – ikkida o‘q bo‘yicha geliostatning aylanish tezligi, (X0-X47, Y0-Y47)-real xolatdagi quyosh koordinatalari bilan geliostatning ayni vaqtdagi ikki o‘q bo‘yicha burchak koordinatalari orasidagi farqi. 2-rasmda Geliostat quyoshni kuzatish koordinalarini bir-biriga mosligin, hamda geliostatni ishlash jarayonida noodatiy signallarni paydo bo‘lishini ko‘rish mumkin va bu signallarni bartararaf etish yo‘llari ko‘riladi.



1-rasm. Xs vaYs kod ko‘rinishidagi quyosh koordinatisi va geliostat xarakati grafigi.



2-rasm. Geliostatga kompyuter tomonidan berilayotgan X0,Y0- koordinatalar va X47, Y47- geliostatning real holatdagi koordinatalarini vaqtga bog‘lanish grafigi.

Geliostatni xar bir o‘qi bo‘yicha elektr motorlaring tezliklarini ko‘rish mumkin. Geliostat quyidagi nuqsonlarini aniqlash va bartaraf etish mumkin: elektr dvigatelini ish rejimini, geliostat reduktorlarini xolatini, ya’ni reduktor qismlari mexanik buzilishlari bor yo‘qligi, moyining xolatini, reduktor aylanuvchi qismlari orasida bo‘shliq oraliqlarning paydo bo‘lishini aniqlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Modernization of an Automated Controlling System for Heliostat Field of Big Solar Furnace. I. G. Atabaev, Zh. S. Akhatov, E. D. Mukhamediev, and Zh. Zievaddinov. 2016, No. 3, pp. 66–72.

2. Основные функциональные узлы контроллера гелиостата большой солнечной печи. И.Г. Атабаев, Ж.С. Ахатов, Э. Мухамедиев, Ж. Зиёваддинов “Фундаментальные и прикладные вопросы физики” Сборник тезисов докладов международной конференции, 419-421ст. 5-6 ноября, Ташкент-2015.

STAINLESS STEEL ELECTRODE OPTIMIZATION FOR ALKALINE ELECTROLYZERS IN HYDROGEN ENERGY SOURCES

Sh.K.Bakhramov[1], Y.Dasdemirli[2], A.I.Ismailov[3].

[1]*PhD student of Andijan machine-building institute, Uzbekistan*

[2]*Department of Energy Systems Engineering, Faculty of Technology, Karabük University, Türkiye*

[3]*Associate professor of Andijan machine-building institute, Uzbekistan*

[a)] *shohrux.baxramov7811742@gmail.com*

[b)] *yakupdasdemirli@karabuk.edu.tr*

[c)] *ismailov.astan@mail.ru*

Abstract: This article explores the potential for optimizing steel electrodes in alkaline electrolyzers for hydrogen production. The focus is on improving efficiency, reducing costs, and enhancing durability through modifications to these materials. Steel, particularly stainless steel offer promising alternatives to more expensive metals, such as nickel or platinum, making hydrogen production more economically viable.

Key words: Alkaline electrolyzers, hydrogen production, stainless steel and electrodes.

Traditional electrodes in alkaline electrolyzers are made from metals like nickel or platinum, which offer good catalytic performance but can be expensive. Recent research has focused on finding alternative materials that provide similar efficiency at a lower cost. In this regard, stainless steel is gaining attention due to their affordability, availability, and potential for optimization [1]. Alkaline electrolyzers operate by splitting water (H_2O) into hydrogen (H_2) and oxygen (O_2) using an alkaline electrolyte, typically potassium hydroxide (KOH) or sodium hydroxide (NaOH). The electrolyzer consists of two electrodes: the anode (for oxygen evolution) and the cathode (for hydrogen evolution). The electrolyte allows ions to move between the electrodes while separating the hydrogen and oxygen gases. The primary challenge in improving alkaline electrolyzers lies in optimizing the electrodes to enhance efficiency, durability, and cost-effectiveness. Stainless steel, an alloy primarily made of iron with chromium and nickel, is widely used in alkaline electrolyzers due to its durability, availability, and corrosion resistance. It is particularly attractive because it can be used as both a substrate and a catalytic surface with minimal modification.

Advantages: Stainless steel is significantly cheaper than precious metals like platinum. The chromium content in stainless steel forms a protective oxide layer that prevents corrosion, making it ideal for long-term operation in an alkaline environment.

Stainless steel is easily manufactured and scaled for industrial applications.

While stainless steel is an effective material for alkaline electrolyzers, its catalytic performance can be improved through surface modifications:

1. Increasing the surface area of the steel electrodes through mechanical treatments such as sandblasting or etching enhances the catalytic activity by providing more active sites for the hydrogen evolution reaction (HER).
2. A thin nickel layer can be electroplated onto the stainless-steel surface to improve catalytic efficiency without drastically increasing cost. This combination offers the corrosion resistance of stainless steel and the catalytic properties of nickel.
3. Incorporating small amounts of other elements, such as molybdenum or cobalt, into the stainless-steel matrix can enhance its catalytic performance and reduce overpotential during the HER and oxygen evolution reaction (OER) [2].

Optimizing steel for alkaline electrolyzers has broader implications for hydrogen energy systems, particularly in low-cost, scalable hydrogen production. The following aspects are critical for system integration:

Hydrogen Purity: High hydrogen purity is essential for downstream applications such as fuel cells. Stainless steel and conductive plastic electrodes need to produce hydrogen with minimal contamination.

Durability: Both electrode types should exhibit long-term stability to reduce maintenance costs in large-scale hydrogen production systems.

Economic Viability: The use of low-cost materials like stainless steel and plastic composites can significantly reduce the overall cost of hydrogen production, making it more competitive with fossil fuel-based energy sources [3].

The optimization of steel electrodes for alkaline electrolyzers offers a promising pathway to cost-effective hydrogen production. Stainless steel, particularly when enhanced with coatings or surface treatments, provides a durable and affordable alternative to more expensive materials. Conductive plastics, while still in the early stages of development, offer exciting potential for flexible, corrosion-resistant electrodes.

References

1. R. Kotz and M. Carlen, "Principles and Applications of Electrochemical Capacitors," Electrochimica Acta, vol. 45, no. 15-16, pp. 2483-2498, 2000.
2. P. Lettenmeier et al., "Stainless steel as a cost-efficient alternative to nickel-based electrodes for water electrolysis," Journal of Electroanalytical Chemistry, vol. 819, pp. 123-130, 2018.
3. S. B. Adeloju, "Conductive polymers as electrode materials in alkaline water electrolysis," Journal of Applied Electrochemistry, vol. 46, no. 12, pp. 1255-1263, 2016.

QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI VA ULARNING AHIMIYATI

Sh.T. Inoyatov[1], M. D. Xojixonov[1], O.Q. Abduqaxxorova[2], Sh.U.Soxadullayeva[2], X.SH.Ergasheva[3]

[1]Namangan davlat universiteti Fizika fakulteti
[2]Namangan davlat universiteti Fizika fakulteti 1-kurs talabalari
[3]Urganch davlat universiteti 1-kurs magistr

Annotatsiya. Qayta tiklanadigan energiya deganda doimiy ravishda to‘ldiriladigan tabiiy jarayonlardan olinadigan energiya tushuniladi. Bunga quyosh, shamol, gidroelektr, geotermal va biomassa energiyasi kiradi. Har bir tur haqida ba’zi asosiy fikrlarni keltirib o‘tsak. Quyosh energiyasini - Quyosh panellari orqali olingan bu energiya quyosh nuridan foydalanadi va elektr yoki isitish uchun ishlatilishi mumkin. Shamol energiyasini Shamol turbinalari tomonidan ishlab chiqariladigan energiyaning bu shakli kinetik energiyani shamoldan elektr energiyasiga aylantiradi. Gidroelektrik energiya Odatda to‘g‘onlar orqali suv oqimi orqali ishlab chiqariladigan gidroenergetika eng qadimgi va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan biridir. Geotermal energiya Bu elektr energiyasini ishlab chiqarish yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri isitish uchun Yerning ichki qismidagi issiqlikdan foydalanadi. Biomassa energiyasi organik materiallardan (o‘simlik va hayvon chiqindilari kabi) olingan biomassa bioyoqilg‘iga aylantirilishi yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri issiqlik uchun ishlatilishi mumkin.

Kalit so‘zlar. Energiya, Qayta tiklanadigan energiya, quyosh energiya, shamol energiya, gidroelektr energiya, geotermal energiya, biomassa energiyasi, iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslar, elektr energiyasi.

Qayta tiklanadigan energiyaning afzalliklari quyidagilardan iborat. Ularning Atrof-muhitga issiqxona gazlari chiqindilari va ifloslanishini ta’sirini kamaytiradi. Tabiiy resurslarni kamaytirmaydigan uzoq muddatli energiya yechimini taqdim etadi. Qayta tiklanadigan energiya texnologiyalarini ishlab chiqarish, o‘rnatish va texnik xizmat ko‘rsatishda ish o‘rinlarini yaratishi mumkin. Shu bilan birga quyosh va shamol kabi qayta tiklanadigan ba’zi manbalar har doim ham mavjud emas. Texnologiya va infratuzilma uchun yuqori dastlabki xarajatlar to‘siq bo‘lishi mumkin. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan ba’zi loyihalar ekotizimlarga ta’sir qiladigan katta erlarni talab qilishi mumkin. Qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tish iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va barqaror rivojlanishni rag‘batlantirish uchun juda muhimdir [1]. Qayta tiklanadigan energiya manbalari barqaror kelajak uchun juda muhim bo‘lib, ko‘plab afzalliklarni taqdim etadi. Quyosh panellari, shamol turbinalari, gidroelektrostantsiyalar va geotermal tizimlar tabiiy resurslarni elektr energiyasiga aylantirib, qazib olinadigan yoqilg‘iga bog‘liqlikni kamaytiradi. Quyosh issiqlik tizimlari va biomassa turar-joy va tijorat binolarini, shuningdek, sanoat jarayonlarini isitishni ta’minlaydi. Elektr transport vositalari (EV) va bioyoqilg‘i (masalan, etanol va biodizel) an'anaviy benzin va dizelga nisbatan issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytiradigan qayta tiklanadigan energiyadan foydalanadi. Qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarishdagi mashinalar va jarayonlarni quvvatlantirishi mumkin, bu esa uglerod izlarini kamaytirishga yordam beradi. Quyosh va shamol energiyasi

qurg‘oqchil hududlarni toza suv bilan ta’minlaydigan tuzsizlantirish zavodlarini quvvatlantirish uchun ishlatilishi mumkin. Biomassa va bioenergiya barqaror dehqonchilik amaliyotlarini qo‘llab-quvvatlashi tufayli, quyosh va shamol energiyasi esa sug‘orish tizimlarini quvvatlantiradi. Qayta tiklanadigan manbalar tomonidan quvvatlanadigan mikrotarmoqlar jamoalar ayniqsa uzoq yoki tabiiy ofatlarga moyil bo‘lgan hududlar uchun energiya xavfsizligini oshiradi [2].

Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish turli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, ammo bu muammolarni hal qilish uchun istiqbolli echimlar va innovatsion texnologiyalar mavjud. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish muammolari sifatida quyosh va shamol kabi qayta tiklanadigan manbalar har doim ham mavjud emas, bu esa energiya ta’minotida ishonchlilik muammolariga olib keladi[1-2]. Qayta tiklanadigan manbalardan ishlab chiqarilgan energiyani samarali saqlash talab va taklifni muvozanatlash uchun juda muhimdir. Mavjud energiya tarmoqlari qayta tiklanadigan energiyaning yuqori foizini ishlatish uchun jihozlanmasligi mumkin. Xarajatlar kamayib borayotgan bo‘lsa-da, qayta tiklanadigan texnologiyalar uchun dastlabki investitsiyalar hali ham yuqori bo‘lsada, qayta tiklanadigan ba’zi manbalar joylashuvga bog‘liq (masalan, quyoshli hududlarda quyosh, qirg‘oqbo‘yi mintaqalarida shamol), bu ularning tarqalishini cheklaydi [3].

Diversifikatsiyalangan energiya aralashmasini yanada ishonchli energiya ta’minotini yaratish uchun turli qayta tiklanadigan manbalarni (quyosh, shamol, gidro, geotermal) birlashtirish ko‘zda tutila boshlangan. Talabga javob berish dasturlarida iste'molchilarni talab va taklifni muvozanatlash uchun eng yuqori vaqtlarda energiya iste'molini kamaytirish yoki o‘zgartirishga rag‘batlantirish bo‘lishi kerak. Tadqiqotga sarmoya kiritish bu qayta tiklanadigan texnologiyalarda xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish uchun tadqiqot va ishlanmalarni moliyalashtirishni ko‘paytiradi.

Xulosa. Qayta tiklanadigan energiya manbalari issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish va barqarorlikni rag‘batlantirish uchun katta va’da bersa-da, bu muammolarni hal qilish ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun juda muhimdir. Texnologik innovatsiyalar, siyosatni qo‘llab-quvvatlash va jamoatchilikni jalb qilish orqali bu muammolarning ko‘pini yumshatish mumkin, bu esa toza energiya kelajagiga yo‘l ochib beradi.

Foqdalanilgan adabiyotlar.

1. Anil Misra Renewable Energy Education Current Scenario and Future Projections TERI 1999
2. Bent Sorensen Renewable Energy Elsevier 2006
3. M.S. Soha, S.S. Mathur, M.A.S. Malik Reviews of Renewable Energy Resources Wiley Eastern Limited 1983

QISHLOQ XO‘JALIK MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASHNING FIZIK ASOSLARI

M.B.Xoldorov
FarDU tayanch doktoranti
Tel: +998911078668

Annotatsiya: Maqolada infraqizil nurlarining fizik tabiati, manbalardan chiqishi va muxitlar bilan tasirlashuvi mexanizmlari, elektromagnit to‘lqinlari shkalasidagi o‘rni, issiqlik uzatilishi va almashinuvi jarayonlaridagi roli ommabop tarzda qisqacha bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar: elektromagnit to‘lqinlari, issiqlik almashinuvi, issiqlik nurlanishi, konveksiya, atom va molekulalar harakati, nurlanish diapazoni.

Keyingi yillarda infraqizil nurlarga asoslangan issiqlik manbalari, isitish tizimlari, oziq-ovqat pishirish pechlari va mahsulotlarni quritish uskunalari keng qo‘llanilmoqda. Ammo, fizikaga oid darsliklarda infraqizil nurlarning manbalari va ularning muhitda yutilishi haqida yetarli ma’lumotlar mavjud emas. Ushbu maqolada infraqizil nurlarning manbalari va ularning muhitda yutilishi haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

Tabiatda jismlar o‘rtasida issiqlik almashinuvi uch asosiy yo‘l bilan amalga oshadi: issiqlik o‘tkazuvchanlik, konveksiya va elektromagnit nurlanish [1]. Fizikada issiqlik o‘tkazuvchanlik molekulyar-kinetik nazariya asosida tushuntiriladi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, issiqlik jismlarni tashkil etgan atom va molekulalarning ilgarilanma, tebranma va aylanma harakatlari orqali zanjirsimon tarzda uzatiladi. Konveksiya usulida esa katta hajmdagi gaz yoki suyuqlik massasining ko‘chirilishi natijasida issiqlik almashinuvi yuzaga keladi.

Tadqiqot usuli: Issiqlik uzatilish jarayonlarini tahlil qilish uchun maxsus tenglamalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular yordamida turli texnik va nazariy masalalar hal etiladi. Molekulyar-kinetik nazariyaga ko‘ra, issiqlik uzatilishi uchun zarrachalar (atom yoki molekulalar) ishtirok etadigan muhit bo‘lishi kerak. Agar muhit bo‘lmasa, issiqlik uzatilishi sodir bo‘lmaydi, masalan, termoslar (Dewar idishlari) kabi.

Issiqlik uzatilishining uchinchi usuli esa elektromagnit nurlanish orqali bo‘ladi. Infraqizil nurlar shunday elektromagnit nurlanishlarga kiradi va issiqlik nurlanishi sifatida tan olinadi. Infraqizil to‘lqinlarni chiqaruvchi jismlar issiqlik manbasi sifatida ko‘riladi, va bu nurlar muhit tomonidan yutilganda uning ichki energiyasi ortadi va temperaturasi ko‘tariladi. Infraqizil nurlar optik diapazondagi to‘lqinlardan kattaroq bo‘lib, 0,4 mikrondan 1 millimetrgacha bo‘lgan diapazonda joylashganligi sababli ko‘z bilan sezilmaydi, lekin yutilish natijasida hosil bo‘lgan issiqlik orqali aniqlanadi.

Shuningdek, elektromagnit to‘lqinlar shkalasidagi gamma va rentgen nurlari ham muhitda yutilganda uning temperaturasini oshiradi. Gamma nurlari yadroviy o‘zgarishlar natijasida hosil bo‘lib, muhitda yadro tomonidan yutiladi, rentgen nurlari esa atomlarning ichki elektron qobiqlarida energetik holatlarning o‘zgarishi natijasida faqat elektronlarni qo‘zg‘atadi. Har ikkala holatda ham nurlanish energiyasi muhitning issiqlik energiyasiga nisbatan yuqori bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari: Molekulalarning ichki mexanik tebranma va aylanma harakatlari chastotasi ko‘pincha elektron o‘tishlari chastotasiga mos keladi. Jismlar qizdirilganda, molekulyar tebranishlar infraqizil elektromagnit to‘lqinlarni hosil qiladi. Infraqizil nurlarni yutgan muhitda molekulalarning harakatlari intensivlashadi, bu esa ichki energiyaning oshishi va temperaturaning ko‘tarilishiga olib keladi.

Amaliy qo‘llanilish: Infraqizil nurlarga asoslangan meva va sabzavot qurituvchi pechlar an’anaviy quyosh nurlari yordamida quritishga qaraganda afzalroqdir. Quyosh spektridagi optik va ultrabinafsha nurlari mahsulotdagi organik molekulalarning bog‘lanishlarini buzadi. Infraqizil nurlar esa faqat suv molekulalarini siqib chiqaradi, mahsulotning tabiiy bioorganik tarkibi saqlanadi.

Xulosa: Infraqizil nurlari past chastotaga ega bo‘lib, molekulalarni parchalash uchun yetarli energiyaga ega emas. Shuning uchun infraqizil nurlar bilan quritilgan mahsulotlar yuqori sifatga ega bo‘ladi. Ushbu ma’lumotlar o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida fizika darslarida qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Саидов, Р. М., Рахимов, Р. Х., Юсупов, Б. Д. У., & Холдоров, М. К. Б. У. (2020). Эффективность сушки и прокалки сварочных электродов в печах с использованием излучения наноструктурированной функциональной керамики (НФК). Computational nanotechnology, (2), 64-70.
2. Холдоров, М.Б.Ў. (2022). Основные физико-химические принципы получения высокочастотной конденсаторной керамики. Scientific progress, 3(1), 412-418.
3. Саидов, Р. М., Рахимов, Р. Х., Юсупов, Б. Д. У., & Холдоров, М. К. Б. У. (2020). Новый метод сушки и прокалки сварочных электродов с использованием излучателей из функциональной керамики1. Computational
Nanotechnology, (1), 44-51.
4. Onarqulov, Karimberdi Egamberdiyevich, Raxmatov, G‘ulomjon Raxmonberdiyevich, & Xoldorov, Muxammadkarim Botirali o’g’li (2023). qishloq xo’jaligi mahsulotlarini infraqizil qurutish va sifatli saqlashdagi ayrim tahlillar.
Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (4-2), 295-300.

TAJRIBA NATIJALARI ASOSIDA FOTOELEKTRIK-ISSIQLIK QURILMASI ELEKTR QUVVATI UCHUN APPROKSIMATSIYALANGAN FUNKSIYA VA GRAFIK TOPISH

S.F. Toshpulatov[a], B.A. Yuldoshov[b]

[1]*Termiz davlat universiteti, Barkamol avlod ko‘chasi 43, Termiz 190111, Uzbekistan*

[a] *toshpulatovs@tersu.uz*

[b] *b.yuldoshov10@mail.ru*

Annotatsiya. Tadqiqotda Origin dasturining keng imkoniyatlaridan foydalanib, tajriba natijasida o‘lchangan ma’lumotlar asosida elektr quvvati uchun kvadrat funksiya grafigi va qiymatini hisoblash masalasi batafsil bayon etilgan. 60W monokristall kremniyli fotoelektrik batareyasi asosidagi fotoelektrik-issiqlik qurilmasi tajriba natijalari tabiiy sharoitda statsionar holatda o‘lchangan.


Kalit so‘zlar: monokristall kremniy, fotoelektrik-issiqlik qurilmasi, elektr quvvat, energiya, eng kichik kvadratlar usuli.

Tabiiy sharoitda fotoelektrik-issiqlik qurilma (FEIQ) elektr parametrlarini o‘lchash ma’lum bir nuqtalar to‘plaminigina o‘z ichiga oladi. Ma’lum nuqtalar to‘plamiga asoslanib taxminiy funksiyani topish jarayonini, unga mos to‘g‘ri yoki egri chiziqni moslashtirish, regressiya tahlili yoki approksimatsiyalash deb ataladi [1, 2]. Regressiya grafigini topishda kompyuterda unga mos dastur yaratalib, hisoblashlar amalga oshiriladi [3, 4]. Bunda eng kichik kvadratlar usulidan foydalanilib, ma’lum nuqtalar uchun n - darajali funksiyani topish masalasi ko‘riladi. Ammo, odatda parametrlar chiziqli, kvadratik yoki murakkab funksiya orqali o‘zaro bog‘langan bo‘ladi.

Tadqiqot qurilmasida nominal quvvati 60W bo‘lgan fotoelektrik batareya (FEB) dan foydalanilgan. Fotoelektrik batareya metall issiqlik kollektori va reflektorlar bilan kombinatsiyalashtirilib, FEIQ ishlab chiqilgan. Issiqlik kollektori FEB ni sovutish vazifasini bajarsa, reflektorlar FEB yuzasiga tushayotgan quyosh nurlari energiyasini oshirib berishga xizmat qiladi.

Ishda FEIQ ning elektr quvvati kun vaqtiga qanday bog‘liqligini tajriba natijalari asosida tadqiq qilingan. FEIQ elektr quvvatining funksiyasi va grafigini Origin dasturi yordamida topish imkoniyatlarini ko‘rib chiqilgan.

Origin keng ko‘lamli grafik va diagrammalar chizish va tahrirlash uchun ishlatiladigan dasturdir [5]. Uning ma’lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlash menyusidan foydalanib tajribada o‘lchangan ma’lumotlarga asoslanib istalgan tartibli regressiya grafigini topish imkoniyati bor. Ma’lum nuqtalar to‘plami qaysi qonuniyatga bo‘ysinishini, uning grafigi qanday ko‘rinishda bo‘lishini avvaldan taxminan baholash ham muhim ahamiyat kasb etadi.



1-Rasm. Elektr quvvatning tajriba asosida olingan natijalari va kvadratik regressiya grafigi.

1-rasmdagi nuqtalar to‘plami uchun chiziqli regressiya grafigini ham topish mumkin. Ammo, nuqtalar to‘plami kvadrat funksiyaga ishora qilganligi sababli uning grafigi topildi. Grafikdan ko‘rishimiz mumkinki, qurilma elektr quvvati kunning 10:00 va 15:00 vaqt oralig‘ida 60W dan yuqori quvvatga erishgan. Buni FEB ga birlashtirilgan qismlarning samarasi sifatida baholash mumkin. Qurilma elektr quvvatining vaqtga bog‘liqlik grafigidan foydalanib berilgan yoki istalgan vaqt davomidagi ishlab chiqariladigan energiya miqdorini aniq topish va baholash mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, matematik nuqtayi nazardan fizik jarayonni aks ettiruvchi funksiya orqali istalgan ma’lumotlarni aniqlashtirish mumkin. Origin dasturining bu kabi imkoniyatlari ma’lumotlar bilan qayta ishlash orqali yechimlarni soddalashtirish va grafik ko‘rinishda tasvirlashga yordam beradi. Ushbu usulda FEIQ ning tajribada olingan asosiy elektr va issiqlik parametrlariga mos regressiya grafigi va funksiyalarini sodda holatda hisoblash mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. K. W. Cassel, Data Analysis: Curve Fitting and Interpolation. In: Matrix, Numerical, and Optimization Methods in Science and Engineering. Cambridge University Press; 2021, pp. 560-593.
2. Sanford Weisberg. Applied Linear Regression, Fourth Edition, Wiley series in probability and statistics. 2014, pp. 370.
3. M.Z. Nosirov. Fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish (Darslik), Andijon davlat universiteti, 2020-yil, -286 b.
4. Насиров М.З., Юлдашева Н.М., Матбабаева С.Д. Моделирование физических процессов на основе Mobile Basic//Universuim: Технические науки, № 11(80), 2020, с. 32-35.
5. Р.А Смит, О.С. Андранович, Е.Ю. Демьянцева. Использование программного пакета Origin для обработки экспериментальных данных:учеб. пособие /ВШТЭ СПбГУПТД. СПб., 2018.- 45 с.

RESPUBLIKANING JANUBIY HUDUDLARI UCHUN FOTOELEKTRIK HAMDA FOTOISSIQLIK BATAREYALARINING ENERGIYA SAMARADORLIKLARINI TAQQOSLASH.

M.N.Tursunov[1], X. Sabirov[2 a)], U.B. Abdiyev[3], Sh.J Qarshiyev[4 b)]

[1, 2 a)] O’z. Res. FA, FTI, [3, 4 b)]Termiz davlat universiteti [4 b)] shqarshiyev@tersu.uz *+998996772218.*

Annotasiya. Ushbu ilmiy ishda respublikamiz janubiy hududlarida fotoelektrik (FEB) va fotoissiqlik (FIB) batareyalarining samaradorligi o‘rganildi. Tajribada ikkita 60 Wt quvvatga ega FEB va FIBlar bir vaqtda kuzatilib, o‘lchash natijalari energiya quvvatini hisoblash orqali taqqoslandi. Tajriba natijalariga ko‘ra, FIB ishlab chiqargan energiya miqdori FEB energiyasidan 1,41 marta katta ekanligi aniqlandi. Shuningdek, FIB orqa tomonida joylashgan kollektor orqali qo‘shimcha issiqlik energiyasi ishlab chiqarilganligi aniqlandi.

Kalit so’zlar: fotoelektrik batareya, fotoissiqlik batareya, salt yurish kuchlanishi, kollektor, reflektor, qisqa tutashuv toki.

Kirish. Hozirgi vaqtda butun dunyoda fotoelektrik batareyalar tayyorlanadigan materiallar turlariga va sifatiga katta e’tibor qaratilmoqda. Sababi, bu fotobatareyalardan imkon qadar uzoq muddat va samarali foydalanishga harakat qilinmoqda [1]. Fotoelektrik batareyalarni to’g’ri joylashtirish, turli ob-havo sharoitida uning iqtisodiy samaradorligini hisobga olish zaruriyati mavjuddir [2]

Ilmiy tadqiqot metodlari. Bizning tadqiqotdagi qurilmalar AM 1,5 sharoitida oq himoya qoplamali monokristall kremniyli har biri 60wt quvvatli biri fotoelektrik batareya (kiyingi o’rinlarda FEB deb nomlanadi), ikkinchisi fotoissiqlik batareya (kiyingi o’rinlarda FIB deb nomlanadi)lardan hamda kollektor va reflektordan tashkil topgan(1-rasm).


Natijalar. Tajriba 2024 yil 15-may kuni havo harorati $+31^0$C bo‘lgan Surxondaryo sharoiti Pustun dara deb nomlanuvchi geografik joylashuv manzilida (kenglik $38^0 08'$) o‘tkazildi. O‘lchashlar quyosh harakatiga qarab gorizantal hamda vertikal ravishda yo’nalishini o’zagartiruvchi, qo’l kuchi yordamida (treker rejimida) gorizantal 33^0 burchak ostida olib borilgan. O`lchashlar soat 09:20 dan 15:00 gacha 20 daqiqa interval bilan olib borilgan.



a) **b)**

1-Rasm. a) Fotoelektrik batareya b) Fotoissiqlik batareya.

Olingan natijalar har biri treker rejimida kun davomida natijalar olindi. Tajriba natijalarini quyidagi grafik asosida tushuntirish mumkin.



2-Rasm. FEB va FIBlarning qisqa tutashuv toklari hamda salt yurish kuchlanishlariga kunduzgi vaqtga bog’liqligi.

Tajribada reflektor hamda kollektorga ega bo’lmagan oddiy FEBning kun davomida qisqa tutashuv toki bilan salt yurish kuchlanishi, FIBga nisbatan kamroq qiymatlarni ko’rsatayotganini 2-rasmda yaqqol ko’rish mumkun. FIBning orqa tomonida joylashgan kollektorda suv oqib o’tishi natijasida FIBning temperaturasini pasaytirib issiq suv holatida chiqib ketadi . O‘lchovlar davomida qisqa tutashuv toki va salt yurish kuchlanishi bilan bog‘liq parametrlar kuzatildi va analiz qilindi (2-rasm).

Muhokamalar. Natijada ham issiq suv olish hamda qo’shimcha energiya olish mumkin. Bunda FIBda kiruvchi suvning temperaturasi 19^0 ni chiquvchi suv temperaturasi 47^0 ni tashkil etdi. 2-rasmdan ko’rish mumkunki quyosh qiyom nuqtaga yetgunicha ikkala FEB hamda FIBlarning salt yurish kuchlanishi kamayib quyosh qiyomdan o’tgandan so’ng yana ortganini ko’rish mumkun. Bunga sababi shuki quyosh intinsivligi quyosh qiyom vaqtigacha ortib so’ng hamda pasayishi hisobiga shakllanadi. Qolaversa ushbu tajribada o’rtacha 40^0 temperaturali issiq suv hamda qo’shimcha elektr energiya olish imkoni paydo bo’ldi.

Xulosa. Issiq iqlim sharoitlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishning yangi usullari sifatida fotoissiqlik batareyalari nafaqat elektr energiyasi, balki issiqlik energiyasi bilan ham ta'minlashga imkon beradi. Ushbu tadqiqotda olingan natijalar asosida janubiy hududlarda FIB texnologiyalari yanada samarali bo‘lib, ularning ko‘p maqsadli ishlatilishi energiya tejamkorligini oshiradi. Keyingi tadqiqotlarda boshqa iqlim sharoitlarida bu texnologiyalarni sinash ham muhim bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Singh G.K. Solar power generation by PV (photovoltaic) technology: a review. Energy // 2013.Vol. 53, pp. 1-13.
2. Peng J.Q. et al. 2016. Numerical investigation of the energy saving potential of a semi-transparent photovoltaic double-skin facade in a cool-summer Mediterranean climate // Applied Energy. Vol. 165, pp. 345-356.

YARIMO‘TKAZGICH ASOSLI YUQORI SEZGIR TABIIY BO‘YOQLI QUYOSH ELEMENTIDAGI BO‘YOQLARNING FOTOELEKTRIK XARAKTERISTIKALARI


A.A. Yoqubbayev
NamMTI
E-mail: muhammadyusuf.muhammadsodiq@bk.ru

Annotatsiya. Ushbu ishda yuqori sezgir bo`yoqli quyosh elementlari (DSSC- De sensitized solar cell) ni tabiiy bo`yoqlarini fotoelektrik xarakteristikalari tadqiq qilingan. Bu quyosh elementlarini tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar va undagi qatlamlarni tayyorlash texnologiyasi keltirilgan. DSSC larda elektr zaryadini, elektr potentsialini va elektr tokini hosil bo`lishi tadqiq qilingan.

**Kalit so`zlar**. Yuqori sezgir bo`yoqli quyosh elementlari (DSSC- De sensitized solar cell), fotoelektrod, konturelektrod, fotoanod, elektrolit, gel polimer elektrolit (GPE), yorug`likka yuqori sezgir bo`yoq

Yarimo`tkazgich asosli yuqori sezgir bo`yoqli quyosh elementi (DSSC) qo'llanilishi uchun bir nechta tabiiy bo'yoqlar dan foydalandik. Ma’lumki DSSC ko‘p qatlamli tuzilma bo‘lib, fotoanod, tabiiy bo'yoq, elektrolit va katoddan iborat.Ushbu bobda tabiiy bo'yoqqa tushuvchi nurlarning yutilishini tushuvchi nurning to`lqin uzunligiga bog`liqligi o`rganildi. Tajribada ishlatilgan tabiiy bo'yoqlar gulxayri, geran, qizil piyoz po`stlog`i, qizil karam, qora tut va lavlagidan olingan xlorofil hamda antosianlardir.

1-rasmda ushbu tadqiqotda ishlatiladigan barcha bo'yoqlarning yutilish xususiyatlari ko'rsatilgan. Absorbtsiya tushayotgan yorug'likning to'lqin uzunligiga va bo'yoq turiga bog'liq. Anor tarkibida yuqori moddasi mavjud bo`lib, absorbsiya cho'qqilarni 320, 370 va 520 nm da kuzatish mumkin. Geran gullari bo'yog`i rangi ko'k-kulrangdan jigarranggacha [1]. Geranium bo'yog'i 400 nm va 540 nm da eng yuqori yutilish cho`qqisi ko'rsatadi. Ba'zi yutilish 600 dan 1000 nm gacha ham kuzatilishi mumkin. Ismaloq bo'yog'i 500 dan 600 nm gacha bo'lgan kichik cho``qini ko'rsatdi. Besh xil bo'yoqlardan foydalangan holda ishlab chiqarilgan DSSClarning J-V xususiyatlari DSSC ning samaradorligi uning bo'yoq-yutilishiga asoslanadi. U tabiiy manbalardan yoki kimyoviy sintezdan olinishi mumkin. Bo`yoq yorug'likni yutishda va yarim o'tkazgich materialning o'tkazuvchanlik zonasiga elektronlarni kiritishda muhim rol o'ynaydi. U bo'yoq molekulalarining energiya bo'shlig'iga teng yoki undan yuqori bo'lgan energiyani o'z ichiga olgan fotonlarni o'zlashtiradi. Bular DSSC samaradorligini oshirishning muxim omilidir.



1-Rasm. Bo'yoqlar tomonidan yorug'likni yutilishining to'lqin uzunligiga bog'liqligi (a) anor, (b) lavlagi uchun, (c) geranium uchun, (d) ismaloq uchun va (e) qizil piyoz uchun.

Adabiyotlar

1. Abdukarimov A.A, Yokubbayev A.A, Shah S, Arof A.K, Mamatkarimov O.A, Characteristics of natural dye sensitized solar cells// Molecular Crystals and Liquid Crystals. Volume 767, 2023 - Issue 1 https://doi.org/10.1080/15421406.2023.2228643

2. AA Yoqubbayev and AA Abdukarimov Components of the New Generation Thick Layer Solar Elements and Physical Processes in them // Journal of Nuclear Energy Science & Power Generation Technology Volume 11 • Issue 03 • 251

3. A.S. Boymirzaev, A.A. Yokubbayev Recent advances in dye-sensitized solar cells using plant pigments // International Scientific Journal Theoretical & Applied Science ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (97), 146-149.; Scopus ASCC: 2504.)

4. A.A.Yakubbaev; A.Abdukarimov; SH..Nazarov.Application of pincents of spinal leaf (chlorophylle) as a natural die for paint sensitive sun element (dssc) // Academicia An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 8, August 2021

5. Ёкуббаев А.А., Боймирзаев А. С.Ранг сезгир грэтцел қуёш элементларининг яратилиши ва уларни физик хусусиятлари // NamDU ilmiy axborotnomasi 2021 №.5, pp. 10-16, (01.00.00 №14)

РАЗРАБОТКА И СОЗДАНИЕ ОПЫТНОГО ОБРАЗЦА ВЕТРОЭЛЕКТРОСТАНЦИИ С ВЕРТИКАЛЬНОЙ ОСЬЮ ВРАЩЕНИЯ ДВИГАТЕЛЯ МАЛОЙ МОЩНОСТЬЮ ДО 3 КВТ

Азаматов З.Т.[1, a)], Абдурахмонов К. П.[2, a)], Канунников В.В.[1, c)], Исмаилов Ш.А.[1, d)]

[1] *Научно-исследовательский институт физики полупроводников и микроэлектроники Национального университета Узбекистана, ул Янги Алмазар 20, 100057, г.Ташкент, Узбекистан.*

[2] *Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий, пр. Амира Темура. 108, 100084, г.Ташкент, Узбекистан*

[a)] *Corresponding author:* azamatov_z@mail.ru

[b)] q.abduraxmonov@inbox.ru

[c)] b.kanunnikov@yandex.ru

[d)] sh.ismoilov@inbox.ru


Аннотация Разработана рабочая конструкторская документация основных узлов и деталей опытного образца ветроэлектростанции (лопасть, корпус, трансмиссия, блок автоматики и др.). Проведен монтаж ,наладка и испитание опытного образца ВЭС.

Ключевые слова: источник электропитания, возобновляемый источник энергии, энергия ветра, повышение надёжности, легко монтируемый, легко транспортируемый, трансмиссия, ротор, лопасть, вариатор, редуктор, фрикционная рекуперативная передача.

Экологически безопасное развитие энергетики, являющейся материальной основой прогресса любой страны, немыслимо без гарантированного надёжного энергоресурсного обеспечения на достаточно длительный период. Целью настоящей работы является создание опытного образца ветроэлектростанции (ВЭС) до 3 Квт, работающей в широком диапазоне скоростей ветра (от 2м/сек до 30м/сек) с импульсной передачей в качестве механической связи между ротором ветродвигателя и электрогенегатором. В качестве трансмиссии предлагается «реактивно-импульсная фрикционная рекуперативная передача», обладающая диапазоном коэффициента передачи 40 – 200 и КПД – 95%, что недостижимо для других типов передач. В ВЭС предлагается использование ротора с вертикальной осью вращения, автофлюгирующимися лопастями при движении их навстречу ветровому потоку.

Предлагаемая нами разработка ветроэлектростанции малой мощности, приведенная в общем вид карусельного ветродвигателя с вертикальной осью вращения с пятью лопастями. В результате проведённых научно-исследовательских работ создаётся и разрабатывается полный комплект конструкторской документации на элементы и узлы ветродвигателя который является основой для создания легко транспортируемой и их изготовление. Проводится монтаж и наладка опытного образца вертоэлектростанции и корректировка чертежей элементов ВЭС в ходе

сборки опытного образца. Приводится общий вид разработанного ветрогенератора с вертикальной осью вращения, который позволяет извлекать из общего потока ветра 50% энергии и не требует системы ориентации по направлению ветрового потока,что существенно упрощает его (ветрогенератора) конструкцию.



(a) (b)

РИСУНОК 1. (a) ветряная турбина, (b) компоненты ветряной турбины

References

Канунников В.В., Азаматов З.Т. “Аэрогидродинамический двигатель”, Патент № IAP 03399.

Азаматов З.Т. Абдурахманов К.П. Исаев Р.И. “Вопросы совместной работы фотоэлектричеких станции и ветрогенераторных установок”, *Сборник трудов Международной научно-техничекой конференции*, Ташкент, 2012.

Азаматов З.Т. Абдурахманов К.П. “Актуальная ветроэлектростанция малой мошности с вертикальной осью врашения для инновации”, *Сборник трудов Международной научно-техничекой конференции*, Ташкент, 2012.

С.В. Котеленко, А.В. Чижкин. “Развитие ветровой энергетики”, *Известия ТулГУ*, Вып. 12, 2021.

YARIM SILINDR SHAKLIDAGI SHAFFOF PLENKA TO’SIQLI QUYOSH ISSIQXONALARINING ISSIQLIK – TEXNIKAVIY PARAMETRLARINI ANIQLASH

A.Abdullayev[a], B.A.Abdullayev[b], [c]S.B.Abduraxmanova

[a] Guliston davlat universiteti, O‘zbekisron Respublikasi, Sirdaryo viloyati Guliston shahri, Bo‘ston mahallasi, [b] Guliston davlat pedagogika instituti, O‘zbekisron Respublikasi, Sirdaryo viloyati Guliston shahri, Bo‘ston mahallasi, [c]New Uzbekistan Universiti, Tashkent city, Mirzo Ulugbek district, Movarounnahr street 1, 100000

[a] e-mail:abduraxmon1948@gmail.com, [b] e-mail:baxtiyor.abdullaev.78@mail.ru

Annotatsiya. Yarim silindr shakligadi bir va ikki qatlamli shaffof plenka to’siqli quyosh issiqxonalarining issiqlik-texnikaviy parametrarini aniqlash usuli qarab chiqilgan. Bunda gelioissiqxonaning yarim silindr shaklidagi plenkali shaffof to’siqlari orqali kirayotgan to’g’ri quyosh nurlanishini hisoblashning o’rtacha integral uslubi, kirayotgan yig’indi quyosh nurlanishining o’rtacha kirish koeffitsenti yillik o’garishining mazkur to’siqlarning dunyo tomonlariga nisbatan joylashishi qarab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Quyosh nurlanishi, harnisbatanorat, gelioissiqxona, shaffof plenkali to’siq

Kirish. Shaffof to’siqdan o’tuchi va o’simliklar bargida yutiluvchi isitish mavsumi davomi da yig’indi quyosh radiatsiyasining miqdori ($Q^{\Delta z}_{yut_{o'}}$) isitish mavsumi davomidagi issiqxona ichidagi havoli muhit temperaturasini o’rtacha qiymati (faqat quyosh energiyasi hisobiga shakillangan) ($\bar{t}_i^{\Delta z}$), tizimdagi yonilg’ini quyosh energiyasiga (insolyatsiya) isitishiga almashtirish koeffitsenti ($K^{\Delta z}_{alm}$) va o’rtacha isitish mavsumi davomida shaffof to’sirq orqali issiqxona ichga quyosh radiatsiyasini kirish koeffitsenti qiymatiga ($\overline{K}^{\Delta z}_{kir}$) bog’liq bo’ladi. $Q^{\Delta z}_{Yut_{O'}}, \overline{t_i^{\Delta z}}, K^{\Delta z}_{alm}, \overline{K^{\Delta z}_{kir}}$ ifodalar o’z navbatida quyidagi formulalar orqali aniqlanadi [1]

$$Q^{\Delta z}_{Yut_{O'}} = \int_{Zulan}^{Z_{uzil}} q_{yut_{o'}}(z)dz; \overline{t_i^{\Delta z}} = \frac{1}{\Delta z}\int_{Z_{ula}}^{Z_{uzil}} t_i(z)dz; K^{\Delta Z}_{Alm} = \frac{Q^q_{ibqe}}{Q_{ii}}; \overline{K^{\Delta Z}_{kir}} = \frac{Q^{\Delta z}_{yutl_{o'}}}{Q^{\Delta z}_{Tush}\cdot\alpha_i}, \quad (1)$$

bu yerda Q^q_{ibqe} – isitish mavsumi davomida gelioissiqxona umumiy issiqlik balansidagi quyosh energiyasi; Q_{ii}- isitish mavsumi davomidagi quyosh energiyasi;

Q_{ii} –isitish mavsumi davomidagi gelioissiqxonaning hisoblangan yig’indi issiqlik isrofi: $Q^{\Delta z}_{Tush}$ – yassi (ochiq) sirtga isitish mavsumi davomida tushuvchi yig’indi quyosh radiatsiyasi miqdori; α_i – issiqxona ichidagi o’simlikar bargini nurni yutilish koeffitsenti. Q^q_{ibqe}, Q_{ii} va $Q^{\Delta z}_{Tush}$ kattaliklarning qiymatlari quyidagi ifodalar orqali aniqlanadi

$$Q^q_{ib} = K_{kel}(\bar{t}_i^{\Delta z} - \bar{t}_0^{\Delta z})\Delta z; Q_{ii} = K_{kel}\left(t_i - \bar{t}_o^{\Delta z}\right)\Delta z; \quad (2)$$

Q^q_{ibqe} va Q_{ii} ni $K^{\Delta z}_{Alm}$ ga qo’yib quyidagini hosil qilamiz

$$K_{Alm}^{\Delta z} = \frac{\bar{t}_i^{\Delta z} - \bar{t}_0^{z}}{t_{i_m} - \bar{t}_0^{\Delta z}}, \qquad (3)$$

Tashqi havoning temperaturasining yillik yo’li va quyosh radiatsiyasini issiqxona ichidagi o’simliklarda yutilishini Sirdaryo viloyati uchun quyidagi ifodalardan aniqlash mumkin:

$$t_t = t_0 + t_1 \sin \omega\tau + t_2 \cos \omega\tau \ , \qquad (4)$$

$$Q_{yut} = Q_0 + Q_1 \sin \omega\tau + Q_2 \cos \omega\tau \ . \qquad (5)$$

$$Q_{yut_{o'}} = q_{yut_0} \Delta z + \frac{1}{\omega}\left[q_{yut_1}\left(\sin \omega z_{uzil} - \sin \omega z_{ula}\right) - q_{yut_2}\left(\cos \omega z_{uzil} - \cos \omega z_{ulan}\right)\right] \qquad (6)$$

(1) dan foydalanib o’rniga qiymatlarni qo’ysak va ularni integrallash natijasida quyidagi natijalar olamiz.

Kattaliklarning, o’lchov birligi	Shaffof plenka to’siqlarning qavatlar soni			
	1		2	
	Yoritgichga nisbatan			
	Kenglik	Meridional	Kenglik	Meridional
$\bar{q}_{tush}^{\Delta z}$, Vt/m^2	90,97	88,63	79,10	77,63
$\bar{q}_{Yut}^{\Delta z}$, Vt/m^2	48,34	44,40	37,51	32,44
$Q_{tush}^{\Delta z}$, kJ/m^2	1248,1	1184,6	881,6	857,2
$Q_{Yut}^{\Delta z}$, kJ/m^2	663,2	593,5	418,1	358,1
$\overline{K}_{kir}^{\Delta z}$	0,664	0,626	0,593	0,522
$K_{Alm}^{\Delta z}$	0,342	0,314	0,487	0,433
$\bar{t}_o^{\Delta z}$, ^0C	3,76	3,60	2,54	2,50
$\bar{t}_i^{\Delta z}$, ^0C	8,87	8,34	10,41	9,52

1-Jadval. Hisoblashning natijalari

Hulosa qilib shuni takidlash joizki, kenglik yo’nalishidagi quyosh issiqxonalarida mavsumiy isirish davrida merdional yo’nalishga nisbatan 11,7 % bir qatlamlida va ikki qatlamlida 16,7% ortiq bo’ladi.

Adabiyotlar

1. А.Абдуллаев. Нестационарные тепловые режимы и оптимизация основных параметров пленочных гелиотеплиц полуцилиндрической формы. Дисс…к.т.н. Ташкент-Гулистан.2007, 187 с.

2. Avezov R.R., Niyazov Sh.K., Abdullaev A.A. The influence of the orientation of translucent film fencing of solar panels on the efficiency of solar energy use//Solar engineering. 1993.No.4. pp.24 - 28.

3. Niyazov Sh.K., Abdullaev A.A. The influence of vegetation cover on the temperature regime of the soil of the solar greenhouse//Solar engineering. 1989.No.2. pp.52- 54.

O‘ZBEKISTONDA QUYOSH RADIATSIYASINI BAHOLASHNING ANIQLIGINI OSHIRISH: SUN‘IY YO‘LDOSH MA‘LUMOTLARI VA YERUSTI KUZATUVLARINI TAQQOSLASH

E.Y.Raximov[a)], B.Y.Omonov[b)]

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent, O’zbekiston

[a)] *Corresponding author: eyurakhimov@gmail.com*

[b)] bahromomonov0627@gmail.com


Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan 21 ta yerusti meteorologik stansiyalarida 2022–2024-yillar davrida kuzatilgan (10 min qadam bilan) gorizontal yuzaga tushuvchi yig‘indi quyosh radiatsiyasi (GHI) ko‘rsatkichlari Xalqaro NASA POWER, ERA5 va DWD GLOBAL ma’lumotlar bazalaridan olingan qiymatlar bilan taqqoslanib, verifikatsiya qilingan. Verifikatsiya jarayonida kun osmon holatiga qarab, to‘rt guruhga ajratilgan: ochiq kun – ko‘k osmon, to‘liq tumanli, tumanli va qisman bulutli hamda to‘liq bulutli osmon. Tadqiqot natijalari ko’ra, ochiq kunlar uchun ERA5 va OPEN METEO modellarining aniqligi eng yuqori, tumanli va bulutli kunlarda esa prognozlarning aniqligi pasayadi, barcha modellarda xatolik ko‘rsatkichlari ortdi. NASA POWER modeli ba‘zi sharoitlarda eng kam aniqlikda ekanligini aniqlandi.

Kalit so‘zlar: Quyosh radiatsiyasi, NASA POWER, ERA5, verifikatsiya, aktinometrik ma‘lumotlar, sun‘iy yo‘ldosh va yerdagi kuzatishlar, meteorologik stansiyalar, qayta tahlil, quyosh atlasi, ma‘lumotlar bazasi.

Kirish. Quyosh radiatsiyasi quyosh fotoelektrik stansiyalarining (FES) samaradorligiga, xususan, fotoelektrik panellarning foydali ish koeffitsiyentiga ta‘sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Quyosh radiatsiyasining qisqa vaqt diapazonida (soatlik yoki kunlik) o‘zgarishini aniqlash FES ishlash rejimini samarali boshqarish, monitoring qilish va kelgusida energiya ishlab chiqarishni prognozlash imkonini beradi [1, 2]. Ayniqsa, quyosh radiatsiyasining to‘g‘ri modellashtirilishi fotoelektrik (PV) va PV/T tizimlarining samaradorligini oshirishda katta rol o‘ynaydi, bu esa energetik tizimlar uchun strategik yechimlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega [3].

Quyosh radiatsiyasining yer sirtiga tushishini osmon holatiga qarab bir nechta mezonlar asosida guruhlarga ajratiblib (ochiq, qisman-bulutli va bulutli) o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar avvalgi yillarda dunyoning turli davlatlarida joylashgan yerusti meteostansiyalarida ko‘plab olimlar tomonidan amalga oshirilgan [4-7].

Ma’lumotlar va uslublar. Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlardan farqli o‘laroq, ushbu tadqiqot ishida O’zbekiston hududida o’rnatilgan 21 ta yerusti meteostansiyalarining 2022-2024 yilar oralig’ida kuzatuvlari natijasida olingan soatlik va kunlik gorizontal yuzaga tushuvchi umumiy yig’indi quyosh nurlanishi (GHI) ma‘lumotlari xalqaro NASA POWER, ERA5 reanaliz va DWD Global [8-10] ma‘lumotlari bilan verifikatsiya qilingan. Verifikatsiya jarayonida kun osmon holatiga qarab, to‘rt guruhga ajratilgan: ochiq kun – ko‘k osmon, to‘liq tumanli, tumanli va qisman bulutli hamda to‘liq bulutli osmon. Ushbu guruhlar asosida ma‘lumotlarni solishtirish orqali xalqaro ma‘lumotlarning aniqligi va ishonchliligi baholangan (1-rasm).



1-RASM. Kunlik osmon sharoitlariga a)-ochiq, b) tumanli, c) tumanli va qisman bulutli va d) bulutli kunlar ko’ra ERA5, NASA POWER va Open Meteo bazalaridan olingan soatlik GHI_{DB} ma’lumotlarini yerda kuzatilgan GHI_{GROUND} ma’lumotlarga nisbatan sochilish grafigi.

Olingan natijalar va muhokama. 1-rasmdan ko‘rinadiki *ochiq kunlarda* ERA5 va OPEN METEO modellarining prognozlari yuqori moslik darajasi (R^2 = 0.95) va past xatolik (MAE va RMSE) ko‘rsatkichlariga ega, bu ularni aniqroq modellar sifatida ko‘rsatadi.

Tumanli va qisman bulutli kunlarda barcha uchta model o‘rtasida ERA5 va NASA POWER modellarining R^2 qiymatlari biroz yuqori (mos ravishda 0.67 va 0.68), ammo MAPE ko‘rsatkichlari ham sezilarli darajada yuqori (51% dan 58% gacha), bu esa bu sharoitlarda prognozlarning aniqligi pasayganligini ko‘rsatadi.

Bulutli kunlarda prognozlarning aniqligi yanada pasayadi. NASA POWER modeli eng past MAE (72 W/m²) va RMSE (97 W/m²) ko‘rsatkichlari bilan nisbatan yaxshi chiqsa-da, hammasi bo‘yicha moslik darajasi past.

Xulosa. Ochiq kunlar uchun ERA5 va OPEN METEO modellarining aniqligi eng yuqori, tumanli va bulutli kunlarda esa prognozlarning aniqligi pasayadi, barcha modellarda xatolik ko‘rsatkichlari ortadi. NASA POWER modeli ba‘zi sharoitlarda eng kam aniqlikni ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’xati

1. N.R. Avezov and et al., Applied Solar Energy, **55**, No. 5, 347–354 (2019).
1. S. Manju & M. Sandeep, Journal of Cleaner Production, **230**, 116-128 (2019).
2. J.Sun & M. Shi, Science in China Series E: Technological Sciences, **52**, 3514-3520 (2009).
3. Z.Tahir, and et al., Sustainable Energy Technologies and Assessments, **47**, 101485 (2021).
4. B.Aksoy, International Journal of Remote Sensing, **32**, 6261 – 6272 (2011).
5. M. Marchand and et al., Advances in Science and Research, **17**, 143-152 (2020).
6. J.Vinde, J. Polo & F. Antoñanzas-Torres, Journal of Renewable and Sustainable Energy, **5**, 063123 (2013).
7. A. Amillo, T. Huld & R. Müller, Remote. Sens., **6**, 8165-8189 (2014).
8. NASA Prediction Of Worldwide Energy Resources, URL: https://power.larc.nasa.gov/.
9. Welcome to the Climate Data Store, URL: https://cds.climate.copernicus.eu/cdsapp#!/home/.
10. Weather Forecast API, URL: https://open-meteo.com/en/docs.

ZAMONAVIY QUYOSH ELEMENTLARI TEXNIK XARAKTERISTIKALARINI O‘LCHASH NATIJALARINING PERC TEXNOLOGIYASI BILAN BOG‘LIQLIGI

M.X. Murodov, B.X. Siddiqov
Namangan muhandislik-qurilish instituti, O‘zbekiston
Corresponding author: m_murodov@mail.ru
Anotherauthor: bahromjonsiddiqov85@gmail.com

Annotatsiya: Quyosh elementlari va panellarini ishlab chiqarish texnologiyalari doimiy ravishda rivojlanib borishi natijasida yuqori samaradorlikka ega bo’lgan quyosh elementlari texnologiyalari ishlab chiqlimoqda. Ushbu tadqiqot ishida zamonaviy texnologilarni tanishtirib o’tish bilan birga ulaning ichida alohida afzalliklari bilan ajralib turuvchi PERC texnologiyasini o’rganish bo’yicha ma`lumotlar keltirilgan va parametrlari bayon etilgan.

Kalit so’zlar: Fotolementi, samaradorlik, PERC texnologiyasi, F.I.K., elektron, yorug’lik, energiya, fotoelektrik modul.


So'nggi 15 yil ichida kristalli quyosh elementlari texnologiyasini ishlab chiqishda ulkan muvaffaqiyatlarga erishildi [1]. Quyosh elementlarini ishlab chiqarish sifatini oshirishdan tashqari, ularning ishlab chiqarish texnologiyasi ham o'zgardi. Quyosh fotoelektrik elementlarini ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish tufayli quyosh elementlari samaradorligi sezilarli darajada oshdi. Hozirgi vaqtda quyosh elementlari tayyorlashning so’ngi vakillarini (poli- va monokristallar) ajratib ko'rsatish mumkin, quyida ularning zamonaviy texnologiyalarini ko'rib chiqamiz:

PERC – Passivated Emitter Rear Cell – fotoelement orqa tomonidagi passivlashtiruvchi emitteri (kontakti) degan ma`noni anglatadi (1-rasm).

Quyosh elementining orqa tomonidagi bu qatlam quyosh elementi orqali o'tadigan yorug'likni yana element ichiga akslantirishga yordam beradi, shuning uchun u ko'proq erkin elektronlarni generatsiyalashi mumkin. Bu effekt elementning orqa tarafidan passivlashtirish deb ham ataladi.

So'nggi bir necha yil ichida PERC texnologiyasi fotoenergetika sanoatida quyosh elementlari ishlab chiqarish bo’yicha ilmiy-tadqiqot ishlarida favoritlardan biri bo'lib, fotoelektrik modullarni ommaviy ishlab chiqarishda allaqachon standartga aylandi [2].

Quyosh elementning orqa tomonidagi bu qatlam fotoelement orqali o'tadigan, aniqrog’i, quvvatni generatsiyalamay o’tib ketadigan yorug'likni yana elemet ichiga akslantiriradi va shu sababli element hajmida ko'proq erkin elektronlar hosil qilishi mumkin. Bu effekt *backside passivation* – orqa tarafdan passivlashtirish deb ham ataladi.



1-rasm. PERC texnologiyasi asosida tayyorlangan fotoelement kesimi

PERC texnologiyasidan foydalangan holda ishlab chiqarilgan quyosh elementlari 20% dan yuqori F.I.K. ga ega. Bu esa ularga taxminan 17-19% samaradorlikka ega bo'lgan an'anaviy p-tipli kremniyli quyosh elementlaridan ustunligini ta`minlaydi.

F.I.K. dagi bu farq 60 ta quyosh elemetidan tashkil topgan an'anaviy quyosh moduliga nisbatan xuddi shunday PERC modulining nominal quvvati 3-5 W ga ortiqligini bildiradi.

Yuqori F.I.K. dan tashqari, PERC quyosh elementlari potentsial ravishda iqtisodiy afzalliklarga ham ega. Biroq, PERC modullari an'anaviylardan arzonroq bo'lishi uchun ularning ishlab chiqarish quvvatini sezilarli darajada oshirish kerak bo'ladi [3].

JA Solar, Trina Solar, NeoSolar, Gintech, Hanwha Q Cells va Suntech kabi ko'plab Osiyodagi ishlab chiqaruvchilar allaqachon ishlab chiqarish liniyalarini yangilagan yoki yangilash jarayonida.

Shunday qilib ushbu texnologiyaning qo’llanilishida natijasida passivlashturuvchi dielektrik qatlamning quyosh elementi samaradorligini oshirishiga uchta asosiy sababi bor:

1. Qo‘shimcha DPL elektronlar rekombinatsiyasini kamaytiradi:
2. Qo'shimcha dielektrik passivlashtiruvchi qatlam quyosh elementining quyosh nurlanishini “tutish” qobiliyatini oshiradi.
3. Qo‘shimcha dielektrik passivlashtiruvchi qatlam quyosh elementi hajmidan tashqarisi tomonga to'lqin uzunligi 1180 nm dan ortiq bo'lgan yorug'likni akslantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Richards, Bryce S. “Photovoltaics literature survey (no. 43).” Progress in Photovoltaics: Research and Applications 14.1 (2006): 89-93.
2. Кувшинов В.В. Морозова Н.В., Кузнецов П.Н., Установки для солнечной энергетики, Монография. Москва: Издательство «Спутник+», 2017. 177 с.
3. M.Murodov, R.Murodov, M.Abduraimov. “Quyosh energetik qurilmasi samaradorligini oshirish uchun kombinatsiyalashgan termofotoelektrik qurilma.” Conferencea (2022): 371-375.

QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA TURLARI VA ULARDAN FOYDALANISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.

Qo‘shmatova Sh.M. Qarshiboyeva F.N
Ohangaron shahar kasb-hunar maktabi ICHTUsi.
+998941333288 @shmqushmatova

Annotatsiya. So‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishi va barqaror energiya imkoniyatlariga bo‘lgan talabning ortib borayotgan tashvishlari natijasida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada oshdi. Qayta tiklanadigan energiya manbalari juda ko‘p afzalliklarga ega, ammo ularni amalga oshirish va hozirgi energiya tizimlariga integratsiya qilish qiyin bo‘lishi mumkin. Ushbu tesizning maqsadi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish bilan bog‘liq dolzarb muammolarni o‘rganish va istiqbolli echimlar haqida fikr yuritishdir.

Kalit so‘zlar: Muqobil energiya, qayta tiklanuvchi energiya, quyosh energiyasi, shamol energiyasi, geotermal energiya, bioenergiya.

1. Intervalentlik va tarmoq integratsiyasi: Quyosh va shamol energiyasi kabi qayta tiklanadigan energiya manbalarining tuzilishi, tabiati uning asosiy kamchiliklaridan biridir. Talabni qondirish uchun osongina jo‘natilishi mumkin bo‘lgan qazib olinadigan yoqilg‘idan farqli o‘laroq, qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarishga ob-havo va tabiiy resurslarning mavjudligi ta’sir qiladi. Barqaror va ishonchli quvvat manbasini saqlab qolish bu sporadik tabiat tufayli qiyin. Ushbu muammoni hal qilish uchun ko‘plab turli xil echimlar ishlab chiqilgan. Batareyalar, nasosli gidroenergetika va siqilgan havo energiyasini saqlash - bu yuqori ishlab chiqarish davrida qo‘shimcha qayta tiklanadigan energiyani saqlashi va talab taklifdan oshib ketganda uni chiqarishi mumkin bo‘lgan tarmoq miqyosidagi energiya saqlash qurilmalariga misoldir. Bundan tashqari, aqlli tarmoq texnologiyalari qayta tiklanadigan energiya manbalarini integratsiyalashni osonlashtiradi, chunki ular talab javobini boshqaradi, energiya oqimini optimallashtiradi va real vaqtda monitoring va nazoratni ta’minlaydi [1].

2. Xarajatlarning raqobatbardoshligi: Yillar davomida xarajatlar sezilarli darajada kamayganiga qaramay, qayta tiklanadigan energiya texnologiyalari an’anaviy qazib olinadigan yoqilg‘iga asoslangan elektr stansiyalari kabi arzon bo‘lishi uchun hali ko‘p yo‘l bosib o‘tishi kerak. Qayta tiklanadigan energiya infratuzilmasini o‘rnatish ba’zi manfaatdor tomonlarni to‘xtatib qo‘yadigan katta miqdordagi investitsiyalarni talab qilishi mumkin. Butun dunyo hukumatlari ushbu to‘siqni engib o‘tish uchun qayta tiklanadigan energiyani qabul qilishni rag‘batlantirish uchun turli xil siyosat va rag‘batlarni amalga oshirdilar. Bu investorlar uchun dastlabki xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi va ularga to‘lov tariflari, soliq imtiyozlari, grantlar va subsidiyalar kiradi. Qayta tiklanadigan energiya tizimlarining samaradorligi, shuningdek, doimiy tadqiqot va ishlanmalar orqali ishlab chiqarish xarajatlari yaxshilanmoqda [3].

3. Infratuzilmani rivojlantirish: qayta tiklanadigan energiya manbalarini keng qo‘llashni qo‘llab-quvvatlash uchun infratuzilmani sezilarli darajada rivojlantirish kerak. Qayta tiklanadigan energiya manbalarining ortib borayotgan kirib borishini boshqarish uchun bu yangi elektr stansiyalarini, elektr uzatish liniyalarini rivojlantirish va mavjud tarmoq infratuzilmasini yaxshilashni talab qiladi. Hukumatlar va energetika korporatsiyalari ushbu muammoni hal qilish uchun tarmoqni yangilash va kengaytirishga sarmoya kiritishlari kerak [1]. Qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarishdagi tebranishlarga moslashish va energiyani samarali etkazib berishni ta’minlash uchun bu uzatish va tarqatish tarmoqlarini modernizatsiya qilishni talab qiladi. Bundan tashqari, mintaqaviy tarmoqlarni ulash orqali kengroq geografik diapazonda talab va taklifni boshqarish va uzilishlar ta’sirini kamaytirish mumkin.

4. Atrof-muhitga ta’siri: Qayta tiklanadigan energiya manbalari odatda ekologik jihatdan qulay deb hisoblansa-da, ular o‘zlarining atrof-muhitga ta’siriga ega. Masalan, shamol turbinalari va quyosh panellarini keng miqyosda o‘rnatish atrof-muhitga va turlarning yashash joylariga ekologik va estetik ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ehtiyotkorlik bilan dizayn va sayt tanlash bu ta’sirlarni kamaytirish uchun kalit hisoblanadi. Qayta tiklanadigan energiya loyihalarini amalga oshirishdan oldin hukumatlar va ishlab chiquvchilar atrof-muhitga ta’sirni har tomonlama tahlil qilishlari kerak. Bundan tashqari, texnik ishlanmalar qayta tiklanadigan energiya infratuzilmasining atrof-muhitga ta’sirini kamaytirishi va ekotizimlarga zararni kamaytirishi mumkin [2].

Xulosa qilib aytganda, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish iqlim o‘zgarishini to‘xtatish va barqaror kelajakni ta’minlashning istiqbolli vositalarini taklif etadi. Biroq, keng ko‘lamda qabul qilinishi uchun ular bir qator to‘siqlarni engib o‘tishlari kerak. Biz ushbu to‘siqlarni engib o‘tishimiz va qayta tiklanadigan energiya manbalarining to‘liq salohiyatini tarmoq integratsiyasi texnologiyasiga sarmoya kiritish, qo‘llab-quvvatlovchi siyosatlar orqali narxlarni pasaytirish, zarur infratuzilmani qurish, atrof-muhitga ta’sirni minimallashtirish va jamoatchilikni qabul qilishni rag‘batlantirish orqali amalga oshirishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lyashkov B.I., Kuzmin S.N. Netradisionnie I vozobnoblyaemie istochniki energii. –Tambov: Nashr TDTU, 2003 96-bet.
2. Muxitdinov M., Ergashev S.F., Isakulov J.I. Quyosh energiyasidan foydalanish.Toshkent, DTM. 1999.-107 bet
3. Umarov G’., Usmonov M. Quyosh energiyasidan xalq xujaligida foydalanish. –T.; “Fan”, 1984. 40 bet

QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI: KELAJAKKA NAZAR

E.K.Muxtarov
Dotsent, AndDU, +998902582706


Annotatsiya: Hozirgi kunda global iqlim o‘zgarishi va energetik resurslarning cheklanishi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ahamiyatini oshirib bormoqda. Quyosh, shamol, biomassa va gidro energiyasi kabi manbalar, toza va barqaror energiya ta’minotini ta’minlash imkonini beradi. Ushbu maqolada qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishdagi asosiy muammolar, istiqbolli yechimlar va innovatsion texnologiyalar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: energiya manbalari, samaradorlik, ekologiya, innovatsiya.

Kirish. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM) – bu tabiiy jarayonlardan kelib chiqadigan va doimiy ravishda qayta tiklanadigan energiya manbalaridir. Ular nafaqat energiya xavfsizligini ta’minlash, balki ekologik barqarorlikni ham ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, QTEMlardan foydalanishda bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ularga innovatsion yechimlar va texnologiyalar yordamida yechim topish zarur.

Metodologiya. Qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi mavjud ilmiy tadqiqotlar, maqolalar, hisobotlar va davlat siyosatlarini o‘rganish


Natijalar. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligi hali ham past. Masalan, quyosh panellarining energiya o‘zlashtirish darajasi taxminan 15-20% atrofida, bu esa ularning kuchli energiya ishlab chiqarishiga to‘siq bo‘ladi. Shamol energiyasida ham bir xil muammolar mavjud, chunki shamol tezligi va yo‘nalishining o‘zgarishi ishlab chiqarishni izchil qilishga qiyinchilik tug‘diradi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligi hamda energiya manbalarining narxlari 1–rasmda keltirilgan.



1–rasm. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligi**.**

Qayta tiklanuvchi energiyaning asosiy muammolaridan biri bu uning doimiy emasligi. Energiya ishlab chiqarilishi va iste’moli orasidagi muvozanatni ta’minlash uchun samarali saqlash tizimlari zarur.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari an‘anaviy energiya manbalariga nisbatan kamroq ifloslanish va uglerod chiqindilarini kamaytirish imkonini beradi. Hozirgi vaqtda qayta tiklanuvchi energiya manbalari global energiya ishlab chiqarish va iste’molida muhim rol o‘ynamoqda. Ularning o‘sishi va rivojlanishi atrof-muhitni muhofaza qilish, energiya xavfsizligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun zarurdir. Yillar kesimida global qayta tiklanadigan elektr energiyasi ishlab chiqarish 2–rasmda ko‘rsatilgan.



2–rasm. Yillik qayta tiklanadigan elektr energiyasi ishlab quvvati.

Grafikdan ko‘rinadiki, shamol energetikasi va ayniqsa, Quyosh energetikasi barqaror o‘sish sur’atiga ega. Hozirda gidroenergetika ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish borasida yirik loyihalar kam ekanligi sababli uning o‘sish sur’ati uncha yuqori emas.

Xusola. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, global iqlim o‘zgarishini kamaytirish va barqaror energiya ta’minotini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, texnologik cheklovlar, energiya saqlash muammolari va infratuzilma masalalari hal qilinishi kerak. Innovatsion texnologiyalar va istiqbolli yechimlar orqali bu muammolarni bartaraf etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati

1. Stephen Peake. Renewable Energy: Power for a Sustainable Future. Oxford University Press. 2018.
2. Bekulova S.R. Renewable Energy Sources in the New Industrial Revolution: World and Domestic Experience. *The world of new economy*. 2019;13(4):14-21. (In Russ.) https://doi.org/10.26794/2220-6469-2019-13-4-14-21

GIDRAVLIKA: ASOSIY TUSHUNCHALAR VA QO'LLANISHI

M.Sh.Murodaliyeva, A.B.Nabiyev
NamDU 2-bosqich talabasi
NamDU dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada gidravlika tizimlari, uning tarixi va uning bir qator sohalarda ishlatilishi haqida ma’lumotlar berilgan

Kalit so‘zlar: Gidravlika, Bernulli va Paskal qonunlari, klapanlar, silindr, aralashmalar gidravlikasi.

Gidravlika — suyuqliklarning harakati va ularning mexanik xususiyatlarini o'rganadigan fan sohasi. "**Gidravlika**" so'zi yunoncha “hydra” “suv” va “aulos” “quvur” so‘zlaridan kelib chiqqan[1]. Bu so‘z suyuqliklarning harakati va ularning mexanik xususiyatlarini o‘rganadigan fan sohasini ifodalaydi. Bu ilmiy soha, asosan, muhandislik, fizika va matematika bilan bog‘liq bo‘lib, suyuqliklar orqali energiya va materiallar o‘tkazish jarayonlarini tahlil qiladi. Gidravlik sistemalar ko‘plab sanoat tarmoqlarida, masalan, qurilish, transport, kimyo sanoati va boshqa sohalarda keng qo‘llaniladi.

Gidravlika nazariy mexanikaga asoslangan. U XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida mustaqil fan sifatida rivojlana boshladi. Bu sohada I. Nyuton, D. Bernulli, M. V. Lomonosov, L. Eylernpt xizmati katta. Rus olimi N. Ye. Jukovskiy 1899-yilda dunyoga mashhur gidravlik zarba nazariyasini kashf etdi. Gidravlikaning asosiy bo‘limlaridan biri filtrlash nazariyasini yaratdi. Texnika va tabiatda ko‘p uchraydigan aralashmalar (suyuqlik, gaz va qattiq jism zarrachalari aralashmalari) gidravlikasi ayniqsa rivojlandi. Bu sohaga rus olimi F. I. Frankel va o‘zbek olimi X. A. Raxmatullinlar asos soldi. Ko‘p fazali aralashmalar gidravlikasi sohasida Toshkent ilmiy maktabi bunyodga keldi. O‘zbek olimi J. F. Fayzullayev quvurlarda harakatlanuvchi aralashmalar masalalari bilan shug‘ullandi, aralashmalar harakatiga oid bir qancha masalalarni nazariy va amaliy jihatdan hal qildi. Fanga Raxmatulin-Fayzullayev modeli tushunchasi kiritildi.

Gidravlika, asosan, quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi: 1. Bernulli qonuni: Bernulli qonuni suyuqliklar dinamikasida asosiy prinsip bo‘lib, suyuqlikning harakati davomida bosim, tezlik va balandlik o'rtasidagi bog'liqlikni belgilaydi. Qonunga ko'ra, suyuqlikning tezligi oshganda, uning bosimi pasayadi. Bu qonun, masalan, samolyot qanotlarining ko'tarilishida yoki quvurlar ichidagi suyuqlik oqimida qo'llaniladi[2]. 2. Paskal qonuni[3]: Suyuq muhitda bosim bir xil joyda tarqaladi. Bu qonunga muvofiq, bosim o‘zgarishi suyuqlikning har qanday joyiga bir xil ta’sir qiladi. 3. Arximed qonuni[4]: Suyuq ichida joylashgan jismlar ustida ko’tarish kuchi ta’sir qiladi. Bu qonun,

suyuqlikda joylashgan jismning suyuqlikdan ko’tarish kuchini aniqlashda qo’llaniladi.

Gidravlik tizimlar, asosan, quyidagi qismlardan iborat: - Suyuq: Gidravlik tizimlarda ishlatiladigan suyuqliklar (odatda, gidravlik moylar) suyuqliklarning bosimga bo’lgan javobini yaxshilash uchun tanlanadi. - Pompa: Suyuqlikni tizimda harakatlantirish uchun ishlatiladi. Pompa ishiga qaramay, tizimda bosim yaratadi va suyuqlikni kerakli joyga yetkazadi. - Silindr: Gidravlik silindrlar mexanik ishni bajaradi. Ular gidravlik bosimni mexanik kuchga aylantiradi. - Klapanlar: Suyuqlikning oqimini nazorat qiladi. Ular gidravlik tizimlarda bosimni saqlash va suyuqlik oqimini boshqarish uchun ishlatiladi.

Gidravlik tizimlar ko‘plab sohalarda qo‘llaniladi: masalan qurilish sohasida gidravlik liftlar va ekskavatorlar, qurilish ishlarida materiallarni ko‘tarish va harakatlantirish uchun ishlatilsa, transport sohasida avtomobillar va samolyotlarda gidravlik tormozlar va uzatmalar tizimlari ko‘plab vazifalarni bajaradi. Gidravlika tizimi sanoat sohasida ham eng kerakli tizim sanalib, gidravlik presslar, materiallarni siqish va qayta ishlash jarayonlarida qo‘llaniladi. Bundan tashqari, ushbu tizim energiya ishlab chiqarishda gidravlik energiya, suvning oqimi orqali energiya ishlab chiqarishni o‘z ichiga oluvchi muhim qism sanaladi, ushbu tizimdan olingan energiya esa to'g'ri va barqaror energiya manbai sifatida xizmat qiladi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, gidravlika suyuqliklarning harakati va ularning mexanik xususiyatlarini o‘rganish orqali zamonaviy texnologiyalarda muhim rol o‘ynaydi. Bu fan insoniyatning ko‘plab sohalarida, masalan, qurilish, transport va energetika sohalarida yutuqlarni ta’minlaydi. Gidravlik tizimlar to‘g‘ri ishlatilganda, samaradorlik va qulaylikni oshiradi, shuning uchun bu soha doimo o‘zgarib va rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. https://muhaz.org/bernulli-tenglamasi
3. Xudoynazarov X., Abdirashidov A., Kasimova F.U., Isroilov Sh.N. suyuqlik va gaz mexanikasi. (gidrostatika va kinematika). O‘quv qo‘llanma. –Samarqand: SamDU nashri, 2021 y.– 216 b.
4. Xudoynazarov X., Abdirashidov A., Kasimova F.U., Isroilov Sh.N. suyuqlik va gaz mexanikasi. (gidrostatika va kinematika). O‘quv qo‘llanma. –Samarqand: SamDU nashri, 2021 y.– B. 78

MUQOBIL ENERGIYA VA EKOLOGIYA

[1]Karimov A.M
[2]Madaminova X.R
[1]Namangan davlat universiteti Fizika kafedrasi o’qituvchisi
[2]Namangan davlat universiteti Fizika yo’nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tabiiy yer osti yonilg’i zaxiralari tugab borayotganligi va alternativ yonilgi maxsulotlariga talab ortib borayotligiga doir ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar Neft, gaz, ko‘mir energetikaning asosiy manbalaridir, energiya quyosh nuri, shamol suv harakati va geotermal issiqlik. ekologiya

Kirish. Neft, gaz, ko‘mir energetikaning asosiy manbalaridir. Hozirda yiliga 12 mlrd tonna energiya manbalari qazib olinmoqda. Ammo kelgusi taxminan 2045 yilga borib neft, 2080 yil borib gaz, 2125 yilga borib ko‘mir zaxiralari tugaydi. Shu bois muqobil yoki qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirish muhim. Yetakchi davlatlarda quyosh, shamol, suv, geotermal energiyadan foydalanmoqda. Bular umumiy energetik salohiyatning 20 foizdan ko‘prog‘ini tashkil etadi. O‘zbekiston yiliga 182 mln tonna neft ekvivalentiga teng quyosh energiyasiga ega. Mamlakat har yili 60-65 tonna neft ekvivalentiga teng energiyani iste'mol qilayotgan bo‘lsa, bu talabga qaraganda 3 hissa ko‘p taklif bor, degani. Umumiy hisobda esa quyosh 51 mlrd tonna neft salohiyatiga ega. An'anaviy usulda uzoq hududlarga energiya uzatishda 30-35 foiz yo‘qotish bo‘ladi. Shuningdek, qazib chiqarish jarayoni ham iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik zarar tug‘diradi. Quyosh energiyasi esa ekologik toza mahsulot hisoblanadi.

Muhokamalar. Qayta tiklanadigan energiya vaqt o‘tishi bilan tabiiy ravishda to‘ldiriladigan qayta tiklanadigan manbalardan to‘plangan energiyadir. U ekologik jihatdan toza bo’lgan quyosh nuri, shamol, suv harakati va geotermal issiqlik kabi manbalarni o‘z ichiga oladi. Ko‘pgina qayta tiklanadigan energiya manbalari barqaror bo‘lsa-da, ba’zilari barqaror emas. Misol uchun, ba’zi biomassa energiya manbalari hozirgi ekspluatatsiya jarayonida barqarorlik kasb etmaydi deb hisoblanadi. Qayta tiklanadigan energiya ko‘pincha elektr tarmog‘i, havo va suvni isitish va sovutish hamda mustaqil ravishda ishlaydigan energiya tizimlariga elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun energiya yaratib beradi. Dunyo miqyosida qayta tiklanadigan energiya sanoati bilan bog‘liq 10 milliondan ortiq ish o‘rni mavjud. Ular orasida quyosh fotovoltaiklari qayta tiklanadigan energiya manbalarining eng yirik ish beruvchi tizimi hisoblanadi. Bugungi kunda qayta tiklanadigan energiya tizimlarida energiya ishlab chiqarish jarayoni anchagina tez va samarali ravishda amalga oshirilmoqda.Shu boisdan energiya narxi arzonlashmoqda va ularning umumiy energiya iste’molidagi

ulushi ortib bormoqda. Butun dunyo bo‘ylab yangi o‘rnatilgan elektr quvvatlarining katta qismi qayta tiklanadigan manbalar hisoblanadi. Ko‘pgina mamlakatlarda fotovoltaik quyosh energiyasi yoki shamoldan olinadigan energiya eng arzon elektr energiya manbaiga aylanib ulgurdi. Dunyo bo‘ylab ko‘pgina davlatlar qayta tiklanadigan energiya manbalariga ega. Qayta tiklanadigan energiya ularning umumiy energiya ta’minotining 20 % dan ortig‘ini tashkil qiladi. Ba’zilari esa qayta tiklanadigan energiya manbalaridan elektr energiyasining yarmidan ko‘prog‘ini ishlab chiqaradi. Bir necha mamlakatlar qayta tiklanadigan energiyadan foydalangan holda deyarli barcha elektr energiya resurslarini ishlab chiqarishmoqda. Qayta tiklanadigan energiya milliy bozorlari kuchli o‘sishda davom etishi kutilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, 100 % qayta tiklanadigan energiyaga global o‘tish barcha sohalarda — energiya, issiqlik, transport- amalga oshirilishi mumkin va bu iqtisodiy va ekologik jihatdan anchagina foydali hisoblanadi. Qayta tiklanadigan energiya va energiya samaradorligini oshirish texnologiyalarini joriy etish sezilarli darajada energiya xavfsizligi, iqlim o‘zgarishi va iqtisodiyot sohalarida foyda keltiradi. Xalqaro jamoatchilik fikrini o‘rganish mobaynida quyosh energiyasi va shamol energiyasi kabi qayta tiklanadigan manbalar aholi ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli ekanligi isbotlangan.Shuning uchun Xalqaro Energetika agentligi 2021-yilda qayta tiklanadigan energiya manbalarini ko‘paytirish uchun ko‘proq harakat qilish kerakligini va 2030-yilgacha bu manbalarni ishlab chiqarishni yiliga taxminan 12 % ga oshirishni ta’kidladi.

Xulosa. Ekologik toza bo‘lgan qayta tiklanadigan energiya manbalari atrof-muhitga ziyon yetkazmaydi va chiqindilardan olinadigan energiya tufayli tabiat tozalanadi. Aytish kerakki, bu manbalar odatda yetarlicha katta bo‘lgan aholi manzillari va yirik sanoat korxonalarini to‘la ta’minlash imkoniyatiga ega emas ammo kelajakda asosiy energiya resurslarimiz tugar ekan bizga qayta tiklanuvchi energiya manbaalari zarur bo’ladi. Ular chekka qishloq, mahalla, kichik inshootlarni energiya bilan ta’minlaydi. Mamlakatimizda qayta tiklanadigan ekologik toza energiya manbalarini qo‘llash katta istiqbolga ega va ekologik, ijtimoiyiqtisodiy jihatdan ham samaralidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Baxodirxonov M.K.S., Zikrillayev N.F., Shoabduraximova M.M. Alternativ energiya manbalari. darslik 2021, 229 bet.
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Non-renewable_resource
3. Karimov A. Ecological education and upbringing in teaching of physics //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B2. – C. 439-442.
4. Gazeta.uzhttps://www.gazeta.ua › 2024/01/25 Узбекистан превратился в нетто-импортёра газа.

QUYOSH ENERGIYASIDAN FOYDALANIB VODOROD OLISH

M.U.Nosirov
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Materialshunoslik instituti
2-bosqich tayanch doktoranti
bbilolzon@gmail.com

Annotatsiya.; Ushbu maqolada biz dolzarb va rivojlanayotgan vodorod olish haqida aytib o‘tdik. O‘zbekiston iqlimi jihatdan 260-270 kun quyoshli kun deb qabul qilingan. Shunday ekan quyosh energiyasidan foydalanib olingan elektr tokini vodorod olish uchun sarflashimiz mumkin bo‘ladi. Bizning Materialshunoslik institutimizda o‘rnatilgan 10 kVt li quyosh paneli stansiyasida olingan tokni vodorod olishda tajribalar, sinovlar o‘tkazildi.[1]

Kalit so‘zlar: quyosh energiyasi, vodorod, kislarod, eritma, elektroliz, invertor.

Kirish. Kelajakning ekologik toza yoqilg‘isi bo‘lgan vodorodni olish usullaridan biri suvni elektroliz qilish, ya‘ni elektr energiyasi yordamida suv molekulasini vodorod va kislorodga ajralishidir. O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalari orasida quyosh eng katta salohiyatga ega. Shuning uchun biz quyosh energiyasidan foydalangan holda vodorod ishlab chiqarishga e‘tibor qaratamiz.


Ilmiy-tadqiqot metodlari. Materialshunoslik institutida 10 kVt lik fotoelektr stansiyasi (FES) qurildi. Bu qurilma 30 ta o‘lchamlari 2 x 1m, 350 watt quvvatli fotopanellardan iborat. 10 kVt quvvatli FES yil davomida quyosh nurlari bilan yoritiladigan burchak ostida qurilgan. Qurilish vaqtida har bir fotopanel infra qizil kamera yordamida (bevosita nazorat qilinib) tekshirilib, ularning yaroqliligi aniqlangan. Mutaxasislar bilan maslahat qilinib, 12 kVtlik toza sinusoidal kuchlanish beruvchi invertor bilan jixozlangan. Invertorga USB port orqali ulanib, WinCC maxsus dasturida FES ning energetik prametrlarini nazorat qilish mumkin. 4 kVt quvvatli 3 ta kontroller orqali 8 ta geliyli akkumulyator nazorat qilinadi. Bu jarayon ham Wi-Fi rotor orqali masofadan nazorat qilish imkonini beradi.



1-rasm.10 kVt li quyosh fotoelektr stansiyasi (FES**).**

Elektrolizerlar uchun suv tayyorlash tizimi yaratildi:1 tonnalik 2 ta plastik idish, ikki bosqichli suv tozalash filtri va elektrodistillyatordan iborat. 10

kVt li FES ni 12 kVt li sinusoidal kuchlanish beruvchi invertor orqali kompyuterda energetik parametrlarini nazorat qilish tizimi yaratilgan. Wi-fi rotor orqali Kontrollerga ulanib, FES ning energetik ko‘rsatkichlarini masofadan nazorat qilish tizimi o‘rnatilgan[1,2].



2-rasm. Quyosh energiyasidan foydalangan holda suvni elektroliz qilish yo‘li bilan vodorod olishning umumiy sexemasi:1-FES; 2-konvertor qurilmasi;3-elektrolizator; 4-nasos; 5-vodorodni saqlash uchun gaz ushlagichi; 6-eritmani tayyorlash uchun blok.

Natijalar.

-10 kVt/soat quvvatli elektrolezrning ishlab chiqarish samaradorligi 12% ni tashkil qildi;

-soatiga 100 litr vodorod va 200 litr kislarod ajratib olindi.

Muhokamalar va Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki gaz, ko‘mir, neft va boshqa tabiy resurslar miqdori cheklangan. Hozirgi kunda alternativ,qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish uchun izlanishlar olib borilmoqda. Kelajak yoqilg‘isi deb aytilayotgan vodorod olish usullari ko‘p, shulardan optimal variantini ishlab chiqarishga taklif bermoqdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. М.У.Носиров., Ю.Б.Собиров., Ш.Р.Нурматов., Х.Ю.Рахимов. “YOSH OLIMLAR AXBOROTNOMASI” 22-26 стр,3(4) 2024.

2. Ю.Б. Собиров, М.У. Носиров Материалы международной научной конференции “Новые материалы и гелиотехнологии ” Методы получения зелёного водорода использованием солнечной энергии 149-150 стр,

15-16 мая 2023 года г.Паркент,Узбекистан

3. Аллаев К.Р., Авезова Н.Р. Водород – будущее энергетики мира и Узбекистана. //*Гелиотехника*, 2021, Том 57, №4, с. 345-358.

SENTAURUS TCAD DASTURI YORDAMIDA IKKI TOMONLAMA SEZGIR QUYOSH ELEMENTINI MODELLASHTIRISH

[a)]R.Aliyev, [a)]M.M.Komilov, [a)] J.N.Ziyoitdinov, [b)] A.A.Mirzaalimov, [a)]J.I.Qaahhorov, [a)]E.I.Sultonov


[a)] Andijon davlat universiteti, Andijon, O’zbekiston
[b)] Andijon davlat pedogogika insituti, Andijon, O’zbekiston
[b)] komilovmdotcom94@gmail.com

Annotatsiya: Sentaurus TCAD dasturi yordamida ikki tomonlama sezgir quyosh elementini modellashtirish orqali uning optik generatsiya jarayoni tadqiq etilgan. Bunda tashqari, mazkur quyosh elementining old va orqa qismiga optimal balandlikka ega bo‘lgan tekstura hosil qilish hamda nur qaytarishga qarshi qatlam sifatida 100 nm qalinlikdagi SiO_2 qoplash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Kremniy, ikki tomonlama sezgir quyosh elementi, nur qaytarishga qarshi qatlam, Sentaurus TCAD.

Mazkur tadqiqot obyekti sifatida ikki tomonlama sezgir kremniy asosli quyosh elementi namunasi tanlab olingan. Dastlab ikki tomonlama sezgir quyosh elementini geometrik chizmasi uchun kerakli algoritmlar, Sentaurus TCAD dasturining SDE paketidan foydalangan holda hosil qilindi. Algoritm tuzishda avvalo, zaruriy o‘zgarmas kattaliklarni belgilash, o‘zgaruvchi kattaliklar uchun kodlarni kiritish orqali ularning tajriba chegaralari hosil qilindi. Yaratilgan geometrik modelning o‘lchami, hisoblashlar aniqligini oshirish uchun katta ahamiyatga egadir. Modelning o‘z o‘lchamidan kelib chiqib geometrik shaklda to‘r (mesh) hosil qilinadi, uning asosiy vazifasi belgilangan chegaralar uchun elektrofizik jarayonlarni har bir to‘rda hisoblash amallari bajariladi. Namunadagi quyosh elementi uchun hisoblashdagi to‘r kattaligi *x* va *y* o‘qlari uchun 0.5 x 0.5 qiymatda olindi. Ushbu o‘lcham qiymatlari shuni anglatadiki, namunadagi quyosh elementi uchun har bir o‘qdan 0,5 μm kichik bo‘laklarga bo‘lgan holda hisoblash ketma-ketliklari bajariladi [1]. Ushbu hisoblashlar quyosh elementidagi barcha elektrofizik hamda fotoelektrik kattaliklarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli quyosh elementlarlari uchun asosan optik xususiyatlarni aniqlash zarur. Optik xususiyatlar yordamida yorug‘lik nurining havo va kremniy chegarasida qaytgan, yutilgan va o‘tgan qismlarini to‘la aniqlash imkoni mavjuddir. Optik xususiyatlar asosan Sentaurus Devise paketida mavjud bo‘lgan quyidagi “Transfer Matrix Method (TMM)”, “Ray Tracing” hamda “Beam Propagation” metodlar yordamida aniqlanadi. “Ray Tracing” metodi yordamida quyosh elementiga ma’lum bir qiymatdagi nur beriladi va bu nurlar namuna bilan ta’sirlashish davomida singan, qaytgan va o‘tgan qismlarga ajralib, alohida mustaqil nur sifatida qaraladi [2]. Tadqiqot ishida dastlab quyosh elementi frontal qismiga tik nur ta’sir ettirilishi natijasida

hisoblashlar amalga oshirildi. So‘ngra, orqa va har ikki tomonlama teng nur ta’siridagi optik generatsiya, ya’ni fotonlar zichligini aniqlandi. Bunga ko‘ra, ikki tomonlama teng yorug‘lik nuri ta’siridagi optik generatsiya enga katta qiymatda bo‘lib, frontal nur ta’siridagi qiymatidan 1,33 marta katta ekanligini 1-rasmda ko‘rish kumkin.



1-Rasm. a) old nur tasiri b) orqa nur ta’siri c) ikki tomondan teng nur ta’siridagi optik generatsiyasi

Mazkur rasmdan ma’lum bo‘ladiki ikki tomonlama teng yoritish natijasidagi optik generatsiya katta eknaligi hisobiga uning foydali ish koeffitsiyenti qiymati 22.16 % ekanligi aniqlandi. Har bir ta’sir ettirilgan nur uchun fotoelektrik kattaliklar quyidagi 1-jadvalda ko‘rish mumkin.

1-jadval

Yorug‘lik nuri yo‘nalishi	U_{oc} V	J_{sc} mA/cm^2	P_{mpp} wt	FF	FIK, %
Old (Frontal)	0.528	32.54	13.47	0.784	21.29
Orqa (Back)	0.522	29.64	12.19	0.787	19.25
Ikki tomonlama (Double side)	0.546	31.07	14.83	0.807	22.16

1-jadval. Har bir ta’sir ettirilgan nur uchun fotoelektrik kattaliklar.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan qiymatlardan xulosa qilish mumkinki, ikki tomonlama sezgir quyosh elementining samaradorligi odatiy quyosh elementiga nisbatan yaxshiroq ekanligini aytish mumkin.

Adabiyotlar:

1. С.Ф. Эргашев[1], Ж.И. Каххаров[2], Р. Алиев[2], Э. Гоипов[2] Научно–Технический Журнал Ферпи Основные характеристики энергетических панелей с двухсторонне - чувствительными кремниевыми солнечными элементами.
2. Алиев Р.[1], Эргашев С.Ф.[2], Каххаров Ж.И.[1] Научно-Технический Журнал Ферпи Состояние исследований и перспективы использования двухсторонне-чувствительных солнечных панелей.

RESEARCH AND STUDY OF P-TYPE BRANCHES OF THERMOELECTRIC CONVERTERS BASED ON POLYCRYSTALS OF SOLID SOLUTIONS OF BISMUTH TELLURIDE

M.B.Nabiyev[1].,B.Axmedov[1]., O.B. Tillaboyeva[1].,D.D.Gulomjonova[1]. J.S Abdullaev[2]

[1] Associate Professor, Candidate of Technical Sciences, Fergana State University. mbnabiev52@gmail.com. Fergana, 150100, Uzbekistan.

[1]Fergana State University, Master of Physical Sciences, Faculty of Physics.

-[2]Faculty of Natural Sciences named after Muhammad al-Khwarizmi, TUIT FF. Associate Professor.

jamoliddin196005@gmail.com

Abstract. The work developed a p-type material based on Bi2-xSbxTe3 with a composition near x≈ 1.5 for use in converters in the above temperature range. As in [1], the problem of expanding the range of operating temperatures towards higher ones was solved by optimizing the carrier concentration by doping the base.

Key words: electrical conductivity, thermal conductivity, thermogenerator, polycrystal, cold, hot pressing and annealing, Argon gas.

Typically, when obtaining a p-type base, the undoped batch is enriched with an excess of tellurium (up to 4%). In this case, even if the crystals are obtained by directional crystallization (vertical zone leveling) or the Bridgman method, [1]. This variation is due to the precipitation of excess tellurium into a second phase.

Annotatsiya. Ushbu maqola shahar ko‘chalari uchun 3D formatidagi yangi gibrid quyosh-shamol mikro-energetik qurilmasi ishlab chiqilgan. Quyosh moduli samaradorligi 21% bo‘lgan 6 ta trapezoidal kremniy asosidagi quyosh panellaridan yig'ilgan. Piramida shaklidagi PV modulining optimallashtirilgan dizayni tufayli tekis yuzali quyosh panellari bilan solishtirganda, quyosh nurini 4 soat ko‘proq vaqt davomida ta'minlash orqali 42,5% ko‘proq elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini berdi. Aniqlanishicha, 6-8 rad/s burchak aylanish tezligida PV modulining sirt harorati 1,3-1,87 ^{o}C/min gacha pasayadi va ish kuchlanishini 0,1-0,27 V ga oshirish orqali chiqish quvvati ortadi. Vertikal aylanish o‘qli shamol turbinasi kunduzi fotoelektrik modulining sirtini haddan tashqari qizib ketishining oldini olishi va kechasi qo‘shimcha elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun shamolning mexanik energiyasidan foydalanishga imkon beradi. Magistral yo‘llarda avtomobillarning uzluksiz harakatlanishi natijasida hosil bo‘ladigan y=1,5-2 m/s past shamol tezligida ishlay oladi. Ushbu tizim qayta zaryadlanuvchi batareya bilan jihozlangan bo‘lib, u quvvat blokining avtonom ishlashini ta'minlaydi. kVtgacha quvvatga ega mikroenergetika tizimini keng joriy etish istiqbollari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Shamol turbinasi, gibrid, quyosh shamoli, energiya, quyosh moduli, piramida

Ekologik toza energiya ishlab chiqarishdagi istiqbolli yo‘llardan biri bu gibrid quyosh-shamol mikroenergetika tizimlarini shaharning avtomashinalari uzluksiz qatnaydigan ko‘chalari uchun integratsiya qilishdir. Integratsiyalashgan shamol va quyosh energiyasi tizimlari, ayniqsa, avtonom qurilmalar uchun juda jozibali yechimlarga aylanmoqda. Chunki u individual quyosh va shamol energiyasi tizimlariga qaraganda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Ushbu gibrid tizimlarda bir manbaning cheklanishi boshqasining kuchi bilan to‘ldirilishi hisobiga qulay [1; 1]. Bundan tashqari, tarmoqqa gibrid quyosh va shamol energiyasi tizimlarini joriy etish umumiy iqtisodiyotni va qayta tiklanadigan energiya tizimlarining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu innovatsion yondashuv nafaqat mavjud shahar maydonidan maksimal darajada foydalanish, balki quyosh va shamol energiya manbalari orqali uzluksiz elektr energiyasini ishlab chiqish imkonini beradi [3]. Bu quyosh va shamol energiyasi tizimlarini integratsiyalashuvi nafaqat funksional, balki vizual jihatdan ham shahar ko‘chalarini jozibador bo‘lishini ta'minlaydi [4].

Qurilmani tuzilishi va uni ishlashi haqida to‘lqiroq tushuncha hosil bo‘lishi uchun 3D modeli ishlab chiqildi, eksperiment o‘tkazish uchun amaliy ishlab chiqildi hamda optimal konstruksion parametrlari aniqlandi: yuqori radiusi $0,07<r_1<0,14$ m, ostki radiusi $0,35<r_2<0,45$ m, balandligi $0,32<h<0,4$ m. Bunday holatda yassi yuzali quyosh paneliga nisbatan uning sirtiga quyosh nuri 4 soat ko‘proq vaqt davomida tushishi va sirti qizib ketishining oldini olish evaziga uning samaradorligi 42,5% ga yuqori bo‘lishi aniqlandi (2-rasm).



(a) *(b)*

1-RASM. Trapetsiya shaklidagi kremniy asosli quyosh panellarini ketma-ket ulanishidan hosil qilingan kesik piramida shaklidagi 3D formatli fotoelektrik modulni salt ishlash kuchlanishini (a) va yuza temperaturasini (b) qurilmaning burchak tezligiga bog’liqligi.

Qurilmaning yuzasining temperaturasi aylanmayotgan holatda 50^0 C va salt ishlash kuchlanishi 13.12 V ga teng bo‘ldi. Aylanish tezligining 0-6 rad/s oralig‘ida qurilma yuzasining temperaturasi 9.4^0C ga kamayishi hisobiga salt yurish kuchlanishi keskin 0.36 V ga ortdi. 6-8 rad/s aylanish tezligi oralig‘ida esa temperature 1.1^0C ga kamaydi va salt ishlash kuchlanishi ham bunga mos ravishda juda oz 0.01 V ga ortdi (1-rasm).



2-RASM. Shahar ko‘chalari uchun gibrid quyosh-shamol mikro-energetik qurilmasi.

Ushbu 3D formatli gibrid energetik qurilma kunduzi fotoelektrik modul sirtining qizib ketishini oldini olish va kechasi qo‘shimcha elektr energiyasi ishlab chiqarish maqsadida shamolning mexanik energiyasidan foydalanishga imkon beradi. Kinetik energiyani elektr energiyasiga aylantirib, avtomagistrallarda avtomobillarning doimiy harakati hisobiga hosil bo‘ladigan shamolning past oqim tezligida υ = 1,5 - 2 m/s ishlay oladi. Qurilmaning balandligi 1 metrni va vertikal ustun bilan birgalikdagi balandligi 2,5 metrni tashkil etadi. Taklif etilayotgan qurilma kichik o‘lchamli dizayga ega bo‘lganligi sababli shaharning har bir avtomobil yo‘llarining medianasiga o‘rnatilishi orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish miqdorini orttirish va iste’molni kengaytirish imkonini beradi.

Adabiyotlar.

1. M. R. Patel, “Wind and Solar Power Systems,” (Taylor and Francis, New York, ed. 2, 2006) [second edition].
2. M. Engin, “Sizing and simulation of PV-Wind hybrid power system,” International Journal of Photoenergy, 2013, 1-10 (2013) DOI: 10.1155/2013/217526.
3. P. A. Østergaard, N. Duic, Y. Noorollahi, H. Mikulcic, and S. Kalogirou, “Sustainable development using renewable energy technology,” Renewable Energy, vol. 146, pp. 2430–2437, Feb. 2020, doi: 10.1016/J.RENENE.2019.08.094.
4. P. Fath, S. Keller, P. Winter, W. Jooß, and W. Herbst, “Status and perspective of crystalline silicon solar cell production,” Conference Record of the IEEE Photovoltaic Specialists Conference, pp. 002471–002476, 2009, doi: 10.1109/PVSC.2009.5411274.

O‘ZBEKISTONDA QUYOSH PANELLARIDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI, YECHIMLARI VA ISTIQBOLLARI

[1]Jalalov R.M f.-m.f.PhD, dos., [2]Maxmudov U.R.
[1]Namangan Davlat Universiteti, [2]Iqtidorli talaba (TATU Far.fil.),
[2]+998 94 001 50 18

Annotatsiya: ushbu tezisda Quyosh panellaidan foydalanishni muammo va yechimlarini, moliyaviy va texnik muammolari, infratuzilma muammolari O‘zbekiston sharoiti uchun bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Quyosh panellari, quyosh energiyasi, iqtisodiy jihatlar, ta’minot va servis.

Kirish. O‘zbekiston jahonda quyosh energiyasi resurslariga boy mamlakatlardan biri bo‘lib, o‘rtacha 300 kun quyoshli ob-havoga ega. Mamlakatning quyosh energiyasidan samarali foydalanishi nafaqat ekologik tozalikni ta’minlaydi, balki iqtisodiy jihatdan ham manfaatlidir. Hozirgi kunda mamlakatda quyosh energiyasidan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilayotgan ayrim muammolar mavjud. Ushbu maqolada quyosh panellaridan foydalanish bilan bog‘liq asosiy muammolar, ularning yechimlari va istiqbollari tahlil qilinadi.

Quyosh energiyasidan foydalanish muammolari

1. Moliyaviy va texnik muammolar. Quyosh panellarini o‘rnatish va texnik ta’minot uchun yuqori sarmoya talab qilinadi. Qishloq hududlaridagi aholi va kichik biznes sub’yektlari uchun bu kabi texnologiyalardan foydalanish xozigi sharoitda qimmatga tushadi. Axolining aksariyat qismining moliyaviy xolati buni ko‘tamaydi. Xozirgi kunda Quyosh panellarini ishlatishda texnik ta’minot va servis markazlari ham yaxshi rivojlanmagan.

2. Qonunchilik va tartiblar. Mamlakatimizda Quyosh energiyasidan foydalanishni rivojlantirishga qaratilgan normativ hujjatlar mavjud bo‘lsa-da, ularning samarali tatbiq etilishi va innovasion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmi hali ham rivojlanish bosqichida. Quyosh energiyasini qonunchilikda to‘liq tartibga solish, davlat yordami va soliq imtiyozlarining yetishmasligi loyihalarni amalga oshirishda qiyinchiliklarga sabab bo‘layotgan edi. Bugungi kunda bu masala ancha yechimga ega bo‘ldi, ya’ni quyoshli xonadonlarga soliq imtiyozlari beildi hamda ushbu xonadonlada ishlab chiqailgan ortiqcha elektr energiyasi davlat tomonidan bugungi kunda har kilovatini 1000 so‘mdan sotib olinmoqda. Bu esa ushbu sohaning ivojlanishini jozibasini oshirmoqda.

3. Infratuzilma muammolari. Quyosh energiyasidan foydalanishda elektr tarmog‘iga ulanish infratuzilmasining yetishmasligi muammoli masala hisoblanadi. Ayniqsa, qishloq hududlaridagi quyosh panellaridan elektr tarmog‘iga qo‘shilish va uzatish tizimlari yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan.

Yechimlar

1. Davlat qo‘llab-quvvatlovi va investisiyalarni rag‘batlantirish. Moliyaviy qiyinchiliklarni yengib o‘tish uchun davlat tomonidan quyosh panellari o‘rnatish va ekspluatatsiya qilishga grantlar, subsidiyalar va soliq imtiyozlarini berish muhim ahamiyat kasb etadi. Investisiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish va qonunchilikni yaxshilash ham muhimdir. Bundan tashqari, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik energiya bozorida barqarorlikka erishish imkonini yaratilishi lozim. Axoliga bugungi kunda Quyosh panellarini o‘rnatish bir oz qimmatlik qilmoqda, shuning uchun imtiyozli kreditlarni joriy etish lozim.

2. Infratuzilmani yaxshilash. Quyosh energiyasidan elektr tarmog‘iga qo‘shilish infratuzilmasini yaxshilash, jumladan qishloq hududlariga elektr ta’minotini ta’minlash uchun yangi loyihalarni amalga oshirish zarur. Bu nafaqat qishloq xo‘jaligi sohasini, balki kichik va o‘rta biznesni ham rivojlantirishga yordam beradi.

3. Texnologiyalarni mahalliylashtirish va ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish. Quyosh panellari va ularning asbob-uskunalarini mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish sarmoyalarni kamaytirishga va quyosh energiyasining keng tarqalishiga olib keladi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Istiqbollar

Energiya manbalari diversifikatsiyasi. O‘zbekistonning quyosh energiyasidan keng miqyosda foydalanishi energiya manbalari diversifikatsiyasiga yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, davlatning energiyaga bo‘lgan talabini qondirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, neft va gaz resurslariga bog‘liqlikni kamaytiradi.

Xulosa. Quyosh panellaridan unumli foydalanish O‘zbekiston uchun muhim axamiyatga ega. Shuningdek katta istiqbollarga ham ega, ammo ayrim muammolarni hal qilish talab etiladi. Davlat qo‘llab-quvvatlovi, infratuzilmani yaxshilash va investisiyalarni jalb qilish kabi yechimlar bilan mamlakat quyosh energiyasi salohiyatidan samarali foydalanishi mumkin. Bundan tashqari, quyosh energiyasining keng rivojlanishi kelajakdagi ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. BMT ning 2023 yildagi barqaror rivojlanish va global isishni kamaytirish bo‘yicha bayonoti.
2. В.И.Виссарионова. СОЛНЕЧНАЯ ЭНЕРГЕТИКА. Москва Издательский дом МЭИ 2008

ANALYSIS OF AIR AND WATER COOLING OF PHOTOVOLTAIC BATARIES

Sh.N.Abilfayziev
Doctor of philosophy in technical sciences (PhD)
Termiz state university of engineering and agrotechnology
tel.: +99890 747-83-38; e-mail: abilfayziyev@inbox.ru

Abstract: The study presents analyzes of the energy efficiency of photoelectric batteries (PVs) under air and water cooling under field conditions. Based on the results of the experimental test, it was observed that the electrical indicators of water-cooled PV in hot climates are 1.41 times higher than those of air-cooled PV.

Keywords: cooling methods, photoelectric battery, water, air, electric power, temperature.

Among the various sources of renewable energy, solar photovoltaic technology is considered more sustainable due to its economic feasibility and geographical convenience. [1]. Due to the growing population and the development of industry, the world cannot be imagined without the demand for energy. The use of energy from hydrocarbon resources has been decreasing in recent times. Today, various types of renewable energy, such as solar energy, are developing rapidly, as they have the least negative impact on the environment. The use of PVs, which convert solar energy into electricity, is increasing every year. Biroq, PV larning asosiy kamchiligi quyosh energiyasini elektr energiyasiga konvertatsiya qilish samaradorligi pasligi bo‘lib, taxminan 11% dan 18% gacha [2]. A small part of the sunlight falling on the PV surface is absorbed and converted into electrical energy. The part that is not converted into electrical energy increases the temperature and reduces the efficiency of the PV. This process is related to the part of the radiation that is not absorbed by the solar elements and turns into heat. To increase the efficiency of PV, it is necessary to reduce its temperature during operation [3].

In recent years, in order to reduce the temperature effect on PVs when they are used in hot climate regions, the technology of installing a heat collector (HC) on the back of the PV has been developed. In the above experiments, PVs were used separately and at different times using air, water or other cooling media. However, when using air and water cooling methods in natural conditions at the same time, it is not stated which method of PV is more effective.

Table 1.

Electrical parameters of 50 W monocrystalline solar panel	Numerical value and unit
Nominal maximum power (P_{max})	50W
Voltage at P_{max} (V_{mp})	18V
Open circuit voltage (V_{oc})	21,8V
Current at P_{max} (I_{mp})	2,78A
Short circuit current (I_{sc})	2,92A

This article presents an analysis of the results obtained by simultaneously cooling a 50W PV with air and water. The electrical parameters of the photovoltaic battery are listed in Table 1.

The results of the experiment were carried out in the summer season in Tashkent, with an air temperature of 38°C, relative humidity of 19% and a wind speed of 15 km/h, between 9:00 and 16:00 (Fig.1).




Figure 1. Air and water cooled PVs

During the experiment, the intensity of sunlight falling on the PV surface, the short-circuit current and voltage of the PVs were determined. As a result, the capacity of PVs cooled by water and air was determined (Fig. 2).




Figure 2. Power versus time graph

In Figure 2, the maximum power value for the air-cooled PV was ~38.5W, and for the water-cooled PV it was ~42W. In Figure 2, the maximum power value for the air-cooled PV was ~38.5W, and for the water-cooled PV it was ~42W. As a result, the temperature of the water-cooled PV can drop faster and the operating voltage can be restored faster. Based on the results of the research, it was determined that the electric power of the water-cooled PV is 1.41 times higher than that of the air-cooled PV. There is also the option of hot water with PV, which is a water-based cooling system. Our further studies are directed in this direction.

References

1. M.Firoozzadeh, M.Lotfi, A.H. Shiravi. An Experimental Study on Simultaneous Use of Metal Fins and Mirror to Improve the Performance of Photovoltaic Panels. December 2022, Sustainability 14(24) DOI:10.3390/su142416986.

2. Chow T.T., HE W., I J. Performance evaluation of photovoltaic thermosiphon system for subtropical climate application. Solar Energy 2007; 81:123-130.

3. Haitham M, Bahaidarah, Experimental Evaluation of the Performance of a Photovoltaic Panel with Water Cooling.Energy 59 (2013) 445-453.

KREMNIY ASOSLI QUYOSH ELEEMTALRINI PYHTON DASTURI ORQALI P-N KONTAKT HOSIL QILISH.

R.Raxmatullayev
Andijon davlat unversitet unversiteti Qayta tiklanuvchi energiya manbalari yo’nalishi magistr talabasi.
Tel:+998939282920
email:rraxmatullayev11@gmail.com

Annotatsiya: Kremniy asosli quyosh elementlari zamonaviy qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalari orasida eng keng tarqalgan va samarador bo'lib, ular quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantiradi. Ushbu jarayonning samaradorligi p-n kontakt hosil qilish bilan bog'liq bo'lib, u quyosh nurlarini to'plab, fotoelektr effekt orqali tok hosil qilish imkonini beradi.


Kalit so`zlar: Kremniy asosli quyosh elementlari, p-n kontakt, Python dasturlash, Yarimo'tkazgichlar, Dopantlar, Fotoelektr effekt, Energiyaning aylanishi

Quyosh energiyasi, yangi energiya manbai sifatida, global energiya muammolarini hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Kremniy asosli quyosh elementlari, ulardan biri, yuqori samaradorligi bilan e'tiborni tortadi. Ushbu tadqiqotda p-n kontaktlarining kremniy asosli quyosh elementlaridagi o'rni va energiya ishlab chiqarishga ta’siri o’rganiladi.

p-n kontaktlar, yarimo'tkazgichlarda eng muhim komponentlar hisoblanadi. Ular elektron va teshiklar uchun yo'l ochib, energiya ishlab chiqarishda juda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, p-n kontaktlarining geometrik joylashuvi va materiallar xususiyatlari energiya ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tadqiqotda kremniy asosli quyosh elementining geometrik modeli yaratildi. p-n kontaktlarni ko'rsatish uchun Python dasturlash tilida kod yozildi. Quyidagi kod yordamida quyosh elementining geometrik tuzilishi chizildi:

```
import numpy as np
import matplotlib.pyplot as plt
width = 1.0  # kenglik
height = 1.5  # balandlik
x = [0, width, width, 0, 0]
y = [0, 0, height, height, 0]
p_contact_x = [0, width / 2, width / 2, 0]
p_contact_y = [0, 0, height, height]
n_contact_x = [width / 2, width, width, width / 2]
n_contact_y = [0, 0, height, height]
plt.figure(figsize=(6, 8))
plt.fill(p_contact_x, p_contact_y, color='red', alpha=0.5, label='P Kontakt')
plt.fill(n_contact_x, n_contact_y, color='blue', alpha=0.5, label='N Kontakt')
plt.plot(x, y, color='orange', lw=2, label='Quyosh elementi')
plt.title('Kremniy asosli quyosh elementi (P-N kontaktlar)')
plt.xlabel('Kenglik')
plt.ylabel('Balandlik')  plt.xlim(-0.5, 1.5)
plt.ylim(-0.5, 2.0)
```

plt.axhline(0, color='black', lw=0.5) plt.axvline(0, color='black', lw=0.5) plt.grid() plt.legend() plt.show(). Yuqoridagi kod yordamida quyosh elementining geometrik tuzilishi grafikda holatda hosil qilishimiz mumkin.



1-Rasm

Qizil rangda p kontakt, ko'k rangda esa n kontakt ko'rinadi. Bu chizma p-n kontaktlarining joylashishi va ularning energiya ishlab chiqarish jarayonidagi roli haqida muhim ma'lumotlarni beradi. Olingan natijalar, p-n kontaktlarining energiya ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirini ko'rsatadi. p kontaktlaridagi yuqori samaradorlik energiya ishlab chiqarishda sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Kelajakda bu tadqiqotlar yanada rivojlantirilishi, yangi materiallar va texnologiyalarni sinovdan o'tkazish zarur. p-n kontaktlar kremniy asosli quyosh elementlarining asosiy komponentlaridir. Ular energiya ishlab chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari, p-n kontaktlarning energiya ishlab chiqarish jarayonidagi ahamiyatini ko'rsatadi va kelajakda yangi tadqiqotlar uchun asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Python for Data Analysis – Wes McKinney
2. NumPy 1.5 – Ivan Irdis
3.Васильев А.Н., “Python на примерах. Практический курс по программированию”, Наука и техника, Санкт-Петербург, 2016, 235-243стр.
4. Gabor Szabo, “1000 Python Examples”, 2020, 140-165 pages
5. Sh.A. Mengliyev, O.A. Abdug‘aniev, S.Q. Shonazarov, D. Sh. To‘rayev
“Python dasturlash tili”, Termiz-2021

SHAFFOFLIK VA SAMARADORLIKNI OSHIRUVCHI YANGI MATERIALLAR

[1]Sh.Muhtorov, [1]E.Sultonov

[1]Andijon davlat Universiteti FIzika fakulteti. Qayta tiklanuvchan energiya manbalari va barqaror atrof muhit fizikasi yo’nalishi magistranti.

Email address: shakh199627@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot quyosh panellari uchun yangi avlod materiallarini ishlab chiqish va ularning fotovoltaik samaradorligini oshirishga qaratilgan. Quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantirish jarayonida, an'anaviy materiallar o'z samaradorligi bilan birga ko'rinishida cheklovlarga ega bo'lishi mumkin. Yangi materiallar esa yuqori darajadagi shaffoflikni ta'minlab, faqat samaradorlikni emas, balki estetik xususiyatlarni ham yaxshilaydi.

Kalit so`zlar: Quyosh panellari, shaffoflik, samaradorlik, fotovoltaik samaradorlik, yangi materiallar, o'tkazuvchan materiallar, noan'anaviy aralashmalar, ekologik toza energiya.


Kirish. So‘nggi yillarda quyosh energiyasidan foydalanishning ahamiyati ortib bormoqda, chunki u barqaror va ekologik xavfsiz energiya manbai hisoblanadi. Quyosh panellarining shaffofligini va samaradorligini oshirish orqali ushbu texnologiyaning yanada keng qo‘llanilishi mumkin. Shaffof panellar arxitektura, transport va boshqa sohalarda oyna yoki boshqa shaffof sirtlarni energiya ishlab chiqarish vositasiga aylantirish imkonini beradi. Bu tezisda shaffoflik va samaradorlikni oshiruvchi yangi materiallar va ularning afzalliklari ko‘rib chiqiladi [1,2].

Shaffoflik va samaradorlik muammolari. An’anaviy quyosh panellari yuqori samaradorlikka ega bo‘lsa-da, shaffof emasligi tufayli ma’lum foydalanish sohalari uchun cheklangan. Quyosh panellari shaffof bo‘lganida, binolar, avtomobillar va boshqa joylarda oyna sifatida ishlatilishi mumkin edi. Lekin shaffoflik oshgani sari quyosh hujayralarining samaradorligi pasayadi, chunki shaffof materiallar yorug‘likni to‘liq yutish o‘rniga uni o‘tkazadi. Shuning uchun, shaffoflik va samaradorlikni muvozanatlashtirish muhim texnologik muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Yangi materiallar va texnologiyalar. Shaffof quyosh panellarining samaradorligini oshirish uchun bir necha istiqbolli yangi materiallar taklif qilinmoqda. Perovskit quyosh hujayralari so‘nggi yillarda katta e'tibor qozondi. Ular yuqori samaradorlik va nisbatan past xarajat bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, perovskit materiallari shaffoflikni ta’minlash imkoniyatiga ega, chunki ularning optik xususiyatlari turli xil kompozitsiyalar yordamida boshqarilishi mumkin. Shaffof perovskit hujayralarini ishlab chiqarish orqali ular ko‘p qavatli binolarning derazalariga qo‘llanilishi mumkin [3].

Natijalar va istiqbollar. Shaffof quyosh panellarida yangi materiallarni qo‘llash shaffoflik va samaradorlikni oshirish yo‘lida katta imkoniyatlarni

ochadi. Perovskit va organik hujayralar, nanotexnologiyalar va metamateriallar yordamida energiya ishlab chiqarish bilan birga oyna vazifasini ham bajara oladigan shaffof panellar yaratish mumkin bo‘ladi. Bu texnologiyalar, ayniqsa, arxitektura va transport sohalarida keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, kelajakda energiya ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi kutilmoqda [4].



1-rasm. Quyosh panellarining samaradorligi va shaffoflik orasidagi bog`lanish

Yuqoridagi grafikda shaffof quyosh panellarining shaffoflik darajasi va samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rsatilgan. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, shaffoflik ortgani sari samaradorlik kamaymoqda. Masalan, 10% shaffoflik darajasida samaradorlik 18% bo‘lsa, 50% shaffoflikda samaradorlik 7% ga tushadi. Bu shaffof quyosh hujayralarining shaffoflik va samaradorlikni muvozanatlashtirishdagi qiyinchiliklarini aks ettiradi [5].

Xulosa. Shaffof quyosh panellarining rivojlanishi energiya ishlab chiqarishni oyna va boshqa shaffof sirtlar orqali amalga oshirish imkonini beradi. Yangi materiallar va texnologiyalar yordamida shaffoflik va samaradorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash mumkin. Perovskit, organik quyosh hujayralari, nanotexnologiyalar va metamateriallar shaffof quyosh panellarining istiqbolli yechimlari sifatida katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kojima, A., Teshima, K., Shirai, Y., & Miyasaka, T. (2009). "Organometal Halide Perovskites as Visible-Light Sensitizers for Photovoltaic Cells." *Journal of the American Chemical Society, 131*(17), 6050–6051.

2. Green, M. A., Ho-Baillie, A., & Snaith, H. J. (2014). "The emergence of perovskite solar cells." *Nature Photonics, 8*(7), 506-514.

3. Li, Y., & Yang, Y. (2015). "High-performance organic photovoltaics: new developments and challenges." *Nature Photonics, 9*(3), 174-185.

4. Polman, A., Knight, M., Garnett, E. C., Ehrler, B., & Sinke, W. C. (2016). "Photovoltaic materials: Present efficiencies and future challenges." *Science, 352*(6283), aad4424.

5. Atwater, H. A., & Polman, A. (2011). "Plasmonics for improved photovoltaic devices." *Nature Materials, 9*(3), 205-213.

QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI.

Z.T.Yunusova

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti ‘Qurilish muhandisligi’ kafedrasi katta o’qituvchisi

(yunusovazuhraxon8@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada qayta tiklanuvchi energiya manbalari, jahon miqyosida sanoatning yuqori sur’atlarda rivojlanib, kengayib borishi, axoli sonining muntazam o‘sishi hisobiga energiyaga bo‘lgan talabni qayta tiklovchi energiya resurslarini ishlab chiqarish va ular samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etayotganligi haqida, hozirgi kunda dunyo mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasini qariyib 35 foizi esa qayta tiklanadigan energiya manbalari asosida ishlab chiqarilishi haqida ma`lumot beriladi..

Kalit so’zlar: elektr energiya, muqobil energiya, shamol energiyasi, quyosh energiyasi, issiqlik elektr stansiyalari, gidroelektr stansiyalar.

Qayta tiklanadigan energiya - vaqt o‘tishi bilan tabiiy ravishda to‘ldiriladigan qayta tiklanadigan manbalardan to‘plangan energiyadir. U quyosh nuri, shamol, suv harakati va geotermal issiqlik kabi manbalarni o‘z ichiga oladi[2]. Ko‘pgina qayta tiklanadigan energiya manbalari barqaror bo‘lsa-da, ba’zilari barqaror emas. Misol uchun, ba’zi biomassa energiya manbalari hozirgi ekspluatatsiya jarayonida barqarorlik kasb etmaydi deb hisoblanadi [3][4]. Qayta tiklanadigan energiya ko‘pincha elektr tarmog‘i, havo va suvni isitish va sovutish hamda mustaqil ravishda ishlaydigan energiya tizimlariga elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun energiya yaratib beradi.Hozirgi kunda muqobil energiyadan foydalanishga e`tibor kuchayish bilan birga ehtiyoj ham ortib bormoqda Qayta tiklanadigan energiya va energiya samaradorligini oshirish texnologiyalarini joriy etish sezilarli darajada energiya xavfsizligi, iqlim o‘zgarishi va iqtisodiyot sohalarida foyda keltiradi[1]. Biroq qayta tiklanadigan manbalarga qazilma yoqilg‘i subsidiyalari to‘sqinlik qilishi davom etmoqda [2]. Xalqaro jamoatchilik fikrini o‘rganish mobaynida quyosh energiyasi va shamol energiyasi kabi qayta tiklanadigan manbalar aholi ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli ekanligi isbotlangan [1][2].Shuning uchun Xalqaro Energetika agentligi 2021-yilda qayta tiklanadigan energiya manbalarini ko‘paytirish uchun ko‘proq harakat qilish kerakligini va 2030-yilgacha bu manbalarni ishlab chiqarishni yiliga taxminan 12 % ga oshirishni ta’kidladi [5] Hozirgi kunda bizga ma`lumki butun dunyo mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasini qariyib 65 foizi uglevodorod yonilg‘isi asosida ishlab chiqariladi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bu – atrof-muhitda tabiiy holda qayta tiklanuvchi quyosh, shamol energiyasi, yer harorati (geotermal), suv oqimlarining tabiiy harakati, biomassa energiyalaridir. 2021 yilda birinchi marta jahon elektr energiyasi ishlab chiqarishida olinayotgan shamol va quyosh energiyasi jamiga nisbatan 10 foiz ga yetdi. Bu esa, o‘z navbatida rivojlangan davlatlarda qayta tiklanadigan

energiya manbalari asosida energiya quvvatlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish, tabiiy gaz, ko‘mir hamda mazut yoqilg‘isi asosida ishlaydigan issiqlik elektr stansiyalari iqtisodiy samaradorligini ta’minlash uchun, energo-tejamkor, atrof muhitga zarar keltirmaydigan, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda qayta tiklanuvchi energiya manbaalarini oshirishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada elektr energiyasi ishlab chiqarishda issiqlik manbalaridan, quyoshdan, shamoldan olinadigan energiya omillari ta’sirini baholash, ularning iqtisodiy samarodorligini oshirish, globall ekologik muammo hamda falokatlarni oldini olish maqsadida uglevodorod – ko‘mir, mazut, gaz, yoqib elektr energiya oladigan energiya ishlab chiqarish sanoati korxonalarini samaradorligini oshirish kabi yo‘nalishlardan biri hisoblanmoqda.

Elektr energetikasi sohasida qayta tiklanadigan energiyani rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni 4 ta asosiy yo‘nalishga bo‘lish mumkin:

1. Iqtisodiy omillar (qayta tiklanadigan energiya resurslarning sifati va miqdori);

2. Huquqiy va siyosiy omillar (davlatning qayta tiklanadigan energiyani rivojlantirish bo‘yicha siyosati);

3.Ijtimoiy qabul qilish omillari (aholining qayta tiklanadigan energiyaga bo‘lgan munosabati va talabi);

4.Qayta tiklanadigan energiya loyihalarini va ekologik muhitgaq salbiy ta`siri. (hududning imkoniyatlari va vaziyatlari)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Takhirovna, Y. Z. (2024). Effekt of electric current on the human body .Science and innovation,3 (A2),183-186. 2. Taxirovna, Y. Z. (2023). Noan`anaviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanib elektr ta`minotidagi ishonchlilikni oshirish.O`zbekistonda fanlararo innovatsiyalar vailmiy tadqiqotlar jurnali.,2(16),89-92.. 3.Taxirovna, Y. Z. (2023). Issledovanie struktor I fizicheckix svoystv veshestv metodami molekulyarnoy akustiki . Ijodkor o`qituvchi 3(26),177-180

4. Qodirov B.T. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ahamiyati va uning salohiyatini belgilovchi omillar // Innovative Development in Educational Activities ISSN: 2181-3523 VOLUME 2 // ISSUE 19 // 2023. https://openidea.uz/index.php/idea /issue/view/41

5. Qodirov B.T. Resurslarning cheklanganligi va “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish zaruriyati // Innovative Development in Educational Activities ISSN: 2181-3523 VOLUME 2 | ISSUE 19 | 2023. https://openidea.uz/index.php/idea/issue/view/41

QUYOSH ELEMENTLARIDA ZARYAD TASHUVCHILARNING HARAKATCHANLIGINI HARORATGA BOG‘LANISHI

[1]Zaxidov I.O, [2]Ismanova O.T, [3]Azimova Sh.A, [3]Rustamova K.Q, [3]Axmadjonova M.F, [4]Maxmudov U.R.

[1]f.-m.f.n dotsent NamDU, [2]PhD dotsent NamDU, [3]NamDU magistrant, [4]TATUFF talabasi.

Annotatsiya: ushbu maqolada yarimo‘tkazgichlarning elektr o‘tkazuvchanligi, tok tashuvchilarning konsentratsiyasi, harakatchanligi, effektiv massasi va temperatura bilan o‘zaro bog‘liqligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: yarimo‘tkazgichlar, elektr o‘tkazuvchanlik, zaryad tashuvchilar, konsentratsiya, harakatchanlik, effektiv massa, temperatura, quyosh elementlari

Yarimo‘tkazgichlar zamonaviy elektron qurilmalarning asosiy komponentlaridan biri bo‘lib, ularning elektr o‘tkazuvchanligi asosan zaryad tashuvchilar - elektronlar va teshiklarning harakatchanligiga bog‘liq. Yarimo‘tkazgichlarda elektron va kovaklar konsentratsiyasi, ularning erkin yugurish yo‘li, effektiv massa va issiqlik tezligi elektr o‘tkazuvchanlikning asosiy parametrlari hisoblanadi. Yarimo‘tkazgichlarning elektr o‘tkazuvchanligi zaryad tashuvchilar konsentratsiyasiga (n), erkin yugurish yo‘liga (l), effektiv massasiga (m) va issiqlik tezligiga (υ) bog‘liq bo‘ladi.

$$\sigma = e\mu_n n + e\mu_P p. \tag{1}$$

Xususiy yarimo‘tkazgichlarda kovak va elektronlarni konsentratsiyasi bir-biriga teng bo‘ladi shuning uchun ularni elektr o‘tkazuvchanligini quyidagicha yozish mumkin:$n = p = n_i$

$$\sigma_i = (\mu_n + \mu_P)en_i \tag{2}$$

$$\sigma = e\mu_n\sqrt{2N_d\left(\frac{2\pi m_n^* kT}{h^2}\right)^{3/2}}\, e^{-\frac{\Delta E_d}{2kT}} \tag{3}$$

yoki

$$\sigma = e\mu_p\sqrt{2N_a\left(\frac{2\pi m_p^* kT}{h^2}\right)^{3/2}}\, e^{-\frac{\Delta E_d}{2kT}}. \tag{4}$$

Yarimo‘tkazgichlarning elektr o‘tkazuvchanligi (2) dan ko‘rinadiki, elektron va kovaklarning harakatchanligi va konsentratsiyasiga bog‘liq bo‘ladi. Temperaturani zaryad tashuvchilarning harakatchanligiga qanday ta’sir ko‘rsatishini qaralsa, zaryad tashuvchilarning harakatchanligi o‘zlarining erkin yugurish yo‘li, issiqlik harakat tezligi va effektiv massasiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun bu kattaliklar o‘z navbatida, temperatura o‘zgarishi bilan o‘zgaradi. Harakatchanlik shu kattaliklar orqali

$$\mu = \frac{e}{2m^*}\frac{l}{\upsilon} \tag{5}$$

formula bilan aniqlanadi. Yarimo‘tkazgichlardagi zaryad tashuvchilarning effektiv massasi temperaturaga bog‘liq bo‘lmaydi. Harakatchanlikning temperatura bo‘yicha o‘zgarishini ko‘rsatuvchi grafik 1- rasmda ko‘rsatilgan.



1-rasm. Zaryad tashuvchilarni harakatchanligining temperaturaga bog‘liqligi.

Quyosh elementlarida zaryad tashuvchilarning harakatchanligi past haroratlarda $\mu \sim \sqrt{T}$ va yuqori haroratlarda esa $\mu \sim \sqrt{\frac{1}{T}}$ bo‘lgani uchun qisqa tutashuv toki zichligi past va yuqori haroratlarda nolga teng bo‘ladi.

Xulosa. Yarimo‘tkazgichlar elektr o‘tkazuvchanligida harakatchan elektronlar va teshiklar muhim rol o‘ynaydi. Zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi, erkin yugurish yo‘li, effektiv massa va issiqlik tezligi yarimo‘tkazgichlarning elektr o‘tkazuvchanligini aniqlaydi. temperatura o‘zgarishi zaryad tashuvchilarning xususiyatlarini o‘zgartirishda muhim omil bo‘lib, temperatura ortishi bilan elektron va kovaklar konsentratsiyasi tenglashishi natijasida ular xususiy yarimo‘tkazgichlar hususiyatini namoyon qiladi. Quyosh elementlari uchun yarimo‘tkazgich moddalarni tanlashda bunday farqlar e’tiborga olinsa, yarimo‘tkazgichli quyosh elementlarining ishlash mexanizmlarini yanada yaxshilash mumkin. Ushbu aspektlar yarimo‘tkazgichlarning funksionallik va ishchanligini samarali tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S. Reynolds, Ch. Main, V. Smirnov and A. Meftah. Intensity dependence of quantum efficiency and photo-gating effects in thin film silicon solar cells”, Phys. Status Solidi C 7, No. 3–4, 2010. -p.505– 508.
2. Aliev R., Ikramov R.G., Alinazarova M.A., Ismanova O.T. Influence of Temperature on Photocurrent of Amorphous Semiconductor-Based Solar Element. Applied Solar Energy, 2009, -Vol.45, No.3, -pp. 148-150.
3. Физика гидрогенизированного аморфного кремния: Вып. 2. Электронные и колебательные свойсва: Пер. с англ./Под ред. Дж. Джоунопулоса, Дж. Люковски.-М.: Мир, 1988.-448 с.
4. Азизов М. А. Ярим ўтказгичлар физикаси, -Тошкент, Ўқитувчи, 1974. -292 бет.
5. Odeh S, Behnia M. Improving photovoltaic module efficiency using water cooling. Heat Transfer Eng 2009;30:499– 505.

ТОНКОПЛЕНОЧНЫЙ СОЛНЕЧНЫЙ ЭЛЕМЕНТ НА ОСНОВЕ ПЛЕНОК ТВЕРДОГО РАСТВОРА $Sb_2(S_x,Se_{1-x})_3$

[1]Т.М. Разыков, [2]К.М. Кучкаров, [3]Р.Т. Йулдошов, [4]Д.З. Исаков, [4]М.А. Махмудов, [4]Р.Р. Хуррамов, [4]Ж.Ғ. Бекмирзаев, [4]М.П. Примматов, магистр.

[1]д.ф.-м.н., профессор, [2]д.ф.-м.н., с.н.с., [3]PhD, [4]магистр,

ФТИ АН РУз

Аннотация. В данной работе представлены результаты исследования фотовольтаических характеристик тонкопленочных солнечных элементов на основе Sb2(Sx,Se1-x)3, изготовленных на стеклянных подложках с молибденовым покрытием методом химико-молекулярного пучкового осаждения.

Ключевые слова: химическое молекулярно- пучковое осаждение, $Sb_2(S_x,Se_{1-x})_3$, CdS, ZnO, тонкопленочный солнечный элемент, световая ВАХ, спектральная характеристика.

В настоящее время эффективность предлагаемых нами тонкопленочных солнечных элементов $Sb_2(S_x,Se_{1-x})_3$ составляет 8÷10.7%[1]. Эти тонкопленочные солнечные элемнты (СЭ), подобно солнечным элементам на основе CdTe и $Cu(In,Ga)(Se,S)_2$, имеют очень низкую эффективность для использования в широком промышленном масштабе. Однако можно повышать их эффективность, управляя шириной запрещенной зоной пленок $Sb_2(S_x,Se_{1-x})_3$. Кроме того, максимальный теоретический предел эффективности $Sb_2(S_x,Se_{1-x})_3$ солнечных элементов составляет ~32,88% (предел Шокли-Кейссера)[2] и имеется возможность повысить эффективность данного СЭ, которая еще не достигла своего максимального значения.

Солнечные элементы на основе пленок твердого раствора $Sb_2(S_x,Se_{1-x})_3$, изготовились на стеклянных подложках с покрытием из молибденового слоя.

Темновые, световые вольт-амперные характеристики солнечных элементов на основе пленок твердого раствора $Sb_2(S_x,Se_{1-x})_3$ измерялись с помощью солнечного симулятора UHE-NL-250 и вычислены значения фотовольтаических параметров: плотность тока короткого замыкания, напряжение холостого хода, фактор заполнения световой вольт-амперной характеристики (FF) и эффективности (η) (рис.1,таб.1).

Анализ экспериментальных данных тонкопленочных солнечных элементов показал, что состав базового слоя солнечных элементов существенно влияет на их фотоэлектрические характеристики. При этом обогащение селеном базового слоя солнечных элементов приводит к улучшению спектральных характеристик, а обогащение сером приводит к ухудшению спектральных характеристик (рис.2).

Результаты световой ВАХ и спектральных характеристик солнечных элементов различного состава базового слоя $Sb_2(S_x,Se_{1-x})_3$ показали, что солнечные элементы имеющие состав S/(S+Se=0.6) достигли наивысшей

эффективности. Фотоэлектрические параметры имеют значения: U_{XX}=523 мВ; $I_{КЗ}$ =27.2 мА/см^2; FF= 46.7 % и η=6.47%.




Рисунок 1- Световые ВАХ тонкопленочных солнечных элементов на основе твердого раствора $Sb_2(S_x,Se_{1-x})_3$




Рисунок 2 – Квантовая эффективность тонкопленочных солнечных элементов на основе $Sb_2(S_x,Se_{1-x})_3$

Образец №	Состав x=[S/(S+Se) в паровой фазе]	E_g (eV)	U_{xx} (мВ)	$J_{кз}$ (мА/см^2)	$R_{ш.}$ (Ом)	$R_{п.}$ (Ом)	FF (%)	КПД (%)
Ra1	1 (Sb_2S_3)	1.7	545.38	16.4	255.25	47.81	38.18	3.17
Ra3	0.9	1.65	530.61	18.8	222.35	40.72	36.42	3.55
Ra5	0.8	1.5	522.38	27.2	288.31	35.66	38.46	5.31
Ra6	0.7	1.35	523.82	27.2	370.47	18.9	46.71	6.47
Ra4	0.6	1.2	498.07	18.7	365.94	21.22	48.13	4.53
Ra2	0 (Sb_2Se_3)	1.1	383.68	24.8	82.26	24.08	30.55	2.82

Таблица 1 – Фотоэлектрические параметры тонкопленочных солнечных элементов на основе $Sb_2(S_x,Se_{1-x})$ после термическая обработки

Также измерялась квантовая эффективность солнечных элементов $Sb_2(S_{1-x}Se_x)_3$ с шестью различными значениями x (0; 0.6; 0.7; 0.8; 0.9 и 1) с контролированием соотношений элементов S/(S+Se) в паровой фазе во время процесса роста. Для повышения точности все образцы были измерены одновременно в течение дня с контролем площади светового пятна, меньшей, чем у самих элементов. Аналогично кривым J-V, $Sb_2(S_x,Se_{1-x})_3$ (x=0.6) проявляет более высокую квантовую эффективность с пиковым значением, приближающимся к 90% в диапазоне 450 нм÷650 нм. Более низкие значения КЭ при более коротких длинах волн вызваны паразитным поглощением в буферном слое.

Литература

1. Ke Li, Rongfeng Tang, Changfei Zhu, and Tao Chen, Critical Review on Crystal Orientation Engineering of Antimony Chalcogenide Thin Film for Solar Cell Applications. Advanced Science, 2023, 2304963.
2. Sven Ruhle. Tabulated values of the Shockley-Oueisser limit for single junction solar cells, Solar Energy 130, 2016, 139-147.

D18 DONOR POLIMER QATLAMLARNING OPTIK XOSSALARI

Saparbayev A.D

U.A. Arifov nomidagi Ion plazma va Lazer texnologiyalari instituti (IPLT) katta ilmiy xodimi

Annotatsiya. Ushbu maqolada D18 donor polimerning va D18 donor polimer bilan turli xil tarkibli akseptorlar asosidagi faol qatlamlarning otpik xossalari tadqiq qilindi.

Kalit so’zlar: Polimer quyosh elementi; D18 donor, polimer, faol qatlam


Kirish. D18 polimeri yuqori samarali polimer quyosh elementlari uchun ishlatiladigan materiallardan biri bo’lib, bu turdagi polimerlar PQElarda donor vazifasini bajaradi, ya'ni ular yorug'likni yutib, elektronlarni uyg‘otadi va energiya hosil qiladi. D18 yuqori darajada to‘g‘ri chiziqli va konjugatsiyalangan zanjirga ega bo‘lib, bu uning elektron tashish va yorug‘likni yutish xususiyatlarini yaxshilaydi. D18 polimeri bilan yasalgan PQElar boshqa polimerlarilan ishlangan PQElarga nisbatan ko'proq samaradorlikka ega bo‘lib, hozirgi paytda EO’S 18% dan oshdi, bu natija esa PQElar istiqboli uchun yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi. D18 polimeri organik erituvchilarda yaxshi eriydi, bu esa unga ishlov berish va PQElar tayyorlash jarayonlarini osonlashtiradi.

Natijalar va muhokamalar

1-rasmda D18 polimerining asosiy absorpsion xossalari, ya’ni D18 polimerining yorug’likni yutish spektri grafigi keltirilgan. Grafikdan anglash mumkinki, D18 donor polimerning yutilish spektrining to’lqin soha kengligi 400 nm dan 600 nm gacha diapazonda bo'ladi, bu esa uni fulleren bo’lmagan akseptor materiallar bilan birgalikda faol qatlam hosil qilib, keng to’lqin uzunligi sohasida yorug‘likni samarali yutishga imkon beradi. Berilgan grafikda eng yuqori yutilish asosan 600 nm atrofida kuzatilib, bu to’lqin uzunligi atrofida D18 polimer yorug'likning eng katta qismini yutadi. Bu to'lqin uzunligi ko'proq sariq va qizil to’lqin uzunliklari mos keladi, bu esa polimerning fotonlar bilan o'zaro ta'sirini ko'rsatadi. Qisqa to'lqin uzunliklarida ham ya’ni 300-550 nm oralig'ida ham biroz yutilish kuzatilgan. Bu oraliq esa ko‘k va ko'k-yashil spektrlarga mos keladi. Katta to'lqin uzunliklarida yutilishini ko’rib chiqadigan bo’lsak 600 nm dan keyin asosan 700 nm dan yuqori to’lqin uzunliklarida yutilish keskin tushib ketgan va juda past qiymatlarga ega bo‘lgan. Bu infraqizil to’lqin uzunligi diapazonida yutilishning ancha past ekanligini bildiradi. D18 polimerining molyar absorpsiya koeffitsienti yuqori, ya'ni u yupqa qatlam holatida ham katta miqdorda yorug'likni samarali yutadi. Bu PQElarda materialning minimal miqdori bilan maksimal yorug'lik yutilishini ta'minlaydi. Ko'pincha, bu koeffitsient 1.0×10^5 L mol^{-1} cm^{-1} ga yaqin. Yorug’likni yutulish piki 585 nm to’lqin uzunligiga mos keladi. D18 polimerining 585 nm to‘lqin

uzunligini maksimal yutishining asosiy sababi uning kimyoviy va elektron tuzilishiga bog‘liq

1-rasmda D18 donor polimerining FL spektri ham berilgan bo’lib, FL spektri to’lqin sohasi kengligi 650 nm dan 900 nm gacha tashkil etgan.



1-rasm. D18 donor polimerining yutilish va FL spektrlari

D18 polimerining FL spektri yutilish spektriga yaqin sohada ekanligini ko’rishimiz mumkin, Bu esa kamroq energiya yo‘qotishlarni bildiradi. Kam energiya yo‘qotilishi bilan FL spektri polimerning samarali EO’S qiymati uchun optimal bo’laishiga imkon beradi.

Xulosa

Yutilish va FL spektri grafik natijalaridan xulosa qilsak, D18 polimerining FL spektri orqali PQElarning fotovoltaik parametrlarini baholay olamiz. Fotoluminessensiya polimerdagi fotoqo‘zg‘atilgan elektronlarni va tuzoqlarda saqlanadigan zaryadlarni aniqlashga yordam beradi. Bu esa fotovoltaik samaradorlikni baholashda qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Samarali fotoluminessensiya polimerda ko‘proq zaryad ajralishini ko‘rsatadi, bu esa PQElar samaradorligini oshirishda juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.T. Yiu, P.M. Beaujuge, O.P. Lee, C.H. Woo, M.F. Toney, J.M. Frechet, J. Am. Chem. Soc. 134 (2012) 2180.
2. H. Hu, K. Jiang, G. Yang, J. Liu, Z. Li, H. Lin, Y. Liu, J. Zhao, J. Zhang, F. Huang, Y. Qu, W. Ma, H. Yan, J. Am. Chem. Soc. 137 (2015) 14149.
3. X. Xue, K. Weng, F. Qi, Y. Zhang, Z. Wang, J. Ali, D. Wei, Y. Sun, F. Liu, M. Wan, J. Liu, L. Huo, Adv. Energy Mater. 9 (2019), 1802686.

TURLI XIL KOVAK TASHUVCHI QATLAMLARNING PEROVSKIT QUYOSH ELEMENTLARNING SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

[1, a)]**Nurumbetova L.R,** [2, b)]**Shukurullayva R.M**

[1]*U.A. Arifov nomidagi Ion plazma va Lazer texnologiyalari instituti doktoranti,*

[2]*Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston milliy universiteti talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada turli xil kovak tashuvchi qatlamlarning perovskit quyosh elementlarning samaradorligiga ta’siri tadqiq qilindi.

Kalit so'zlar: PQE, PEDOT:PSS, PTAA, KTQ, samaradorlik, barqarorlik.

Kirish. PQE larda PEDOT:PSS va PTAA eng ko'p ishlatiladigan KTQ materialdir. PEDOT:PSS oksidlangan PEDOT va erituvchi polimer PSS dan iborat bo’lganligi uchun PQE larda KTQ sifatida foydalanilganda optimal ishlash samaradorligi nisbatan pastroq bo’ladi. Tashuvchi qatlam PTAA organik moddasi bilan almashtirilgandan so'ng, qurilmaning energiya o’zgartirish samaradorligi (EO’S) PEDOT:PSS KTQ sifatida ishlatilganda 16,59% dan 18,90% gacha, Jsc 23,16 mA sm^{-2} va Voc 1,04 V ga oshdi.

Natijalar va muhokamalar

“Perovskit quyosh elementi” nomi perovskit strukturasi deb ataladigan yorug’lik yutuvchi qatlam materiallarining ABX_3 kristalli tuzilishidan olingan bo'lib, bu yerda A va B organik kationlar va X aniondir. Radiuslari 1,60 Å dan 2,50 Å gacha bo'lgan kationlar perovskit tuzilmalarini hosil qiladi[1]. Gibrid organik-noorganik perovskit quyosh elementlari energiya o’zgartirish samaradorligi (EO’S) bir necha yil ichida 3,8% dan 25,7% gacha yetdi[2]. Biroq, prekursor materiallarining cheklangan eruvchanligi tufayli perovskit faol qatlamlarining sifati va qalinligi hali ham qoniqarli emas.

Yaxshi o’tkazuvchi qatlam perovskit yorug'lik yutuvchi qatlamini fotogeneratsiyalangan zaryad tashuvchilarni tezda ajratib olish va tashuvchilarni kamayishini oldini olishga imkon beradi va shu bilan birga birikma EO’Sni oshiradi.

Organik fotovoltaik qurilmalar va yorug'lik chiqaradigan PQE lari sohasida PEDOT:PSS eng ko'p ishlatiladigan KTQ materialdir. PEDOT: PSS ning eng yuqori egallangan molekulyar orbital energiya darajasi (HUMO) va materialning o'tkazuvchanligi PQE larining EO’Sni yaxshilashda muhim omilga aylandi. Bundan tashqari PEDOT:PSS moslashuvchan o’tkazuvchanlik, ishlov berish nisbatan qulayligi, arzonligi hamda materialning ko’pligi tufayli ham PQE larda KTQ materiali sifatida qo’llaniladi. Biroq, PEDOT:PSS hali ham bir qancha kamchiliklarga ega va shuning uchun optimal kovak tashuvchi qatlam materiali bo’la olmaydi.

PEDOT:PSS musbat zaryadlangan konjugatsiyalangan PEDOT va manfiy zaryadlangan himoyalovchi PSS dan iborat bo'lib, bu yerda oksidlangan PEDOT yuqori o'tkazuvchan, lekin suvda erimaydi va PSS suvli eritmani hosil qilish uchun polimer sirt faol moddasi sifatida kiritiladi. Qurilmalarda PEDOT:PSS tarkibidagi PSS ning yuqori kislotalilik va gidrofil tabiati qo'shni elektrod va perovskit qatlamini yemirilishiga olib kelishi mumkin va shu bilan qurilmaning ishlashi va chidamliligini jiddiy ravishda kamaytiradi[3].

An'anaviy kovak tashuvchi qatlam PEDOT:PSS materialini PTAA organik moddasi bilan almashtirish orqali yuqori va barqaror ishlashga ega PQE qurilmalari tayyorlanadi. Tashuvchi qatlam PTAA organik moddasi bilan almashtirilgandan so'ng, qurilmaning energiya o’zgartirish samaradorligi (EO’S) PEDOT:PSS KTQ sifatida ishlatilganda 16,59% dan 18,90% gacha, Jsc 23,16 mA sm^{-2} va Voc 1,04 V ga oshdi. Eng muhimi, qurilmaning barqarorligi yanada takomillashtirildi. Organik modda qo’shilgan holda, qurilma 80 kun davomida qo'lqop qutisiga joylashtirilgandan so'ng, hech qanday qoplamalarsiz EO’S ni dastlabki qiymatning 90% ni saqlab qolishi mumkin[4]. PTAA kovak harakatchanligi yuqori, energetik darajasi perovskitnikiga juda yaqin (5,2eV) hamda termal barqaror.

Xulosa

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, PTAA PEDOT:PSS ga qaraganda defektlarning passivatsiyasini oson hosil qilishga yordam beradi, boshqa muqobillarga nisbatan perovskit bilan oson ta’sirlashganligi sababli PQE lar uchun optimal kovak tashuvchi qatlam materiali bo’la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Manser J.S., Christians J.A. and Kamat P.V. Intriguing optoelectronic properties of metal halide perovskites. Chemical Reviews: 2016, 116 (21): 12956-13008.
2. Hamers L. Perovskites power up the solar industry[1]. Sciencenews. org. Retrieved: 2017, 15.
3. Park, N. G. (2015). “Perovskit quyosh elementlari: rivojlanayotgan fotovoltaik texnologiya”. Bugungi materiallar. 18(2): 65-72.doi: 10.1016/j.mattod.2014.07.007.
4. Kojima A. et al. Journal of the american chemical society. – 2009. – T. 131. –№. 17. – C. 6050-6051.
5. Huang Y. et al. Advanced Energy Materials. – 2022. – T. 12. – №. 4. – C. 2100690.

VI SHO‘BA

Moddalarda fizik–kimyoviy jarayonlar, nanostrukturalar va ularning xossalarini modellashtirish

Процессы в физико-химических веществах, наноструктуры и моделирование их свойств

Processes in physical and chemical substances, nanostructures and modeling of their properties

Obtaining «Nitron» Based Nanofibres with Electrically Conductive Properties

N. Khodjaeva[1], I. Khudoyberdiyev[2], M. Makhkamov[3].
[1,2] National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.
[3] Professor, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.
e-mail corresponding author: xnasiba_1984@rambler.ru Tel:+998977355307

Abstract: In this work nanofibers based on polyacrylonitrile (PAN) fiber "Nitron" were obtained by electrospinning, molding from solution of dimethylformamide. The obtained nanofibers were coated with a layer of polyaniline (PANI). Analysis of micrographs obtained by scanning electron microscopy showed that the average diameter of non-fibers based on Nitron is ≈149.9 nm, and that of those coated with a PANI layer is ≈700 nm. The electrical conductivity of nanofibers modified with PANI was studied and it was found that they have electrical conductivity.

Key words: nanofiber, nanoparticle, electrospinning, nitron, polyacrylonitrile, polyaniline, SEM, interpolymer complex.

Today, various approaches are used to obtain conductive fibers [1]. One of them is the coating of known textile fibers with electrically conductive substances. For this purpose, the use of polyacrylonitrile (PAN) fibers as a matrix is very promising. One of the types of PAN fiber that is produced on an industrial scale is known under the trade name «Nitron» [2]. «Nitron» is a terpolymer and is a copolymer of acrylonitrile (~92,5%) with methyl acrylate (~6,0%) and itaconic acid (~1,5%). Due to the presence of itaconic acid in the fiber, it can form complexes with various positively charged compounds, including polymers. Therefore, in order to obtain conductive fibrous materials, the surface of the «Nitron» nanofiber was coated with a polymer layer based on polyaniline (PANI). Because PANI not only has electrically conductive properties, it also has positively charged groups that form complexes with the fiber[3]. To coat the surface of the «Nitron»-based nanofibers with a PANI layer, oxidative polymerization of aniline was carried out in a reaction vessel in which these fibers were immersed. The polymerization of aniline was carried out in an aqueous solution in the presence of a strong oxidizing agent $(NH_4)_2S_2O_8$. Experiments have shown that industrial fiber samples are not covered by a PAN layer during the reaction. Therefore, in order to increase the surface area of the «Nitron» fiber, nanofibers based on it were obtained using the electrospinning method. Studies have shown that this produces «Nitron» nanofibers with an average diameter of 149.9 nm (Fig.1a). During the reaction, the surface of the nanofibers acquired a black color, characteristic of PANI, which shows that their surface is covered with a layer of polymer.




Fig. 1. SEM micrographs of Nitron nanofibers (a) and fibers coated with a PANI layer (b).

SWOT – tahlilda keltiriladigan imkoniyatlar va havflar tashqi hisoblanib ularni aniqlashga ma’suliyat bilan yondashuv zarur, chunki xar ikki ko‘rsatkichni aniqlashda oliy ta’lim soxasidagi hozirgi shart-sharoitlar va kelajakda bo‘lishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy o‘zgarishlarni hisobga olish zarur. Bizningcha loyihaviy ta’limda SWOT- ta’lim matritsasidan kelib chiqib WO va ST-juftliklar asosida reja tuzishga qaratish lozim. Ya’ni WO-juftlikka ko‘ra OTM ning malakali professor- o‘qituvchilari tomonidan talabalar audirotiyadagi ta’limni mustaqil ta’limda uzviy va uzluksiz davom ettirishlari uchun xar bir semestr uchun “Umumiy fizika” va “Matematik tahlil”, “Fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish” kurslaridan amaliy mashg‘ulotlarda mini loyihalar uchun masalalar to‘plami ishlab chiqiladi. ST-juftlikka ko‘ra talabalarni yutuqlarini yanada rivojlantirish hisobiga kamchiliklarni bartaraf etish tezlashadi. Bu esa o‘z navbatida talabalar fundamental bilimga ega bo‘lib ularni (T) guruhdagi 1 va 3- xatarlarga bog‘liqligi kamayadi. Bundan tashqari (W) guruxdagi kamchiliklarni bartaraf etishda kompleks ishlar olib borilsa talabalarda ijodiylik va kreativlik kabi xususiyatlar rivojlanishi hisobiga kichik startap yoki amaliy loyihalarni amalga oshirish va turli tanlovlarda qatnashishi hisobiga biznes vakillarini OTM ga jalb qilishiga ehtimolligi ortadi.

ADABIYOTLAR

1. Yo‘ldashev J. G., Usmonov S. A. “Pedagogik texnologiya asoslari”. Toshkent. — “O‘qituvchi”, 2004.
2. Лошакова Й. Й. Проектние технологии в образовании / Й. Й. Лошакова. — Текст : непосредственний // Молодой ученый. — 2022. — № 4 (399). — С. 349-352.
3. Полат Е. С., Бухаркина М. Ю. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования 2-е изд., учебное пособие.- М.: Академия, 2008.
4. Гузеев В. В. Планирование результатов образования и образовательная технология. — М.: Народное образование, 2000.


“GARMONIK TEBRANISHLAR. PRUJINALI VA MATEMATIK MAYATNIKLAR” MAVZUSINI O‘QITISHDA AXBOROT VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

O.K. Dehqonova
Fergana state university


Annotatsiya: umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Garmonik tebranishlar. Prujinali va matematik mayatniklar” mavzusini o‘qitishda axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari haqida ma’lumotlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: garmonik tebranish, prujinali mayatnik, matematik mayatnik, vascak.cz.

Kirish. Pedagogik dasturiy vositalar (PDV) - kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, unda zamonaviy texnologiyalar o‘qitish vositasi sifatida ishlatiladi.




1-rasm. Sinus qonuni bo‘yicha tebranayotgan prujinani harakati.




2-rasm. Matematik mayatnik va uning harakat tenglamalari ko‘rsatilgan.

Metodologiya. Bu zamonaviy texnologiyalar bizga bir qancha afzalliklar qulayliklar keltiradi. Ya’ni o‘quvchilarda qiziqishni orttiradi va tushunishni oson qiladi. Va yana bir qulayligi shundaki har qanday fizik jarayonni ham amalda ya’ni hayotda labaratoriya sharoitida ko‘rsatish imkonsiz.




a)



b)

3-rasm. a) matematik mayatnikni φ burchakka og‘dirilgan; b)matematik mayatnikni osilgan tekislikka 2ta mix qoqilganda uni harakatini o ‘zgarishini kuzatishimiz mumkin.

Shuning uchun biz bunda virtual labaratoriyalarga murojat qilamiz. Buning uchun biz **vascak.cz** dasturidan foydalandik. Bu dastur bizga ko‘p fizik jarayonlarni virtual ko‘rib tushunishimizga yordam beradi. Biz quyida mavzuga doir virtual labaratoriya ishlarini ko‘rishimiz mumkin.



4-rasm. Vertalyotda arqonga osilib turgan kishini tebrangan holda uchayotganini ko‘rishimiz mumkin. Bu holat ham matematik mayatnikni ifodalaydi.

Muhokama. “Garmonik tebranishlar. Prujinali va matematik mayatniklar” mavzusiga oid virtual labaratoriya ishlarini ko‘rdik.

Xulosa. Yuqorida ta’kidlaganimizdek ushbu virtual labaratoriya ishlari o‘quvchilarni qiziqishini orttiradi va tushunishini oson qiladi. Ular ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanadi. Shuni ta’kidlash ham joizki biz doim ham virtuallikka tayanib qolmasligimiz zarur. Ya’ni hayotda bajara oladigan labaratoriya ishlarimizni o‘zimiz bajarishimiz bizni mavzuni yaxshiroq tushunishimizga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ananyev D.V. Techniques for enhancing the developmental influence of a physical experiment . Problems of educational physical experiment: collection. scientific and method. works Vol. 3. Glazov: GTPI, 1997 P. 4~5

2. Verkhovtseva M. O. The role of modern educational physical experiment in teaching physics in secondary school // Physical education in universities. 2012. T. 18. No. 2. P. 111118.

3. Gruk V. Yu. Physical laboratories based on a real experiment . Physical education: problems and prospects for development: materials of the VII international. scientific method conf. M.: MPGU, 2008. Part 1. P. 6163.

4. Eltsov A.V., Zakharkin I.A., Stepanov V.A. Computer technologies in the implementation of school physical experiments . Physical education in universities. 2009. T. 15. No. 1. P. 9199.

5. Eltsov A.V., Zakharkin I.A. Modern computer technologies in educational experiments in physics . Bulletin of RSU1. 2007. No. 14. P. 124130.

ИЗУЧЕНИЕ ЯДЕРНОЙ РЕАКЦИИ В СРЕДНИХ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Ш. К.Якубова
Ферганский государственный университет

Аннотация: В этой статье рассмотрено простейшие ядерные реакции, происходящие под действием быстрых заряженных частиц и нейтронов, не представит особого труда понять ядерные превращения под действием других частиц – дейтонов, фотонов, важно разъяснить, что при ядерных реакциях соблюдаются законы сохранения, и научить школьников применять эти законы к различным превращением ядер.

Ключевые слова: атом, ядро, заряженные частицы, протон, электрон, нейтрон, радиоактивность, ядерные реакции, позитрон, изотоп.

Введение. Специфика изучения этой темы состоит в сложности понятийного аппарата, предполагающего наличие определенных навыков абстрагирования, трудностях при визуализации процессов микромира и экспериментов, - наличии большого объема фактического материала.

Методология. В школьном курсе физики изучается следующие типы ядерных реакций: реакции, происходящие под воздействием нейтронов, гамма-квантов, заряжянных частиц, т.е. в зависимости от участвующих в них частицах; реакции, в зависимости от энергии участвующих в реакции частиц, делятся на низкоэнергетические(≈ 100 эВ); среднеэнергетические(≈ 1 МэВ) и высокоэнергетические (≈ 50 МэВ); естественная радиоактивность, искусственные ядерные реакции, деление ядер и синтез ядер.

Естественная радиоактивность.

Наиболее характерным примером естественная радиоактивности является α-распад радия: $^{226}_{88}Ra \rightarrow {}^{222}_{86}Rn + {}^{4}_{2}He$

Искуственные ядерные реакции.

Сначала приведем ядерные реакции, приводящие к образованию стабильных ядер.

Деление ядер.

Рассматривается одно из возможных делений ядер U^{235} под действием подобных нейтронов. Нейтрон – тяжёлая субатомная частица не имеющая электрического заряда. Нейтрон является фермионом и принадлежит к группе барионов. В первой части записи ядерной реакции дополнительно указывается слагаемое, равное величине освобождающейся энергии – энергии деления. Энергия деления одного ядра U^{235} равна примерно 192 М*эв*.

Синтез легких ядер. Изучается пример ядерной реакции синтез при взаимодействии двух ядер изотопов водорода – дейтерия (H^2) и трития (H^3):

$$^{2}_{1}He + {}^{3}_{1}H \rightarrow {}^{4}_{2}He + {}^{1}_{0}n + 17{,}6\ MeV$$

Результаты и обсуждения. Ядерная физика занимает особое положение в курсе физики. Она не только венчает этот курс, но и лежит в основе большинства его разделов. Это позволяет выяснять механизм и природу многих явлений при изучении различных областей физики. Это освобождает учащихся от запоминания многих частностей и дает возможность самим разобраться в различных проявлениях молекулярных и атомных процессов.

Заключение. Таким образом, в курсе физики изучаются отдельные открытия, имевшие фундаментальное значение в физике.

Литература

1. Абрамов, А. И. История ядерной физики. — 2-е. — М.: КомКнига, 2006. - 232 с. - ISBN 5-484-00270-2

2. Капитонов И.М. - Введение в физику ядра и частиц - Издательство "Физматлит" - 2010 - 512с. - ISBN: 978-5-9221-1250-5 - Текст электронный // ЭБС ЛАНЬ - URL: https://e.lanbook.com/book/2189.

3. Мухин К.Н. - Экспериментальная ядерная физика. В 3-х тт. Т. 1. Физика атомного ядра - Издательство "Лань" - 2009 - 384с. - ISBN: 978-5-8114-0739-2 - Текст электронный // ЭБС ЛАНЬ - URL: https://e.lanbook.com/book/277.

4. Мухин К.Н. - Экспериментальная ядерная физика. В 3-х тт. Т. 2. Физика ядерных реакций - Издательство "Лань" - 2009 - 326с. - ISBN: 978-5-8114-0740-8 - Текст электронный // ЭБС ЛАНЬ - URL: https://e.lanbook.com/book/279.

5. Р.Б. Бекжонов, Ш.Қ, Ёқубова, Б.Ч. Чориев. Модда тузилиши. Ядро физикаси курсидан янги қўлланма. Тошкент “Фан” 1998. 127-131 б.

6. Сазонов, А. Б. Ядерная физика : учебное пособие для вузов / А. Б. Сазонов. — 2-е изд., испр. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2024. — 320 с.

7. Н.Ш. Турдиев и др. Физика – 11. Учебник для учащихся 11 классов школ общего среднего образования и средних специальных профессиональных учебных заведений с русским языком обучения. Ташкент - “NISO POLIGRAF” – 2018.

INNOVATIVE METHODS OF TEACHING SPECIALIZED DISCIPLINES

N. Hodjaev[1], U. H. Kurbonova[2], Z. N. Umarkhodjaeva[2], T. B. Ismailov[3]
[1]Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad
[2]Tashkent State Technical University
[3]Karakalpak State University named after Berdakh
e-mail: temurismoilov734@gmail.com

Annotation: The article deals with the peculiarities of implementation of innovative pedagogical technologies in the educational process of teaching special disciplines. The article considers the organization of the lesson in the “Smart Auditorium” by methods of E-Learning.

Keywords: innovation, pedagogical technologies, e-education, “smart audience”.

As it is known, competent teaching of special disciplines predetermines the quality of learning and professional qualification of the graduate, it requires from the teacher a creative approach to the presentation of new material. In recent years in the education system of Uzbekistan pays great attention to the technologicalization of teaching of the educational process, introduced modern pedagogical technologies such as interactive learning, the use of ICT (info-communication technologies), etc., as well as the use of ICT without the use of E-learning methods in E-learning. ICT without the use of e-learning methods in “smart classrooms” (SMART classrooms) does not give the proper effect. When conducting an e-learning lesson in a special subject, a detailed development of the lesson scenario (instructions) is required, oriented to both teachers and students. The teacher conducting the e-lesson (e-teacher) should develop an E-Learning resource (E-Learning resource) and envisage different models of teaching with the use of E-Learning resources, namely: “E-consultation”; ‘E-seminar’; ‘E-individual lesson’; Differentiated interactive method in online mode. In this case, the “E-teacher” conducting “E-lessons” should take into account: the duration of the lesson in accordance with the curriculum; equipment with the necessary equipment; availability of E-Learning resources and electronic information and teaching methodical complex (EREITMC).

For this purpose, the teacher develops different variants of e-learning classes, namely lecture, practical, etc., taking into account the volume and complexity of the material. Obviously, with this approach to the organization of the learning process, the learner turns into an “E-student”, this fact obliges the learner to make maximum efforts for independent learning of the material, he forms cognitive ability, creativity and cognitiveness, which will allow him to deepen the learned material and an important psychological factor - the formation of self-esteem in the direction of self-criticism.

Let's consider one of the variants of the scenario of conducting an “E-Lesson”. A six-hour introductory “group” lecture using Power Point is held. The “e-teacher” works on the Internet, conducting e-lessons for subgroups of students. The e-classes include: “E-mail” consultation; “E-seminar”; distributed project; individual assignment. The final lesson is conducted in person in the computer class, the trainee is tested, the results of the lesson are summarized and statements are drawn up. He receives a positive evaluation if he/she passed the test, participated in the “E-seminar”, completed a project as a member of a virtual group, completed and defended an individual assignment.

In addition, to determine the level of mastered material, the teacher can develop tests of various purposes (tutorial, self-study, etc.), focusing on the “rigid” model of learning, which assumes a block-modular principle of teaching material divided into logically related sections (modules).Thus, when implementing educational programs with the use of electronic technologies didactic support of the educational process takes an invariant form regardless of the technology and specificity of training courses - the form of learning and teaching.

To successfully organize and conduct such classes it is necessary to solve the following problems: 1. The level of professional competence of the teacher should meet the highest requirements; 2. Equipping the classroom (multimedia); 3. Availability of E-Learning resources; 4. Availability of tests that have passed expert evaluation; 5. The level of preparedness of students. 6. Optimal, adapted to the conditions of rapidly changing conditions of the labor market, management of the organization of the educational process and innovative activities of teachers [1].

Final result. Demanded in the domestic and foreign labor market competent specialist with practical skills, meeting the requirements of the employer communicative, creative, able to make independent decisions in real life.

Conclusion. When teaching special disciplines, the introduction of modern teaching technologies into the teaching process using ELMS improves the quality of learning.

Literature

1. Kocheshkova L.O. Technology of managing innovation activities in an educational institution. [Text]: Vologda: VIRO Publishing Center, 2005. 43 p.
http://www.twirpx.com/file/1863855/

MAKTABDA FIZIKADAN DARSDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLAR SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH

S.X. Allayarova

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedogogika instituti

Annotatsiya. Mazkur tezisda maktab ta’limi sohasidagi zamonaviy muammolar ko‘rib chiqiladi, fizika o‘qitishning an’anaviy usullarini qayta ko‘rib chiqish zarurligiga e’tibor qaratiladi. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar, o‘quvchilarning fizikaga qiziqishini orttirish va bilimlarini chuqurlashtirish vositasi sifatida muhimligi ta’kidlanadi.

Tayanch so‘zlar. Zamonaviy ta’lim, darsdan tashqari faoliyat, fizika, innovatsion shakl, ilmiy to‘garaklar, loyiha ishi, tanlovlar, tanqidiy fikrlash, zamonaviy texnologiyalar, fanlararo yondashuv.

Kirish.Zamonaviy ta’lim an’anaviy o‘qitish usullarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladigan ko‘plab muammolarga duch kelmoqda. Fizika fundamental fanlardan biri sifatida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Ammo fizikani chuqur tushunishga erishish uchun faqat nazariy jihatlarni darsda o‘rganish yetarli emas. Bu borada o‘quvchilarning ushbu fanga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirishi va bilimlarini chuqurlashtirishi mumkin bo‘lgan darsdan tashqari faoliyatning innovatsion shakllariga alohida e’tibor qaratish lozim [1-3].

Metodologiya.Maktabdagi darsdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarga mustaqil ravishda ma’lumot izlash, tajriba o‘tkazish va loyihalarni amalga oshirish uchun noyob imkoniyat yaratadi. Bu erkin tadqiqot o‘tkazish, tajribalar o‘tkazish va olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash mumkin bo‘lgan vaqtdir. Bunday faoliyatning innovatsion shakllari, shu jumladan ilmiy to‘garaklar, tanlovlar, ko‘rgazmalar va loyiha ishlari bolalarda tanqidiy fikrlash, kreativlik va jamoaviy ishlash kabi sifatlarni rivojlantirish uchun katalizator bo‘lishi mumkin.

Natijalar. Maktabdagi darsdan tashqari mashg‘ulotlar natijalari quyidagicha bo‘lishi mumkin: o‘quvchilar fizika bo‘yicha olimpiada va tanlovlarda muvaffaqiyatli qatnashish; ilmiy tadqiqod o‘tkazish va natijalarni nashr etish; fizik eksperimentlar o‘tkazish orqali amaliy qo‘llay olish qobilyatlarini rivojlantirish; fizik qonunlar va hodisalarni chuqur tushunish, fizika mutaxasisligiga ega bo'lgan etakchi universitetlarga kirish imkoniyati.

Muhokama. Mazkur tezis maktabda fizikadan darsdan tashqari mashg‘ulotlarning innovatsion shakllari samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan. Fizikadan darsdan tashqari faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning bir nechta misollarini ko‘rib chiqamiz.

Masalan, ilmiy to‘garaklar darsdan tashqari mashg‘ulotlarning eng ommabop shakllaridan biridir. Ular o‘quvchilarga o‘zlarini qiziqtirgan mavzularga chuqur kirib borish va tajribalar o‘tkazish imkoniyatini beradi.

Darsdan tashqari mashg‘ulotlarni samarali amalga oshirishning yana bir misoli loyihaviy faoliyatdir. Masalan, loyiha faoliyati doirasida quyosh isitgichlari va shamol tegirmonlarini yaratish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish mumkin. O‘quvchilar loyiha ustida guruhlarda ishlashlari, izlanishlar olib borishlari, nazariyani o‘rganishlari va o‘z bilimlarini amalda qo‘llay olishlari mumkin.

Fizika bo‘yicha tanlov va olimpiadalar darsdan tashqari faoliyatni faollashtirishning yana bir usulidir. Bunday tadbirlarda ishtirok etish nafaqat mavzuni chuqur o‘rganishga, balki ommaviy chiqish va o‘z-o‘zini tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, ko‘plab maktablar “Fizika haftaligi”ni tashkil etadi, unda turli tanlovlar, ma’ruzalar va mahorat darslari bo‘lib o‘tadi va ular nazariy ham amaliy qismlarni ham o‘z ichiga oladi.

Xulosa. Shunday qilib, fizikadan darsdan tashqari mashg‘ulotlarning innovatsion shakllari nafaqat bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi, balki o‘quvchilarda fanning zamonaviy dunyoda tutgan o‘rnini yaxlit tushunishni shakllantiradi. Fizikani o‘rganishni har bir o‘quvchi uchun qulay va qiziqarli qilish uchun bunday faoliyat shakllarini rivojlantirish va joriy etishni davom ettirish muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. Казначеева С. Н., Бичева И. Б., Казначеев Д. А. Внеурочная деятельность по физике как условие повышения интереса и качества освоения учебного материала //Проблемы современного педагогического образования. – 2022. – №. 74-3. – С. 117-119.

2. Буйлова Л.Н. "Методические советы по разработке и оформлению рабочих программ курсов внеурочной деятельности" // Молодой ученый. 2015, №16 (96), с.403-408.

3. Писчаскина, М. В. Организация внеурочной деятельности: проблемы, перспективы, решения. — 2016. — № 8.5 (112.5). — С. 37-41.


FIZIKA VA ASTRONOMIYANI O’QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI *PISA* XALQARO BAHOLASH DASTURIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI *PISA* XALQARO BAHOLASH DASTURIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

U.M.Mirrzayeva
Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
Email: (umidamirzayeva035@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro baholash dasturi, zamonaviy ta’lim dasturlari, kreativ fikrlash va ilmiy savodxonlikni oshirish haqida statistik ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: xalqaro standartlar, statistika, PISA, TIMSS, PIRLS, EGRA, pedagogika, sharxlash, fikr, muloqot

Kirish. Davlatimiz rahbarining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida 2030-yilga borib PISA o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish bo‘yicha vazifalar belgilangan.



Metodologiya. **Qanday xalqaro baholash dasturlari mavjud?**
PISA – o‘quvchilarni ta’limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi
PIRLS – matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot
TIMSS – maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring.
TALIS – o’qitish va o’rganish xalqaro tadqiqoti
Muhokama. PISA – o‘quvchilarning ta’limiy yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur.Turli davlatlarda 15 yoshli o‘quvchilarning savodxonligini

o‘qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini baholovchi dastur. Bu dastur 3 yilda bir marotaba o‘tkaziladi.

Bunda har bir savol, topshiriq quyidagi kategoriyalar bo‘yicha klassifikatsiyalanadi:

- kompetensiya
- tabiiy-ilmiy bilimlar tipi
- kontekst
- kognitiv daraja

PISA muayyan maktab o’quv dasturlarining ustunligini o’rganish o’rniga o’quvchilarning asosiy mavzularda bilim va ko’nikmalarini qo’llay olish qobiliyati muamolarni taxlil qilish, sharxlash va samarali hal qilish, fikrlash va muloqat qilish imkoniyatlarini ko’rib chiqadi. PISA tadqiqotlarida O‘zbekistonning ishtiroki mamlakatda ta’lim sifati nechog‘lik darajada ekanini xalqaro miqyosda ko‘rsatadi.

PIRLS - Progress in International Reading and Literacy Study

4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholashga mo‘ljallangan.

TIMSS(The Trends in International Mathematics and Science Study) - Matematika va tabiiy fanlarni o‘zlashtirish sifatini Xalqaro monitoring qilish va baholash tizimi.

TALIS(Teaching and Learning International Survey) – turli mamlakatlarda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning xalqaro qiyosiy tahliliga asoslangan tadqiqot bo‘lib, Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan ta’sis etilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda,hozirgi kunda milliy innovatsion tizimni rivojlantirish hamda innovatsion potensialini takomillashtirmoq mamlakatning iqtisodiy o’sishning eng muhim omillari hisoblanmoqda. Shuning uchun mazkur omillarni tadqiq etish muammolari dunyoning ko’plab davlatlar va xalqaro tashkilotlar uchun dolzarbdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Meyerhöfer W. Tests in the test - the example of PISA. Barbara Budrich // Opladen, 2005. – p. 25.

Мирзаева, У. (2024). Fizika fanidan topshiriqlar shakllantirishda xalqaro baholash tadqiqotlarining didaktik-testologik imkoniyatlaridan foydalanish. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, *2*(4), 202-209.

2. Мирзаева, У. (2024). O ‘quvchilar tayanch kompetensiyalarini shakllantirishda PISA xalqaro baholash tadqiqotida qo ‘llanilgan topshiriqlarga o ‘xshash topshiriqlarni shakllantirish va foydalanish. *Общество и инновации*, *5*(6), 195-204.

3.Mirzayeva, U. M. (2023). Ilm-fan va ta’lim tizimining innovatsion rivojlanishi: kadrlar tayyorlashda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o ‘rni: ilm-fan va ta’lim tizimining innovatsion rivojlanishi: kadrlar tayyorlashda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o ‘rni.

4.Qizi Mirzayeva, u.m.(2023). ‘‘Fizika’’fanini o‘qitishda integratsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. *golden brain*, *1*(28), 109-111.

MAGNIT MAYDON OQIMINI DASTURIY TA’MINOT VOSITALARI YORDAMIDA O‘QITISH

X.A.Qodirov[1]; I.O.Zaxidov[2]

TATU Farg‘ona filiali[1]; Namangan davlat universiteti[2]

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktab fizika kursining magnit maydoniga doir mavzularini o‘rganishda dasturiy vositalar asosida o‘qitishni takomillashtirish yo‘llari tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: fizika fani, dasturiy vosita, o‘quvchi, magnit maydon oqimi, dastur interfeysi, didaktik imkoniyatlar.

Kirish. Jahon pedagogik amaliyotida fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashi va tafakkurini rivojlantirish, pedagogik dasturiy vositalardan unumli foydalanish orqali o‘quv jarayonini takomillashtirish bugungi kunning ustivor vazifalari sifatida baholanmoqda. GSR Asia xalqaro tashkiloti tomonidan "2030 yilgacha ta'lim sifatini kompyuter va axborot-kommunikasiya texnologiyalari asosida oshirish" o‘quvchilarning samarali ta'lim olishlari va ta'lim jarayonini tashkil etish har tomonlama qo‘llab quvvatlashni ko‘zda tutadi [1]. Bu esa o‘z navbatida maktablarda fizikadan mashg‘ulotlarni pedagogik dasturiy vositalar asosida takomillashtirish jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega.

Magnit maydon oqimi fenomenlarini o‘rganish fizika, geofizika, elektromagnetizm, materiallar ilmi kabi turli ilmiy va muhandislik fanlariga uzviy bog‘liqdir. Magnit maydonlarning xarakterini va ularning oqayotgan moddalar bilan o‘zaro ta’sirini tushunish magnit levitatsiya va harakat tizimlaridan tortib, tibbiy diagnostika va sanoat jarayonlarigacha bo‘lgan dasturlar uchun zarurdir.


Natijalar. So‘nggi yillarda hisoblash vositalari va dasturiy ta’minotlarning takomillashishi magnit maydon oqimini tahlil qilish va simulyatsiya qilishni ancha yengillashtirdi. Ushbu dasturiy vositalar tadqiqotchilar va muhandislarga murakkab hodisalarni modellashtirish, tashqi ta’sirlar natijasida parametrlarini o‘zgarishini bashorat qilish va dizaynlarni optimallashtirish uchun kuchli imkoniyatlarni taqdim etadi. Biroq, bunday dasturiy ta’minotning keng tarqalganligiga qaramay, magnit maydon oqimini tadqiq etish uchun uni samarali foydalanilishida qiyinchiliklar va muammolar saqlanib qolmoqda [2].

Muhokamalar. Dasturiy ta’minot vositalarining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash, ularning davom etayotgan foydaliligi va dolzarbligi uchun zarurdir. Biroq, dasturiy ta’minot kodlarini saqlash, algoritmlarni yangilash, rivojlanayotgan asbob-uskunalar va dasturiy platformalar bilan muvofiqlik masalalarini hal qilish rivojlanayotgan resurslar va ko‘p funksionallikni talab qiladi, bu esa vaqt o‘tishi bilan qo‘llab-quvvatlash qiyin bo‘lishi mumkin [3].

Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun tadqiqotchilar, dasturiy ta’minot ishlab chiquvchilari va moliyalashtirish agentliklari birgalikda harakat qilishi zarur.

Ilmiy muammolarini bartaraf etishda magnit maydon oqimi fenomenlarini yaxshiroq tushunish uchun dasturiy vositalardan to‘liq foydalanishi zarur.

Quyidagi rasmlarda ayni sohani rivojlantirish va nazariy tushunchalarni amaliyotda qo‘llash maqsadida yaratilgan dastur interfeysi keltirilgan:

		
Dasturning kirish oynasi.	*Magnit maydon oqimini hisoblash oynasi.*	*Tokli ramkani aylantiruvchi momentni hisoblash oynasi.*

Ushbu izlanish orqali biz magnit maydoni tadqiqotlari uchun dasturiy vositalarni yanada rivojlantirish, nihoyat turli ilmiy-texnik sohalarda innovatsiyalar va yutuqlarni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha davom etayotgan sa’y-harakatlarga o‘z hissamizni qo‘shishni maqsad qilganmiz.

Xulosa. Zamonaviy axborotlashgan ta’lim muhitida maktab fizikasi mavzularini o‘qitishni dasturiy vositalar asosida takomillashtirish, mashg‘ulotlarni tashkiliy-tuzilmaviy komponentlarining didaktik imkoniyatlari integrativ yondashuv asosida tashkil etish zamon talabidir. Shu boisdan maktablarda o‘quvchilarning bilish faolligi va analitik fikrlashini intensiv rivojlantirish mexanizmlarini mashg‘ulotlarda joriy qilish, fan va ishlab chiqarish integrasiyasini ta’minlashga yo‘naltirilgan tizimli ishlarni olib borish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. The role of ICT in realizing edication for aii bu 2030 Achieving Sustainabie Deveiopment Goal 4.-P. 46. http://www. Csr-asia.Com/downioand/ICT4SDG4-Final-Version.pdf.

2. Umarov, A., & Zohidov, I. (2020). Teaching chapter «Electric resistance» 8th–class, physics course. *Збірник наукових праць ΛΟΓΟΣ*, 110-114.

3.Obidjonovich, Z. I., & Anvarovich, Q. X. (2023). Elektromagnit induksiya hodisasini maktab fizika kursida o‘qitishda dasturiy ta’minotlardan foydalanish. *Science and innovation*, *2*(Special Issue 5), 556-560.

THE IMPORTANCE OF INTERDISCIPLINARY TEACHING IN THE 7TH GRADE PHYSICS COURSE

G.K.Boyturayeva[1]; I.O.Zahidov[1]
Namangan State University

Abstract. This article provides recommendations on teaching the school physics course based on interdisciplinary connections and deepening students' knowledge.

Keywords: physics course, interdisciplinary teaching, topic, goal, recommendations, intellectual activity, goal orientation.

Introduction. In developed countries around the world, one of the main issues in interdisciplinary teaching of physics is the development of the teacher's knowledge of the physics course and related subjects, and the effective use of modern teaching methods to improve the learning process. Many research works have been carried out and are being carried out in this area. In interdisciplinary teaching of the physics course, special attention is paid to the use of innovative methods and their application in the physics education process, developing students' physical worldview, forming didactic support, and improving it, thus advancing interdisciplinary teaching technologies.

Based on the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-5032 dated March 19, 2021, "On measures to improve the quality of education in the field of physics and develop scientific research," a program of comprehensive measures was approved to improve the quality of education in physics and ensure the effectiveness of scientific research in the field of physics [1]. As a result, attention to teaching physics and its quality level has increased significantly. In this process, interdisciplinary connections play an important role.

Results. The effectiveness of education is based on its alignment with the goals and objectives of the content, its scientific foundation, and the selection of appropriate methods and tasks for students.

Interdisciplinary connections do not mean artificially combining different subjects. Effective teaching occurs when the common similarities and specific features of each subject are well understood and taught in connection. Studying materials on an interdisciplinary basis is an important pedagogical process that is carried out according to the goal set for the topic's nature. Students who study subjects in connection with each other gain deeper and broader knowledge compared to those who study only one subject.

Discussions. For example, taking physics and mathematics, connections can be established as follows. Approximate calculations are introduced in the 7th grade. In the 8th grade, laboratory exercises recommend determining measurement errors. When studying mechanics, trigonometric functions, quadratic equations, and other mathematical operations are widely used.

By properly using mathematical concepts during the study of the physics course, students should see that mathematical formulas reflect real connections and that these connections are derived from these formulas [2].

Teaching the physics course's "Electric Charge" topic in the 7th grade in connection with chemistry, computer science, information technologies, geography, biology, mathematics, history, etc., will deepen students' knowledge and develop their innovative ideas.

Since all modern advanced technologies operate on electrical energy, we consider it necessary to teach electrical laws to students in an interdisciplinary manner, and it is advisable to implement interdisciplinary connections in the physics course's [3] topics related to electric current.

Conclusion. Teaching knowledge within only one subject may limit the teacher's methodological and creative approach. Of course, the degree to which these recommended guidelines are followed and their effectiveness depends on the teacher's knowledge, familiarity with related subjects, and qualifications. Interdisciplinary connections enhance the scientific-theoretical, educational, and moral levels of knowledge content and activate students' intellectual activity. Based on the above, we believe that it is advisable to continuously implement and develop interdisciplinary connections.

References

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-5032 dated March 19, 2021, "On measures to improve the quality of education in the field of physics and develop scientific research," Tashkent-2021 y.
2. Mirzakhmedov B. et al. Methodology of teaching physics. Textbook. Tashkent 2010. – 130 p.
3. Umarov A., Zahidov I., Boyturayeva. Interdisciplinary relationships and their application in teaching topics of electricity in a school physics course. "Science and Innovation" international scientific journal. ISSN: 2181-3337 UIF=8.2, 2024 issue 1, pp. 166-170.

METHODS FOR CONDUCTING ENVIRONMENTAL EDUCATION AND TRAINING THAT INVOLVE TEACHING THE DIFFUSION PHENOMENON IN PHYSICS COURSES

A.M.Karimov[1]; I.O.Zahidov[1]
Namangan State University[1]

Abstract. This article discusses ecological changes and issues, as well as recommendations for teaching the phenomenon of “Diffusion” in school physics courses as a means of implementing environmental education and training.

Keywords. physics, diffusion phenomenon, ecological knowledge, pedagogical process, environment, ecological education and training.

Introduction. In the current era, scientific and technological progress has caused new ecological problems, fundamentally changing the relationship between society and nature. Efficient use of natural resources, preservation of land, water, air, natural wealth, flora, and fauna has become even more relevant. To thoroughly study and address existing environmental issues, a new branch of ecology, called communal or urban ecology, has been established.

Results. Many industrial enterprises, organizations, and the activities of motor vehicles release harmful gases, dust, smoke, and various bacteria into the atmosphere through diffusion. Living organisms that breathe this air are being poisoned to various extents. It is known that when humans and animals breathe, oxygen-mixed air enters the body and diffuses from the lungs into the blood, sustaining life. We understand how important clean air is for human health. If the amount of harmful dust and gases in the air is high, living organisms can be poisoned and may even perish [1].

In general secondary schools, practical exercises on the phenomenon of diffusion are conducted in physics classes. During these exercises, it is essential to compare the experiments with real-life occurrences and focus on preventing the negative aspects. The phenomenon of diffusion occurs not only in gases but also in liquids. After explaining the phenomenon of diffusion in the textbook and demonstrating experiments, students' attention should be drawn to the following: waste discharged into water bodies (rivers, seas, lakes, canals, ditches) by factories, organizations, and the public pollutes the water through diffusion, leading to the death and poisoning of aquatic plants and animals [2].

Discussions. In the classes, the integration of physics and ecological knowledge is recommended for enhancing students' knowledge and developing their critical thinking abilities. This approach strengthens interdisciplinary connections and ensures continuity in education.

For example, the teaching of physics involves the educational process, its content, methods, and organization, viewed from a pedagogical-psychological perspective. Applying ecological knowledge through interdisciplinary connections encourages the creative direction of educational activities and

provides methodological guidance for creating a harmonious understanding of natural phenomena.

Providing ecological knowledge in physics education helps to promote the conservation of nature and ensures that ecological education and training are taught in physics classes, alongside other subjects. During the pedagogical process, students' study of liquids, gases, thermal phenomena, sound phenomena, pressure, and other topics in connection with ecological knowledge based on interdisciplinary relationships is essential to show how these concepts complement and harmonize with each other.

A rational attitude towards the environment and cultivating a sense of preserving nature's resources for future generations is vital. Environmental education and training play a significant role in preventing anthropogenic impacts. Considering that basic concepts of ecological education and training begin in secondary schools, the importance of environmental education lies in maintaining the interconnection between nature and society, ensuring natural stability, and fostering a conscious use of nature. It helps instill a love for nature and economy in the hearts of young people.

Conclusion. Conducting environmental education and training in an integrated manner is appropriate, with each subject teacher incorporating it from the perspective of their discipline. In particular, the inclusion of such practices in physics education plays an important role in allowing students to learn more about the secrets of nature. This contributes to the younger generation's comprehensive acquisition of knowledge about nature, understanding the delicacy and beauty of their surroundings, and increasing their love for their homeland and its environment.

References

1. Турдиқулов Э. Физика ўқитишда ўқувчиларга табиатни мухофаза қилишга оид таълим-тарбия бериш. - Т.: Ўқитувчи, 1992.

2. Karimov A. Zaxidov I. Diffuziya hodisasini o‘rganishda ekologik bilimlardan foydalanish. Namangan davlat universiteti “Yarimo‘tkazgichlar fizikasi va ular asosidagi qurilmalarning zamonaviy muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani to‘plami. 2023 yil 226-227-betlar.

ASTRONOMIYA O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH ZARURATI

D.A.Alijonov[1]; E.Abdubannopova[2]
Namangan davlat pedagogika instituti[1]; Namangan davlat universiteti[2]
e-mail: dilmurod041321@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola astronomiya o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash zaruratini ko‘rsatadi. Maqolada raqamli texnologiyalar, ularning afzalliklari va o‘qitishda qo‘llanilish usullari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Astronomiya, raqamli texnologiyalar, onlayn ta'lim resurslari, ta'lim samaradorligi, amaliy ko‘nikmalar,pedagogik yondashuvlar.

Kirish. Astronomiya, o‘zining tabiatida ko‘p qirrali va murakkab bo‘lgan fan bo‘lib, o‘qitish jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash zarurati keskin o‘smoqda. Raqamli texnologiyalar, masalan, simulyatsiyalar, interaktiv dasturlar va onlayn resurslar, o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, ta'lim samaradorligini yaxshilash va bilimlarni yanada chuqurroq o‘zlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada, astronomiya o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash zarurati, ularning afzalliklari va ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinadi.

Raqamli texnologiyalar, astronomiya ta'limida quyidagi jihatlarda qo‘llanilishi mumkin:

Ko‘rgazmali materiallar: 3D modellar va simulyatsiyalar yordamida o‘quvchilar koinotning murakkab tuzilishini oson tushunadilar. Bu usullar ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qiladi [1].

Onlayn Resurslar: Astronomiya bo‘yicha onlayn kurslar, videodarslar va interaktiv platformalar o‘quvchilarga o‘z vaqtida va joyda mustaqil o‘rganish imkoniyatini beradi. Bu, ayniqsa, pandemiya davrida ta'lim jarayonini davom ettirishda muhim bo‘ldi [2].

Mobil Ilovalar: Astronomiya bilan bog'liq mobil ilovalar yordamida o‘quvchilar o‘z telefonlarida osmonni kuzatish va astronomik hodisalarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu usul, o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi [3].

Astronomiya o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash bir qator afzalliklarni keltirib chiqaradi: Qiziqishni Oshirish: Interaktiv va ko‘rgazmali materiallar, o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar yordamida darslar yanada samarali o‘tadi [4].

Bilimlarni Chuqurlashtirish: Raqamli texnologiyalar, o‘quvchilarga murakkab astronomik tushunchalarni yanada osonroq o‘zlashtirishga yordam

beradi. Masalan, simulyatsiyalar yordamida ularning o‘zaro bog'liqliklari ko‘rsatiladi [5].

Amaliy Ko‘nikmalarni Rivojlantirish: Raqamli resurslar yordamida o‘quvchilar amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu, ularga nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashda yordam beradi [6].

Ilmiy Tadqiqotlar Tahlili. Astronomiya o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar mavjud:

Pedagogik Yondashuvlar: Raqamli texnologiyalar, an'anaviy pedagogik usullarga muqobil sifatida qo‘llanilmoqda. Tadqiqotlar, o‘quvchilarning ko‘p qirrali fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning samarali ekanligini ko‘rsatadi [7].

Ta’limning Interaktivligi: Ilmiy tadqiqotlar, o‘quvchilarning interaktiv ta'lim muhitida yaxshiroq o‘zlashtirishlarini ko‘rsatadi. Raqamli platformalar yordamida ta'lim jarayonining interaktivligini oshirish, o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi [8].

Xulosa. Astronomiya o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash zarurati bugungi ta'lim tizimida yanada keskinlashmoqda. Raqamli resurslar va interaktiv materiallar yordamida o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtiradilar, balki amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradilar. Adabiyotlar tahlili, raqamli texnologiyalarni astronomiya o‘qitish jarayonida qo‘llashning zarurligini va afzalliklarini ko‘rsatadi. Faqat shunday qilib, o‘quvchilar koinot haqidagi bilimlarini kengaytirish va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

ADABIYOTLAR

1. Garcia, L. (2020). *The Role of Digital Technologies in Astronomy Education*. Journal of Science Education.
2. Smith, J. (2021). *Enhancing Learning Outcomes in Astronomy through Digital Resources*. Educational Technology Research.
3. Wang, M. (2022). *Mobile Applications in Astronomy Education: Opportunities and Challenges*. International Journal of STEM Education.
4. Johnson, A. (2020). *Interactive Learning Strategies in Astronomy for Engaged Learning*. Journal of Educational Research.
5. Roberts, K. (2019). *Using Simulations to Teach Complex Astronomical Concepts*. Physics Education Journal.
6. Peterson, R. (2021). *Developing Practical Skills in Astronomy through Digital Learning*. Astronomy Education Review.
7. Clark, D. (2020). *Pedagogical Approaches in the Age of Digital Learning: Astronomy Focus*. Journal of Educational Pedagogy.
8. Miller, T. (2019). *Interactive Teaching and Learning in Astronomy Education*. Journal of Astronomy and Education.

FIZIKA FANINI O‘QITISHDA HAMKORLIK DINAMIKASI

M.S.Ergasheva
Farg‘ona davlat universiteti akademik litseyi

Annotatsiya: interfaol metodlar o‘qituvchi bilan o‘quvchining faol munosabati, bir-birini to‘liq tushunishga asoslanadi. Interfaol metodlarni o‘quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadi – dars qaysi shaklda bo‘lmasin, qayerda o‘qitilmasin darsda o‘qituvchi bilan o‘quvchining hamkorlikda ishlashini tashkil etishdir.

Kalit so‘zlar: hamkorlik dinamikasi, kuchli o‘quvchi, interfaol darslar, hamkorlik dinamikasi, interaktivlik, bilishga doir savollar, ta’sir o‘tkazish.

Kirish. Ta’lim jarayoniga bilish vazifasini qo‘yilishda muammoli savollar asosiy o‘rinni egallaydi. Ular muammoli vaziyatlar yaratishning har qanday usullariga tegishli ravishda qo‘yiladi. Bilishga doir savol o‘quvchilar uchun muayyan darajada qiyin bo‘lishi, ulardagi mavjud bilimlarning cheklanganligini ko‘rsatish va ayni vaqtda, ular bajara oladigan bo‘lishi, ya’ni idrokning hayotiy tajribaga va nazariy bilimlarning qay darajada egallanganliklariga bog‘liqligini hisobga olish zarur. Interaktivlik – o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta’siri. Hamkorlik faoliyatini takomil bosqichiga o‘tish jarayonida o‘zaro ta’sir o‘tkazish harakatini baholashdan o‘z-o‘zini baholash darajasiga ko‘tarilishi sodir bo‘ladi.

Ilmiy-tadqiqot metodlari. Yuqorida aytilgan jarayon hamkorlik dinamikasidan dalolat beradigan eng muhim omillardan biri vazifasini o‘taydi. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi asosida mashg‘ulot o‘tkazish uchun guruh o‘quvchilari 4-5 kishilik kichik guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruhda kuchli, o‘rta va kuchsiz o‘quvchi bo‘lishiga e’tibor berish kerak. Chunki jamoalarning teng kuchli bo‘lishi ta’minlanishi kerak. O‘quv xonasida partalarning qo‘yilishi kichik guruhlar ishlashiga yordam beradi. Bunda o‘quvchilar doira shaklida o‘tirishadi hamda bir birlarini bevosita ko‘rib turadi. Bu holatning afzalligi o‘quvchilarga bevosita bir birlari bilan aloqa qilishga imkon beradi va buning natijasida o‘quvchilar tezda fikr almashishadi va tez yechim topishadi. Bu holatda munozara vaqtida kuchsiz o‘quvchilar asosan o‘rganuvchi rolini o‘ynashadi.

Natijalar. Buning natijasida esa guruhdagi past saviyali o‘quvchilarning o‘sishiga erishiladi. O‘tkaziladigan mashg‘ulotga tayyorgarlik davomida mavzuning qaysi qismini o‘qituvchining o‘zi tushuntirishi va o‘quvchilar qaysi qismini bajarishi rejalashtiriladi. Bunda darsga qo‘yiladigan maqsaddan kelib chiqqan holda, har bir o‘quvchiga qo‘yiladigan topshiriqlar aniq bo‘lishi lozim. Yani savollar o‘quvchining saviyasidan kelib chiqib berilishi kerak. Buni qanday afzalliklari bor shuni ko’rib o’tamiz. Deylik kuchsizroq o‘quvchiga

qiyinroq savol berilsa, ma’lumki u bu savolga javob topa olmaydi va buni natijasida o‘ziga bo‘lgan ishonchi so‘nib fanga bo‘lgan qiziqishi ham kamayib ketadi. Agar o‘zini saviyasiga mos savol bersak u bunga javob bera oladi (qo‘ldan kelgancha) va yanada fanga bo‘lgan mehri ortib boradi.

Muhokamalar. Dars jarayonida topshiriq yangi mavzuga doir savollarga javoblardan iborat bo’lsa, unda kuchli o‘quvchiga qiyin savol beriladi. O‘quvchi tomonidan berilgan javobni guruh ishtirokchilaridan biri javobning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini kitobdan tekshirib aytadi. Keyingi o‘quvchi esa agar javob to‘g‘ri bo‘lsa bu javobni daftarga yozadi. So‘ngra o‘quvchi javobni isbotlovchi dalillar va misollar keltirishi kerak. Bu jarayonda o‘quvchilarning deyarli barchasi jarayon ishtirokchisiga aylanadi. O‘zini javobini bildiradi.

Xulosa. Interfaol darslar tashkil qilishning ko’pincha maqbul usullaridan biri guruhlarga bo‘lib, dars o‘tish deb hisoblandi. Guruhlarga bo‘lishda albatta har bir guruhga a’lochi o’quvchilardan tenglab o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu hol esa o‘rtacha o‘qiydigan, erkin fikrlashni bilmaydigan o‘quvchini harakatlantirishga olib keladi. Guruhga ijobiy ta’sir uyg‘otishga sabab bo‘ladi. O‘quvchilar qanchalik darsga qiziqishsa ularning bilimlari shunchalik ortadi. Bizning vazifamiz esa turli usullardan foydalanib o‘quvchilar bilimini oshirishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi
2. Ishmuhamedov R.J., Yo’ldoshev M. Ta’lim va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T.: - Nihol nashriyoti, 2016
3. Maxamatrasul Djo’rayev “Fizika o’qitish metodikasi” Toshkent - 2015

BO‘LAJAK TIBBIYOT MUHANDISLARIGA FIZIKA O‘QITISHDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.

S.A.Usmonov

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Annotatsiya: Tibbiyotda fizika o‘qitish muammolarini hal qilish ko'p jihatdan qiyin tuyuladi, keling ulardan biriga to‘xtalamiz. Mavjud qiyinchiliklarni yengish uchun o‘qituvchiga asosan operatsion imkoniyatlari katta didaktik salohiyatga ega bo‘lgan kompyuter yordam berishi mumkin[1]. Shu sababli, ko‘plab o‘qituvchilar elektron kompyuterlarga katta umid bog‘lashadi, chunki ulardan foydalanishda haqiqatan ham hozir beradigan va zamonaviy jamiyat yosh avloddan talab qiladigan bilimlar orasidagi farqni kamaytirishi mumkin.

Kalit so’zlar: Fizika o‘qitish metodikasi, elektron darslar, fizikada axborot texnologiyalarini qo‘llash samaradorligi

Kirish. Tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida fizika fanini o‘qitishdagi muammolar, birinchi navbatda, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazishda barcha talabalarning to‘liq laboratoriya mashg‘ulotlarini amalda o‘tkazishi, har bir talaba uchun laboratoriya jihozlarining yetarli bo‘lishi, dars uchun ajratilgan vaqt ichida tajribaning aniq natijalarini olishi bilan bog‘liq[2].

Ilmiy-tadqiqot metodlari. Zamonaviy VR texnologiyalari yuqori samarali prosessorlar realizmni virtual voqelikka qo‘yib, ajoyib animatsiya, fizika, fazoviy audio va boshqalar orqali tajribalarni jonlantiradi. An’anaviy ta’lim tizimi va metodlari orqali eng yuqori o‘zlashtirish imkonining atigi 50-60% da, VR texnologiyalari orqali o‘tilgan darslarning o‘zlashtirish imkoni esa 87-90% ni tashkil qiladi. VR texnologiyalari yordamida amalga oshiriladigan laboratoriya mashg‘ulotlari esa inson hayoti va sog‘ligi uchun xavfsiz, ekologik jihatdan chiqindisiz, nisbatan arzon va bajarish oson bo‘lib hisoblanadi.



Natijalar. Bir misol tariqasida o‘qituvchi tovush xarakteristikalarini o‘lchash laboratoriya ishini dars jarayonida ko‘rsatib bergan bo‘lsin. Talaba esa darsdan so‘ng ushbu mavzuni yanada mukammal o‘zlashtirishida internet tarmog‘iga ulangan mobil qurilma vositasi juda yaxshi imkon yaratadi. Buning uchun talaba mobil aloqa vositasinining “Play market” ilovalar dasturi orqali “Sound - meter” deb nomlangan dasturni yuklab oladi, talaba mobil qurilmasi ushbu dasturni to‘liq qo‘llab quvvatlaganda 99% daraja aniqlikdagi tovush xarakteristikalarini mustaqil o‘lchay oladi.

Muhokamalar. Talaba laboratoriyada o‘rgangan bilimlarini mobil qurilmasi yordamida bepul, hamda ortiqcha vaqt sarflamasdan takrorlay oladi va amaliyotga tadbiq etib, o‘zining shaxsiy ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. O‘qituvchi

esa talabaga mavzuda egallanishi zarur bo‘lgan kompetentsiyalar bo‘yicha vazifalar yuklaydi. Talaba berilgan juda qiyin topshiriqlarni ham qulay tarzda bajara oladi, chunki “Sound - meter” dasturi ko‘plab tovush xarakteristikalarini uzluksiz o‘lchash imkoniga ega. Talaba uyidagi, ko‘chadagi, tibbiyot va sanoat jabhalarida tovushning balandligi, intensivligi, qattiqligi va boshqa zaruriy o‘lchovlarini osongina aniqlay oladi.

Xulosa. Talabalar mustaqil ishlarni bajarishda, amaliy mashg‘ulot darslarida ijobiy baholar olishi uchun o‘rgangan va o‘lchagan ma’lumotlarini qurilma xotirasiga saqlab olib, elektron yoki qog‘oz shakliga chop etib o‘qituvchiga taqdim qilishi ham mumkin. Qisqa qilib aytganda bu kabi usullardan foydalanish orqali tibbiyotda fizika o‘qitishni ham bir qadar takomillashtirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. N. Remizov. TIBBIY VA BIOLOGIK FIZIKA. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2005. 195-198-sahifa
2. M. I. Bazarbayev, I. Mullojanov, X. J. Raximova, F. B. Nurmatova, U. M. Abdujabbarova, A. Z. Sobirjonov,
3. I.Sh.Saidnazarova. Biofizika. Toshkent Fan va texnologiya – 2018. 49-54-sahifa

O‘QUVCHILARNING EKOLOGIK MUAMMOLARNI ANGLASHIDA TERMODINAMIKA QONUNIYATLARINI INTEGRATSIYALASH

A.E.Otarbaev

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu ishda termodinamikani zamonaviy ekologik muammolar kontekstida o‘rganishning ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Energiyaning saqlanish qonuni va entropiyaning ko‘payish qonuni kabi termodinamik qonunlar o‘quvchilarda inson faoliyatining atrof-muhitga ta’sirini anglashga qanday yordam berishi haqida fikr yuritiladi.

Tayanch so‘zlar. Termodinamika, ekologiya, ta’lim, ekologik ong, energiyaning saqlanish qonuni, entropiya, loyiha ta’limi, fanlararo yondashuv, iqlim o‘zgarishi.

Kirish. Dunyoda ekologiya masalalari tobora dolzarblashib borayotgan bugungi kunda tabiiy fanlar, ayniqsa, fizika sohasidagi ta’limning ahamiyatini ortiqcha baholab bo‘lmaydi. Fizika kursining markaziy mavzularidan biri termodinamika bo‘lib, u issiqlik jarayonlari va energiyaning o‘zgarishini boshqaruvchi qonunlarni o‘rganadi. Termodinamik qonunlar haqidagi bilimlar o‘quvchilarga nafaqat fizik jarayonlarni tushunishga, balki inson faoliyatining atrof-muhitga ta’sirini anglashga yordam beradi [1-2].

Termodinamika iqlim o‘zgarishi, resurslarning kamayishi va ifloslanish kabi muhim ekologik masalalarga bevosita aloqador. Termodinamikaning asosiy qonunlarini o‘rganib, o‘quvchilar energiyani o‘zgartirish jarayonlari ekologik vaziyatga qanday ta’sir qilishini va resurslardan nooqilona foydalanish qanday qilib global o‘zgarishlarga olib kelishi mumkinligini anglay boshlaydilar.

Asosiy qism. Termodinamikaning birinchi qonuni, energiyaning saqlanish qonuni, energiyaning yaratilishi yoki yo‘q qilinishi mumkin emasligini, balki faqat o‘zgartirilishini ko‘rsatadi. Termodinamikaning yopiq sistemalarda entropiya doimo ortib boradi, degan ikkinchi qonuni ishlab chiqarish va iste’mol qilishning ancha barqaror usullariga o‘tish zarurligini ta’kidlaydi.

Ushbu ish termodinamika qonunlarini o‘rganishning o‘quvchilarning ekologik muammolarni anglashiga ta’sirini tahlil qilishga qaratilgan.

Ekologiyaning eng dolzarb masalalaridan biri iqlim o‘zgarishi hisoblanadi. Termodinamik qonunlarni tushunish o‘quvchilarga qazilma yoqilg‘ini yoqish kabi inson faoliyati atmosferada issiqxona gazlari konsentratsiyasining oshishiga va issiqlik muvozanatining buzilishiga olib kelishini tushunishga yordam beradi. Masalan, o‘quvchilar sayyoradagi harorat haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilish bo‘yicha tadqiqot o‘tkazishi va bu ma’lumotlarni karbonat angidrid chiqindilari bilan bog‘lashi mumkin. Bu ularga iqlim o‘zgarishi termodinamik jarayonlar bilan qanday bog‘liqligini ko‘rishga yordam beradi.

Ekologik jarayonlarni termodinamik tamoyillar yordamida modellashtirish o‘quvchilarga tabiatdagi murakkab o‘zaro ta’sirlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bu ekotizimlardagi o‘zgarishlarni simulyatsiya qilish uchun kompyuter modellarini yaratishni o‘z ichiga olishi mumkin. Masalan, o‘quvchilar haroratning o‘zgarishi suvdagi kislorod darajasiga qanday ta’sir qilishini va bu o‘z navbatida suv organizmlari hayotiga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatadigan model yaratishlari mumkin. Bu ularga termodinamik jarayonlar va ekologik o‘zgarishlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni ko‘rishga yordam beradi.

O‘quvchilar turli xil energiya manbalarini, masalan, quyosh, shamol va ko‘mir energiyasini taqqoslaydigan loyihani amalga oshirishlari mumkin. Ular transformatsiyaning har bir bosqichida qancha energiya yo‘qotilishini va bu ekologik vaziyatga qanday ta’sir qilishini tahlil qilishlari mumkin.

Loyihaviy ta’lim termodinamika va ekologik muammolarni chuqur o‘rganish uchun samarali vosita bo‘lishi mumkin. O‘quvchilar energiya va resurslar tahlili bilan bog‘liq real loyihalar ustida ishlashlari mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, termodinamikani o‘rganish orqali ekologik ongni shakllantirish mas’uliyatli va barqaror kelajakni yaratish yo‘lidagi muhim qadamdir. Ilmiy bilimlar va ekologik muammolar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglagan o‘quvchilar sayyorani va uning resurslarini saqlashga katta hissa qo‘shishlari mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Л. Н. Ревягин. Термодинамический метод изучения окружающего Мира и его использование в учебно-образовательном процессе вуза и средней школы//Вестник Томского государственного педагогического университета. 2000, №.2 (18), стр. 76-81.
2. Пономарева И.С. Роль физики при формировании экологического стиля мышления в процессе обучения// Мир науки, культуры, образования, 2010, №. 1, стр. 203-205.

INTERFAOL METODLAR YORDAMIDA MOLEKULYAR FIZIKA BO’LMI MAVZULARINI O’QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH.

M.O.Qo’chqarova
Andijon davlat universiteti
E-mail: aduquchkarova@g.mail.ru

Annotatsiya: Maqolada interfaol metodlardan foydalanib molekulyar fizika bo’limini o’qitishni takomillashtirish usullari keltirilgan. Ta’limning innovatsion usullari va texnologiyalarini qo’llash asosida mavjud ta’lim vositalariga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish shu kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kalit so’zlar: Inrefaol metod, BBB metodi, izchillik tamoyili, ideal gaz, ta’lim texnologiyalari.

Oliy ta’lim muasasalarida amalga oshirilayotgan o’quv jarayoni talabalarni shaxs sifatida shakllanishi, intellektual, axloqiy jihatdan rivojlanishlari uchun qulay sharoitlarni keltirib chiqaradi. Moddaning tuzilishi va holatini o’rganish – molekular fizikaning asosiy vazifasidir. Mexanikani o’rganayotganda moddaning tuzilishiga etibor berilmaydi, chunki jismlarning harakatini o’rganishda bu muhim emas. Molekular fizika bo’limi moddaning tuzilishi va holatiga asoslanib, fizik hodisalar va jarayonlarni o’rganadi. Atrofimazdagi jismlar o’zining shaklini saqlash qobiliyati, harorati, issiqlik sig’imi, siqiluvchanligi, rangi va boshqa ko’plab xossalari bilan bir-biridan farqlanadi. Umumiy fizika kursining molekular fizika bo’limida moddaning juda kichik zarralardan iboratligi (atomlardan, molekulalardan), bu zarralar tinimsiz tartibsiz issiqlik harakatida bo’lishi va o’zaro ta’sirlashuvi bilan bog’liq masalalar ko’riladi. Talabalarning molekular fizika fanini o’zlashtirishlari uchun o’qitishning ilg’or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir [1].

Molekulyar fizika bo’limi mavzularini talabalarga yetkazishda aniq maqsadni belgilash, didaktik shartlar (ta’lim shakli, metod va vositalarining maqbul variantini tanlay olishi, ular o’rtasida o’zaro aloqadorlik va uyg’unlikni ta’minlanishiga erishish, o’quv jarayonini tashkil etish va bilimlarni o’zlashtirish uchun zarur bo’lgan vaqt hajmini aniq belgilash), talabalarga mavzuni faqat nazariy jihatdan ifodalash bilan cheklanib qolmasdan ma’naviy ahloqiy sifatlarini tarkib topishini, shaxs sifatida rivojlanishlarini, guruhda ijodiy, ishchanlik kayfiyatini yarata olish kabi hususiyatlarni shakllantirish lozim.

Talaba esa o’z navbatida mavzuning mohiyatini anglab yetishi, nazariy bilimlar va ularga muvofiq amaliy ko’nikma hamda malakalarni o’zlashtirishga nisbatan ichki ehtiyoj, qiziqishning qaror toptirishi, mavzuni o’zlashtirgani holda o’zida amaliy faoliyatda qo’llay olishi, mavzu bo’yicha berilgan

topshiriqlarni o’z vaqtida sifatli bajarishi, olgan nazariy bilimlarini mustaqil faoliyat olib borish orqali mustahkamlashi lozim [2].

Molekulyar fizika bo’limi mavzularini o’qitishda interfaol ta’lim metodlarni qo’llanilishi talabalarni tizimli ijodiy fikrlashini va ijodiy masalalarni yechishda standart g’oya, fikrlarni bildirish qobiliyatlarini shaklantirishga qaratilgan texnologiyalardir.

Molekulyar fizika bo’limi mavzularini o’qitishda noan’anaviy metodlardan biri BBB texnologiyasidir.

Matnni belgilash tizimi

(B) - Bilaman (-) - Bilishni xohlayman (+) - Bilib oldim

Tushunchalar	B	-	+
Ideal gaz			
Ideal gaz qonunlari			
Ideal gazning ichki energiyasi			
Izojarayonlar			
Ideal gaz holat parametrlari			
Selsiy va Kelvin shkalalrining bog’liqligi			
Ideal gaz holat tenglamasi			

Ta’lim-tarbiya jarayonida psixologik-pedagogik aql-zakovat, kasb qobiliyati, pedagogik texnika uchligi pedagogning faoliyatida o’ta muhim ahamiyatga ega.

Interfaol usullarni qo’llash natijasida talabalarni mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o’z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog’lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko’nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi [3].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Djorayev M. Fizika o’qitish metodikasi (Umumiy masalalar). // Toshkent: Abu Matbuot Konsalt, 2015. B–280.

2. Абдураҳмонов Қ.П., Эгамов Ў. Физика. Дарслик. // Т.: Фан, 2010. Б.-508 .

3. Qo‘chqarova M. Molekulyar fizika va kvant statistikasining tanlangan mavzularini izchillik tamoyili asosida o‘qitish. Jamiyat va innovatsiyalar Special Issue – 05 (2023), – 240-245 b.

PROFESSIONAL TA’LIMDA FIZIKA FANINI O’QITISHDA O’QUVCHILARNING TEXNIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH.

M.A.Ergasheva; M. Umirzaqova
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: ushbu tezisda professional ta’limda texnik qobiliyatni fizika darsi davomida takomillashtirishning ahamiyati va usullari haqida bayon qilingan. Shu maqsadda texnik qobiliyatni shakllantirishda fizika darslarida texnik ta’limni amalga oshirishning zamonaviy uslublari va shakllari bayon qilingan.

Kalit so’z: maxsus qobiliyat, texnik qobiliyat, texnik ta’lim, texnik ta’limda integratsiya.

Mehnat bozori talablariga mos keladigan malakali mutaxassislarni tayyorlashni to‘liq darajada ta’minlash uchun professional ta’lim tizimini kundan-kunga xalqaro mehnat bozori talablariga mos ravishda takomillashtirib borish shart. Buning uchun tizimli ilmiy izlanishlar o‘rganilishi, olib borilishi, takomillashtirilishi va samaradorligi yuqorilari saralab olinib jamiyat hayotiga amalda qo‘llanilishi lozim.

Olimlarning bir qator ilmiy izlanishlarini ko‘rib chiqishimiz va tahlil qilishimiz natijasida shuni guvohi bo‘ldikki fizika fanini professional ta’limda o‘qitish davomida o’quvchilarning texnik qobiliyatlarini hisobga olish haqida batafsil izlanishlar olib borilmagan. Bizga ma’lumki ta’limning samaradorligini oshirish yo‘llarini aniqlash ilmiy ishlarning muhim vazifasi hisoblanadi [1].

Professional ta’limda fizika darslarida texnik ta’limni amalga oshirish bugungi kunda fan va texnikaning rivojlanishini e’tiborga olgan holda, butun fizika kursining amaliy yo'nalishini chuqur va intensiv yo'lini hamda uning mazmuni va maqsadiga mos keluvchi o'qitish uslubini qo’llashni talab qiladi. O’quvchilarda kasbga yo’naltirilgan holda fizika darslarida texnik qobiliyatni takomillashtirishni uch qismga bo’lib amalga oshirish mumkin:

Texnik ta’limning muhim vazifalaridan biri o’quvchilarning ilmiy-texnik tafakkurini rivojlantirishdan iboratdir. Texnik ta’limda integratsiya va uzviyligi g’oyasi, o’quv predmetlarining (birinchi navbatda, tabiiy va matematika fanlarga oid) strukturasi va mazmunini qayta qarashni, yangi darslik va qo’llanmalar yaratishni taqozo qiladi. Predmetlarni umumlashtirishni, ayniqsa, tabiatshunoslik, ijtimoiy va gumanitar fanlar bo’yicha sifat jihatdan yangilarini ishlab chiqishni taqozo qiladi [2]. Ta’limda pedagogik texnologiyalar, jumladan ta’limni kompyuterlashtirish va axborotlashtirish kabi vositalar muhim tashkil etuvchi sifatida namoyon bo’lishi mumkinligini alohida ta’kidlaymiz. Chunki bunday texnologiyalar barcha predmetlar bo’yicha ularning tabiiy yoki ijtimoiy-gumanitar bo’lishidan qat’iy nazar keng qo’llanilishi hozirgi zamon uchun oddiy va tabiiy holligi bilan tushuntiriladi. Shuni aytishimiz mumkinki, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi o‘qituvchi yoki talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog‘liq. O‘qitish jarayonida, maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo‘llaniladigan har bir ta’lim texnologiyasi o‘qituvchi yoki

talaba o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erishsa, o‘quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o‘zlari xulosa qila olsalar, o‘zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o‘qituvchi esa bularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu - o‘qitish jarayonining asosi hisoblanadi [3]. Didaktika nazariyasi bilan ta’lim amaliyoti aloqasini ta’minlash talabalarni ta’lim-tarbiya jarayonida texnologiyalarni qo‘llashga o‘rgatish orqali ularni zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqa olish va loyihalashtirish, muammolarga yechim izlash qobiliyatini takomillashtiradi. Bugunning talabi talabalarni zamonga mos ravishda o’qitish. Bu ilmiy maqolada ushbu usullardan bir necha turlari taklif etildi [4].

Texnik ijodkorlik qobiliyatni rivojlantirishning innovatsion usullari juda ko’p, biroq keraklisini olibgina uni amaliyotga joriy etishgina samaradorlikni ta’minlashi mumkin. Kelajak yoshlarimizni vatanga sadoqatli, ilmiy salohiyati yuqori va yurtimiz taraqqiyotiga hissa qo’shadigan qilib tarbiyalash har bir pedagogning asosiy maqsadi bo’lib, buning uchun hamjihatlikda faoliyat yuritilsagina ko’zlangan maqsadga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.Sadriddinov, A.Rahimov, A. Mamadaliyev, Z.Jamolova “Fizika o’qitish uslubi asoslari” // o’quv qo’llanma -T.,“O’zbekiston”-2006
2. M.Ochilov, N. Ochilova “Oliy maktab pedagogikasi” // darslik- T.,”Aloqachi”-2008
3. N.Z.G’oibova “Fizika darslarida bo‘lajak muhandislarning texnik qobiliyatlarini takomillashtirishda foydalaniladigan usullar tahlili”, //“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal, Urganch – 2023, 72-75-bet, dekabr.
4. J. Yo’ldoshev, S.Usmonov “Pedagogik texnologiya asoslari” //qo’llanma Toshkent, “O’qituvchi”-2004//www.ziyouz.com kutubxonasi, /5-bet

KASB-HUNAR MAKTABLARIDA FIZIKA O‘QITISH ORQALI KASBGA YO‘NALTIRISH

N.B.Xolboyeva; M.Sh.Qutbiddinova
Namangan davlat universiteti
e-mail: nbxolboyeva_1982@mail.ru

Annotatsiya: ushbu maqolada kasb-hunar maktablarida fizika o‘qitish orqali kasbga yo‘naltirish yo‘llari fizikaning ayrim mavzulari va bo‘limlari misolida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: fanlararo aloqalar, fizik tushunchalar, kasbga yo‘naltirish, mexanika, molekular fizika, elektrodinamika, optika va kvant fizika, geometrik optika, ultrabinafsha va infraqizil nurlar.

Kasb-hunar maktablarida fizika o‘qitishda kasbga yo‘naltirish quyidagi [1] yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

1. O‘quv materialidan kasbga doir fizik tushuncha, hodisa, qonunlarni aniqlashtirish va dars davomida qo‘llash yo‘larini ishlab chiqish.
2. Kasb mazmuniga ega bo‘lgan fizik masalalar yechish.
3. Kasb-hunar maktablaridagi fanlarda fizik tushunchalardan foydalangan holda masalalar yechish
4. O‘quvchilarning texnik ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi masalalar yechish.
5. Fizika kursi va kasb-hunar maktablaridagi boshqa fanlarning bo‘limlaridan foydalanib topshiriqlar bajarish.
6. Ishlab chiqarishga mo‘ljallangan asboblar yordamida laboratoriya ishlari bajarish va fizik hodisalarni demonstratsiya qilish.
7. Turli asbob va qurilmalarni tuzilish prinsiplarini tushuntirish uchun zarur bo‘lgan fizik qonunlarni qanday o‘zlashtirilganini aniqlash maqsadida fizikadan uyga vazifalar berish
8. Ishlab chiqarish korxonalariga sayohatlar uyushtirish va ular bo‘yicha o‘quvchilarga hisobot tuzishni topshirish.
9. Qo‘shimcha mashg‘ulotlar o‘tish.

Masalan, mexanika bo‘limidan boshlaydigan bo‘lsak paxta terish mashinalarida haydovchi mashinaning harakatlanish tezligini aniq belgilay olishi zarur. Agar haydovchi tezliklar normasiga amal qilmasa, hosilni ma’lum qismi isrof bo‘lishiga olib keladi [2].

"Molekular fizika" bo‘limini o‘rganishda kasbga yo‘naltirish ham katta ahamyatga ega. Bu bo‘limni o‘rganishda o‘quvchilarning modda tuzilishi va uni xossalari to‘g‘risidagi asosiy molekular-kinetik nazariya yanada chuqurlashadi. Eng muhim narsa shundaki, o‘quvchi bu bo‘limni o‘rganish jarayonida mikroskopik zarrachalarni xarakterlovchi statik qonuniyatlar bilan tanishadilar. "Adiabatik jarayon" mavzusini o‘qitish paytida o‘quvchilar diqqatini qishloq xo‘jaligi mashinalaridagi dizel yonilg‘isi bilan ishlovchi kuchli traktorlar, avtomobillar, paxta terish mashinalari qishloq xo‘jaligida asosiy o‘rinni egallaydi.

"Elektrodinamika" bo‘limi esa o‘quvchilarga maydonning xossalarini va uning qonuniyatlarini, zaryadlangan jismlar va zarralarning o‘zaro ta’siri natijasida amalga oshadigan qonuniyatlarni ochib beradigan fizika kursidagi alohida ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘limlardan biridir.

"Elektrodinamika" bo‘limi kasb-hunar maktablarining birinchi kursi ikkinchi yarim yilligida o‘rganiladi. Turli traktorlar, avtomobillar, paxta terish mashinalari, kombaynlarda elektr energiyasini turli masalalarda qo‘llaniladi. Jumladan ichki yonuv dvigatelini ishga

tushirish, mashina yuradigan yo‘lni yoritish va ishchi agregatlarni yoritish, yorug‘lik va tovush signallari, yonilg‘i va havo aralashmasini yondirishda turli elektr uzatmalarda va boshqalar. Turli qishloq xo‘jalik ishlarida elektr energiyasini bir joydan ikkinchi joyga uzatishga to‘g‘ri keladi. Sug‘orish sistemalarini energiya bilan ta’minlashda, chorvachilik komplekslariga xizmat ko‘rsatishda, turli elektr mexanizmlarini

"Optika va kvant fizika" bo‘limlarini kasb-hunar maktablari uchinchi kursda o‘rganiladi. Avval o‘quvchilar yorug‘lik to‘g‘risida va uning tabiati, elektromagnit to‘lqin va kvant tabiati to‘g‘risida tushunchalar oladilar.

Geometrik optikaning "Sferik ko‘zgu" "Tasvirni hosil qilish" "Linza formulasi" kabi mavzularni o‘tilgan paytda o‘quvchilarga qishloq xo‘jalik mashinalarining yoritish sistemalaridagi qaytargichlarning sferik ko‘zgulardan foydalanib tayyorlanishini tushuntirish mumkin.

"Ultrabinafsha va infraqizil" nurlar mavzusini o‘qitishda o‘quvchilarning diqqatini bunday nurlardan qishloq xo‘jalik ishlarida foydalanishga qaratish kerak. Ekiladigan turli urug‘larni ultrabinafsha nurlar bilan nurlantirilganda ularning unib chiqishi, turli kasalliklardan saqlanishi, mahsulot sifatini yaxshilanishiga olib kelishini ko‘rsatish mumkin.

Kvant fizikasi turli texnik fanlarning ilmiy asosini tashkil etadi. Masalan, yarim o‘tkazgichli elektronika, kvant elektronika, yadro energetikasi, termoyadro energiyasi - bular ilmiy texnika rivojlanishining yo‘nalishlari bo‘lib, ular kvant fizikasining qonunlariga asoslangan bo‘ladi. Kvant fizikani o‘rganmasdan turib, hozirgi zamon elektron texnika asboblarini bilish va ulardan foydalanish mukin emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamarajabov Sh. Fizika o‘qitish jarayonida fanlararo bog‘lanish imkoniyatlarini tadqiq etish. Toshkent, 2007
2. Mahmudova X., Nurullayev B., Isyanov R., Rajabova O. “Fizika” fanini kasbiy sohalarga yo‘naltirib o‘qitish (o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma) Toshkent, TDPU-2012.

РОЛЬ ИТ В ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ ПО ФИЗИКЕ

С.М.Касымов

Нукусский Государственный педагогический институт им. Ажинияза

Аннотация. В статье рассмотрено использование современных информационных технологий (ИТ) для организации самостоятельной работы студентов по физике. Приведены примеры успешного использования этих инструментов в учебном процессе, а также проанализированы их преимущества и вызовы, связанные с внедрением в образовательный процесс.

Ключевые слова. Информационные технологии, самостоятельная работа, физика, образовательные платформы, виртуальные лаборатории, моделирование, мультимедийные ресурсы.

Введение. Современные информационные технологии (ИТ) уже давно стали неотъемлемой частью образовательного процесса в самых разных сферах знаний. В условиях глобализации и перехода к цифровой экономике они играют ключевую роль в подготовке специалистов в любых отраслях науки и техники. Физика, как одна из фундаментальных наук, не является исключением. В её изучении информационные технологии (ИТ) открывают уникальные возможности для студентов в освоении сложных теоретических и прикладных аспектов дисциплины, способствуя развитию самостоятельности и навыков самоуправляемого обучения. [1-2]

Тем не менее, несмотря на очевидные преимущества, внедрение информационных технологий в процесс самостоятельной работы по физике требует тщательного планирования и продуманной методики. Здесь важно не только предоставить студентам доступ к современным инструментам, но и правильно организовать их использование, создать условия для мотивации к обучению, а также обеспечить контроль над процессом усвоения знаний.

В данной работе мы рассмотрим основные ИТ-инструменты, применяемые в этой области, а также практические примеры их успешного использования, позволяющие повысить уровень самостоятельности студентов и улучшить результаты их обучения.

Одной из наиболее важных ИТ, способствующих организации самостоятельной работы по физике, являются *электронные образовательные платформы*. Они позволяют создавать гибкую и доступную образовательную среду, в которой студенты могут самостоятельно изучать теоретический материал, выполнять задания, проходить тестирование и получать обратную связь от преподавателей.

Примером эффективного использования таких платформ может служить организация дистанционного курса по физике, где студентам предоставляется доступ к видеолекциям, интерактивным презентациям, практическим заданиям и автоматизированным тестам.

Не менее важным элементом самостоятельной работы по физике являются *электронные учебные пособия и мультимедийные ресурсы*, такие как видеоуроки, интерактивные презентации, анимации и графические симуляции. Эти материалы помогают студентам более эффективно усваивать сложные темы, дополняя текстовые материалы наглядными иллюстрациями и интерактивными элементами.

Выводы. Таким образом главными преимуществами таких технологий являются доступность ресурсов, интерактивность обучения и возможность самостоятельного контроля за процессом освоения материала. Это позволяет студентам учиться в своём темпе, концентрироваться на тех аспектах, которые вызывают наибольшие затруднения, и повторять материал до полного его усвоения.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Акматбекова А. Ж. Роль электронных учебно-методических пособий в процессе организации самостоятельной работы студентов по физике //Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Педагогика. – 2017. – №. 3. – С. 62-68.
2. Шурыгин В. Ю., Краснова Л. А. Организация самостоятельной работы студентов при изучении физики на основе использования элементов дистанционного обучения в LMS MOODLE //Образование и наука. – 2015. – №. 8 (127). – С. 125-139.

STEM TA’LIMI KONTEKSTIDA ASTRONOMIYANI O‘RGANISH

G.J.Seytmuratova

Nukus davlat pedagogika instituti

Annotataiya. Maqolada STEM ta’lim (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) integratsiyasi orqali o‘quvchilarni XXI asr chaqiriqlariga tayyorlashga qaratilgan jahon ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar tadqiq etilgan.Astronomiyaning nafaqat o‘quv fani, balki o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va tadqiqotchilik qiziqishini rivojlantirishga yordam beradigan kuchli vosita sifatidagi roliga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar. Stem ta’limi, astronomiya, tanqidiy fikrlash, loyiha faoliyati, kosmik tadqiqotlar, loyihaga asoslangan ta’lim.

Dunyo bo‘ylab ta’lim tizimi talabalarni XXI asr muammolariga tayyorlashga qaratilgan katta o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Eng dolzarb yo‘nalishlardan biri bu Stem ta’limining integratsiyasi-fan, texnologiya, muhandislik va matematikani birlashtirgan tushuncha. Shu nuqtai nazardan, astronomiya nafaqat fan sifatida, balki o‘quvchilarni tanqidiy fikrlash, tadqiqotga qiziqish va murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradigan kuchli ta’lim vositasi sifatida ham o‘ziga xos rol o‘ynaydi [1, 2].

Astronomiya, samoviy jismlar va kosmik hodisalar haqidagi fan sifatida, talabalardan STEM tushunchasiga juda mos keladigan turli xil bilim va ko‘nikmalarni qo‘llashni talab qiladi. Astronomiyani o‘rganish faqat nazariy jihatlar bilan cheklanmaydi; u matematika, fizika va muhandislikning amaliy qo‘llanilishini o‘z ichiga oladi. Masalan, sayyoralar orbitalarini hisoblash matematik bilimlarni talab qiladi va teleskoplar yoki sun’iy yo‘ldoshlarni yaratish muhandislik tafakkuri bilan bog’liq.

Astronomiyani STEM ta’limiga integratsiyalashning samarali usullaridan biri bu loyiha ishlari. Talabalar astronomiyaning turli jihatlari bilan bog’liq tadqiqot loyihalari bilan shug’ullanishlari mumkin, masalan, har xil turdagi yulduzlar, galaktikalar yoki asteroidlarni o‘rganish.

Quyida loyiha ishlariga misollar keltirib o‘tamiz:

1) Yulduzlarning har xil turlarini va ularning xususiyatlarini o‘rganish. O‘quvchilar guruhlarga bo‘linishi mumkin, ularning har biri qizil mitti, sariq yulduzlar yoki oq mitti kabi ma’lum bir yulduz turini o‘rganadi. Ular harorat, yorqinlik, massa va umr ko‘rish davomiyligini o‘rganishlari mumkin. Loyiha oxirida, har bir guruh o‘z loyihasini taqdimot yoki plakat sifatida taqdim etadi, shujumladan olingan ma’lumotlarni aks ettiruvchi grafikalar va diagrammalar. Hisob-kitoblarni amalga oshirish, diagrammalar tuzish, natijalarni dizayn usullaridan foydalangan holda, ijodiy yondashuvdan foydalangan holda tuzish va shu bilan ularning yorqinligi haroratga qanday bog’liqligini namoyish etish.

2) Astronomik hodisalarni kuzatish.Talabalar meteor yomg’irlari, oy fazalari yoki boshqa astronomik hodisalarni kuzatishni tashkil qilishlari mumkin. Kuzatish uchun ular teleskoplardan yoki hatto oddiy optik asboblardan foydalanishlari mumkin.Loyiha oxirida talabalar ob-havo sharoiti yoki boshqa omillar natijalarga qanday ta’sir qilganini muhokama qilish orqali o‘z kuzatuvlari haqida hisobot tayyorlashlari mumkin.

Shunday qilib, STEM ta’limi kontekstida astronomiyani o‘rganish nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini kengaytiradi, balki ularda kelajakdagi global muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Римская Г.Р. STEM-образование в современной школе как способ овладения обучающимися ключевыми компетенциями и умениями// Проблемы современного педагогического образования. 2022, №. 77-1, стр. 242-245.

2. Муминова Д. Методика применения технологии STEM на уроках астрономии в общеобразовательных школах //Scienceandinnovation. 2022. Т.1. №. B7. стр. 1297-1301.

BO‘LAJAK FIZIKA O‘QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA BAHOLASH MEZONLARI

A.N.Tursunov
Buxoro_davlat_universiteti

Annotasiya. O‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi ularning pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorligini, shuningdek uning kasbiy xususiyatlarini aks ettiradi. Shu sababli, hozirgi vaqtda o‘qituvchilarga kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun katta talablar qo‘yiladi. Kasbiy kompetentsiya muammosi ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlarning ishlarida faol o‘rganilmoqda, Maqola bo‘lajak fizika o‘qituvchisini kasbiy kompetentsiyaning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanib metodik kompetentligini rivojlantirishga bag‘ishlagan.

Kalit so‘zlar: pedagogik faoliyat, ta’lim tizimi, innovatsion ta’lim texnologiyalari, kasbiy kompetentlik, fizika o‘qituvchisi, fizik eksperiment, o‘quv jarayoni.

Kirish. “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan maqsadlarga erishish jarayoni shunchalik samarali kechishi ta’minlanadi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning 48-moddasida “Ta’lim oluvchilarning majburiyatlari” sifatida quyidagilar ko‘rsatib o‘tilgan[1].

O‘qituvchining, pedagogik mahorati uning malakasi, pedagogik qobilyati, pedagogik kompetentsiyasining oshishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi usullardan biri bu doimiy kasbiy ta’lim malakalarini oshirib borishdir. Ushbu maqolada bo‘lajak mutaxasislarda kasbiy kompetensiyalar, metodik kompetentlik, uning tarkibiy qismlari, metodik kompetentlikni rivojlantirish darajalari, vazifalari va fizika fani o‘qituvchilarida ushbu kompetentsiyani qanday shakllantirish mumkinligа haqida so‘z yuritilgan.

“Kompetentlik” (inglizcha: “competence” “qobiliyat”) faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni ifodalaydi. Har bir pedagog faoliyati davomida olib boradigan ishlarini tartibga solish loyihalash, hamda loyihalash madaniyatiga e’tibor qaratish kerak [2; 32-b.].

O‘qituvchilarning metodik kompetentligi - bu o‘qituvchilarning ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishidir. Ushbu kompetentlik quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi [2; 37-b.]:

1. Pedagogik bilimlar: O‘qituvchi ta'lim nazariyasi, psixologiya, didaktika va metodika bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lishi kerak.

2. Metodik ko‘nikmalar: O‘qituvchi turli pedagogik metod va usullarni qo‘llay olish, o‘quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur.

3. Talabalar bilan ishlash: O‘qituvchi talabalar bilan samarali muloqot qilish, ularning ehtiyojlarini tushunish va ularga individual yondashuv ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lishi muhimdir.

4. Baholash va tahlil qilish: O‘qituvchi talabalarning bilimlarini baholash, natijalarni tahlil qilish va o‘z pedagogik faoliyatini takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

5. Innovatsion yondashuvlar: Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish va yangi pedagogik yondashuvlarni qo‘llay olish ham metodik kompetentlikka kiradi.

“Kompetensiya” deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi tushuniladi. Ushbu maqolani yozishdan maqsad – talabalarni pedagogik kompetentlikning ilmiy-nazariy asoslari, kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va ta’limdagi innovatsion jarayonlar tizimida o‘qitish va tarbiyalashda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat [3; 84-b].

Xulosa: Yuqorida ta’kidlangan fikrlarni tahlil qilsak, kasbiy kompetentlik – o‘qituvchining shaxsiy sifatlari, faoliyati maqsadi va vazifalarini belgilash, o‘z navbatida ularning qatoriga zamonaviy axborot kommunikatsiya tenologiyalarni qo‘llay olish, o‘ziga xos tadqiqotchilik qirralari ham ko‘shilishi tushuniladi. Pedagoglarning kasbiy kompetentligi – uning kasbiy bilim ko‘nikmasi, shaxsiy sifatlari, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llay olish qobiliyati va professional tayyorgarligini belgilovchi sifat ko‘rsatkichidir” – deb, ifodalash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son.
2. Э.Г.Исламгалиев Профессиональная компетентность педагога (социологич. анализ): Дисс… канд. соц. наук – Екатеринбург, – 2003. 32-37 с.
3. R.H.Jo‘raev, O‘.Tolipov. Pedagogik faoliyat, texnologiyalar va mahorat // “Uzluksiz ta’lim”. 2003. 84-b.
4. M.H.Lutfillayev, Sh.A.Abdullaeva., M.T.Shodmonqulov. Zamonaviy ta’limda raqamli tizimlarni qo‘llash:Filololgiya va pedagogika sohasida zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish omillari // Toshkent. 2020. – b. 121-127.
5. А.А. Аминов – “umumta’lim maktabning 9-sinf o‘quvchilariga nanotexnologiyalarga oid kompetensiyalarni innovatsion texnologiyalari asosida takomillashtirish: Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал // - 2021. - № 6. - 84-b.

НЕОБХОДИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ НАУЧНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ ПРИ УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ

D.A.Алижанов

Наманганского государственного педагогического института

Аннотация: Данная работа посвящена исследованию формирования научного мировоззрения и его роли в современном обществе. В статье подчеркивается значение образования в формировании научного подхода у молодых людей, а также рассматривается влияние культурных и социальных факторов на восприятие науки.

Введение. Формирование научного мировоззрения представляет собой важный аспект личностного и общественного развития. В условиях современного общества, сталкивающегося с глобальными вызовами – от изменения климата до пандемий – научное понимание мира становится особенно актуальным. Научное мировоззрение обеспечивает человека необходимыми инструментами для анализа, критического мышления и решения проблем.

Значение научного мировоззрения

Научное мировоззрение выполняет несколько ключевых функций:

Объяснение природных явлений: Научное мировоззрение помогает формировать адекватные модели и теории для объяснения окружающего мира. В этом контексте работы таких ученых, как И. П. Павлов и А. Н. Белый, подчеркивают важность научных методов для понимания психологии и физиологии человека [1-3].

Инновационное мышление: Научный метод, основанный на гипотезах и экспериментах, способствует развитию креативного подхода к решению проблем. Как утверждает Д. М. Ковальчук, такие методы позволяют находить нестандартные решения и адаптироваться к изменяющимся условиям [4].

Литературный обзор

Формирование научного мировоззрения не лишено проблем. В. Н. Пузиков в своих исследованиях указывает на недостатки существующей образовательной системы, которая часто не предоставляет учащимся необходимых навыков критического анализа [5]. Это приводит к тому, что многие молодые люди остаются подвержены влиянию недостоверной информации и манипуляциям.

Образование играет ключевую роль в формировании научного мировоззрения. В. А. Пономарёв отмечает, что современное образование должно быть направлено не только на передачу знаний, но и на развитие у студентов умения думать и анализировать [6]. Введение научных методов в учебные программы, начиная с начальной школы, создает фундамент для дальнейшего понимания научного подхода.

В образовательных системах ряда стран, таких как Финляндия, активно применяются проектные методы, позволяющие ученикам самим формулировать гипотезы и проводить эксперименты. Это способствует развитию навыков критического мышления и самостоятельного поиска решений.

Современные научные открытия, такие как достижения в области квантовой физики и биотехнологий, ставят перед человечеством новые вопросы и вызовы. Работы С. Хокинга и других ученых демонстрируют, как новейшие теории могут изменить наши представления о пространстве, времени и самой природе реальности [7]. Важно, чтобы общество было готово к восприятию этих изменений и адаптации к ним.

Заключение: Формирование научного мировоззрения — это процесс, который требует комплексного подхода как на уровне образования, так и на уровне культурных и социальных практик. Научное мировоззрение помогает людям критически воспринимать информацию, понимать законы природы и развивать инновационное мышление. В условиях современных вызовов, таких как изменение климата и глобальные пандемии, важно продолжать усилия по популяризации науки и внедрению научных методов в повседневную жизнь.

Список литературы

1. Дружков, Н. Я. (2020). Критическое мышление в эпоху информации. Москва: Издательство РГГУ.
2. Павлов, И. П. (1951). Работы по физиологии высшей нервной деятельности. Москва: Наука.
3. Белый, А. Н. (2016). Психология и философия: взаимодействие наук. Санкт-Петербург: Питер.
4. Ковальчук, Д. М. (2018). Инновации в образовании: теория и практика. Москва: Просвещение.
5. Пузиков, В. Н. (2015). Научное мировоззрение: проблемы и перспективы. Москва: Наука.
6. Пономарёв, В. А. (2017). Введение в научное мышление. Санкт-Петербург: Питер.
7. Хокинг, С. (1988). История времени. Москва: АСТ.

OLIY TA’LIMDA O‘QUV JARAYONINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA YO‘NALTIRILGAN INNOVATSION METODLAR

D.A.Begmatova
O‘zbekiston milliy universiteti

Annotatsiya. Ushbu tezisda Oliy ta’limda o‘quv jarayonini samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan kreativ metodlardan foydalanish usulari bayon qilingan.

Kalit so’zlar: innovatsion metod, kreativ metod, Placemat Consensus, Kaizen metodi, Paretto qonuni, Vark modeli, Franchesko chirillo metodi.

Bugungi kunda innovasion ta’lim texnologiyalarini tushunish uchun asosiy yo‘l-aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta’lim oluvchi bilan muntazam o‘zaro aloqani o‘rnatish, zamonaviy pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta’lim oluvchining xatti-harakati orqali o‘qitishdir. O‘zaro aloqa innovasion ta’lim texnologiyalar asosini tashkil qilib, o‘quv jarayonini to‘liq qamrab olishi kerak.

Demak, real ta’lim amaliyoti ilg‘or innovasion ta’lim texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishini to‘liq tasdiqlamoqda. Biroq ilg‘or innovasion ta’lim texnologiyalarini oliy ta’lim jarayoniga qo‘llash bilan bog‘liq bir qator muammolar ham ko‘zga yaqqol tashlanmoqdaki, ularni e’tiborga olish va hal etish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Oliy ta’limda ma’ruza mashg‘ulotlariga alohida ahamiyat beriladi. Professor-o‘qituvchilar ma’ruza mashg‘ulotlarining bir nechta usullaridan foydalanishlari mumkin. Shu usullardan samarali foydalanilganda ham innovasion texnologiyalardan foydalanildi deb hisoblash mumkin. Chunki ma’ruza turlaridan anjumanli, binar, muammoli, ko‘rgazmali, maslahatli, provakatsiya (oldindan rejalashtirilgan xatoliklar bilan mashg‘ulot) ma’ruzalardan foydalanish ham professor-o‘qituvchidan katta mas’uliyat, tayyorgarlik, ijodiy yondoshuv, ko‘p mehnat talaba qiladi. Masalan, fizika mutaxassislari talabalariga dars o‘tish jarayonida bir qator mashg‘ulotlar, ya’ni ma’ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Ushbu mashg‘ulotlarning har biri alohida xususiyatga ega.

Ma’ruza mashg‘ulotlarida kreativ metodlardan foydalanish o‘quvchi va talabalarni fanga qiziqtirishga, maqsadlarini to‘g‘ri qo‘yishga imkoniyat beradi. Hozirgi kunda bir qator kreativ metodlar (Zapusk texnalogiyasi, Avtofokus metodi, Kaizen metodi, Sayohat metodi, Kam vaqt sarflab, ko‘p narsa o‘rganish usuli, Samarali dars o‘tish texnikasi, Paretto qonuni. Dars muhitini yaxshilash uchun oddiy formula, Vark modeli, Qarmoq metodi, Franklin piramidasi,

Franchesko chirillo metodi) dan foydalanish orqali o‘qituvchi o‘quvchi va talabalarni kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda fanni o‘zlashtirishiga zamin yaratadi.Masalan, “Paretto qonuni” metodida dars davomida 20% harakat qilib, 80% natijaga erishish mumkin. Dars davomida siz o‘quvchilarga shunday signal so‘zlar aytasizki, o‘quvchilar darsni 80% o‘zlashtirishga harakat qilishadi. Asosiysi buni o‘zlari istab, xohlab qilishadi. “Paretto qonuni” bu juda kuchli qonun va afsuski buni ko'pchilik bilmaydi. Sizdan talab qilinadigan jihat, siz 20 foiz harakatingizni ajratib oling. Kichik usullar orqali siz auditoriyadan istagan natijangizga osonlik bilan erisha olasiz. Auditoriya muhiti odatda talabalarning bir biriga o‘xshash va bir biridan o‘zish uchun harakatlaridan iborat. Yoki kutilmagan vaziyatlarda o‘ta diqqatli va atrofdagilarga bu xabarlarni tezda tarqatishga moyil bo‘lishadi. Ushbu vaziyatlardan siz oqilona foydalansangiz 20% harakat qilib, 80% natijaga erishasiz!

Placemat Consensus (Pleysmet-konsensus. Kelishuv kartasi) - ushbu metoddan oliy ta’limda mavzularni o‘tish jarayonida foydalanish yaxshi natija beradi. Metodning maqsadi: G‘oyalar generatsiyasi va Komandaviy qaror qabul qilishdan iborat. Buning uchun o‘qituvchi dars boshlashidan oldin mavzuni aytadi.

- Talabalar qog‘ozning o‘zlariga tegishli qismiga mavzuga doir maksimal g‘oyalarni yozishadi.
- Talabalar navbati bilan o‘zaro g‘oyalarini almashinishadi.
- Agar komanda kelishuvga erisha olsa (“bosh barmog‘ini ko‘taradi"), o‘quvchilardan biri bu g‘oyani markaziy kvadrat ichiga yozadi.
- Talabalar barchasi g‘oyalari bilan o‘rtoqlashib bo‘lgunga qalar ish davom ettiriladi.
- Markaziy kvadrat ichida yozilgan g‘oyalar butun komandaning yechimi sifatida qabul qilinadi.

O‘qituvchi g‘oyaning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligiga izoh beradi. Bu orqali talabalarni mustaqil qaror chiqarishlariga, guruhlar bilan ishlaganda o‘z fikrini bayon etishga, o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha talabalarning fikri qandayligini bilishga imkon yaratiladi.

Xulosa: Ta’limda innovasion ta’lim texnologiyalardan foydalanish samaradorligi tajribalar asosida o‘z isbotini topgan bo‘lib, undan voz kechish mumkin emas, shunday ekan unda yuzaga keladigan to‘siqlarni ilmiy izlanish va tajribalar yordamida bartaraf etib borish lozim. Pedagog xodimlarni to‘g‘ri tanlash, ularning o‘z fanini yaxshi biladigan qolaversa, ilg‘or innovasion texnologiyalar bilan qurollangan bo‘lishlari zamon talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zR Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2020 yil 23 sentyabr, O‘RQ-637-son.

2. D.A. Begmatova va b. Fizika o‘qitish metodikasi Toshkent “Innovatsiya-Ziyo” 2024 y.

К ВОПРОСУ СОЗДАНИЯ ИНФОГРАФИКИ ПО ФИЗИКЕ СОВМЕСТНО СО СТУДЕНТАМИ

Ф.М.Талипов

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами

Аннотация. В работе приводится опыт создания инфографики по физике совместно со студентами. Показано, что такая организация самостоятельной работы повышает эффективность обучения

Ключевые слова: процесс обучения, инфографика, самостоятельная работа.

Добиться качественного улучшения процесса обучения можно лишь через активизацию познавательной деятельности студентов. Большую роль в этом играет организация самостоятельной работы студентов с использованием инфографики. Инфографика – это графический способ подачи сложной информации для облегчения ее понимания, что имеет огромное значение для эффективного усвоения материала. Его концепцией пользуются уже давно в сфере разработки сайтов, рекламы и приложений, основанных на принципе коммуникации [1]. Инфографика, объединяющая в себе текстовую и графическую информацию, способна значительно улучшить усвоение материала учащимися и сделать обучение более интересным и запоминающимся [2]. При организации самостоятельной работы студентов желательно поощрение студентов в стремлении создавать свои собственные инфографики на основе изучаемого материала для лучшего усвоения информации и развития навыков визуализации [3]. В качестве примера приведем пример инфографики созданной с помощью студентов для преподавания темы; Векторные и скалярные величины (Рис.1) в 7 классе средней школы. Известно, что физические величины делятся на две группы – скалярные и векторные. Скалярные величины определяются только численными значениями а векторные определяются числовыми значениями и направлением. Опыт работы показывает, что студенты ,активно участвующие в создании инфографики по физике, с успехом используют свои инфографические ресурсы на практике в школе. Это делает их уроки более интересными и запоминающимися для учащихся.




Рис. 1

Таким образом, создание совместно со студентами инфографики способствует развитию восприятия, внимания, памяти, наблюдательности и сообразительности, привитию интереса к физике, а также приводит к появлению более прочных знаний и дает необходимый педагогический эффект.

ЛИТЕРАТУРА:

1. https:// www. canva.com/ru/obuchenie/infografika/
2.Serebryakova M.Kh., Talipov F.M. Using infografic resources in physics lessons. Science and innovation v.3 ISSUE 2, 2024, p. 178-180.
3.Талипов Ф.М.,Серебрякова М.Х. Внедрение инфографики в процесс обучения физики и подготовка педагогов к использованию инфографики на уроках физики. Физика, математика ва информатика, 3/1/,2024,53-60 б.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF TEACHING OF THE INTERACTION OF RADIATION WITH SUBSTANCES ON THE BASE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATION

E.X.Bozorov [1], B.Z.Polvonov [2], B.S.Ruzmatova [3], M.Z.Khudoyberdieva [4], M.I.Abdubannabov [5], Sh.Mamasodiqov[6]

Institute of Nuclear Physics of Acad.Sc.Rep[1]; FB TUIT[2]; FerPI[3]; Researcher of FerSU[4]; FB TUIT[5]; FB TUIT[6]

Abstract : This article analyzes in detail the specific aspects of teaching the interaction of radiation with matter in higher education based on modern innovative technologies. The study of the process model, the development of ways of its practical application, as well as the development of ways of its practical application, as well as the most important components, are covered. medicine physics specialists in preparation professional to the field of direction high level technologicalization account received study of the process model, it to practice current reach ways, as well as students' intellectual potential increase suitable and the most important structural parts illuminated.

Base words : radiation, multimedia, visual education, medicine physics, didactic principles, training training, intellectual, didactic, educational activity, education model, mental active, constructive.

Training of high-quality specialists is becoming an integral, organizing part of the society in ensuring the stable future of the new Uzbekistan. Based on the demand of the society, forming and improving the professional skills of learners through the ability to use innovative teaching technologies is an important organizational part of quality specialist training at the current stage.

In the current era, the rapid development of innovative educational technologies based on information technologies, as well as the widespread introduction of the Internet system, which is deeply embedded in our lives today, national information resources that serve to educate our youth in the spirit of our rich history, national values, high moral, human qualities and patriotism. it is important that formation should always be in the center of our attention.

There are specific aspects of teaching knowledge about the interaction of different ranges of electromagnetic radiation with substances based on innovative educational technologies in medical higher education institutions. Teaching of this science is based on modern technologies and scientific approaches of medicine [1-2]. Several main aspects can be highlighted:

In general, the teaching of this subject in medical institutions of higher education is aimed at forming theoretical and practical skills of students by combining innovative technologies and pedagogical approaches. In addition, this subject is important in the field of medicine and is related to radiation. understanding biological processes and their effects on matter will train students to be scientific in their future careers[1-4]. The peculiarities of this process are as follows:

1. Use of modern technologies. Various innovative technologies are used to teach the effects of radiation on substances. This includes computer simulations, virtual laboratories and experimental studies. These technologies allow students to apply theoretical knowledge in practice and help to understand the complex interaction of radiation and matter.

2. Practical laboratory work. Laboratory exercises are of great importance in teaching the practical side of science. During these classes, students study the interaction of radiation with matter using modern physical and medical equipment. Knowledge gained through practice prepares students to work in radiology, oncology and other radiation-related medical fields.

3. Multimedia and visual educational tools. In the educational process, complex theoretical aspects of science are explained with the help of interactive presentations, 3D models and animated materials. This deepens students' knowledge and makes it easier to visually imagine the studied processes. For example, through VR, a student can vividly imagine how radiation affects body tissues. Also, with the help of these technologies, effective classes are held in distance and online education.

4. Problem-based learning (PBL). Problem-Based Learning (PBL) is widely used as one of the innovative educational technologies. This approach helps students develop independent

analysis, scientific problem solving, and teamwork skills while studying real-life radiation and its effects.

5. Distance education and online platforms. With the development of digital technologies, distance education is becoming more widely used. Students will have the opportunity to learn the complex processes related to radiation using online classes, webinars and interactive environments. This process allows students to be free from time and space limitations in mastering science.

6. Orientation to scientific research. The science of the interaction of radiation with matter has become one of the fundamental sciences and attracts students to engage in scientific research. Students can conduct research in radiology, radiation physics and other areas, participate in the creation of new technologies. This will help their independent scientific research and the formation of innovative approaches.

7. Digital Labs. Virtual labs in radiation physics and technology allow students to conduct experiments without real lab equipment. This technology helps to test different types of radiation and their effects on the body.

8. Safety and Precautions. Safety is important in any activity involving radiation. Therefore, information on radiation safety measures, international standards, and legal norms are widely covered in science education. Students will develop safe work skills and learn to protect their health in future practical activities.

Innovative educational technologies in teaching the science of the interaction of radiation with substances in medical institutions of higher education create wide opportunities for deepening the knowledge of students, directing them to scientific research and developing their practical skills [5-7].

In short, as a result of the use of innovative educational technologies in the process of teaching the science of radiation:

-Students will have the opportunity to study complex processes in a more clear and understandable way.

- It becomes easier to form practical skills based on real situations.
- The educational process becomes interactive and interesting, which increases students' interest in lessons.

Such innovative approaches in medical institutions of higher education will undoubtedly provide future specialists with comprehensive knowledge and skills in radiation safety, its application and practice in medicine.

Literature

1. Khomidjonov J.I. , Bozorov E.Kh., Training in medical (clinic) sound-assisted examination based on the "Swot-analysis" method. // FerSU. Scientific reports 6-2023.

2. Polvonov B.Z., Nasirov M.Kh., Polvonov O.Z., Tuychibaev B.K. Osobennosti povyshenia moshchnosti fotovoltaicheskix plenochnyx struktur chalkogenidov cadmiya// Scientific Journal Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and sciences. 2021.vol.1.No.11.P.1046-1050.

3. Polvonov, B.Z., Gafurov Yu.I., Otajhonov U.A., Nasirov M.Kh., Zaylobiddinov B.B. The specificity of photoluminescence n-CdS/p-CdTe in semiconductor heterostructures// International Journal of Mathematics and Physics (SCOPUS)- Al-Farabi Kazakh National University, 2022, 13(2), C. 12-19

4. Polvonov B.Z. // The specificity of photoluminescence in CdTe and n-CdS/p-CdTe semiconductor structures//Monography-2023. Generis Publishing 9798886767254. Maldova.

5. Ruzimatova B.S., Polvonov B.Z. "The formation of creative thinking in teaching physics."//International Engineering Journal For Research & Development 5 (2020) 5-5.

6. Polvonov B.Z., Yuldashev N.K. Nasirov M.H., Mirzarakhimova F.K. "Diagnostics of semiconductor materials such as Cadmium chalcogenides by the method of low-temperature polariton luminescence"//Journal of International Scientific Review, Boston, USA 11(53).(2018):24.

MAKTAB O‘QUVCHILARIGA “MAGNIT MAYDONI” MAVZUSINI INTERFAOL METOD YORDAMIDA TUSHUNTIRISH

X.Sh. Ergasheva[1]; Sh.T. Inoyatov[2]

[1]Urganch davlat universiteti; [2]Namangan davlat universiteti

Annotatsiya. Magnit maydonlarni tushunish uchun uning umumiy ko‘rinishini bilish muhim. Magnit maydonlar fizikaning asosiy jihati bo‘lib, turli xil tabiiy hodisalar va texnologik ilovalarda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Yerning magnit maydonidan tortib elektron qurilmalarimizni boshqaradigan elektromagnit kuchlargacha magnit maydonlarni tushunish ham fan, ham kundalik hayot uchun juda muhimdir. Magnit maydonida harakatlanuvchi yoki harakatsiz elektr zaryadlariga magnit ta'sirini tavsiflovchi vektor maydonidir. U harakatlanuvchi elektr zaryadlari (masalan, elektr toklari) va spin deb nomlanuvchi asosiy kvant xususiyati bilan bog'liq elementar zarrachalarning ichki magnit momentlari orqali hosil bo‘ladi.Ma'lum bir nuqtadagi magnit maydonning kuchi va yo‘nalishi magnit maydon chiziqlari bilan ifodalanadi. Bu chiziqlar magnitning shimoliy qutbidan chiqadi va janubiy qutbga kirish uchun aylanib chiqadi. Ushbu chiziqlarning zichligi magnit maydonning kuchini ko‘rsatadi; yaqinroq chiziqlar kuchli maydonni bildiradi.

Kalit so‘zlar. Doimiy magnit, Elektromagnit, yerning magnit maydoni, magnit maydon chiziqlari, Interfaol ta'lim, tajriba va simulyatsiyalar, magnit maydonning kuchi, magnit maydon yo‘nalishi, magnit maydon chiziqlari.

Kirish. Maktab o‘quvchilarini magnit maydon interfaol usullari bilan jalb qilishning usullari mavjud. Magnit maydonlarni tushunish o‘quvchilar uchun juda muhim, chunki u fizika va muhandislikdagi ko‘plab tushunchalar uchun asos yaratadi. Ushbu murakkab mavzuni o‘qitishning eng samarali usullaridan biri o‘quvchilarni qiziqtiradigan va ularning o‘quv tajribasini oshiruvchi interfaol usullardir. Bu usullarni sinfda qanday qo‘llash mumkinligini keyinroq ko‘rib chiqamiz. Hozircha magnit maydon hosil qiluvchi unsurlar bilan tanishsak. Doimiy magnitlardan temir, kobalt va nikel kabi bu materiallarning atom magnit momentlari bir xil yo‘nalishda tartiblanadi. Ushbu tartiblanish doimiy magnit maydon hosil qiladi. Elektromagnitlardan elektr toki sim bo‘lagidan o‘tganda magnit maydon hosil qiladi. Ushbu maydonning kuchini ko‘proq o‘ramlar sonini qo‘shish yoki oqimni oshirish orqali orttirish mumkin. Yerning magnit maydonini esa erning o‘zi erigan temirning tashqi yadrosidagi harakati tufayli ulkan magnit kabi harakat qiladi. Bu geomagnit maydon sayyorani quyosh shamoli va kosmik nurlanishdan himoya qiladi. Ilmiy markazlarga sayohatlarni tashkil qilish yoki magnit texnologiyalar bilan ishlaydigan mutaxassislarni taklif qilish haqiqiy dunyo kontekstini ta’minlashi mumkin.

Asosiy qism. ***Magnit maydonni ta’limda o‘qitishdagi ahamiyati:*** Magnit maydonlar kundalik elektronikadan tortib ilg'or texnologiyalargacha bo‘lgan turli xil ilovalarda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilarni bu tushunchalar bilan tanishtirish ularning ilmiy bilimlarini kengaytiribgina qolmay, balki tanqidiy fikrlash va muammoni yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Interfaol usullar magnit maydonlarni o‘rganishni yanada aniq va esda qolarli qiladi.

Magnit maydonlarni o‘qitishning interfaol usullari, Amaliy tajribalar: Oddiy tajribalar o‘tkazish o‘quvchilarga magnit maydonlarni harakatda kuzatish imkonini beradi. Misol uchun, magnit ustiga qo‘yilgan qog'ozga sepilgan temir parchalari yordamida o‘quvchilar magnit maydon chiziqlarini tasavvur qilishlari

mumkin. Ushbu amaliy mashg'ulot ularga qutb, maydon kuchi va yo‘nalish kabi tushunchalarni tushunishga yordam beradi.

Magnit maydon xaritasi: O‘quvchilar kompas yordamida o‘zlarining magnit maydon xaritalarini yaratishlari mumkin. Stol ustiga magnit qo‘yib, kompas yordamida magnit atrofidagi turli nuqtalarda magnit maydon yo‘nalishini kuzatish orqali o‘quvchilar magnit maydonlarining fazoda qanday harakat qilishlari haqida tushunchaga ega bo‘lishlari mumkin. Ushbu faoliyat magnit maydonlarning uch o‘lchovli tabiati haqidagi tushunchalarini mustahkamlaydi.

Interaktiv simulyatsiyalar: Raqamli vositalar va simulyatsiyalardan foydalanish o‘rganishni yaxshilashi mumkin. PhET Interactive Simulations kabi dasturlar magnit maydonlarni va ularning elektr toklari bilan o‘zaro ta’sirini qiziqarli vizuallashtirishni taklif etadi. O‘quvchilar o‘zgaruvchilarni manipulyatsiya qilishlari va real vaqt rejimida natijalarni ko‘rishlari mumkin, bu esa elektromagnetizm va magnit kuchlar kabi tushunchalarni chuqurroq o‘rganish imkonini beradi.

Xulosa. Magnit maydonlarni o‘rgatish uchun interfaol usullardan foydalanish o‘quvchilarning o‘rganish tajribasini o‘zgartirishi mumkin. Amaliy tajribalar, simulyatsiyalar va hamkorlikdagi loyihalarni o‘z ichiga olgan holda, o‘qituvchilar magnit maydonlar va ularning qo‘llanilishini chuqurroq tushunishlari mumkin. Ushbu yondashuv nafaqat ilmiy bilimlarni oshiradi, balki o‘quvchilarni STEM sohalarida kelajakdagi muammolarga tayyorlaydi, qiziqish va innovatsiyalarni rag'batlantiradi. (STEM ta'limi o‘quvchilarni tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish ko‘nikmalari va hamkorlikda ishlash qobiliyatini - zamonaviy ishchi kuchida muhim bo‘lgan ko‘nikmalar bilan jihozlaydi).

FOYDALANILGAN ADABIYOT.

1. I. I. Giannakopoulos, J. E. C. Serralles, L. Daniel, D. K.Sodickson, A. G. Polimeridis, J. K. White, R. Lattanzi, IEEETrans. Biomed. Eng. 2021, 68, 236.54.
2. S. Colombo, V. Lebedev, A. Tonyushkin, S. Pengue, A. Weis,IEEE Trans. Med. Imaging 2020, 39, 922.55.

MAKTAB O‘QUVCHILARIGA YORUG‘LIKNING SINISH VA QAYTISH QONUNINI TUSHUNTIRISHDA KO‘RGAZMA VA SIMULYATSIYALARDAN FOYDALANISH

X.Sh.Ergasheva[1], Sh.T. Inoyatov[2]

[1]Urganch davlat universiteti 1-kurs magistr; [2]Namangan davlat universiteti

Annotatsiya. Fizikani o‘qitish ko‘pincha mazmun va talab ehtiyojlariga moslashtirilgan bir nechta usullarning kombinatsiyasidan samarali foydalanadi. Mana bir necha tavsiya etilgan yondashuvlar: So‘rovga asoslangan ta‘lim, bunda o‘quvchilarni tajribalar va muammolarni yechish orqali savollar berishga va tushunchalarni o‘rganishga undaydi, fizik tamoyillarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Loyihaga asoslangan ta‘lim, bunda o‘quvchilarni fizika tushunchalarini real muammolarga qo‘llaydigan loyihalarga jalb qilish motivatsiya va dolzarblikni oshirishi mumkin. Masalan, oddiy mashina qurish yoki qayta tiklanadigan energiya bo‘yicha tadqiqot loyihasini o‘tkazish. Namoyishlar va simulyatsiyalar, bunda vizual namoyishlar va kompyuter simulyatsiyalari o‘quvchilarga harakat, energiya va to‘lqinlar kabi murakkab tushunchalarni tushunishga yordam beradi. Hamkorlikda o‘rganish bu metod esa guruh ishi muhokamani osonlashtirishi va o‘quvchilarga bir-biridan o‘rganish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar. To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitish, hamkorlikda o‘rganish, so‘rovga asoslangan ta‘lim, Differentsiallashtirilgan ta‘lim, Flipped Classroom, montessori usuli, sokratik usul, vizual namoyishlar, kompyuter simulyatsiyalari, tanqidiy fikrlash, yorug‘likning sinish va qaytish qonuni.

Kirish. O‘qitishning ko‘plab usullari mavjud, ularning har biri o‘zining kuchli tomonlariga ega. Bu erda bir nechta keng tarqalgan, masalan : To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitish -bunda tushunchalar va ko‘nikmalarni aniq o‘rgatishga qaratilgan o‘qituvchiga yo‘naltirilgan yondashuv. Hamkorlikda o‘rganish-bunda O‘quvchilar muammolarni hal qilish yoki vazifalarni bajarish uchun guruhlarda birgalikda ishlaydi, jamoaviy ish va muloqotni rivojlantiradi. So‘rovga asoslangan ta‘lim-bunda tadqiqot va tajribalar orqali o‘quvchilarni savollar berishga va mavzularni o‘rganishga undaydi. Differentsiallashtirilgan ta‘lim -bunda o‘quvchilarning o‘rganish uslublari, qobiliyatlari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda turli xil ehtiyojlarini qondirish uchun o‘qitish strategiyalarini moslashtirish. Loyihaga asoslangan ta‘lim -bunda O‘quvchilar tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini talab qiladigan murakkab, real loyihalarda qatnashadilar.

Maktab o‘quvchilariga yorug‘likning sinishi va qaytish qonunini tushuntirish uchun ko‘rgazma va simulyatsiyalardan foydalash eng samarali usul xisoblanadi. Ko‘rgazmalar va simulyatsiyalar yordamida maktab o‘quvchilariga yorug‘likning aks etishi va sinishi qonunlarini tushuntirish uchun quyidagi amallarni bajarish kifoya, yahni fikrlash uchun namoyish tajribalar bajarish kerak bo‘ladi. Kerakli materiallar sifatida samolyot oynasi, lazer ko‘rsatgich yoki chiroq, o‘tkazgich, burchaklarni belgilash uchun qog‘oz varag‘i kerak. Jarayonning quyidagi tartibda olib borish maqsadga muvofiq: oynani vertikal ravishda stol ustiga qo‘yyamiz, yorug‘lik nurini oynaga burchak ostida (to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas) yo‘naltirish uchun lazer ko‘rsatkichi yoki chiroqdan foydalanamiz.

Yorug‘likning aks etishi va sinishida Nurni aks ettirish uchun yorug‘lik ko‘zgu yuzadan (sirtdan) qaytganda sodir bo‘ladi. Yorug‘likning sirtga tushish

burchagi (tushish burchagi) uning aks etish burchagiga (aks ettirish burchagi) teng. Asosiy tushunchalar, ko‘zgu qonuni: tushish burchagi = ko‘zgu burchagi.

Reflektsiya turlari: Muntazam ko‘zgu bu erda silliq yuzalarda (ko‘zgu kabi) paydo bo‘lib, aniq tasvirlar hosil qiladi. Diffuz aks ettirish bu erda qo‘pol sirtlarda paydo bo‘lib, yorug‘likni ko‘p yo‘nalishlarga tarqatadi, natijada aniq tasvir bo‘lmaydi. Namoyish etishda bu erda tushish burchagi ko‘zgu burchagiga qanday teng ekanligini vizual ko‘rsatish uchun tekis oyna va lazer ko‘rsatkichidan foydalamiz. Nurning sinishi - bu tezlikning o‘zgarishi tufayli yorug‘likning bir muhitdan ikkinchisiga o‘tishida egilishidir. Asosiy tushunchalar sifatida shuni aytish mumkinki Snell qonuni shunday izoxlaydi: Ikki muhitning sinishi burchaklari va ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi munosabatni tavsiflaydi:

$$n_1 \sin(\theta_1) = n_2 \sin(\theta_2)$$

n - sinish ko‘rsatkichi va θ - burchak.

Sinish indeksi bu havo bilan solishtirganda muhitda yorug‘lik qanchalik sekinlashishini o‘lchovi. Misol uchun, shisha havodan yuqori indeksga ega.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yorug‘likning aks etishi va sinishi asosiy optik hodisalar bo‘lib, yorug‘likning turli sirtlar va muhitlar bilan o‘zaro ta‘sirini tushunishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ko‘zgu tushish burchagi ko‘zgu burchagiga teng degan qonunga rioya qilgan holda tasvirlarni silliq yuzalar orqali idrok etishga imkon beradi. Bu tamoyil kundalik nometallardan tortib ilg‘or optik qurilmalargacha bo‘lgan turli xil ilovalarda juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Physics of Light and Optics Justin Peatross Michael Ware Brigham Young University 2015 Edition May 15, 2024 Revision.
2. Physics, Chapter 37: Reflection and Refraction Henry Semat City College of New York 2021

MURAKKAB FIZIK JARAYONLARDAN YARIMO‘TKAZGICHLARGA DOIR MAVZULARNI O‘QITISHDA “VENN DIAGRAMMASI”DAN FOYDALANISH.

M.A.Ergasheva; F.A.Raximjanova

Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Hozirgi kunda interfaol metodlarning juda ko‘plab turlari mavjud. Lekin yarimo‘tkazgichlarga doir mavzularni o‘qitishda qo‘llash mumkin bo‘lganlarini ajratib olish kerak. Har bir metod yarimo‘tkazgichlarga doir mavzulariga tushishini aniq bilish va qo‘llay olish kerak.

Kalit so’zlar: interfaol metodlar, yarimo’tkazgichlar, Venn diagrammasi, aspektlar, an’anaviy ta’lim, texnologik ta’lim.


Zamonaviy ta’lim metodlaridan “Venn diagrammasi” metodidan foydalanishni yarimo‘tkazgichlarga doir mavzularni o‘qitishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan interfaol metodlardan hisoblanadi. Ma’lumki, har bir dars mavzusini o‘rganishda o‘ziga xos texnologiya, metod va vositalarni tanlashga to‘g‘ri keladi. O‘qitish jarayonida yuqori natijaga erishish uchun dars jarayonini oldindan ketma-ketligini mo‘ljallash kerak bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi fanning o‘ziga xos tomonlarini, o‘quv jarayonini va sharoitini, talabalarning ehtiyojini va imkoniyatlarini, bilim saviyasini, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiyalarni tanlashi lozim [1].

Fan-texnika taraqqiyoti (jumladan yarimo‘tkazgichlarga tadqiq etish, ularning imkoniyatlari kengaytirilmoqda hamda yangi xossalari kashf qilinmoqda) davrida talaba o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan ilmiy axborot hajmining keskin oshib ketishi bilan an’anaviy ta’lim kam samarali bo‘lib qoldi. Shu sababli hozirgi paytda interfaol metodlar, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga kiritishga qiziqish tobora kuchayib bormoqda. Interfaol ta’lim texnologiyalari o’quvchilarni egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishga, mustaqil o‘rganish, tahlil qilish, va olingan bilimlardan o‘zlari xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Zamonaviy ta’lim metodlaridan “Venn diagrammasi” metodidan foydalanishni quyida keltirib o‘tamiz. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning tahlil va sintezini aspektlar orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi [2].

“Venn diagramasi” metodini amalga oshirish tartibi: O’quvchilar ikki yoki uch kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xosligi, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

navbatdagi bosqichda o’quvchilar to‘rt nafardan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;

juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yoxud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.



Yarimo‘tkazgichli moddalarning turlarini o‘rganishga doir “Venn diagrammasi”.

Ushbu uchta bir-biri bilan kesishgan doiralar ko‘rinishidagi sxemadan tabiatdagi yarimo‘tkazgich moddalarni taqqoslash uchun qo‘llaniladi [3]. Aylanma diagrammada har bir doiradagi bo‘sh joylar yarimo‘tkazgich moddalarning tafovutlarini yozish uchun ishlatiladi; doiralar kesishganda hosil bo‘lgan umumiy maydon uch xil xususiyatga ko‘ra solishtirilayotgan yarimo‘tkazgich moddalarning umumiy jihatlarini qayd qilish uchun foydalaniladi. “Venn diagrammasi” metodi asosida yarimo‘tkazgichlar haqidagi ma’lumotlarni o‘qitish ushbu moddalarning haqida yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begmatova D.A., Qurbonov M., Sodiqova Sh., Abdullayev N.Q., Suvonova O.D. Fizika o’qitish metodikasi. Toshkent, “Innovatsiya-Ziyo”, 2021, -299 b.
2. Boltayeva M. L., To‘lanova B.A. Yarimo‘tkazgichlar fizikasiga doir o‘quv mashg‘ulotlarni tashkil etish va unga qo‘yilgan talablar. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi Namangan, 2022 (3), 733-737 betlar.
3. Туланова Б. Исползование передовых педагогисҳеских технологий в преподавании диссиплин по физике полупроводников. Универсум: Психология и образования. 2020, 7(73), 12-17 с.

MAKTAB O‘QUVCHILARINING FIZIKAGA QIZIQISHINI OSHIRISHDA LOYIHA ISHLARINING ROLI

M.M.Eshbaeva

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogik instituti

Annotatsiya. Ishda loyihalash ishlarining fizika o‘quv jarayonidagi ahamiyati o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish usuli sifatida ko‘rib chiqilgan. Loyihalash faoliyati o‘quvchilarga fizik hodisalarni mustaqil tadqiq etish, eksperimentlar o‘tkazish hamda tanqidiy fikrlash va kreativlik ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini berishiga e’tibor qaratilgan.

Tayanch so‘zlar. Fizika, loyiha ishlari, maktab ta’limi, fanga qiziqish, tajriba-sinov ishlari, tanqidiy fikrlash, kreativlik, ilmiy bilish, metodik tavsiyalar.

Fizika – tabiat qonunlari va bizni o‘rab turgan hodisalarni o‘rganuvchi fundamental fanlardan biridir. Uning ahamiyatiga qaramay, ko‘pchilik o‘quvchilar fizikani murakkab fan sifatida qabul qilishadi, bu esa uni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va motivatsiyaning pasayishiga olib keladi. Zamonaviy ta’lim jarayoni sharoitida pedagoglarning vazifasi fizikani yanada qulay va qiziqarli qilishdan iborat. Bu maqsadga erishishning samarali usullaridan biri o‘quvchilarning fizikaga qiziqishini sezilarli darajada oshirishi mumkin bo‘lgan loyiha ishlari hisoblanadi [1, 2].

Ushbu ishda loyihalash ishlarining asosiy jihatlari, ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni, shuningdek, fizika fanidan loyihalash faoliyatini tashkil etish ko‘rib chiqiladi.

Quyida fizika darslarida loyiha ishiga misollar keltirilgan.

"Ekologik fizika" loyihasi doirasida o‘quvchilar fizik hodisalarning ekologik jarayonlarga ta’sirini o‘rganadilar. Masalan, ular haroratning o‘zgarishi havoning ifloslanish darajasiga qanday ta’sir qilishini o‘rganishlari mumkin. O‘quvchilar o‘z hududidagi havo sifati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘playdilar, harorat va ifloslanish darajasini o‘lchash uchun fizik usullardan foydalanadilar, so‘ngra olingan natijalarni tahlil qiladilar.

"Kelajak energiyasi" loyihasi muqobil energiya manbalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. O‘quvchilar quyosh panellari va shamol generatorlarining fizik tamoyillar asosida ishlashini o‘rganishlari mumkin. Loyiha doirasida ular quyosh pechi yoki shamol generatorining oddiy modelini qurish, ularning samaradorligini sinab ko‘rish va o‘z tadqiqotlari natijalarini taqdim etishlari mumkin.

"Fizika va musiqa" loyihasi o‘quvchilarga fizik hodisalar va musiqa asboblari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq qilish imkonini beradi. O‘quvchilar torning uzunligi tovush balandligiga qanday ta’sir qilishini o‘rganishlari va turli

musiqa asboblari bilan tajribalar o‘tkazishlari mumkin. Ish jarayonida ular fizik tamoyillardan foydalangan holda o‘zlarining musiqiy kompozitsiyalarini yaratishlari mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, loyiha ishlari zamonaviy ta’limning asosiy elementi bo‘lib, u o‘quvchilarning fizikaga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishga qodir. Ular fizika qonunlarini chuqur o‘rganish va ularni real hayotda qo‘llash imkoniyatini yaratadi, bu esa ta’limni yanada qiziqarli va qiziqarli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Lutsay Ye.V. Proyektnaya deyatelnost pri izuchenii fiziki kak sposob povisheniya motivatsii uchashixsya sredney shkoli//Vestnik Pskovskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya: Tabiiy va fizika-matematika fanlari, 2014, №. 5, 191-195-s.

2. Xakimova A. X., Rumbesha Ye. A. Mini-proyekti po fizike v osnovnoy shkole kak sredstvo formirovaniya uchebnix umeniy i interesa k predmet-u//Vestnik Tomskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta, 2012, № 2. 7 (122), 223-228 s.

METHODOLOGICAL KNOWLEDGE OF THE HIGH SCHOOL PHYSICS COURSE IS A MEANS OF FORMING STUDENTS’ PHYSICAL THINKING STYLE

Z.N.Obidova; M.M.Komilov; V.T.Rahmanov
Gulistan state university

Abstract. The Article is devoted to the style of thinking of students teaching physics in secondary schools in order to form a worldview of methodological and methodological knowledge in physics students.

Keywords: Logical thinking, methodology, methodology, experiment, theory, science, theoretical methods.

In philosophy, the "style of thinking" is understood as a system of principles of logical construction of knowledge, including methods of scientific knowledge.

The origin of the term "style of thinking" originates in one of the letters of V. Pauli to M. born written in 1952 in connection with the statistical nature of the Ψ-function. In this letter, he contrasts the Newtogue-Maxwell style. M. born summarizes the remark of V. Pauli and gives the following definition of the term "physical style of thinking": "I think that there are some General trends of thought that change very slowly and form certain philosophical periods with their characteristic ideas in all areas of human activity, including in science. Pauli used the expression "styles": thinking styles are styles not only in art, but also in science. In accepting this term, I maintain that there are styles in physical theory, and it is this circumstance that gives a kind of stability to its principles.

Being familiar with the style of your time, you can make some cautious predictions. At least you can reject ideas that are alien to the style of our time" [1]

In order to acquire knowledge, it is necessary to activate the students ' thinking, which is the leading condition for its development. Scientific thinking is an important component of the worldview formation process. In order for the historical and logical approach to the educational process to be effective, the teacher must use the operations of thinking in the lessons:

• analysis of the studied material on the topic;

• • systematization and integration of the material of each topic of the physics section around the core ideas of the physical picture of the world;

• • systematization of students ' knowledge based on the use of mathematical apparatus;

• • systematization of knowledge, skills and abilities in the final lessons.

Students in these classes learn to rethink the particular and the concrete from the General positions of physical knowledge. Based on the above, we can distinguish the following forms of application of the history of physics in training:

1. Introductory historical and methodological overviews, which serve as means of justification of new knowledge;

2. Final historical and methodological reviews that serve as ways to justify the systematization and generalization of knowledge;
3. Descriptions of the history of individual fundamental experiments that are a means of substantiating knowledge;
4. Full biographies of scientists and fragmentary biographical information that serve to form the student's personality;
5. Experimental works that model historical and methodological experiments.

Let's consider the problem of the law of universal gravitation, the dispute about the understanding of this law, the Problem of gravitation arose in connection with the heliocentric theory of the structure of the Universe. But Copernicus said that gravity not only exists on Earth, but also in other celestial bodies. The next step was taken by Kepler, who believed that the force of gravity between celestial bodies is inversely proportional to the distance between them. In letters to Newton in 1680, he said that the force is inversely proportional to the square of the distance between the centers. The appearance of Newton's book "Mathematical principles of natural philosophy" was a major event in scientific life. Newton first gave a mathematical "theory of the sky". Based on the law of universal gravitation, this book laid the foundations of "Differential and integral calculus".

There are many types of problems in which the abilities of students with different types of thinking – specifically figurative or formal – logical-are clearly displayed."[2,3] this is especially facilitated by creative tasks that allow different approaches to solving on a reliable methodological basis. Learning the basics of mathematical modeling in the study of physics involves not just the assimilation of certain rules and methods of action, but the development of a unique style of thinking, different from the one that was formed in the classical approach to the study of physics. The quality of students ' knowledge in logical thinking can be significantly improved if it is implemented through the use of knowledge in solving specific problems, while strengthening the methodological focus of teaching.

REFERENCES

1. Born M. Physics in the life of my generation, - M., 1963. - C, 227c
2. Efimenko V. F. Methodological issues of the school physics course. - Moscow:
3. Multanovsky V. V. Physical interactions and the picture of the world in the school course.- Moscow: Enlightenment, 1977

NAZARIY MEXANIKA FANINI DASTURIY TA’LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB O’QITISH ISTIQBOLLARI

S.Q.Qahhorov; M.B.Bekmurodova
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu ishda Oliy ta’lim muassasalarining fizika ta’lim yo’nalishi talabalariga nazariy mexanika fanining muhim tushunchalaridan biri bo’lgan “Efffektiv potensial energiya” mavzusiga oid tayanch kompetensiyalarni “Pynton” dasturlash tili yordamida yaratilgan dasturiy ta’minotdan foydalangan holda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi tadqiq qilingan.


Kalit so’zlar: Tayanch kompetensiya, raqamli texnologiya, effektiv potensial energiya.

Bugungi kunda butun dunyo miqyosida barcha sohalarga nazar tashlaydigan bo’lsak raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi oshganligini payqashimiz mumkin. Shu nuqtai nazardan ta’lim tizimida o’qitish sifatini oshirish borasida olib borilayotgan islohotlarning bir qismi sifatida o’qitish tizimiga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish orqali kadrlar sifatini oshirish masalasi turibdi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida, dasturiy ta’lim vositalaridan foydalangan holda o’qitish jarayoni olib borilsa yetarlicha ijobiy natijaga erishish mumkin. Ushbu fikrlarni Oliy ta’lim muassasalarining fizika ta’lim yo’nalishi talabalariga nazariy mexanika fanining muhim tushunchalaridan biri bo’lgan “Efffektiv potensial energiya” mavzusiga oid tayanch kompetensiyalarni “Pynton” dastrulash tili yordamida yaratilgan dasturiy ta’minot yordamida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish masalasining yechimida ko’rishimiz mumkin.

Ma’lumki, zarraning markaziy maydondagi harakatini ifodalashda effektiv potensial energiya tushunchasiga murojaat qilishga to’g’ri keladi. Talabada ushbu tushunchaga doir to’laqonli bilim, ko’nikma, malaka va tayanch komptensiyalar shakllanmay turib, markaziy maydondagi harakat tenglamasini integrallay olmaydi va talabada ushbu mavzuga oid bo’shliq paydo bo’ladi. Shuning uchun effektiv potensial energiya haqida talabada to’laqonli bilim , ko’nikma, kompetensiya va tasavvurni vujudga keltirish dolzarb masala bo’lib hisoblanadi.

Ushbu mavzuni o’qitishda yaratilgan dasturiy ta’lim vositasidan foydalanish o’zining samarali natijasini beradi. Dasturiy ta’lim vositasining ushbu mavzuga oid qismida dastaavval kerakli fizikaviy qonuniyatlarning matematik ifodasini keltirib chiqarish masalasi yoritilgan bo’lib, kerakli ifoda aniqlangach impuls momenti vektorining, kiritilgan doimiyning, massaning kerakli qiymatlari uchun “Pynton” dasturlash tili yordamida effektiv potensial energiyaning radiusga bog’liqligini ko’rsatuvchi grafik chizish imkoniyatini beruvchi dasturning keyingi qismiga o’tiladi. Ushbu qismda grafik o’zgaruvchilarning xoxlagan qiymati uchun chizish imkoniyati mavjud, bundan tashqari o’zgaruvchilarning turli qiymatlari uchun grafiklarni bitta koordinatalar sistemasida chizish imkoniyati ham mavjud. Bu talabalarda effektiv potensial

energiyaning va potensial o’ra to’g’risidagi bilimlarini rivojlantirish imkonini beradi.



Rasm 1. Effektiv potensial energiyaning radius vektorga bog’liqligi (Pynton dasturida)

Yuqoridagi ko’rib o’tilgan dasturiy ta’lim vositasi orqali o’quv mashg’uloti olib borish orqali darsning sifatini oshirish ya’ni talabalarning o’zlashtirish ko’rsatkichini oshirishga erishish mumkin. Shu bilan birgalikda ushbu fodalanilgan dasturiy ta’lim vositasi talabalarning mavzuga oid tayanch kompetensiyalarni va matematik kompetentlikni oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. M.B.Bekmurodova.In theoretical mechanics, the issue of using a software tool to express the relationship between the cylindrical coordinate systemand the dekart coordinate system.// Web of discoveries:Journal of analysis and inventions volume-2 04.04.2024. –

2. M.B.Bekmurodova. Slindrik koordinatalar sistemasi va dekart koordinatalar sistemasi orasidagi bog’liqlikni ifodalash masalasi//“Fan, ta’lim va innovatsiyalar:nazariya, amaliyot, natijalar” xalqaro konferensiya Buxoro 2024 –B 501-504.

3. Avezmuratova Z.A. Umumiy o’rta ta’lim maktablarida astronomiya fanini
O’qitish metodikasini takomillashtirish. PhD avtoref B.:2023y 5 b

FIZIKA FANINI O’QITISHDA FANLARARO BOG’LANISHLAR.

N.A.**Xojiakbarova**
Namangan viloyati Turaqo’rgon tumani 12-maktabi

Annotatsiya: Ushbu maqolada **y**arimo’tkazgich sirtida ro’y beradigan turli-tuman fizik jarayonlarni tushuntirish uchun qo’llaniladigan Rengen spektroskopiyaga asoslangan zamonaviy usul haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: **y**arimo’tkazgich sirti, Rengen spektroskopiya, elektromagnit nurlanish, rengen nurlanishlari, uzluksiz spektr, kimyoviy bog’lanishlar.

Fizika fanini o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarda butun olamni o‘rganishga qiziqishlarini oshirish, tabiatdagi hodisalarni kuzatish, fizik hodisalar va jarayonlar o‘rganishda to‘g‘ri foydalana olish, fizik tushuncha va kattaliklarni matematik formulalar bilan ifodalay olish, fan sohasida erishilayotgan yutuqlar, ularning amaliyotdagi tatbiqi orqali o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashlarni rivojlantirish, kelajakda insoniyatni fan texnika texnologiyalar yutuqlaridan to‘g‘ri foydalanishda fan, texnika ijodkorlariga hurmat bilan qarash, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash umumbashariy madaniyat elementlarini tarbiyalashdan iborat [1]. Fizika kursining boshqa o‘quv fanlari bilan bog‘lanishini amalga oshirishdan asosiy maqsad: bilimning tizimliligini ta’minlash; tabiat hodisalari va ularning bir-biri bilan aloqadorligi haqidagi tasavvurlarni o‘quvchilar ongida shakllantirish; o‘quvchilarda hodisalar, jarayonlar, tushunchalar va nazariyalar orasidagi bog‘lanishlarni ilmiy asosda o‘rnata olish mahoratini shakllantirish to‘g‘risidagi tasavvurlarni hosil qilish. Fizika o‘quv fanining matematika o‘quv fani bilan bog‘lanishi: Mexanikani o‘rganishda trigonometrik funksiya, kvadrat tenglama va boshqa matematik amallardan keng foydalaniladi. Matematik tushunchalarni o‘z o‘rnida va to‘g‘ri ishlatib borish lozim. Masalan, fizik formulalarni, noma’lum kattaliklarni aniqlashda, formulada bo‘lish, ayirish, qo‘shish ko‘paytirish, amallari, mutanosiblik tushunchasi ishlaydi [2]. Fanlararo bog‘lanish o‘quv fanlar haqidagi bilimlarni mustahkamlaydi, fanga qiziqishni orttiradi. Fizika kursining kimyo bilan bog‘lanishi: Fizika va kimyo o‘quv fanlari kurslari uchun umumiy bo‘lgan ko‘pgina tushuncha va kattaliklar mavjud. Atom tuzilishi haqidagi o‘quv materiali quyidagicha taqsimlangan: elektron qobiqning xossalari va tuzilishiga oid hodisalar kimyo kursida o‘rganilib (nurlanishdan tashqari), elektron qobiqning to‘lib borishi, atom yadrosining tuzilishi va xossalari fizika kursida o‘rganiladi. Fizika kursida tok kuchining kimyoviy manbalari o‘rganilayoiganda kimyo kursida ruh va boshqa elementlarning kislotalar bilan o‘zaro ta’sirlari ko‘rib chiqiladi. Shu bois uchun tok manbalaridagi elektrolitlar haqida gapirganda ularning kimyoviy formulalarini yozib ko‘rsatish kerak.

Elektrolitik dissotsatsiya va elektroliz hodisalarini o‘rganishda o‘quvchilarning kimyodan olgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo‘llash va uni tushuntirish qat’iy moslashishni talab etadi. Fizika o‘quv fanining biologiya o‘quv fani bilan bog‘lanishi: Fizika va biologiya o‘quv fanlarining o‘zaro bog‘lanishini o‘rnatish yo‘llari quyidagicha: o‘simlik, hayvon va inson hayotiga ta’sir qiladigan hodisa va qonuniyatlarni o‘rganib, bu ta’sirlarni tushuntirib borish; atmosferaning pastki qatlamlaridagi turli ko‘rinishga ega bo‘lgan elektromagnit nurlanishlarni o‘rganish va ularning organic dunyoga ta’sirini tushuntirish; biologiya darslarida o‘quvchilarni o‘simlik, hayvon va inson rivojlanishiga ta’sir qiluvchi fizik hodisa, jarayon va qonuniyatlar bilan tanishtirish biologiyada qo‘llaniladigan tadqiqotlar ishlarida fizik metodlarni va fizik asboblarni o‘rganish.

Xulosa qilib aytganda, fanlararo bog‘lanishni amalga oshirishning didaktik asoslari fanlararo bog‘lanishni amalga oshirish pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi [3]. Fanlararo bog‘lanishni amalga oshirish orqali o‘quvchilar bilim darajalarining ortishiga, ilmiy dunyoqarashi shakllanishiga, mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarining, kreativ qobiliyatlari rivojlanishiga, o‘quv jarayonini takomillashtirishga sharoit yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Mirzaxmedov B., G’ofurov N va boshqalar. Fizika o’qitish nazariyasi va metodikasi Toshkent-2010 5.
2. Djoraev M. Fizika o’qitish metodikasi (umumiy masalalar). – Toshkent:TDPU, 2013 6.
3. Турдиев Н.Ш., Асадов Ю.М., Акбарова С.Н., Темиров Д.Ш. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг компетенцияларини шакллантиришга йўналтирилган таълим технологиялари, Т.Н.Қори Ниѐзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий-тадқиқот институти, Т.: 2015.-160.

TIBBIYOTDA TOVUSHDAN FOYDALANISH.

E.A.Alimova
Andijon davlat tibbiyot instituti
etiborxonazamjonovna@gmail.com.

Annotatsiya: Ushbu maqolada atrofimizdagi asosiy ma'lumotlarni eshitish va ko‘rish organlari orqali qabul qilishimiz, ikkala holda ham biz ob'ektlar haqida ma'lumotlarni ular bilan jismoniy kontaktsiz olishimiz haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: biopotensiallar, fizik omillar, Tovush vibratsiya, tovush paylari, elastik to‘lqinlar, Intensivlik, yorug‘lik.

Tirik organizmda sodir bo’ladigan turli jarayonlarning murakkabligiga va o’zaro bog’liqligiga qaramasdan, ular ichidan fizik jarayonga yaqinlarini ajratib olish mumkin. Masalan: qon aylanishi, bu jarayon suyuqlikning oqimi (gidrodinamika), tomirlar bo’ylab elastik to’lqinlarning tarqalishi (akustika), yurakning ishi va quvvati (mexanika), biopotensiallar generasiyasi (elektr), nafas olishda gaz harakati (aerodinamika), issiqlik uzatish (termodinamika), bug’lanish (fazoviy o’tishlar) va hokozo bo’limlarda o’rganiladi. Biofizika qo’yidagi maqsad - kasallik diagnostikasi va biologik tizimlarni tadqiq qilish; - davolash maqsadida organizmga turli fizik omillar bilan ta’sir qilish; - tibbiyot va veterinariyada foydalaniladigan materiallarning fizik xossalari; - atrof muxitning fizik xossalari va xarakteristikasi; tibbiyot, texnika, hisoblash mashinalari va matematika. Davolash sohasida ishlovchilarga fizik-matematik bilimlar yana shuning uchun zarurki, ular tirik organizmga va unda sodir bo’layotgan jarayonlarga materialistik nuqtai nazardan yondoshishga o’rgatadi.

Tovush va yorug‘lik turli fizik hodisalar bo‘lishiga qaramay, ularning har ikkisi ham to‘lqindir. To‘lqinlar tomonidan tashiladigan energiya bizning sensor mexanizmlarimizni qo‘zg‘atadi. Tovush vibratsiya bo‘layotgan jism tomonidan chiqariladigan mexanik to‘lqindir. Masalan, kamerton yoki inson tovush paylari tebranma harakat qilsa, ularning atrofidagi havo molekulalari harakatlanib, tebranayotgan jism harakatiga monand ravishda o‘zgaradi. Tebranayotgan molekulalar o‘z navbatida harakatini qo‘shni molekulalarga uzatadi [1]. Havo tebranishlari quloqqa yetib borganida ular nog‘ora pardaning vibratsiyasiga sababchi bo‘ladi.Bu esa o‘z navbatida bosh miyasi tomonidan qabul qilinuvchi nerv impulslarini keltirib chiqaradi. Agar havoda tarqalayotgan elastik to‘lqinlarning chastotasi taxminan 16 Hz dan 20000 Hz oralig‘ida bo‘lsa, u holda ular inson qulog‘ida tovush sezgisini uyg‘otadi. Shuning uchun chastotasi ana shu ko‘rsatilgan chegarada yotgan istalgan muhitdagi elastik to‘lqinlar tovush to‘lqinlari yoki to‘g‘ridan - to‘g‘ri tovush deb ataladi. Chastotasi 20 Hz

dan kichik bo‘lgan elastik to‘lqinlar infratovush deb ataladi: chastotasi 20000 Hz dan katta bo‘lgan to‘lqinlar ultratovush deyiladi. Infratovush va ultratovushni inson qulog‘i eshitmaydi. Gaz va suyuqliklarda tovush to‘lqini faqat bo‘ylama to‘lqin bo‘lishi mumkin va galma-gal keluvchi siqilish va siyraklashishlardan iborat bo‘ladi. Qattiq jismlarda tarqalayotgan to‘lqinlar ham bo‘ylama, ham ko‘ndalang bo‘lishi mumkin. Tovushning fizik xarakteristikasiga chastota, tezlik, to’lqin uzunlik, amplituda va shu kabi kattaliklar kiradi. Tovushning muhitda tarqalishi tezligi muhitning zichligiga va uning temperaturasiga bog’liq. Agar muhit temperaturasi 10C ga ko’tarilsa, tovushning tarqalish tezligi tahminan 0,5 m/s tezlikga ortadi. Tovushning havoda yutilishini hisoblash shuni ko‘rsatadiki, 20°C temperaturada chastotasi 1000 Hz bo‘lgan to‘lqin taxminan 115 km masofada e marta susayadi. To‘lqin tovush sezgisini uyg‘otish uchun eshitish chegarasi deb ataluvchi biror minimal intensivlikka ega bo‘lishi kerak. Eshitish chegarasi hammada har xil bo‘lib, tovushning chastotasiga bog‘liq [2]. Odam qulog‘i 1000-4000 Hz orasidagi chastotali tovushlarga juda sezgir bo‘ladi. Odam qulog’i eshitish va og’riq bo’sag’alari Intensivlik taxminan 103 - 104 erg/sm2 sek atrofida bo‘lganda to‘lqin tovush sifatida sezilmay qoladi va quloqda faqat og‘riq hamda bosim sezgisini uyg‘otadi. Intensivlikning ana shunday sezgi uyg‘otadigan qiymati og‘riq sezish chegerasi deb ataladi. Ton va shovqinlar. Davriy jarayondan iborat bo‘lgan tovush ton deb aytiladi. Agar bu jarayon garmonik bo‘lsa, unda ton oddiy yoki sof deb aytiladi. Sof tonning asosiy fizik xarakteristikasi uning chastotasidir. Angarmonik tebranishlarga murakkab ton mos keladi. Sodda tonli tovushni, masalan, kamerton chiqaradi, murakkab tonli tovushni musiqa asboblari, nutq apparati (unli tovushlar) va hokazo hosil qiladi. Murakkab ton oddiy tonlarga ajratilishi mumkin. Tovush zarba – bu tovushning qisqa muddatli ta'siridir: chapak chalinganda, portlash yuz berganda va hokazolarda hosil bo‘ladi [3]. Zarba to‘lqinlar bilan tovush zarbalarini bir-biri bilan chalkashtirib yuborish yaramaydi. Havoning siqilgan sohasini normal holatdagi sohadan ajratib turuvchi sirtga fizikada zarb to’lqin deb aytiladi. Zarb to‘lqin juda katta energiyaga ega bo‘lishi mumkin, masalan, yadroviy portlashlarda, atrof-muhitda zarb to'lqin hosil bo'lishida portlash energiyasining 50 foizga yaqini sarf bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. A.N.Remizov Tibbiy va biologik fizika. T.: “O’zbekiston milliy ensikopediyasi”. 2005.
2. В.О.Самойлов Медицинская биофизика, Санкт-Петербург, 2004.
3. В.Ф.Антонов., А.М.Черныш., Е.К.Козлова.,А.В.Коржуев Физика и биофизика. Практикум [Электронный ресурс] : учебное пособие /: ГЭОТАР-Медиа, М. 2012.

FIZIKA VA ASTRONOMIYANI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

R.R.Polvanov; F.F.Xolmurodov; N.Sh.Ergasheva
Namangan davlat universiteti
[a)] r-d_n-sh@mail.ru [b)] hfarhod2024@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola fizika va astronomiyani o'qitishda zamonaviy pedagogik va raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish istiqbollarini ko'rib chiqadi. Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish maqsadida aktiv ta'lim usullari, problema-asoslangan ta'lim, simulyatsiya dasturlari va onlayn resurslar kabi innovatsion yondashuvlar tavsiya etiladi. Pedagogik jarayonning samaradorligini aniqlovchi formula orqali o'quvchilarning motivatsiyasi va qiziqishini oshirishga qaratilgan usullar tahlil qilinadi. Natijada, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish fizika va astronomiyani o'qitishda o'quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Maqola o'qituvchilarga yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim texnologiyalari, muammo-asoslangan ta'lim, simulyatsiya dasturlari, onlayn resurslar, o'quvchi motivatsiyasi, innovatsion yondashuvlar, ta'lim samaradorligi, interaktiv ta'lim, o'z-o'zini o'rganish, ta'lim jarayoni, pedagogik metodlar.

Kirish. Fizika va astronomiya, insoniyatning tabiat haqidagi tushunchalarini rivojlantiruvchi fanlar sifatida, ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli ta'lim vositalarining joriy etilishi, ushbu fanlarni o‘rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Ushbu maqolada, bu texnologiyalarning imkoniyatlari va istiqbollari haqida fikr yuritiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o‘quv jarayonida talabalarning faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan [1-2]. Ularning asosiy maqsadi:

1. **Interaktivlik:** Talabalar o‘qitish jarayonida faol ishtirok etadilar, bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi.
2. **Differensial ta'lim:** Har bir talabaning o‘ziga xos xususiyatlariga mos keluvchi o‘qitish usullarini qo‘llash.
3. **Kreativ fikrlash:** Talabalarga muammolarni hal qilishda ijodkorlikni rivojlantirish.

Raqamli ta'lim texnologiyalari. Raqamli ta'lim texnologiyalari, zamonaviy o‘qitishda muhim vosita bo‘lib, quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Onlayn platformalar:** Moodle, Google Classroom kabi platformalar orqali materiallar taqdim etish va talabalar bilan aloqada bo‘lish.
2. **Simulyatorlar va vizualizatsiya:** Fizik va astronomik jarayonlarni simulyatsiya qilish uchun dasturlar (masalan, PhET) va vizualizatsiya vositalari.
3. **O‘quv videolari:** YouTube va boshqa platformalarda taqdim etiladigan o‘quv videolari orqali kompleks tushunchalarni tushuntirish.

Matematik formulalar va amaliy misollar. Fizika va astronomiyada ko‘plab matematik formulalar mavjud bo‘lib, ular orqali tajribalar va nazariyalar ifodalanadi. Masalan, quyidagi formulalar keltirilishi mumkin:

1. **Erkin tushish uchun kuchning hisoblanishi:** $F = m \cdot g$

Bu yerda F - kuch, m - massa, g - erkin tushish tezligi (taxminan 9.81 m/s^2.

2. **Gravitatsiya qonuni:** $F = G \cdot \frac{m_1 \cdot m_2}{r^2}$.

Bu yerda G - gravitatsiya doimiysi, m_1 va m_2 - jismlarning massalari, r - ularning orasidagi masofa.

Ushbu formulalar yordamida talabalar amaliyotda fizik jarayonlarni simulyatsiya qilishi mumkin, bu esa o‘qitish jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

Pedagogik formula. Fizika va astronomiya darslarida pedagogik jarayon quyidagi formulalar orqali ifodalanishi mumkin:

$$K = (A + R + T) \cdot E$$

Bu yerda:

- K — ta'lim samaradorligi,
- A — faol ta'lim usullari,
- R — raqamli resurslar,
- T — texnologik vositalar,
- E — o'quvchilarning motivatsiyasi va qiziqishi.

Natija. Zamonaviy pedagogik va raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, fizika va astronomiyani o‘qitishda ko‘plab imkoniyatlar yaratadi. Bu, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini oshirish, ijodkorlik va tahliliy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, matematik formulalar va amaliy misollar yordamida o‘quv jarayonini yanada boyitadi [3].

Fizika va astronomiyani o‘qitishda zamonaviy yondoshuvlar, kelajak avlodlar uchun ilm-fan va texnologiya sohasida yuqori darajada tayyorgarlik ko‘rish imkoniyatini taqdim etadi.

Xulosa. Zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalar fizika va astronomiyani o‘qitishda yangiliklar qilishadi. O‘quvchilarga zamonaviy bilimlarni egallash va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda yordam berish uchun bunday usullarni qo‘llash zarur. O‘qituvchilar bu jarayonda innovatsion yondashuvlar bilan qurollanishlari kerak.

ADABIYOTLAR

1. Karp, A. (2021). *Innovative Teaching Methods in Science Education*. Science Education International.
2. Cernuda, J., & Taber, K. S. (2022). *Problem-Based Learning in Science Education: Case Studies and Reflections*. Elsevier.

TALABALAR UCHUN KO‘P VARIANTLI MASALA VA TOPSHIRIQLAR TUZISH TAJRIBASIDAN

Z.S.Maxmudov

Namangan muhandislik qurilish instituti

Annotatsiya: So’nggi davrda respublikamizdagi oliy o’quv yurtlari soni va ularga talabalar qabul qilish darajasi keskin ko’paydi . Natijada ushbu kontingentni yetarli darajadagi o‘quv-uslubiy ta’minoti masalasi yuzaga keldi. Maqolada talabalar uchun nazariy mexanika fanidan ko‘p variantli masala va topshiriqlar tuzish tajribasi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: nazariy mexanika, tayanch reaksiya kuchi, koordinata o’qi, balka, harakat qonuni, ilgarilanma harakat, tezlik, tezlik proyeksiyasi, tezlanish, aylanma harakat, chiziqli tezlik, harakatni uzatish, reyka, pog‘onali g‘ildirak.

Talabalar qabul sonini oshishi ularga sifatli bilim berish bilan birga fanlarning o‘quv-uslubiy ta’minotini yaxshilash masalasini ham kun tartibiga qo‘yadi. Lotin alifbosidagi uslubiy ta’minotni jiddiy ko’rinishda yaxshilash lozim. Talabalarga hozirgi zamon talablariga mos keladigan sifatli va rangli tarzda chop etilgan darslik, o‘quv qo‘llanmalari va masalalar to‘plamlari zarur. Fanlar bo‘yicha ishlab chiqilgan masala va topshiriqlar to‘plamlari davrlar mobaynida ma’nan eskirdi, ularni aksariyatining internetda tayyor yechimlari mavjud.

Muallif nazariy mexanika fani bo‘limlari bo‘yicha talabalar uchun ko‘p variantli masala va topshiriqlar ishlab chiqdi. Statika va kinematika bo‘limlari bo‘yicha tuzilgan masala va topshiriqlar to‘plami vazirlik tasdig‘idan o‘tib, o‘quv qo‘llanma sifatida chop etishga tavsiya etildi. Dinamika bo‘limi bo‘yicha masala va topshiriqlar tuzish ishlari yakunlanish arafasida turibdi. Talabalarga fan bo’yicha mashg’ulotlarda taklif etilayotgan masalalar ko‘p variantli qilib tuzildi. Bu holat talabalar uchun individual masala yechish imkoniyatini tug‘diradi. Quyida kinematika bo‘limidan ko’p variantli masala keltirilgan:

1.1.Masala . Moddiy nuqta tekislikda $x = f_1(t)$, $y = f_2(t)$ qonun bo’yicha harakat qiladi. Moddiy nuqtaning trayektoriya tenglamasini topib, uning shaklini chizing, shaklda harakat boshlanish nuqtasini va harakat yo‘nalishini ko‘rsating. Hisoblashlar uchun kerakli kattaliklar 1.3 jadvalda keltirilgan.

1.1. jadval

Variantlar	Kattaliklar	
	$x = f_1(t)$ m	$y = f_2(t)$ m
1	$2\sin(\pi t/9)-5$	$2\cos(\pi t/9)+4$
2	$5\sin(\pi t/7)+2$	$5\sin(\pi t/7)-1$
3	$2-9\sin(\pi t/6)$	$3+6\sin(\pi t/6)$
4	$4\sin(\pi t/3)$	$3\cos(\pi t/3)$
5	$3+2\cos(\pi t/2)$	$5-2\sin(\pi t/2)$
6	$2\sin(\pi t/4) — 3$	$4+2\cos(\pi t/4)$
7	$4+\cos(\pi t/3)$	$3-2\sin(\pi t/3)$
8	$1- 5\sin(\pi t/6)$	$2+4\cos(\pi t/6)$
9	$6\sin(\pi t^2/4)-2$	$6\cos(\pi t^2/4)+3$
10	$5\cos(\pi t^2/3)+2$	$5\cos(\pi t^2/3)-3$

Shuningdek nazariy mexanika fani bo‘limlari bo‘yicha tayyorlangan test-masalalar taklif etildi. Test-masalalar ularning o‘quv dasturini o‘zlashtirganligi, layoqati va bilimdonligini qisqa fursatda aniqlash imkonini beradi.

Hisob-grafik ishlari va individual ravishda masala yechish uchun nazariy mexanika fani bo‘yicha talabalar uchun ko‘p variantli (100 variantli) topshiriqlar tuzildi. Unda talabalar e’tiboriga 10 ta shakl va 10 ta shartdan iborat masalalar berilgan bo‘lib, ular muallif tomonidan mustaqil ravishda tuzib chiqildi. Unda topshiriq matni, chizmasi va topshiriqni bajarish namunasi berilgan.

Xulosa qilib aytganda talabalar uchun nazariy mexanika fani bo’limlari bo‘yicha ko‘p variantli masala va topshiriqlar tuzilishi hozirgi kundagi hozirgi kundagi ijobiy voqea hisoblanadi va ular talabalar uchun foydali va zarur bo‘lib, ularda individual masala yechish malakalarini shakllantiradi, ular bilim darajasini oshirish yo‘lidagi qadam hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sotivoldievich, M. Z. (2024). From the experience of making multiple option problems on the department of statics of theoretical mechanics. international journal of european research output, 3(5), 175-186.
2. Sotivoldievich, M. Z. (2024). Composition of multiple option problems on theoretical mechanics. international journal of european research output, 3(5), 187-195.

YADRO FIZIKASINI O‘QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASHNING ZARURATI

X.O.Qo‘chqorov[1]; D.A.Yusupov[2]

Namangan davlat universiteti[1]; Namangan davlat pedagogika instituti[2]

Annotatsiya: Maqolada oliy ta’limda yadro fizikasi bo‘limi mavzularini innovatsion kompyuter texnologiyalari asosida o’qitish metodikasi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: elektron darslik, innovatsion texnologiyalar, atom yadrosi, yadroviy o‘zgarishlar, yadro energetikasi, ionlashtiruvchi nurlar.

Jamiyatimizni bugungi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitida aholini bilim saviyasi, ta’lim va ilmiy infratuzilmalarni rivojlanganlik darajasi o‘ta muhim ahamiyatga ega. Shu ma’noda har bir fan predmetini tanlanishida jamiyat taraqqiyotini muhim omillaridan sanalgan energetika sohalarida salmoqli o‘ringa ega yadro energetikasi, yadro reaktsiyalari va radiatsion xavfsizlik kabi mavzularni o‘qitishda bugungi kunda erishilgan fan va amaliyot yutuqlari bilan boyitib o‘qitilishi davr talabiga aylanib bormoqda.

Hozirgi mavjud yadro fizikasiga oid darsliklar va metodik adabiyotlarni taxlilidan ko‘rinadiki, ma’lumotlarni ayrim qismlari eskirib zamonaviylari bilan boyitilmagani, o‘quv materiallarini qotib qolgan faktlar bilan bayon etilishi, eng muximi esa, amalda namoyishli qo‘llanmalarni, laboratoriya ishlarini va fizikaviy amaliyotni yo‘qligi o‘quvchi talabalar bilim va ko‘nikmalarini talab darajasida shakllanmasligiga olib kelmoqda. Ko‘ramizki, ta’limdagi bunday vaziyatda jamiyat taraqqiyoti bilan bog’liq atom energetikasini rivojlanish kelajagi, yadro reaktsiyalari turlari, radioaktivlik va AES larni yangi avlodlari, havfsizlik darajalarini ilmiy baholay olish va unga adekvat munosabatni shakllantirish kabi masalalar bir oz ortda qolib ketadi.

Vaholanki, hozirda o‘rganilayotgan o‘quv mavzulari mazmuni real xayotda amal qilayotgan zamonaviy qurilmalar ish tamoyili mazmunini aks ettirishda ancha orqada qolmoqda. Ayniqsa, yadro fizikasini o‘qitilishida AESlarni yangi avlodi haqida ma’lumotlar yo‘qligi, ular haqida zamonaviy tasavvurni bera olmaydi. Bunday tafovutni innovatsion texnologiyalar asosida kompyuter texnologiyalaridan foydalanib yadro fizikasini o‘qitish metodikasini takomillashtirish orqali bartaraf etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan sanaladi.

Ushbu muammolarni xal etish uchun dastlab o‘quv predmetlari materiallari mazmunini zamonaviy fan va texnika yutuqlariga mos kelishini ta’minlashga erishish, yadro fizikasini o‘quv mazmunini tanlanishida nazariy bilimlarni asosiy amaliy qo‘llanish sohalarini ko‘rsatish orqali nazariya va amaliyotni bog’lanishini ta’minlash, fizikaviy ta’limni ekologik komponentalarini e’tiborga olish va xar bir tushunchalarni fizik mohiyatini idrok etishda, ya’ni fizik hodisa, fizik kattalik, model, g’oya, nazariya,

atom yadrosi, massa defekti, bog’lanish energiyasi, radioaktivlik, ionlashtiruvchi nurlar kabi tushunchalarni fundamental qonunlarga mos kelishi va ilmiyligini ta’minlanishi lozim. Yadro fizikasini o‘zaro mantiqiy bog’langan o‘quv materiallari mazmunini bloklar strukturi quyidagicha tanlanishi mumkin. Atom yadrosi – yadroviy o‘zgarishlar – yadro energetikasi – ionlashtiruvchi nurlarni tirik organizmga ta’siri. Atom yadrosi nazariyasi o‘zaro bir biri bilan bog’langan ikkita - yadro tuzilishi va yadroning bo‘linish reaktsiyalarini o‘z ichiga olib yadro xossalarini ifodalashda yadro modellaridan foydalanish zarurati yuzaga keladi. Bunda yadroning alohida xossalarini ifodalaydigan modellardan foydalanib u yoki bu jarayonni tushunishda kerakli modeldan foydalanishni va xar bir modelni qo‘llanish chegarasi va imkoniyatlarini bevosita kompyuter dasturlari yordamida namoyishli tarzda ko‘rsatilishi yadro xossalari va tuzilishi haqidagi yangilanmay qotib qolgan ma’lumotlarni kengaytirishga va yadroning universal modeli yaratilmagani haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Bularga erishish yo‘lida, nanotexnologiya yutuqlari yordamida yaratilgan yangi yadroviy energetik qurilmalar va ilmiy natijalarni e’tiborga olgan xolda biz tomondan ishlab chiqilgan “Yadro reaktsiyalari”, “Atom energetikasi”, “Zamonaviy atom reaktorlari va ularning ishlash mexanizmlari”, “Atom energetikasi sohasida tadqiqot va energetika atom reaktorlari, yadro-fizika qurilmalari, va radiaktiv chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari” kabi elektron darsliklardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yaratilgan elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, videoroliklar va prezentatsiyalar bilan an’anaviy o‘qitish usullarni takomillashtirish orqali yadro fizikasini o‘qitish natijalarini samaradorligi va bu sohada hozirgi texnik taraqqiyot zaminida yotgan fizik qonuniyatlar haqida tasavvurlarini shakllanib borish darajasini aniqlash maqsadida dastlab pedagogik eksperiment o‘tkazish shart sharoitlari, maqsadi, vazifalari belgilanib unda ko‘p yillik yadro fizikasini o‘qitish jarayonida aniqlangan kamchiliklar ham inobatga olindi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, yadro fizikasi o‘quv materiallarini ilmiy texnik rivojlanish yutuqlari bilan boyitilganligi va ularni namoyishli tarzda o‘qitilishi talabalar bilim saviyasini ko‘tarishga va o‘quv o‘rganish jarayonini faollashishiga olib kelishi aniqlandi.

Foydalanilan adabiyotlar

1. Yusupov D.A. O‘quvchilarda radioaktiv nurlanish, yadro energetikasi va ekologik xavfsizlik masalalariga adekvat munosabatni shakllantirish metodikasi. E Conference Zone, 2022/4/18. 138-139

2. Alijanov D.A. Физикани фанлараро алоқадорликда ўқитишнинг дидактик асослари. Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения 1 (24), 64-67

1.

BIR KOMPONENTALI SUYUQLIKLAR TUZULISHINI MATEMATIK MODELLASHTIRISHLAR ASOSIDA O‘RGANISH ISTIQBOLLARI

A.Artiqov

Andijon davlat universiteti

Annotatsiya. Tezisda suyuqliklarning dielektrik kirituvchanligi asosida tajribaviy va nazariy hisoblab topiladigan korrelyatsiya faktorlarini solishtirish orqali ularning tuzulishi va ularda sodir bo‘luvchi jarayonlarning kinetikasi va mexanizmlarini o‘rganish borasida olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar haqidagi ayrim mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Onzager-Kirkvuud-Fryolix nazariyasi, moddalarning dielektrik xossalari, sig‘im o‘lchovchi asbob, korrelyatsiya omili, sterik faktorlar.

Ma’lumki, nazariy jihatdan har qanday jarayonlarni kimyoviy reaksiyalar terminlarida izohlash orqali ularning barcha energetik, termodinamik, kinetik va boshqa qator fizik-kimyoviy parametrlarini hisoblab topish va ularning o‘zaro bog‘lanish qonuniyatlaridan mexanizmlarini o‘rganish mumkin[1,2].

Suyuqliklarning molekulyar tuzilishini ularning statik dielektrik kirituvchanligining eksperimental tadqiqotlari natijalari asosida tahlil qilish esa, asosan Onzager-Kirkvuud-Fryolix nazariyasi yordamida amalga oshiriladi. Moddalarning dielektrik xossalarini eksperimental o‘rganish, shu nuqtai-nazardan juda muhim ahamiyatga egadir. Bu nazariya keyingi yillarda ayrim tadqiqotchilar tamonidan yanada rivojlantirib borilmoqda. Uning asosiy tenglamasi bir komponentali suyuqliklar uchun quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi[1-4].

$$< \mu^2 >= \mu_V^2 g^e = \frac{9k_bTV_M}{4\pi N_A} \cdot \frac{(\varepsilon_S-\varepsilon_\infty)(2\varepsilon_S+\varepsilon_\infty)}{\varepsilon_S(\varepsilon_\infty+2)^2} \qquad (1)$$

bu yerda $< \mu^2 >$ - suyuq fazadagi molekulaning dipol momenti kvadratining o‘rtacha statistik qiymati; V_M -molyar hajmi; μ_V-vakuumdagi molekulaning dipol momenti; g^e -Kirkvud korrelyatsiya omili(faktori)ning eksperimental qiymati; k_b - Bolsman doimiysi; $\varepsilon_\infty -$ deformatsion qutblanish tufayli hosil bo‘luvchi dielektrik kirituvchanlik, $\varepsilon_s -$ moddaning tajribadan aniqlanishi mumkin bo‘lgan statik dielektrik kirituvchanligi. Bu kattalikni o‘lchashda biz ko‘prik sxemasi asosida ishlovchi “Tesla” firmasining VM431-YE tipidagi sig‘im o‘lchovchi asbobidan foydalandik. O‘lchash metodining rezonans chastotasi 1,12 MGs ni tashkil qildi.

Eng sodda holda, Onzager-Kirkvuud-Fryolix nazariyasi doirasida korrelyatsiya omili **g** qisqa masofali molekulalararo o‘zaro ta’sirlar tufayli suyuq fazadagi molekulalarning dipol momentlari oriyentatsiyalarining o‘zaro bog‘liqligini xarakterlaydi. Korrelyatsiya omili **g<1** bo‘lsa, suyuqlikda qo‘shni molekulalar dipollarining antiparallel yo‘nalishiga moyilligi kuzatiladi. Agar **g >1** bo‘lsa, o‘zaro qo‘shni molekulalarning dipol momentlari asosan parallel yo‘nalishga ega bo‘lishga moyil bo‘ladi. Agar korrelyatsiya omili **g=1**, yoki birga yaqin bo‘lsa, unda bu dipol momentlarining xaotik, tasodifiy yo‘nalishlari

yoki suyuqlikda shu holatni keltirib chiqaruvchi tarkibiy bo‘laklarning mavjudligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi [2,4].

Nisbatan kuchli yo‘naltirilgan molekulalararo o‘zaro ta’sirlar mavjud bo‘lgan suyuqliklar uchun, masalan, O-H...O tipidagi vodorod bog‘larini hosil qiluvchi suqliklarda, korrelyatsiya omili, odatda, birdan sezilarli darajada katta bo‘ladi va haroratning ortishi bilan monoton ravishda kamayib, birga intilib boradi.

Turli modellar asosida nazariy hisoblashlar orqali aniqlangan korrelyatsiya omili $\boldsymbol{g^n}$ assotsiatsiyalangan bir komponentli suyuqliklar uchun assotsiatlarning konsentratsiyalariga bog‘liq bo‘lib, quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi [2,4]:

$$g^n = \frac{1}{\mu_V^2}\sum\frac{C_n}{C_0} < \mu_n^2 > \qquad (2)$$

bu yerda $\boldsymbol{C_n}$ **n** tipdagi assotsiatsiyalarning molyar hajmiy konsentratsiyasi, $< \mu_n^2 >$ **n**- tipdagi assotsiat dipol momenti kvadratining o‘rtacha qiymati, $\mathbf{C_0}$- monomer molekulalar uchun hisoblangan molyar hajmiy konsentratsiyasi:

$$C_0 = \sum_{n=1}^{\infty} nC_n \qquad (3)$$

Xulosa qilib aytganda yuqorida keltirilgan (2) formula, suyuqliklarning muvozanatli dielektrik kirituvchanligi bilan ularning molekulyar tuzilishi o‘rtasidagi bog‘lanishni ifodalaydi. Bu ifodadagi $< \boldsymbol{\mu_n^2} >$ **n**- tipdagi assotsiat dipol momenti kvadrati o‘rtacha qiymatining matematik ifodasi jarayonning tezligiga, tezlik doimiysiga va boshqa parametrlarga bog‘liq bo‘ladi. Suyuq fazalarning molekulyar tuzulishini muvozanatli dielektrik xossalari bo‘yicha eksperimental ma’lumotlar asosida tahlil qilish Onzager-Kirkvuud-Fryolix tenglamasi (1) bilan hisoblangan $\boldsymbol{g^e}$ korrelyatsiya omilini va suyuq fazalardagi assotsiatsiatlarning tuzilishi bo‘yicha nazariy hisoblashlar natijalarini $\boldsymbol{g^n}$ (2), fizik jihatdan qabul qilingan, boshqa mustaqil tadqiqot usullari, sterik faktorlarni hisobga olgan tadqiqotlardan qilingan xulosalar yordamida olingan ma’lumotlarni hisobga olgan holda, taqqoslash orqali ($\boldsymbol{g^e \approx g^n}$ shartida) amalga oshiriladi [4,5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Shaxparonov M.I. Mexanizmi bistrix protsessov v jidkostyax.- M.:Visshaya shkola, 1980.- 352 s.
2.Frelix G. Teoriya dielektrikov,- M.: Inost.Lit., I960.- 247 s.
3. Durov V.A. K teorii staticheskoy dielektricheskoy pronitsayemosti jidkix odnoatomnix spirtov.// Jurn. fiz.ximii., 1982, t. 56, № 2, s.384-390
4.Artiqov A.Kasimov F. O stroyenii kondensirovannix faz nekotorix siklicheskix ketonov.//Vestnik AGU. 2012. №2, str. 17-21
5.A.Artiqov Korrelyatsiya faktori va suyuqliklarda sodir bo‘luvchi jarayonlarni o‘rganish istiqbollari.// ADU ilmiy habarnomasi. №4, 2016.
12-14s

“PEDAGOGIK NAVATORLIK”NING SAMARADORLIGI HAQIDAGI AYRIM MULOHAZALAR VA FIZIK TA’LIM ISTIQBOLLARI

A.Artiqov

Andijon davlat universiteti

Annotatsiya. Tezisda “Pedagogik navatorlik” usullarning fizik ta’limda qo‘llanilishiga doir masalalar ham bayon qilinadi. Bu texnologiyalarni ta’lim tizimining barcha bosqichilarida ham qo‘llash mumkinligi to‘g‘risida mulohazalar keltirilgan

Kalit so‘zlar: Pedagogik navatorlik, hamkorlik pedagogikasi, hisob daftarchasi, innovatsion ta’lim texnologiyalari, didaktik printsiplar, pedogogik izlanish.

Pedagogikada novatorlik o‘tgan asrning 70-80 yillarida, ta’limni islox qilish maqsadida, sobiq ittifoqda paydo bo‘ldi. Novatorlarning innovatsion ta’lim texnologiyalari turli tuman bo‘lsada, barchasi Ya. A. Komenskiyning didaktik printsiplariga amal qiladi [1-3].

Novator pedagoglardan donetsklik 5-maktabning mashhur matematika fani o‘qituvchi V.F. Shatalovning birinchi kitobi «Uch baholar qayoqqa va qanday qilib yo‘qoldi» nomi bilan 1979 yili nashr qilindi va juda katta muvaffaqiyat qozondi. 1981-yili “Pedagogik proza” asari chiqarildi. 1987 yili sobiq ittifoqning eng ko‘zga ko‘ringan bir necha (20 dan ortiq) novator pedagogolari bir erga yig‘ilib, yozgi maktab tashkil qilgani holda o‘zaro fikr almashdilar va bu uchrashuvning natijalari har bir pedagogning alohida uslubiy hayotiy kitoblari va birgalikda (Literaturnaya gazeta. 1986 yil. “Hamkorlik pedagogikasi”) maqolalari va 604 sahifalik “Pedogogik izlanish” to‘plamini nashr qilish bilan e’lon qilindi. Bu novatorlarning kitoblari juda katta shov-shuvlarga sabab bo‘ldi. Minglab pedagoglar o‘zlarining faoliyatlarini novatorlikni o‘rganishga va o‘qitish jarayonida ularning ishlarini takrorlashga qaratdilar. Lekin, barcha pedagoglar ham bir hilda Yutuqqa erisha olmadilar[2-4].

B.F.Shatalov o‘zining tayanch belgilari va tayanch konspektlari bilan Donetskdagi 5-maktabda barcha fanlarni samarali o‘qitilishiga erishgan. Tayanch belgilari juda ixcham va imkoni boricha kam sonli simvollar va belgilar ishlatilgani holda tayyorlanadi.

Reutovolik mashhur mahnat ta’limi ustozi I.P.Volkov esa asosan ulgurmovchi o‘quvchilar bilan shug‘ullansa-da, o‘sha ulgurmovchi shogirdlaridan juda ko‘p olimlar, rassomlar, haykaltaroshlar, musiqachilar, muhandislar va boshqa ixtisosliklarni egallagan mutaxassislar etishib chiqqanlar [3]. Volkovning uslubida o‘quvchining shaxsiy qiziqishlari, ko‘nikma va malakalari, layoqati va uquvi rivojlantiriladi. O‘quvchi har bir tayyorlagan yoki

bajargan ijodiy ishini «Hisob daftarchasi»ga yozib boradi. «Hisob daftarchasi»dagi ijobiy taqrizlar o‘quvchini yanada ijodga chorlaydi.

E.N.Ilinning adabiyot darslarida esa kitob o‘qimaydigan o‘quvchining o‘zi yo‘q. Maslan o‘qituvchi biror she’rni misralarini o‘qiydi va ma’nosiga qarab muammoni qo‘yadi. Muammoni ustida o‘ylanishga «majbur» bo‘lgan o‘quvchilar butun asarni, goho esa shoir yoki yozuvchining to‘la ijodini o‘rganishga harakat qiladi.

Azorsk maktabining sobiq direktori M.P.Shetinin esa maktabni deyarli to‘laligicha aktyorlik teatriga aylantirishga muvaffaq bo‘lgan deyilsa xato bo‘lmaydi. Bu maktabda barcha fanlarning mashg‘ulotlari teatrlashtirilgan sahnalar ko‘rinishida o‘tkaziladi. O‘quvchilar go‘yoki Nyuton yoki Platon davriga qaytadilar, o‘sha davr liboslari va muhitida, huddi o‘sha olimlar singari fikr almashadilar va baxslashadilar. O‘quvchilar o‘sha olimlar davriga mos saxna bezaklarini, kiyim bosh-liboslarini o‘zlari tayyorlaydilar. O‘zlari darslarning stsenariylarini yozadilar va epizodlarni yaratadilar. Mashg‘ulotlarda barcha o‘quvchilar faol qatnashadilar. Muloqotlar sherlar va qo‘shiqlar vositasida amalga oshadi. Bunday darslarga qiziqish keskin ortadi, o‘quvchilar o‘zlari ijod qiladilar, dars o‘tadilar. Mashg‘ulotni o‘tishida barcha o‘quvchilar qatnashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1 Komenskiy Ya.A. Buyuk didaktika. T. 1975. 240 s.

2. Pedagogik izlanish. “Hamkorlik pedagogikasi” T. 1990. 604 sax.

3.Artiqov A. Fizika o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalari, 1-qism, Andijon, 2011,- 48 s.

4.A.Artiqov Aniq fanlarni o‘qitishdagi ayrim metodik muammolar haqida.// Nam.DU Ilmiy axborotnomasi. 2020, №7. s.386-391

C++ DASTUR TILIDA MAKTAB O’QUVCHILARINING GRAFIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

A.A.Vardiyashvili[1]; M.B.Rajabov[2]
Qarshi davlar universiteti[1]; TATU Qarshi filali[2]
rajabovmaxmadiyor@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta’lim maktab o‘quvchilarini grafik tayyorgarligini rivojlantirish uchun fizika darslarida faoliyatning umumlashtirilgan metodlaridan foydalangan holda darslarni tashkil qilishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: metodika, grafik ko‘nikmalar, fizika, umumta’lim maktablari, strategiyalar, tushunish, malaka.

Biz tadqiqotimizda maktab o‘quvchilarining fizikadan grafik tayyorgarligini rivojlantirishda C++ dasturiy vositalaridan foydalanish metodikasini keltirib o‘tamiz.

C++ dasturlash tilida metallar qarshiligining temperaturaga bog‘lanish grafigi

Yarimo‘tkazgich qarshiligining haroratga bog‘liqligini Arrenius tenglamasi[1] yordamida aniqlash mumkin:

$$R = R_0 e^{T_0/T} \quad (2)$$

Bu yerda R – yarimo‘tkazgichning T haroratdagi qarshiligi, R_0 – ma’lum bir haroratdagi qarshilik, T_0 – yarimo‘tkazgichning mos harorat[0].

Germaniyli sof yarimo‘tkazgich uchun ta’qiqlangan zona energiyasi $E_g = 1.063 \cdot 10^{-19}\, J$ ga teng. Bolsman doimiysi- $k = 1.38 \cdot 10^{-23}\, J/K$. Bundan $T_0 = E_g / k = 3855,0725K$ kelib chiqadi.

Keltirilgan kattaliklardan foydalanib qarshilikning temperaturaga bog‘lanish grafigini C++ dasturlash tilida ko‘rsatib o‘tamiz[0].


Dastur kodi quyidagicha kiritiladi:

```
void __fastcall TForm1::OKClick(TObject *Sender)
float t, R, R0, T0;
double x,x1,x2,x0,y0,fx,fy;
R0=StrToFloat(Edit1->Text);
T0=StrToFloat(Edit2->Text);
t=StrToFloat(Edit3->Text);
R=R0*exp(T0/t);
Label1->Caption="R= "+FloatToStr(R)+"  Om";
x0=25;y0=200; x1=15;x2=400;
```

[1] Температурная зависимость сопротивления полупроводника от температуры (burnavod.ru)

```
x=x1; while (x<x2) , t=x;  fx=x0+x;  fy=y0-(200*(T0/x));
PaintBox1->Canvas->Pixels[fx][fy]=clBlue;
x=x+0.001;
```

Kompilyatsiya jarayoni amalga oshirilib, R_0, T_0, T kiritilgandan so‘ng 2.3.5-rasmdagi natija kelib chiqadi.



Xulosa; Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning fizikadan grafik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi takomillashtirildi. Grafik tayyorgarlikni rivojlantirishda MathCAD, C++, MS Excel dasturlaridan foydalani metodikasi ishlab chiqildi. Fizika o’qitishda loyihalash, tadqiqotchilik, SMART, klaster metodlaridan foydalanildi.

ADABIYOTLAR:

1. Абдураҳмонов Қ.П. ва бошқалар. Умумий физикага оид маъруза машғулотларининг вертуал ишланмаси. Т. 2014.

2. Тураев С.Ж. Дастурий воситалар асосида талабаларни касбий фаолиятга тайёрлаш методикасини такомиллаштириш (Дастурий инжиниринг таълим йўналиши мисолида)”// PhD. -13.00.05. Тошкент-2019. -192 б.

ОЛИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ МЕТОДЛАРИ

П.М.Жалолова; А.Сохибов

Шахрисабз давлат педагогика институти


Аннотация: Ушбу мақолада олий таълим тизимида рақамли асосланган таълимни ташкил етиш масалалари, бўлажак таълим мутахассисларининг илмий салоҳиятини ошириш муаммолари, электрон дарсликлар, масофавий очиқ онлайн курслар, бўлажак физика мутахассисларини тайёрлашда ўқув воситаларидан фойдаланишнинг мақбул ечимлари тавсия етилади.

Калит сўзлар: рақамли технологиялар, инновацион усуллар, таълим, электрон дарсликлар, масофавий очиқ онлайн курслар, модул.

Кириш. Атом физикаси курсининг ўқув дастурида маърузалар билан бир қаторда талабалар атом физикаси параметрлари ва квант ҳодисалар муаммоларини ечишни ўрганишлари керак бўлган амалий машғулотлар ҳам мавжуд, уларнинг ечимини таҳлил қилиш, ўз навбатида, квант-механик назарияни илмий англаш ва таҳлил қилиш функциясини кўрсатади.


Илмий тадқиқот методлари. Ҳозирги вақтда Атом физикасини ўқитиш жараёнида фойдаланиш учун махсус ишлаб чиқилган дастурий таъминот мавжуд. Ўқув қўлланмаларида бундай вазифалар кўриб чиқилган бўлиб, уларнинг ечими ана шундай дастурий таъминот ёрдамида амалга оширилади.

Натижалар. Водород атомининг балмер сериясидаги Hα, Hβ ва Hγ спектрларининг тўлқин узунликлари ва Ридберг доимийсини ҳисоблаш.



1-расм. Водород атоми спектрини ўрганувчи виртуал ишланма ҳамда эксперимент асбоблари.

Биз водород атоми орбиталарида электронлар ҳолати ва тўлқин функциясини тасвирлашга имкон берувчи симуляция дастурини кўрайлик.



2-расм. Чекли чуқурликдаги потенциал ўрадаги заррачанинг ҳаракати

Мукхокамалар ва хулоса. Ҳосил қилинган моделда чекли чуқурликдаги потенциал қудуқдаги заррачанинг ҳаракати келтирилган. Аслида тўлқин функцияси математик абстракция бўлса-да, у ўрганилаётган объект ҳақида ишончли маълумотларни ўзида сақлайди. Талаба лабаратория ишининг натижаларига эга бўлиш учун квант сонлар n, l, m ларга қиймат бериб натижа тугмасини босади ва экранда водород атомининг киритилган ҳолати учун графикда электроннинг ядрога нисбатан ҳолат радиуси, булут модели тасвири ва шу ҳолатлар учун тўлқин сони ва энергиясини ҳисоблаш ифодалари орқали натижалар олади.

Адабиётлар

1. Китайгородский М.Д. Методическая система опережающего образования учителя технологии в области современных цифровых технологий . Автореф. дис. д-р. пед наук. – М.;2020. – 25 с.,

2. Callejo S. What connectivism is. Retrieved May 4, 2015 from Half and hour: http://halfanhour.blogspot.com/2020/02/what-connectivism-is.html Freire, La J. Educación encierra un tesoro. Madrid: Santillana. Downes, S. (2007).

3. Lane A. (2022). A review of the role of national pilicy and institutional mission in European Distance Teaching Universities with respect to widening participation in higher education study through open educational resources. Distance Education , 33 (2).

4. Marta Ruiz-Corbella. Philosophy of Education and Education in Competences in the context of the European Higher Education Area // Philosophy of Education, 2021.

ТАЛИМ ЖАРАЁНИДА ДАСТУРИЙ ВОСИТАЛАРНИ ҚЎЛЛАШ

П.М.Жалолова

Шахрисабз давлат педагогика институти

Аннотация: Ушбу мақолада олий таълим тизимида дастурий воситалар асосида лаборатория машғулотларини ташкил этиш масалалари, бўлажак таълим мутахассисларининг илмий салоҳиятини ошириш муаммолари, электрон дарсликлар, масофавий очиқ онлайн курслар, бўлажак физика мутахассисларини тайёрлашда ўқув воситаларидан фойдаланишнинг мақбул ечимлари тавсия етилади.

Калит сўзлар: рақамли технологиялар, инновацион усуллар, таълим, электрон дарсликлар, масофавий очиқ онлайн курслар, модул.

Кириш. Ҳозирги замон табиий фанларини ривожланишида квант физика катта аҳамиятга эга. Квант физика ҳозирги вақтда фақат (назарий) фангина бўлиб қолмасдан, балки том маънода техника фани ҳамдир. Жуда кўплаб системалар квант эффектлари асосида ишлайди. Масалан, лазерлар, микросхемалар ва ҳоказолар.

Илмий тадқиқот методлари. Ушбу ёндашув, бир томондан, анъанавий методологияда белгиланган вазифаларни, қоида тариқасида, самарали тарзда кўриб чиқишга имкон беради. Бошқа томондан, бу атомлар структурасининг квант механик қонуниятларини ғайриоддий кўринишини графикда тасвирлаб тушунтиришга имкон беради.

Натижалар. “Атом физикаси” бўлимига оид талабаларнинг ўзлаштирган билимлари, эгаллаган касбий компетенциялари ҳамда касбий фаолиятга тайёргарлигининг ривожланганлик даражаларини аниқлашда когнитив, мотивацион, фаолиятли ва рефлексив мезонларини ишлаб чиқиш ҳамда ўзлаштириш кўрсаткичларини дисперцион ва самарадорлик кўрсаткичларини аниқлаштиришда автоматлаштирилган рақамли технологияларни таълим амалиётига жорий этиш муҳим. Қуйида 1-расмда ОТМ ларда лаборатория машғулотлари учун зарурий моддий техник базанинг ўрни ва аҳамияти схема кўринишида келтирилган.



1-расм. Лаборатория машғулотлари учун зарурий моддий техник базанинг ўрни ва аҳамияти

Мукхокамалар ва хулоса. Атом физикасини ўрганаётганда симуляция дастурларидан фойдаланиш орқали талабаларни экспериментга йўналтириш ва экспериментал тажрибаларни ўтқазиш мақсадга мувофиқдир.

АДАБИЁТЛАР

1.Китайгородский М.Д. Методическая система опережающего образования учителя технологии в области современных цифровых технологий . Автореф. дис. д-р. пед наук. – М.;2020. – 25 с.,

2.Callejo S. What connectivism is. Retrieved May 4, 2015 from Half and hour: http://halfanhour.blogspot.com/2020/02/what-connectivism-is.html Freire,

3.La J. Educación encierra un tesoro. Madrid: Santillana. Downes, S. (2007).

O‘ZGARMAS TOK QONUNLARINI O‘RGANISHDA INTERFAOL USULLARNING ROLI

N.J.Najmatdinova
Nukus davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Maqolada maktab fizika dasturining bir qismi bo‘lgan o‘zgarmas tokni o‘rganishda interfaol o‘qitish usullaridan bosqichma-bosqich foydalanish usuli ko‘rib chiqilgan. Taklif etilayotgan metodlar muallifi guruhli loyihalar, virtual simulyatsiyalar, o‘yinli metodikalar, munozara va bahs-munozaralar, muammoli o‘qitish va aqliy hujum kabi metodlarni taklif etadi. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarga tanqidiy fikrlash va ilmiy yondashuvni rivojlantirish, ularni yaxshiroq o‘zlashtirish va amaliyotda qo‘llash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: doimiy tok qonunlari, interfaol metodlar, guruhli loyihalar, virtual simulyatsiyalar, o‘yinli ta’lim, muammoli ta’lim, tanqidiy fikrlash.

O‘zgarmas tok qonunlarini o‘rganish maktab fizika dasturining ajralmas qismidir. Bu qonunlar elektrotexnika va elektronikaning asosini tashkil etadi va ularni tushunish nafaqat bo‘lajak muhandislar uchun, balki atrof-muhitni yaxshiroq tushunishni istagan har qanday inson uchun ham muhimdir. Zamonaviy jamiyatimizda eng oddiy maishiy asboblardan tortib murakkab kompyuter tizimlarigacha elektr energiyasi asosiy rol o‘ynaydi, shuning uchun maktab o‘quvchilarida doimiy tok qonunlari bilan tanishish asoslarni shakllantirish uchun zarurdir.

Elektr tokini o‘rganishni zanjirdagi elektr tokining o‘zini tutishini ko‘rsatuvchi oddiy tajribalardan boshlash mumkin. Bunday tajribalar o‘quvchilarga fizika qonunlarining amalda qanday amal qilishini ko‘rishga yordam beradi, shuningdek, ularda fanga bo‘lgan qiziqishni shakllantiradi. Biroq, faqat amaliy qismning o‘zi yetarli emas; o‘quvchilar u yoki bu qonunlarning nafaqat "qanday," balki "nima uchun" ishlashini tushunishlari uchun nazariy jihatlarga ham e’tibor qaratish muhimdir.

Bu ishda biz o‘zgarmas tok qonunlarini o‘qitishga yondashuvlarni ko‘rib chiqamiz va interfaol metodlarni muhokama qilamiz.

Demak, interfaol ta’lim - bu, eng avvalo, dialogli ta’lim bo‘lib, uning davomida o‘qituvchi va ta’lim oluvchining o‘zaro ta’siri amalga oshiriladi. Ta’lim jarayoni barcha o‘quvchilarning doimiy, faol o‘zaro ta’siri sharoitida amalga oshiriladi [1-2].

Dasta samarali foydalanish mumkin bo‘lgan bir nechta interfaol usullarni ko‘rib chiqamiz.

*Guruhli loyihalar***.** Guruh loyihalari o‘quvchilarga umumiy vazifalar ustida jamoa bo‘lib ishlash imkonini beradi. Bu fikr almashish, muhokama qilish va muammolarni birgalikda hal qilish uchun sharoit yaratadi.

Virtual simulyatsiyalar. O‘quvchilar turli xil elektr zanjirlari bilan tajriba o‘tkazishi mumkin bo‘lgan virtual laboratoriyalarni yaratish uchun dasturiy ta’minot va onlayn platformalardan foydalanish.

O‘yin uslublari. O‘yin yondashuvlari ta’lim uchun o‘yin elementlaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bu ham stol o‘yinlarini, ham raqamli ilovalarni yaratish bo‘lishi mumkin.

Muhokama va munozaralar. Elektr energiyasi va uning kundalik hayotda qo‘llanilishi bilan bog‘liq mavzularda muhokama va munozaralar o‘tkazish.

Muammoga yo‘naltirilgan ta’lim. Ushbu metod dars mavzusi bilan bog‘liq real muammolarni hal qilishga e’tibor qaratadi.

Aqliy hujum. Aqliy hujum - bu tanqid va baholarsiz g‘oyalarning erkin ifodalanishini rag‘batlantiruvchi usul.

Xulosa qilib aytganda, o‘zgarmas tok qonunlarini o‘qitish ta’lim jarayonining muhim qismi bo‘lib, u nafaqat texnik ko‘nikmalarni rivojlantiradi, balki o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni ham shakllantiradi. O‘zgarmas tok qonunlari murakkabroq elektr va fizik tushunchalarni tushunish uchun asos bo‘lib, ularni o‘zlashtirish o‘quvchilarga elektr zanjirlarining xatti-harakatlarini tushuntirish va bashorat qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, o‘zgarmas tok qonunlarini o‘rganish nafaqat maktab dasturining zaruriyati, balki elektr taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bo‘lgan zamonaviy dunyoni chuqurroq tushunish yo‘lidagi qadamdir. Umid qilamizki, taklif etilgan usullar va misollar o‘qituvchilar uchun foydali bo‘lib, ularni fizikadan qiziqarli va samarali darslar yaratishga ilhomlantiradi.

ADABIYOTLAR

1. Усмонов З.Т. Применение интерактивных методов на уроках физики// Современные инновации, 2018, № 5 (27), стр. 44-45.

2. Бредгауэр В. А. Интерактивные технологии обучения на уроках физики //Проблемы и перспективы физико-математического и технического образования. – 2015. – С. 26-29.

FIZIKA TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

K.S.O’rinboyeva
Andijon davlat pedagogika instituti
orinboyevakumushoy@gmail.com

Annotatsiya:Fizika o’qitish hozirgi kunda rivojlanib borayotgan sohalarning asosi hisoblanadi. Shu sababdan fizika fanini chuqurroq o’rganish juda muhim.Ushbu maqolada Fizika ta’lim yo’nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi bo’yicha fikr-mulohazalar berilgan.

Kalit so’zlar: Kompetensiya,jamiyat,muammo va yechim, tanqidiy fikrlash.

Kirish. Fizika ta’limi, zamonaviy jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda, talaba yoshlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish — bilimlar, ko‘nikmalar va kompetensiyalarini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Kasbiy kompetentlik, oliy ta’lim muassasalarida olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada fizika ta’limida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning asosiy usullari va metodikalari tahlil qilinadi.

Metodologiya.

I. Kasbiy kompetentlikning tushunchasi

Kasbiy kompetentlik, biror sohada faoliyat olib borish uchun zarur bo‘lgan bilimlar, ko‘nikmalar va qobiliyatlarning majmuasidir. Fizika ta’lim yo‘nalishida ijodiy va tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyati, innovasion g‘oyalarni ko‘rsatish va tadqiqot faoliyatini olib borish muhim o‘rin tutadi. Oliy ta’lim muassasalarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uchun aniq metodikalar, dasturlar va ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi zarur.[1]

II. Fizika ta’limda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodikalari.

1. Interaktiv usullarni qo‘llash: Fizika ta’limini tadqiqotga asoslangan o‘qish, virtual laboratoriyalar, muhokamalar va texnikalari talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.[2] Ushbu usullar talabalarni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilishga yordam beradi.

2. Laboratoriya ishlar: Laboratoriya mashg‘ulotlari talabalarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Fizika ta’lim jarayonida laboratoriya ishlar ko‘pincha mavjud nazariy fanlarni amaliy va tushunarli qilish uchun tadqiq qilinadi. Talabalar laboratoriyada o‘rganilgan nazariy bilimlarni amalga oshirish imkoniga ega bo‘ladi.

3. Gruppada ishlash: Gruppada ishlash, talaba va mualliflarning o‘zaro tajribasi va bilimlarini birlashtirishga yordam beradi. Talabalarning ijodiy faoliyatlari va

boshqa o‘quvchilar bilan munosabatlari uning kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.[2,3]

4. Fizika ta’limda zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi: Modern texnologiyalar (internet, elektron kitoblar, interaktiv doskalar) fizika ta’lim jarayonida bilimlarni taqdim etish va olish uchun yordam beradi. Ushbu texnologiyalar talabalarning faolligini oshirish va mustaqil ta’limni rag‘batlantirish uchun muhimdir.

Tadqiqotning ahamiyati. Tadqiqotlarori fizika ta’lim jarayonini takomillashtirish va talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun zarur ahamiyatga ega. Tadqiqotlar natijalari asosida aniq metodikalar va dasturlar ishlab chiqiladi. Talabalarning kasbiy kompetentligi har yili bo‘lib o‘tadigan to‘planishlar, seminarlar va master-klasslarda amaliy tarzda tekshiriladi.

Xulosa. Fizika ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, zamonaviy ta’lim metodlari, interaktiv usullar va zamonaviy texnologiyalarni aniq ravishda qayd etishni talab etadi. Talabalarning faol ishtirokini ta’minlash, o‘o‘rganilgan bilimlarni amalga oshirish va muammolarni hal qilishga imkoniyat yaratish, fizika ta’limining samaradorligini ko‘paytirishda asosiy omil hisoblanadi. Bundan tashqari, talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun o‘quv dasturlarini takomillashtirish va yangilash doimiy ravishda amalga oshirilishi kerak. Fizika ta’limoti ichida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish nafaqat bilim berish, balki iqtidorni, kreativlikni ham rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun oliy ta’lim muassasalarining hamkorlikda harakat qilishlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Seymour, E. & Hunter, A. (2007). Concepts of Biology. McGraw-Hill Education
2. Belousov, A. V. (2013). The Professional Competence of Future Specialists in Physical Education. International Journal of Academic Research, 5(6), 110-112.
3. Taba, H. (1962). Curriculum Development: Theory and Practice. Harcourt Brace Jovanovich.

FIZIKA O‘QITISHDA ONLINE PLATFORMALARDAN FOYDALANISH.

M.A.Muydinova; G.J.Mamatova
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Yarimo‘tkazgichli moddalarni optik va fotoelektrik xususiyatlarini o‘rganish fanning asosini tashkil qiladi. Bu fanni o‘qitish jarayonida online dasturlardan va platformalardan foydalanish o‘quv samaradorligini yana xam oshirish bilan birga talabalar tasavvurini yana xam kengaytiradi.

Kalit so‘zlar. PV Light house, amorf kremniy, quyosh elementlari.

Xozirgi zamon texnologiyalari kundan kunga yangilanib borayotgan bir paytda yarimo‘tkazgichlar fizikasining o‘rni beqiyosdir. Yarimo‘tkazgichli moddalarni optik va fotoelektrik xususiyatlarini o‘rganish fanning asosini tashkil qiladi. Bu fanni o‘qitish jarayonida online dasturlardan va platformalardan foydalanish o‘quv samaradorligini yana xam oshirish bilan birga talabalar tasavvurini yana xam kengaytiradi. Laboratoriya ishlarida online platformalardan foydalanishning yana bir afzalligi talabalardan dasturlash tillaridan maxsus bilimlarni talab qilmasligi va ularda qisqa fursat ichida aniq natijalar olishga imkon berishdir. Shu bilan birga laboratoriya o‘tkazish uchun moddalar talab qilinmasligi xam axamiyatga molikdir.

“PVLighthouse” veb ilovasi 2011 yil iyun oyida ishga tushirilgan bo‘lib, hozirgi kunda u Kit Makintosh (Keith McIntosh), Malkolm Ebbott (Malcolm Abbott), Ben Sadberi (Ben Sudbury) va boshqa bir qancha fotoelektronika sanoati bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar tomonidan kengaytirib borilmoqda. Tizimning hozirgi kundagi foydalanuvchilari soni keskin ortib bormoqda va unga murojaatlar soni bir oyda 10000 dan ortib ketmoqda.

Mazkur tizim onlayn asosda ishlaydi va dastur yordamida bir qancha tadqiqot ishlarni amalga oshirish mumkin. Jumladan, quyosh elementlarini yaratishda tanlab olinadigan materiallar parametrlarni kiritib, ularni nazariy taxlil qilish mumkin. Buning uchun mazkur tizimning asosiy oynasidan *“CALCULATORS”* menyusi tanlanadi. Ochilgan menyudan *“WAFERS”* bo‘limiga kiriladi. Bu bo‘limda *“Wafer Dimensions”* va *“Wafer ray tracer”* buyruqlari mavjud bo‘lib, ulardan *“Wafer ray tracer”*ni tanlanadi. Bu bo‘lim yordamida quyosh elementlarining yoki ular uchun tanlangan bazaviy materialning optik faktorlari – yutilish, qaytish va o‘tish parametrlari o‘rganiladi. Muhim tomoni shundan iboratki, bazaviy material sifatida bir necha qalinliklardagi va bir necha turdagi kremniyni tanlash mumkin bo‘ladi.

Yarimo‘tkazgichlar fizikasini o‘qitishda online platformalardan foydalanish o‘qitish samaradorligini oshiribgina qolmay, talabalarda olgan nazariy bilimlarini amaliy qo‘llash imkoniyatini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. A. Jäger-Waldau, “Snapshot of Photovoltaics—February 2019,” *Energies 2019, Vol. 12, Page 769*, vol. 12, no. 5, p. 769, Feb. 2019, doi: 10.3390/EN12050769.
2. P. Fath, S. Keller, P. Winter, W. Jooß, and W. Herbst, “Status and perspective of crystalline silicon solar cell production,” *Conference Record of the IEEE Photovoltaic Specialists Conference*, pp. 002471–002476, 2009, doi: 10.1109/PVSC.2009.5411274.
3. A. Blakers, N. Zin, K. R. McIntosh, and K. Fong, “High Efficiency Silicon Solar Cells,” *Energy Procedia*, vol. 33, pp. 1–10, Jan. 2013, doi: 10.1016/J.EGYPRO.2013.05.033.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDAGI FIZIKA DARSLARIDA O’QUVCHILARNI KASBGA YO’NALTIRISH

Y.B.Kosimova

A.Qodiriy nomidagi Jizzah davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola ta’lim jarayonida o’quvchilarni kasb-hunarga qiziqtirish, ularni aniq maqsadli kasbga yo’naltirishga bag’ishlangan. O’quvchilar umumta’lim maktablarida ta’lim olish bilan birga kelajakda o’zlari uchun aniq bir maqsadni oldilariga qo’yishda ikkilanmaydilar.

Kalit so’zlar: ta’lim, kasb, mehnat tarbiyasi, dars-konferensiyalar, ekskursiya, tabiat.

Respublikamizda ta’lim tizimining istiqbollari ko’p jihatdan fan-texnika taraqqiyotining rivojiga bog’liq. Fizika ta’limini takomillashtirish asosida o’quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, uni barkamol shaxs etib tarbiyalash bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimi muassasalari oldidagi asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Mehnat tarbiyasi vazifasini hal etishda ma’lum darajada fan o’qituvchisi ham ishtirok etadi, chunki u o’quvchilarga asosiy o’quv materialini chuqur va mustaqil o’zlashtirib olishlariga va olgan bilimlarini amaliy masalalarga qo’llashga o’rgatish bilan birga, ishlab chiqarish sohalariga qiziqtira olishga undaydi.

O’qituvchilarning o’z o’quvchilarini mehnat tarbiyasiga yo’naltirishdan asosiy maqsad – bu o’quvchilarda mehnatsevarlikni, tabiatga munosabatni, kasbning bebaholigini o’rgatishdan iborat. O’quvchilar bularni tushunib olishgandagina tanlagan kasbga bo’lgan qiziqishlarini to’g’ri baholay oladilar.

Fizika o’qituvchisi dars jarayonida faqat fan asoslarini o’rgatish bilan cheklanib qolmay, balki o’quvchilarning mehnat tayyorgarligini ham tashkil etish muhim hisoblanadi. Shundagina o’qituvchi o’z fani orqali o’quvchilarni ta’lim va tarbiyaga birdek yo’naltirgan hisoblanadi. O’quv ma’lumotlarini qabul qilish xarakteri o’quvchida mavjud bo’lgan bilimlarga, uning hayotiy bilish darajasi, aqliy mehnat madaniyati va o’rgatish usullariga bog’liq. Bularning barchasi o’qitish jarayonida shakllanadi.

O’qituvchi mehnat tarbiyasi va kasbga yo’naltirish vazifalarini hal etish uchun o’quvchilarga faqatgina o’z faoliyatlari hamda usullarini aniqlash maqsadidagina fanni o’rgatib qo’ya qolmasdan, ularga o’z mehnatlarini to’g’ri baholay olishni ham o’rgatishi zarur. O’quv faoliyati jarayonida o’quvchilarda o’ziga-o’zi baho berish qobiliyatining shakllanishi, bajargan ishining faqat sifat tomonigina emas, balki uning ishga munosabati ham hisobga olinishida muhim ahamiyatga ega. Faqat har ikki tomonlama birlashishi mehnat tarbiyasining malga oshishiga, avvalo shaxsiy qobiliyatni hisobga olgan holda kasbni to’g’ri tanlashga yordam beradigan o’quvchi shaxsiga samarali pedagogik ta’sir ko’rsatadi. Shu maqsadda, o’quvchiga o’z mehnatini to’g’ri baholashni o’rgatishga yordam berib, o’qituvchi darsda o’quvchiga qo’yayotgan bahosini izohlab berishi kerak.

Kasbga tayyorlashda texnik mazmuli ijodiy masalalarni yechish, ilmiy tadqiqot xarakteridagi frontal tajribalar va laboratoriya ishlarini o’tkazish, kasb tanlash mazmunidagi ko’rgazmali qo’llanmalarni tayyorlash kabilardan keng foydalaniladi.Fizika darslarida o’quvchilarda turli amaliy vazifalarni bajarishga ijodiy munosabatlar vujudga kelgan holdagina ularni kasb tanlashga yo’naltirishni amalga oshirish samarali bo’ladi.

Kasb tanlashga yo’naltirish maqsadida o’quvchilar uchun dars-konferensiyalari tashkil qilinishi katta samara beradi. Bunday konferensiyalarni tashkil qilish uchun o’quv materialini mustahkamlashda o’quvchilar fizika kursining mavzularini o’rganish bo’yicha natijaviy ish sifatida o’tkazish ko’zda tutilishi lozim. Dars-konferensiyalari o’tilishining maqsadi u yoki bu kasbni o’ziga xos tomonlarini ko’rsatib berish bilan qo’shib olib boriladi.

Konferensiya o’tkazish uchun o’qituvchi konferensiyaning mavzusini belgilaydi va uning o’tkazilish tartibi bilan o’quvchilarni tanishtirib chiqadi. Bulardan tashqari, o’quvchilarni kasb tanlashga yo’naltirishda fizikadagi o’quv mashg’ulotining yana bir shakli o’quv ekskursiyalarining o’rni ham beqiyosdir, sababi o’quvchilar zavod, fabrika va turli ish joylariga ekskursiya uyushtirganlarida turli kasbdagi kishilar ishini bevosita o’rganish va kuzatish imkoniga ega bo’ladilar.

Ishlab chiqarish ekskursiyalari muhim ahamiyatga ega. Ular fizik hodisalarning o’zaro bog’liqligini, hayotda, ishlab chiqarishdagi ahamiyatini bilishga imkon tug’diradi. Ekskursiyalarning kasb tanlashni amalga oshirishga bag’ishlanishi olinadigan bilimlarga o’quvchilarni maksimal darajada faol munosabatda bo’lishiga undaydigan hamda ularda aqliy faoliyat usullarini shakllantiradigan metodlarni qidirishni ko’zlaydi, shu bilan birga o’quvchilarda kasbga bo’lgan qiziqishlarini o’stiradi.

Demak, fizika o’qituvchisi olib borayotgan har bir mashg’ulotida o’quvchilarning ruhiyatini, uning tarbiyaviy tomonlarini e’tiborga olishi kerak. O’quvchilarning mehnat tarbiyasini shakllantirish borasida o’qituvchi hayotiy vositalardan, kashfiyotlardan unumli foydalanishi lozim.

Kasbning mohiyati, uning ahamiyatini o’quvchilar ongiga singdira olish qobiliyati orqali mashg’ulotini unumli tashkil eta olishi lozim.

ADABIYOTLAR:

1. O’.Yo’ldoshev. Pedagogika o’qitish metodikasi. T.: “Fan va texnologiya”, 2015 y.
2. X.Inatov. Fizika o’qitish metodikasi. T.: “Tafakkur”, 2010 y.
3. M.Djorayev, B.Sattarova. Fizika va astronomiya o’qitish nazariyasi va metodikasi. T.2015 y.

O‘QUVCHILARDA TAYANCH VA FANGA OID AMALIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sh.Sh.Isroilov
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Fizika o`qitishning samaradorligini oshirish hozirgi kunning dolzarb muammosi bo‘lib kelmoqda. Maqolada tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo ekanligi, “kompetensiya”, “kompetentlilik” tushunchalari, ularning tarkibi, mazkur tushunchalarga nisbatan turli-tuman yondashuvlar, tavsiflab berilgan.

Kalit so‘zlar: amaliy kompetensiya, kognitivlik, shaxs taraqqiyoti, ta’lim jarayoni, bilim, ko‘nikma, malaka, hayotiy kompetensiya, fanga oid kompetensiya.

Shaxsni ijtimoiylashtirish masalasi bugungi kunda nafaqat pedagoglar, balki faylasuflar, sotsiologlar, psixologlarning ham e’tiborini o‘ziga tortmoqda. Ko‘plab yondashuvlar va ta’limotlarni tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta’minlash uchun unda birinchi navbatda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish talab etilmoqda. Tayanch kompetensiyalar shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta’minlab, uning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlaydi. Shaxsning tayanch kompetensiyalarni o‘zlashtirish asosida muvaffaqiyatli shakllanishi uning jamiyat madaniy ma’rifiy hayotida faol ishtirok etishiga yo‘l ochadi. Jamiyatning o‘zi shaxsni ijtimoiylashtiruvchi asosiy sub’ekt hisoblanadi. U har bir shaxsni o‘z qiyofasiga moslashtirish imkoniyatiga ega. Shu bilan bir qatorda jamiyat shaxsning ijtimoiylashuviga ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni jamiyatga integratsiyalash amalga oshadi. Shunga ko‘ra, shaxs jamiyatda faoliyat ko‘rsatishi uchun tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim. Har bir shaxs muloqot jarayonida o‘zi uchun ahamiyatli bo‘lgan qadriyatlarni o‘zlashtiradi.

Tayanch kompetensiyalar o‘quvchilarning motivlar tizimi va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Kompetentlik tushunchasi so‘nggi yillarda asosan kasbiy ta’lim sohasidagi tadqiqotlarda keng qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, S.T.Turg‘unov, M.B.Ma’murov, O‘.Q.Tolipov, Sh.Q.Mardonov, G.T.Boymurodova, G.N.Ibragimovalarning ishlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasiga kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etishning ayrim masalalari tadqiq etilgan.

Kompetentli yondashuvning tayanch darajalari ta’limning bevosita maqsadga yo‘naltirilganligida namoyon bo‘ladi. Kompetensiyada o‘quvchilarning yuqori darajada umumlashgan ko‘nikma va malakalari

mujassamlashadi. Ta’lim mazmuni esa to‘rt komponentli model orqali oydinlashadi. Ular: bilimlar, ko‘nikmalar, ijodiy faoliyat tajribasi va qadriyatli munosabat tajribasidan iborat. Tayanch kompetensiyalar yordamida o‘quvchilar o‘zlari mansub bo‘lgan jamiyatdagi odob me’yorlari, madaniyatga oid bilimlar va qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy bilimlarni o‘zlashtiradilar. Ular o‘zlari uchun ahamiyatli bo‘lgan insonlar ya’ni o‘qituvchilari, ota-onalari, tengdoshlari bilan muloqot jarayonida muayyan qadriyatlar va madaniy-ma’rifiy yondashuvlarni egallaydilar.

Tayanch kompetensiyalarni shakllantirish natijasida ijtimoiylashgan shaxs atrof-muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsata oladi, o‘z faoliyatining ijtimoiy mohiyatini anglaydi va jamiyat madaniy-ma’naviy hayotini rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Ijtimoiylashish insonning shaxslararo munosabatlar, madaniyat olamiga kirishishini anglatadi. Bunda unga tayanch kompetensiyalar ko‘maklashadi. Tayanch kompetensiyalar o‘quvchilarga faoliyatning turli bosqichlarida o‘quv jarayonida ijtimoiy madaniy me’yorlar, hayot uchun zarur bilimlarni integratsiyalashtirgan holda o‘zlashtirish natijasida hosil bo‘ladi. Tayanch kompetensiyalar shaxslararo va shaxsning ichki munosabatlari, nuqtai nazarlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu o‘z navbatida, tayanch kompetensiyalarning shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishi, kommunikativ munosabatlarga kirishishi, umummadaniy tajribalarni o‘zlashtirishiga ko‘maklashadi. Tayanch kompetensiyalar o‘quv jarayonining natijasi va o‘quvchilarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta’minlovchi pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarda tayanch kompetensiyalar qanchalik samarali shakllangan bo‘lsa, ularning ijtimoiylashuvi shu qadar jadal kechadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Xabibullayev P.K., Boydadaev A., Baxromov A., Suyarov K., Usarov J., Yuldasheva M. Fizika. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari uchun darslik. Toshkent. «G‘ofur G‘ulom nashriyoti» .2019-y.
2. To Increase Students' Interest In Physics By Using Modern Equipment And Laboratory Work 2023, 13-17.
3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Fan, 2006.

РОЛЬ НАУЧНЫХ СООБЩЕСТВ В ОБРАЗОВАНИИ

С.У.Аширбекова

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

Аннотация: В статье рассматривается роль научных сообществ в образовательном процессе. Описаны функции научных сообществ, такие как поддержка научных исследований, интеграция научных знаний в учебные программы, а также формирование научного мировоззрения. Научные сообщества способствуют распространению новых знаний и развитию академической культуры, обеспечивая связь между наукой и образованием, что существенно повышает качество подготовки студентов для будущей деятельности.

Ключевые слова: научные сообщества, образование, научные исследования, интеграция науки, академическая культура, распространение знаний, подготовка студентов.

Научное сообщество – это группа ученых, исследователей и специалистов, объединенных общими научными интересами, целями и задачами. Оно представляет собой структурированную сеть профессиональных связей, которая способствует обмену знаниями, идеями, методами и результатами научной деятельности. Научные сообщества играют важную роль в развитии науки, формировании новых знаний, а также в поддержке и распространении научных норм и ценностей, что является целью образовательной системы.

Научное сообщество можно определить, как организованную группу людей, занимающихся научными исследованиями в одной или нескольких взаимосвязанных областях знаний. В рамках этой группы происходит постоянное взаимодействие участников, направленное на решение актуальных научных проблем, распространение новых знаний, а также на поддержку и развитие академической культуры. Научные сообщества могут быть формальными или неформальными. Формальные научные сообщества включают в себя академические институты, научные общества, ассоциации, университеты и исследовательские центры. Неформальные сообщества возникают на основе личных или профессиональных связей и часто функционируют в рамках проектов, временных рабочих групп или междисциплинарных инициатив.

- Члены научных сообществ активно участвуют в формировании у молодежи научного мировоззрения, что происходит через преподавание, участие в научных проектах, совместные исследования и публикации. В процессе обучения студенты перенимают научные нормы, ценности и методы работы, что способствует их становлению как ученых.
- Научные сообщества обеспечивают поддержку и развитие научных исследований в вузах и исследовательских центрах, что включает организацию научных конференций, семинаров, круглых столов, а также предоставление грантов и других форм финансирования исследований.
- Научные сообщества активно участвуют в интеграции научных исследований и образовательного процесса. Это проявляется в обновлении учебных программ, включении результатов новейших исследований в учебные курсы, а также в привлечении студентов к научной деятельности. Такая интеграция способствует повышению качества образования и подготовке студентов к научной работе.

- Научные сообщества играют ключевую роль в распространении научных знаний и достижений. Это включает публикацию научных статей, участие в конференциях, а также использование цифровых медиа и социальных сетей для популяризации науки. В образовательной среде это способствует повышению уровня научной грамотности студентов и общества в целом.

Таким образом, научные сообщества играют ключевую роль в образовательной среде, обеспечивая связь между наукой и образованием, поддерживая научные исследования и способствуя формированию новых поколений ученых. Их деятельность направлена на развитие науки, распространение знаний и поддержание академической культуры, что делает их неотъемлемой частью современного образовательного процесса.

ЛИТЕРАТУРА

1. Денисов С.Ф., Денисова Л.В. "Научное сообщество и его формы (часть 2)" Научный вестник Омской академии МВД России, no. 3, 2007, pp. 39-46.
2. Голавская Н.И. "НАУЧНОЕ ОБЩЕСТВО УЧАЩИХСЯ КАК ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ ФОРМА ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ" Исследователь/Researcher, no. 3-4, 2009, pp. 227-231.

FIZIKANI O’QITISHDA O’QUVCHILARDA ENERGIYA TEJAMKORLIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHNING AXAMIYATI

M.Q.Muxsinova
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu tezisda tabiiy fanlarni o’qitish metodikasini yaratishda xalqaro ekspertlar va mamlakatimiz pedagogik olimlari, psixologlar, metodistlar, boshlang’ich sinf o’qituvchilari tomonidan kichik yoshdagi o’quvchilarda ilmiy savodxonlik va amaliy kom’entetsiyalarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari o’rganilgan.

Kalit so‘zlar: tabiiy fanlar, ekologik ta’lim-tarbiya, energiya tejamkorlik, ekologik ta’lim, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ekologik xavfsizlik

- Define *the content of the components of a multimedia application* : determine what content on the topic is presented in the form of animation, video, text, graphics, etc. A beautifully designed multimedia application with animation elements, tables and diagrams, accessible animation elements and sound accompaniment facilitates the perception of the material being studied, contributes to its understanding and memorization, increases the student's activity in studying subjects, provides a clearer and more complete understanding of the material being studied [5]. The set of tools that make up multimedia technology provides a new level of quality for extracting information learned by students, where the student is not only passively interested in it, but also actively participates in it.

Multimedia electronic educational resources are created on the basis of multimedia technologies, and researchers expressed their opinion on the effectiveness of their use [7].

CONCLUSION. Stimulants and e-textbooks are now widely used in education. Testing systems are used to check and evaluate students' practical and theoretical knowledge using special programs. Internet distance learning portal is a special Internet sites (online resources). The main task of these sites is to organize the educational process or to establish electronic online communication between student and teacher, to include in the site teaching materials for teachers, to provide students with this to work on data and to use other distance learning services. Multimedia tools are a set of hardware and software that allows a person to communicate with a computer using a variety of environments that are natural to him: sound, video, graphics, text, animation, and more.

REFERENCES

1. Ertmer, P. A. Teacher pedagogical beliefs: The final frontier on our quest for technology integration? Educational Technology Research and Development, (2005). 35,(4), 25.
2. Davis, F. D., Bagozzi, R. P., & Warshaw, P. R. User Acceptance of Computer Technology: A Comparison of Two Theoretical Models. Management Science, 35, 982-1003.1989
3. Dehqonova, O., & Taylanov, N. (2022). Extracurricular activities and their types in high schools. Физико-технологического образование, (2).
4. Dehqonova, O., & Taylanov, N. (2022). The application of electronic multimedia resources for students in physics learning. Физико-технологического образование, (2).
5. Dehqonova, O., Qurbonov, M., & Taylanov, N. (2022). The mathematics concepts in physics training in secondary schools. Физико-технологического образование, (2).
6. Dehqonova, O., & Taylanov, N. (2022). Experimental methodology on the basics of multimedia in a school physics course. Физико-технологического образование, (2).
7. Dehqonova, O., & Taylanov, N. (2022). Innovations of computer science in the high educational system. Физико-технологического образование, (2).

FIZIK JARAYONLARDA RIMAN-MELLIN FORMULASI VA TASVIRLARNI KO'PAYTIRISH TEOREMALARINI TADBIQLARI.

R.A.Sobitov; O.O.Alixanov; H.R.Erkinov
Namangan Davlat Universiteti

Abstract. In the field of physics, the processes of analyzing images and finding their originals are of great importance. These processes are used to analyze data through images and draw new conclusions from them. The Riemann-Mellin formula and the theories of image convolution provide effective methods for solving these issues.

Kalit so’zlar: Tasvir, Original, Riman-Mellin formulasi, Transformatsiya, Signal, Chastota, Nyquist-Shannon teoremasi, Parseval teoremasi, Spektral tahlil.

Fizika sohasida tasvirlarni tahlil qilish va ularning originalini topish jarayonlari muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonlar, tasvirlar orqali ma'lumotlarni tahlil qilish va ulardan yangi xulosalar chiqarishda ishlatiladi. Riman-Mellin formulasi va tasvirlarni ko'paytirish teoremalari, bu masalalarni hal qilishda samarali usullarni taqdim etadi.[1]

Riman-Mellin formulasi. Riman-Mellin formulasi matematik analizning muhim qismidir. U asosan integral transformatsiyalar orqali funktsiyalarni o'rganish uchun qo'llaniladi. Riman-Mellin transformasi quyidagi ko'rinishda ta'riflanadi:

$$M(f(s)) = \int_0^\infty f(x)x^{s-1}dx$$

Bu transformatsiya, funktsiyaning xossalarini tahlil qilish va ko'paytirish jarayonlarini qulaylashtiradi. Fizik tomondan, bu formulalar ko'pincha tasvirlarning spektral tahlilida, signal va energiya taqsimotini aniqlashda qo'llaniladi.

Tasvir bo'yicha originalini topish. Fizikada tasvir bo'yicha originalini topish jarayoni, asosan, signalni qayta ishlash, energiya taqsimoti va boshqa fizik o'zgarishlarni tahlil qilish bilan bog'liq. Riman-Mellin transformasi yordamida, tasvirlar transformatsiyalanadi va ularning originali qiyosiy ravishda tiklanishi mumkin.[2-3]

Transformatsiya jarayoni. Tasvirlar, odatda, ma'lum xususiyatlarga ega funktsiyalar sifatida ko'rib chiqiladi. Riman-Mellin formulasi yordamida, tasvirlar spektral ko'rinishda o'rganilishi va energiya taqsimotini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Bu jarayon, masalan, fizik hodisalarning modelini yaratish va ularni tahlil qilishda qo'llaniladi.

Tasvirlarni ko'paytirish teoremalari. Tasvirlarni ko'paytirish teoremalari fizikada analitik tahlilni kuchaytirishga yordam beradi. Ular, odatda,

fizik tizimlarning dinamikasini tahlil qilishda qo'llaniladi. Quyidagi teoremalardan ba'zilari fizik tadqiqotlarda keng qo'llaniladi:

- **Nyquist-Shannon Teoremasi:** Bu teorema, signalning original shaklini tiklash uchun uning namunalanish tezligi muhimligini ta'kidlaydi. Signalning to'liq tasvirini olish uchun, uning maksimal chastotasi ikki marta namunalanishi kerak.

Signalning original shaklini tiklash uchun minimal namunalanish tezligini belgilovchi teorema:

$$f_s \geq 2 f_m$$

Bu yerda f_s — namunalanish tezligi, f_m — signalning maksimal chastotasi.

- **Parseval Teoremasi:** Energiya saqlanishi bilan bog'liq bo'lib, tasvirlarning spektral analizida muhim rol o'ynaydi. Energiya transformatsiyadan oldin va keyin bir xil bo'lishini ta'minlaydi.

Energiya saqlanishini ko'rsatadigan teorema:

$$\int_{-\infty}^{\infty} |f(x)|^2 dx = \int_{-\infty}^{\infty} |F(\omega)|^2 d\omega$$

- **Bunyodkorlik va Normallash:** Tasvirlarni ko'paytirish jarayonida, tasvirlarning xususiyatlarini saqlash va normallashtirish orqali, energiya taqsimoti va boshqa fizik o'zgarishlar tahlil qilinadi.

Xulosa. Fizik tomondan tasvir bo'yicha originalini topish jarayoni, Riman-Mellin formulasi va tasvirlarni ko'paytirish teoremalari orqali amalga oshiriladi.[4-5] Bu usullar, tasvirlarning spektral tahlilini, energiya taqsimotini va boshqa fizik hodisalarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Kelajakda bu sohalarda yangi tadqiqotlar va innovatsiyalar, tasvirlarni tahlil qilish va qayta ishlashda yanada rivojlanishga olib kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O.S Zikirov Matematik fizik tenglamalar T:”Fan va texnika” 2017
2. RA Sobitov, JA Egamov. Some applications in economics. Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions 2 (1), 32-35
3. RA Sobitov, JA Egamov. Fur’e qatorlarining ba’zi tatbiqlari. NamDU ilmiy axborotnomasi-Научный вестник НамГУ. 2024
4. RA Sobitov. Differential LG-game of many participant players. Middle European Scientific Bulletin 16, 21-27
5. BT Samatov, MA Xorilov, RA Sobitov. About one of the problem isaacs for LG– game. Scientific Bulletin of Namangan State University 2 (11), 21-27

FIZIK KATTALIKNING EKSTREMAL QIYMATLARINI HOSILA YORDAMIDA ANIQLASHGA OID MASALALAR YECHISH.

M.B.Dusmuratov
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada fizik kattaliklarning eng katta yoki kichik qiymatlarini hosila yordamida aniqlash haqida so‘z yuritilgan hamda bu bilan bog‘liq masalalar yechib ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: hosila, ekstremum qiymat, erkin tushish, uchish uzoqligi

Kirish.Ma’lumki, fizika fani matematika fani bilan boshqa fanlarga qaraganda kuchli o‘zaro aloqadorlikka ega. Bunga misol qilib, mexanik va elektr tebranishlarini o‘rganishda “Trigonometriya”ga, elektr va magnit maydonni hamda boshqa fizik vektor kattaliklarni hisoblashda “Vektor analiz”ga, fizik kattaliklarning o‘rtacha qiymatlarini aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan hollarda “Matematika”ning “O‘rtachalash qoidalari”, “Sonlarning o‘rtacha qiymatlari” kabi mavzulariga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. Xuddi shuningdek, fizik kattalikning eng katta yoki eng kichik qiymatlarini aniqlashda ham albatta “Matematika”ning “Hosila” bobiga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. Mazkur maqolada xuddi shunday muammolar hal etilgan.

Natijalar va muhokamalar. Umumta’lim maktablarining matematika darsliklaridan ham ma’lumki, ixtiyoriy ko‘rinishdagi $y=f(x)$ funksiya o‘zining ekstremum qiymatlariga argument (erkli o‘zgaruvchi)ning funksiya hosilasi nolga aylanadigan qiymatlarida erishadi, ya’ni $f'(x)=0$ bo‘lganda $y=y_{max}$ yoki $y=y_{min}$ bo‘ladi. Bu qoida erkli o‘zgaruvchi har qanday kattalik bo‘lganda va funksiya ko‘rinishi har qanday bo‘lganda ham bajariladi. Shuningdek, argument va funksiya fizika kattaliklar bo‘lganida ham bajariladi. Endi esa bir nechta masalalar ishlash orqali aytib o‘tilgan fikrlarimizni to‘g‘ri ekanligiga ishonch hosilq ilamiz.

Masala №1: Slindrik idish ideal (qovushqoqligi yo‘q) suyuqlik bilan to‘ldirilgan bo‘lib, uning balandligi H ga teng. Bu idish asosidan biror h balandlikda kichkina teshik ochilgan bo‘lib, undan suyuqlik otilib chiqmoqda. Bu h balandlikning qanday qiymatida otilib chiqqan suv eng uzoq masofaga borib tushadi? Maksimal uchish uzoqligi nimaga teng?

Yechish: Suyuqlikning erkin sirti teshikdan $\Delta h=H-h$ balandlikda bo’ladi. Energiyaning saqlanish qonuniga muvofiq suyuqlikning erkin sirtdagi elementar dm massali qism idishdan $\vartheta=\sqrt{2g\,\Delta h}=\sqrt{2g(H-h)}$ tezlik bilan otilib chiqadi. Buni esa h balandlikdan ϑ boshlang‘ich tezlik bilan gorizontal otilgan jism deb olib uning tushish vaqtini $t_{tush}=\sqrt{\frac{2h}{g}}$ formuladan, uchish uzoqligini esa $\ell=\vartheta t_{tush}$ formuladan aniqlash mumkin. Shunga ko‘ra suyuqlikning ucish uzoqligi formulasi

$$\ell=\vartheta t_{tush}=\sqrt{2g(H-h)}\cdot\sqrt{\frac{2h}{g}}=2\sqrt{Hh-h^2} \qquad (1)$$

bo‘ladi. Bu hosil bo‘lgan $\ell=\ell(h)$ ko‘rinishdagi funksiyadan h erkli o‘zgaruvchi bo‘yicha hosila olib, uni nolga tenglaymiz.


$$\ell'(h)=\left(2\sqrt{Hh-h^2}\right)'_h=\frac{H-2h}{\sqrt{Hh-h^2}}=0,\ \rightarrow\quad h=\frac{1}{2}H \qquad (2)$$

Endi esa (2) dagi natijani (1) ga qo‘yamiz.

$$\ell_{\max} = \ell\left(\frac{H}{2}\right) = 2\sqrt{H\cdot\frac{H}{2} - \left(\frac{H}{2}\right)^2} = H \qquad (3)$$

Shunday qilib, teshikning balandligi $h=H/2$ bo‘lganda, suyuqlikning maksimal otilish masofasi $\ell_{max}=H$ bo‘lar ekan.

Masala №2: Rasmdagi tok manbai ideal manba bo‘lib, rezistorlardagi qarshiliklar $R_1 = 2\Omega,\ R_2 = 5\Omega$ ga teng. R_3 qarshilikning qanday qiymatida undagi quvvat maksimal bo‘ladi?



Yechish: Zanjirning umumiy qarshiligi $R = R_1 + \dfrac{R_2R_3}{R_2+R_3} = \dfrac{R_1R_2 + (R_1R_2)R_3}{R_2+R_3}$ ga, tarmoqlanmagan qismdan o‘tadigan tok kuchi $I = \dfrac{\varepsilon}{R} = \dfrac{\varepsilon(R_2+R_3)}{R_1R_2 + (R_1R_2)R_3}$ ga, R_3 qarshilikdan o‘tadigan tok kuchi $I_3 = \dfrac{R_2}{R_2+R_3}I = \dfrac{\varepsilon R_2}{R_1R_2 + (R_1R_2)R_3}$ ga, undan ajraladigan quvvat esa $P_3 = I_3^2R_3 = \varepsilon^2R_2^2\dfrac{R_3}{\left(R_1R_2 + (R_1R_2)R_3\right)^2}$ teng bo‘ladi. Demak, quvvat R_3 qarshilikka bog‘iq bo‘lgan funksiya ekan. Uning maksimal qiymati $P_3'(R_3) = 0$ shartda bajariladi.

$$P_3'(R_3) = \varepsilon^2R_2^2\left(\frac{R_3}{\left(R_1R_2 + (R_1+R_2)R_3\right)^2}\right)'_{R_3} = \varepsilon^2R_2^2\frac{\left(R_1R_2 + (R_1+R_2)R_3\right)^2 - 2R_3(R_1+R_2)\left(R_1R_2 + (R_1+R_2)R_3\right)}{\left(R_1R_2 + (R_1+R_2)R_3\right)^4} =$$

$$= \left(\frac{\varepsilon R_2}{\left(R_1R_2 + (R_1+R_2)R_3\right)^2}\right)^2 \left(R_1R_2 + (R_1+R_2)R_3\right)\left(R_1R_2 - (R_1+R_2)R_3\right) = 0 \qquad (4)$$

Bundan esa

$$R_3 = \frac{R_1R_2}{R_1+R_2} = \frac{(2\Omega)\cdot(5\Omega)}{(2\Omega)+(5\Omega)} = \frac{10}{7}\Omega \qquad (5)$$

natija kelib chiqadi. Shunday qilib, R_3 qarshilikning qiymati 10/7 Ω ga teng bo‘lgandagina undan ajraladigan quvvat maksimal bo‘lar ekan.

Xulosa. Fizikaning faqat turli boblariga oid an’anaviy tipdagi masalalar yechish bilan birga fanlararo aloqador bo‘lgan masalalarni ham yechish o‘rganuvchilarni bilimini har tomonlama mustahkamlanishida, fikrlash va mushohada yuritish qobiliyatini o‘stirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedov Sh.B., Dusmuratov M.B. Fizika (2-qism). Akademik litsey o‘quvchilari uchun darslik. – Toshkent: Navro‘z, 2020. – 470 b.
2. Fizika 10-sinf: darslik/N.Sh.Turdiyev va boshq. –T.: “Niso poligraf” nashriyoti, 2017, -192 b.
3. Д.Джанколи. Физика, 1-часть. М.: Мир. 1989. 652 ст.
4. А А.Ф.Бермант, И.Г.Араманович. Краткий курс математического анализа. Москва.: Наука. 1971.

PROGRAMMING AS A PHYSICS TEACHING TOOL

B.Sultonov

Teacher at Tashkent State Transport University

e-mail: sultonov.ba@tstu.uz

Abstract: The article discusses the use of Python programming for teaching physics, especially in complex topics such as quantum mechanics. Methods of modeling and visualization of processes such as quantum harmonic oscillator and tunneling using specialized libraries are described. The importance of programming in the educational process for improving the understanding of abstract concepts and the development of critical thinking among students is emphasized.

Keywords: Programming, Python, physics, quantum mechanics, visualization, modeling, learning.

Introduction: In the modern educational process, programming is becoming an important tool for teaching physics, especially in the context of complex topics such as quantum mechanics. Using programming languages such as Python can significantly improve the understanding of abstract concepts by modeling and visualizing physical processes. This paper examines the application of programming to solve the problems of quantum harmonic oscillator and tunneling.

Research method: Within the framework of the study, the Python programming language and its libraries were used: NumPy — for working with multidimensional arrays and performing mathematical operations, SciPy — for scientific and technical calculations, Matplotlib — for data visualization and graph creation, Qmsolve — a specialized library for solving problems of quantum mechanics. The problem solving process includes the following steps: Determining the system parameters: parameters such as the stiffness coefficient k and the frequency ω are set. Calculation of potential energy: a function describing the potential energy $V(x) = \frac{1}{2}kx^2$. Hamiltonian assembly: A Hamiltonian matrix is formed, taking into account both kinetic and potential energy. Solution of the Schrodinger equation: The qmsolve library is used to

calculate eigenvalues and eigenfunctions, which allows you to determine energy levels and wave functions.

Results: As a result of the application of the described methods, the behavior of a quantum harmonic oscillator was successfully modeled. Students were able to calculate energy levels and visualize wave functions, which significantly improved their understanding of the topic. In addition, the tunneling process was simulated, which helped students realize how particles can pass through potential barriers despite the lack of energy. The results showed that programming in teaching physics not only simplifies the process of learning the material, but also develops students' critical thinking and analytical abilities. Interactive simulations make the study of physics more exciting and motivating, which is especially important in the context of modern educational standards. Programming allows you to conduct experiments and explore physical phenomena that would otherwise be difficult to access.

Conclusion: Programming is becoming a powerful tool that contributes to an in-depth understanding of physics and increases the effectiveness of learning. Integrating programming into the educational process can significantly improve the quality of teaching and students' interest in physics.

REFERENCES

1. Султонов Б. А., «Программирование как инструмент для обучения физике», 2024

2. «Методы использования языков программирования в обучении физике», Ё. Одилов, 2021г

FIZIKA TA'LIMINI MODUL TEXNOLOGIYA ASOSIDA O‘QITISHNING AHAMIYATI

B.U.Amonov


Sharof Rashidov nomidagi SamDU, MFI, baxtiyor-amon@rambler.ru

Annotatsiya. Zamonaviy ta'lim tizimida ta'lim texnologiyalarining o‘zgarishi o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim yangiliklardan biridir. Yurtimizda boshlangan islohotlar jarayonini izchillik bilan davom ettirish va mantiqiy yakuniga yetkazish muammolarining asosiy yechimlaridan biri – malakali, fidoyi kompitentli fiziklarni tayyorlashdir. Hozirgi vaqtda modulli ta’lim o‘z rivojlanishining sifat jihatidan yangi bosqichidan o‘tmoqda, ta’limning barcha bo‘g‘inlarida – boshlang‘ich va o‘rta ta’limdan oliy ta’limgacha qo‘llanilmoqda. Ushbu texnologiya o‘quvchilarga bilimlarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirishga va ularni chuqurroq anglashga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: modulli o‘qitish, elektr va magnetizm, pedagogik texnologiya, elektromagnit tebranishlar va to‘lqinlar, mustaqil ta’lim

Fizikani o‘qitishda modul texnologiyasi va uning mohiyati. Modulli o‘qitish – o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u odam bosh miyasining o‘zlashtirish tizimga eng yaxshi moslashgandir. Yuqori texnologiyalarga asoslangan asbob-uskunalarini ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashish, dunyoga mashhur firmalar (AQSh, Germaniya, Finlandiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur va h.k.) bilan hamkorlikda ishlash kabi o‘ta yuqori malaka talab qilinadigan ishlab chiqarish jarayonlarida o‘quvchi-talabalarning faollik ko‘rsatib mehnat qilishlari uchun fizik bilimlar alohida ahamiyat kasb etadilar.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Muhandislik fizikasi instituti, II kurs 605309000 – Fizika bakalavriat ta’lim yo‘nalishi Elektr va magnetizm (3–*semestr*) fanini o'qitish modulli dasturining ajralmas qismi bo'lgan **“V Modul. elektromagnit tebranishlar va to’lqinlar”** modulini ishlab chiqish misolida modulli texnologiyasini loyihalash jarayonini ko'rib chiqdik. Elektr va magnetizm fani bo'yicha sillabusni tahlil qilish ishlab chiqilayotgan texnologiyaning modulliligi prinsipi talablarini hisobga olgan holda, an'anaviy dasturning "elektromagnit tebranishlar va to'lqinlar" mavzusini modulli texnologiyasi bo'yicha o'quv dasturida 6 ta modul elementlariga bo'lish maqsadga muvofiq deb bildik. Bu o'quv materialining hajmi va murakkabligining mantiqiy to'liqligi, yaxlitligi va optimalligini ta'minlaydi.



Modulli o‘qitish quyidagi afzalliklarga ega: A) Fizikani modullarga bo‘lib o‘rganish o‘quvchilarga nazariy va amaliy bilimlarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish imkoniyatini beradi; B) Modulli texnologiya yordamida o‘quvchilar o‘zlarini nazorat qila oladilar va ularning mustaqil o‘rganish qobiliyati oshadi. Har bir modul yakunida o‘z bilimi haqida mulohaza yuritish imkoniyatiga ega bo‘ladi; C) Fizikada nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish muhim hisoblanadi. Modul texnologiyasi nazariyani amaliy tajribalar orqali sinash imkoniyatini beradi. O‘quvchilar har bir modulni yakunlab, ilmiy qonuniyatlarni hayotiy misollarda ko‘rishadi; D) Modulli texnologiya har xil darajadagi o‘quvchilar uchun moslashuvchan bo‘lib, individual yondashuvni ta’minlaydi. Har bir o‘quvchi o‘z sur’atida o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa umumiy natijalarni yaxshilaydi.

Xulosa. Modul texnologiyasi o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va o‘quvchilarni mustaqil o‘rganishga undash uchun qulay usuldir. Elektr va magnetism kursini bu usul yordamida o‘qitish o‘quvchilarning bilimlarini tizimli, bosqichma-bosqich o‘zlashtirish imkoniyatini taqdim etadi. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning uyg‘unlashuvi esa bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga, o‘quvchilarda ilmiy va tahliliy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Shu sababli, modul texnologiyasini fizika ta’limida qo‘llash zamonaviy o‘qituvchilarning asosiy yondashuvlaridan biri bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avliyakulov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. -T: 2001.–68 s. Авлиякулов Н.Х. Практические основы модульной системы обучения и педагогической технологии. Ўкув кўлланма-Бухара: 2001.-99 с.

3. Fizikani o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish uslubiyati: O‘quv qo‘llanma / O. Quvondiqov;

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – Samarqand: SamDU nashri, 2021. – 439 b.

5. Осипова, Л. Г. Использование модульной технологии на уроках физики / Л. Г.Осипова.- Текст:непосредственный//Аспекты и тенденсии педагогической науки : материалы III Междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, декабрь 2017 г.).- Санкт-Петербург: Свое издательство, 2017.- с. 106-108.

CLASSIFICATION OF cD GALAXIES

Ю. А. Абдурасулов[1] ; К. Т. Миртаджиева[1,2]

[1]*Astronomical Institute, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan,*

[2]*Mirzo Ulughbek National University of Uzbekistan*


Annotation: In this work, the authors examine the classification issues of cD galaxies. Specifically, cD galaxies are classified according to morphological types, and the challenges of classification based on absolute magnitude and age are discussed.

Keywords: massive galaxies; cD galaxies; galaxy clusters; classification; statistical analysis.

Introduction: cD galaxies are supergiant galaxies primarily found in the central regions of rich galaxy clusters. The study of these objects is crucial for addressing issues related to the formation and evolution of galaxy clusters.

Materials and Methods. We classified cD galaxies based on observational data according to their morphological types and investigated the issues related to classification based on absolute magnitude and age.

Results and Discussion. Using this data, we conducted an analysis of the cD galaxy catalog and examined the relationships between specific parameters.



Distribution of cD Galaxies by Morphological Types


Shows the distribution of cD galaxies by morphological types. It is evident that cD galaxies are primarily elliptical, though lenticular and giant spiral cD galaxies are also observed. The brightness of the corresponding types of cD galaxies can be found in the table below.

Type	M_V
E	-20.42 ÷ -25.17
S0	-21.47 ÷ -24.6
S	-21.14 ÷ -24.6

Classification by Absolute Magnitude M_V

Luminosity	
Bright Supergiants	-23.5÷ -25.2
Normal Supergiants	-22.5 ÷ -23
Bright Giants	-20 ÷ -22

Now let's examine how cD galaxies can be classified. For instance, the distribution of the absolute magnitudes of these galaxies allowed us to divide them into three groups based on luminosity class.



	Age	Redshift
Young cD	< 12	> 0.14
Middle-Aged cD	12 ÷ 13	0.02 ÷ 0.1
Old cD	> 13	< 0.002

It was also possible to identify similar classes based on the age of cD galaxies. According to this parameter, the objects were divided into three groups: young, middle-aged, and old. Although there is a completely linear continuous relationship between age and redshift, we have indicated the redshifts corresponding to the boundary ages.

Conclusion. Thus, based on the analysis of recent literature, we constructed histograms of the distributions of various observable parameters of cD galaxies and examined the relationships between them. The analysis of the results shows that cD galaxies are predominantly elliptical, with a lower likelihood of being lenticular, and only in very rare cases, spiral galaxies. In particular, we obtained a relationship between the absolute magnitude of cD galaxies and redshift. We also found an empirical relationship between their age and the corresponding redshift value:

$$\tau_{Age} = 13.277(\pm 0.002) - 12.269(\pm 0.028)z$$

The luminosity of cD galaxies is high, and its value shows little dependence on distance. Nevertheless, the relationship between them can be expressed as follows:

$$M_V = -0.6198(\pm 0.0635)\ln z - 25.1556(\pm 0.2235)$$

The relationship between age and absolute magnitude of cD galaxies is represented by the following formula:

$$M_V = 1.2817(\pm 0.153)\tau_{Age} - 39.2369(\pm 1.939)$$

It is clear that the study of cD galaxies represents an important area of research, and the statistical analysis of observational data is a crucial factor that complements their overall investigation.

REFERENCES

1. R. Coziol, H. Andernach, C. A. Caretta, et al., The Astronomical Journal 91 (275) (2009).
2. S. N. Kemp, V. Hugo Ram´ırez-Siordia, and E. P´erez-Hern´andez, The intriguing life of massive galaxies Proceedings IAU Symposium (2012).
3.//http://leda.univ-lyon1.fr, HyperLeda Database for physics of galaxies ().
//http://www.ipac.caltech.edu, NASA-IPAC Extragalactic Database-NED ().

OLIY O‘QUV YURTLARIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA TA’LIMIDA TESKARI O‘QITISH USULIDAN FOYDALANISH.

Sh.Sh.Qahramonova
Andijon davlat universisteti

Annotatsiya. Ushbu tezisda oliy ta’lim muassasalarida qayta tiklanuvchi energiya ta’limini kengaytirish va yangi metodlardan foydalangan holda ta’lim sifatini va samaradorligi oshirish to‘g‘risida tushunchalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Flipped ta’limi, qayta tiklanuvchi energiya ta’limi, teskari o‘qitish.

Kirish. So‘nggi 20 yil davomida iqtisodiy rivojlanishning keskin oshishi mamlakatlarda energiyaga bo‘lgan talabni ham oshirdi. Energiya manbalari orasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari eng tez o‘sib borayapti. Qayta tiklanuvchi energiya manbalardan foydalanishda kuzatilayotgan o‘sish tufayli mutaxassislarni ko‘paytirish uchun oliy ta’lim muassasalarida qayta tiklanuvchi energiya ta’limi bo‘yicha ko‘plab yangi fanlar o‘qitilmoqda, bakalavr va magistrlik yo‘nalishlari ochilib ularda yetuk mutaxassis kadrlarni yetishtirib chiqarilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo‘yicha ta’lim olish imkoniyatlarini oshirish, takomillashtirish va osonlashtirish ushbu sohaga qiziqishni ham oshiradi[1].

Metod. Samarali ta’lim islohotlari o‘qituvchilarning innovatsiyalarini ilhomlantiradigan va qo‘llab quvvatlaydigan ishlash muhitini yartishga bog‘liq. O‘qituvchilarning innovatsiyalari yuqori darajada bo‘lgan ta’lim muassalarida o‘quvchilarining o‘rganish samaradorligi ham yuqori bo‘ladi. Teskari o‘qitish usuli ham o‘qituvchilarning innovatsiyasi maxsulidir.

Teskari o‘qitish usuli Flipped ta’limi sifatida ham tanilgan o‘qitish usuli bo‘lib, unda talabalar uyda onlayn ma‘ruzalar, video darslar tomosha qilishadi, keyin esa yuzma-yuz mashg‘ulotda shu mavzuni kengroq yoritilgan tarzda o‘rganishadi. Teskari o‘qitish deb nomlanishiga sabab, darsdagi an’anaviy ma‘ruza uyga ko‘chiriladi, uy vazifasi sifatida qaraladigan kengaytirilgan ma‘lumotlar ma‘ruza xonasida ko‘rib chiqiladi[2]. Flipped ta’limda talabalar o‘qituvchi bilan yuzma-yuz mashg‘ulotga borishdan oldin o‘quv materiallari bilan tanishib chiqadi. Bu talabaning o‘z ustida mustaqil ishlashga, savollarga javob berishga, mavzu yuzasidan muhim jihatlarni ajratishga, qiyin tushunchalarni aniqlashtirishga va amaliyot jarayonlarini osonlashtirish uchun samarali yordam beradi[3]. Ushbu o‘qitish metodi aralash ta’limning bir turi bo‘lib, an’anaviy ma’ruzaga qo‘shimcha ravishda olib boriladi va boshlang‘ich ma’lumotlar axborot texnologiyalari vositalari yordamida oldindan taqdim

etiladi. Oldindan berilgan materiallar matn, maqola, kitob bo‘limlari, video yoki misol va sharhlar bo‘lishi mumkin.

Teskari o‘qitish usulining asosiy xususiyatlari:

- Darsdan oldingi tayyorgarlik: Talabalar muhim ma’lumotlarni uyda o‘rganadilar va darsga tayyor holda kelishlariga imkon yaratiladi.
- Darsda faol o‘rganish: Dars amaliy mashg‘ulotlar, muhokamalar va hamkorlikdagi ishlarga bag‘ishlangan bo‘lib, materiallarni yanada tushunish imkonini beradi.
- O‘qituvchining roli: O‘qituvchi an‘anaviy ma‘ruzachidan ko‘ra fasilitator yoki yo‘l-yo‘riq vazifasini bajaradi, sinf faoliyati davomida yordam va fikr-mulohazalarni taqdim etadi.
- Talabaga yo‘naltirilgan yondashuv: Bu usul o‘quvchilarni o‘z bilimlari uchun mas‘uliyatni o‘z zimmalariga olishga undaydi va shaxsiy javobgarlikni oshirishga yordam beradi.
- Axborot texnologiyadan foydalanish: Auditoriyadan tashqarida o‘rganishni osonlashtirish uchun ko‘pincha video darslar, onlayn viktorinalar va platformalar kabi raqamli resurslarni o‘z ichiga oladi.

Teskari o‘qitish usulining afzaliklari	Kamchiliklari
Ma‘lumot va materialni chuqurroq tushunishga yordam beradi	Barcha talabalar uchun texnologiyadan foydalanishni talab qiladi
Talabalar o‘rtasida hamkorlik va muloqotni rag‘batlantiradi, faollik va o‘zaro ta‘sirni oshiradi	O‘qituvchilar darsdan oldingi sifatli materiallarni yaratishga vaqt sarflashlari kerak
Shaxsiylashtirilgan ta’lim tajribasiga imkon beradi	Ba‘zi o‘quvchilar o‘z-o‘zini boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin

Xulosa. Teskari ta’lim usuli talabalarning faolligini oshirish va ma‘lumotlarni oson o‘rganish uchun yaxshi usul xisoblanadi. Oliy o‘quv yurtlarini bakalavr talabalariga qayta tiklanuvchi energiya ta’limida dars jarayonlarida teskari o‘qitish metodidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lucas, H., Pinnington, S., & Cabeza, L. F. (2018a). Education and training gaps in the renewable energy sector. *Solar Energy*, *173*, 449–455. https://doi.org/10.1016/j.solener.2018.07.061
2. Holm, L. B., Rognes, A., & Dahl, F. A. (2022). The FLIPPED STEP study: A randomized controlled trial of flipped vs. traditional classroom teaching in a university-level statistics and epidemiology course. *International Journal of Educational Research Open*, *3*, 100197. https://doi.org/10.1016/j.ijedro.2022.100197
3. Beola, J. A., & Moreno, L. A. (2024). Teaching methodologies in the undergraduate teaching of radiology. *Radiología (English Edition)*, *66*(4), 390–397. https://doi.org/10.1016/j.rxeng.2023.04.007

KVANT MEXANIKASINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

E.K.Muxtarov

Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: Bugungi kunda ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik va raqamli ta’lim texnologiyalarining ahamiyati oshmoqda. Ayniqsa, fizika fanini o‘qitishda bunday texnologiyalardan foydalanish, talabalarning bilimini yanada mustahkamlash va ularning qiziqishini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar va raqamli ta’lim texnologiyalarining kvant mexanikasi fanini o‘qitishdagi istiqbollari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: kvant mexanikasi, to‘lqin funksiya, zarracha, ponensial o‘ra, ehtimollik zichligi, kvant soni.

Kirish. Kvant mexanikasi fani o‘quv materialining murakkabligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda kvant mexanikasi nazariy va eksperimental asoslari bilan keng bilim sohasi hisoblanadi, lekin uning o‘qitish metodikasi bilan bog‘iq masalalar hali ham muhokama mavzusi bo‘lib qolmoqda. Bu muammolar, o‘qitish usullari va talabalarning qiziqishini oshirishga qaratilgan innovatsiyalar zarurligini ko‘rsatadi.

Metodologiya. Tadqiqotda ilmiy va ilmiy–uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umum-lashtirish, pedagogik kuzatuvlar, pedagogik tajriba usullaridan foydalanilgan.

Natijalar. Ma’lumki, ikki o‘lchamli potensial o‘radagi zarrani to‘lqin funksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega [1]:

$$\boldsymbol{\psi_{n_1,n_2}(x,y) = \sqrt{\frac{4}{ab}}\, sin\left(\frac{\pi}{a} n_x x\right) sin\left(\frac{\pi}{b} n_y y\right)} \qquad (1)$$

Birlik hajmda zarrachani topilish ehtimollik zichligi $\boldsymbol{\psi}$ −funksiyasi modulining kvadratiga teng:

$$\boldsymbol{\rho_{n_1,n_2}(x,y) = \frac{4}{ab} sin^2\left(\frac{\pi}{a} n_x x\right) sin^2\left(\frac{\pi}{b} n_y y\right)} \qquad (2)$$

Masala.


1. Zarracha kvadrat potensial o‘rada $(a = b = 1)$ joylashgan. Kvant sonlari $n_x = 2$ va $n_y = 1$ ga teng bo‘lganda o‘rada zarrachani aniqlash ehtimollik zichligi maksimal bo‘lgan nuqtalarni toping [2].

Masalaning yechilishi:

Zarrachani aniqlash ehtimollik zichligi (2) ifoda orqali aniqlanadi. Funksiyaning maksimal qiymatini topish uchun avval ushbu funksiyaning hosilasini x ga nisbatan, so‘ngra y ga nisbatan olib, ularni nolga tenglaymiz [3]. Hosil bo‘lgan differensial netglamalarni yechib, zarrani aniqlash ehtimollik zichligi maksimal bo‘lgan nuqtalarni topamiz, ular:

$$x_1 = \frac{a}{4}, y_1 = \frac{a}{2};\ x_2 = \frac{3a}{4}, y_2 = \frac{a}{2}.$$

Ikki o‘lchovli potentsial o‘radagi zarrachalarni simulyatsiya qilish uchun Visual Basic dasturida, electron mahsulot ishlab chiqildi [4,5]. Dasturni ochib, kvant sonlarini masala shartiga muvifiq $n_x = 2$ va $n_y = 1$ qiymatlarda tanlanadi. Dastur ishga tushirilsa, $\rho_{2,1}(x, y)$ funksiyaning maksimal qiymatga erishadigan nuqtalar masala yechimiga muvofiq x_1, y_1; va x_2, y_2 nuqtalar ekanligi ma’lum bo‘ladi. 1–rasm (a) da bu nuqtalar “sariq soha” bilan ko‘rsatilgan.



1–rasm. Zarrani ehtimollik zichligi grafigini kvant sonlarining har xil qiymatlarida turli tekisliklarda ko’rinishi.

Dastur yordamida kvant sonlarining 1 dan 10 gacha bo‘lgan qiymatlarida, ikki o’lchamli potensial o‘radagi zarrachani to‘lqin funksiyasini hamda ehtimollik zichligini tahlil qilish imkonini beradi (1–rasm, b). Potensial o‘raning o‘lchami $a = b = 1$ bo‘lganda $\rho_{2,1}(x, y)$ funksiyaning maksimal qiymati 4 ga teng ekanligi (2) ifoda ma’lum. 1–rasm (b) dagi grafikdan ham bu qiymat 4 ga teng ekanligi ko‘rinadi.

Muhokama. Talabalar dasturdan istalgan vaqtda va kerak bo‘lganda ko‘p marta foydalanishlari mumkin. Ma’ruza hamda amaliy mashg‘ulotlarida ushbu vositadan foydalanish talabalarning kvant hodisalari haqidagi tushunchalarini yaxshilashga yordam beradi.

Xusola. “Kvant mexanikasi” fanidan simulyatorlar fan bo‘yicha ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar olib borishda keng qo‘llanilyabdi. Uning natijasida talabalar bilimining sifat ko‘rsatkichlari ortayotganligi kuzatilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘XATI

1. Musaxanov M.M., Rahmatov A.S. Kvant mexanikasi. –T.: Tafakkur bo‘stoni, 2011.
2. Muxtarov E.K. Kvant mexanikasidan mashqlar, tavsifiy masalalar va ularning yechimlari. O‘quv qo‘llanma. – Nukus: «Ilmiy va o‘quv adabiyotlar nashryoti», 2023. – 196 b.
3. Мухтаров Я., Солеев А. Оддий дифференциал тенгламалар. Мисол ва масалалар. Дарслик. – Самарқанд: СамДУ, 2020. -392 бет.
4. Волчёнков Н.Г. Программирование на Visual Basic: В 3-х ч. Часть 3. – М.: ИНФРА-М, 2002. – С.236.
5. Muxtarov E.K. “Ikki o‘lchamli potensial o‘ra” elektron axborot – ta’lim resursi. № DGU 21510. 09.01.2023

O‘QUVCHILARDA FIZIKADAN BAHOLASHGA OID MASALALAR YECHISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH.

J.J.Soyipov

Namangan davlat universiteti Fizika kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktab fizika kursida fizikadan baxolashga oid masalalar ishlash orqali tadqiqotchilik ko’nikmalarini rivojlantirish va baxolashga doir masalalarning axamiyati to’risida malumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: tadqiqot, ko’nikma, nazariy bilimlar, standart masalalar, eksperimental, grafik, fizik kattalik, refleksiv, taqribiy qiymatlar,

Kirish. Zamonaviy ta’limda turli fanlardan bilimlarni egallash bilan birga to‘plangan bilimlarni atrofimizdagi turli jarayonlarga tatbiq qilib, ushbu jarayonlar rivojlanishini tasavvur qilish, tadqiqotlar o‘tkazish ko‘nikmalarini o‘quvchi shaxsida shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Shuni hisobga olib fizika ta’limida ham standart masalalar yordamida olingan nazariy bilimlar mustahkamlansa, eksperimental, grafik va baholashga oid masalalar ishlash orqali o‘quvchilarning tadqiqotchilikka yo‘naltirilgan faoliyati rivojlanadi. Baholashga oid masalalar asosan nostandart masalalar turiga taalluqli bo‘lib, ma’lum bir obyekt yoki fizik jarayonni xarakterlaydigan, inson yoki texnika ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan biror bir fizik kattalikni qiymatini oldindan taxminiy baholashni taqozo etadi. Nafaqat respublikamiz maktablarida, balki hozirgi MDX ning o‘rta ta’lim maktablarida ham baholashga oid masalalar fizikadan amaliy mashg‘ulotlarda keng qo‘llanilmagan, ammo psixolog va metodistlar fikriga ko‘ra bu turdagi masalalar shaxsning ijodiy-kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlanishida sezilarli ahamiyatga ega.

Natijalar. Baholashga oid masalalar oddiy standart masalalardan quyidagi xossalari bilan farq qiladi.

- Fizik jarayonni xarakterlaydigan barcha kattaliklar berilmaganligi bilan
- Topish talab qilingan fizik kattalikni tahlil qilish zaruriyati bilan

Ushbu turdagi masalalarni ishlash o‘quvchilar uchun noodatiy bo‘lgani sababli biroz noqulaylikni yuzaga keltiradi, ammo ishlash jarayonida standart masalalarda qo‘llanilgani kabi bir qator aqliy amallar bajariladi. Eng murakkab tomoni aniq bir javob olinmagani uchun, javobni to‘g‘riligini turli kattaliklarni tanlash orqali real voqelikka solishtirish bilan baholanadi.

O‘quvchilarda baholashga oid ko‘nikmalarni shakllantirish tadqiqotni dastlabki bosqichi bo‘ladi. Ushbu bosqichda quyidagi vazifalarni ketma-ket amalga oshirish lozim.

1. O‘quvchilarda refleksiv va baholash ko‘nikmalarini shakllanganlik darajasini aniqlash.
2. Fizikani o‘rganishda va unga oid tadqiqotchilikka o‘quvchilar qiziqishini va motivatsiyasini rivojlantirish
3. Baholashga oid faoliyat turini mazmuni va masala ishlashdagi ahamiyatini, tushunchasini rivojlantirish.
4. O‘quvchilarda baholash kriteriyasini aniqlash, baholash kriteriyalari va baholanadigan predmet fizik kattaliklarini taqqoslash ko‘nikmasini shakllantirish.
5. Olingan natijani metodologik va epistemik bilim asosida ilmiy-nazariy, fakt va dalillarga asoslangan holda to‘g‘riligini isbotlash ko‘nikmasini shakllantirish.

Ushbu vazifalarni asosan fizikadan amaliy mashg‘ulotlarda bajariladi.

Amaliy mashg‘ulotlar esa o‘z navbatida ikki turga bo‘linadi; ya’ni masalalar ishlash va laboratoriya mashg‘ulotlari.

Muhokamalar. Laboratoriya mashg‘ulotlarida o‘quvchilar kerakli kattaliklarning o‘lchab kutilgan natijani olib, ushbu natijani baholash imkoniga ega bo‘lishadi. Shuning uchun ularda taqribiy qiymatlar bilan ishlash, topilgan fizik kattalikni to‘g‘riligini baholash kabi ko‘nikmalari shakllangan bo‘ladi. Amaliy mashg‘ulotlarni masala ishlashga bag‘ishlangan darslarida foydalanilgan masalalarda berilgan fizik kattaliklardan foydalanib kerakli kattalikni topish asosiy vazifa bo‘lib, ushbu kattalik masalani berilgan javobiga to‘g‘ri kelishi tekshiriladi, ammo olingan yechim deyarli tahlil qilinmaydi.

Baholashga oid masalalar ishlashda mana shu ikki ko‘nikmalarni birlashtirib faoliyat olib borish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Тарасова Н. М., Петрова Р. И. Обучение физике в профильных классах путем решения экспериментальных задач по физике // Научно-методический электронный журнал «Консепт». – 2018. – № V3. – 0,3 п. л.– URL: http://ekoncept.ru/2018/186027.htm. (106)
2. Soyipov. J.J, Ismanova O, Boboxo‘jayev U. Fizik kattaliklarni chegaraviy qiymatlarini baxolash orqali o‘quvchilarda fizik jarayonlarni chuqur taxlili qilishni shakllantirish. Namangan davlat universiteti. Ilmiy axborotnomasi. 2020-yil maxsus son 45-49 betlar(200)
3. Soyipov. J.J. Umumta’lim maktablarida fizika o‘qitishda masalalar yechishning axamiyati. “Ilm fan taraqqiyotida zamonaviy metodlarning qo‘llanilishi” nomli konfrensiya 2021-yil, 21-oktabr, 151-156 b(203)

OLIY TA'LIMDA FIZIKA YO’NALISHI O’QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

N.S.Po’latova
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya : Ushbu maqolada kasbiy kompetentlikni shakllantirish orqali bo’lajak fizika fani o’qituvchising pedagogik faoliyatini rivojlantirish yo’llari yotirib berilgan.

Kalit so’zlar: fizika , kasbiy kompetentsiya , pedagogik faoliyat , ta’lim , kompetentlik ,bilim .

Jahon oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak o’qituvchilarni kompetentsiyaviy yondashuv asosida o’quv jarayonini tashkil etishga tayyorgarligini takomillashtirishning kreativ modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda.Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha yangi ta’lim kontseptsiyasida “Ta’lim taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuch va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat” deb e’tirof qilingan. Bu esa, o’qitish metodikasining takomillashtirish, talabalarning didaktik hamda metodik tayyorgarliklarini ilg’or xorijiy tajribalar asosida rivojlantirish, elektron axborot ta’lim resurslarini yaratish, ta’lim jarayonini kreativ modellar asosida takomillashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo’yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

N.A.Muslimov fikriga ko’ra kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo’llay olinishini nazarda tutadi.

“Kompetentlik” – insonning kasbiy, shaxsiy va haètiy faoliyatining fundamental asosini tashkil etuvchi bilim, malaka, ko’nikma, mahorat, tajriba va qobiliyatlarni o’zlashtirish va amalda qo’llashning eng oliy cho’qqisidir.

«Kasbiy kompetentlik» tushunchasi kasbiy faoliyatni, jumladan pedagogik faoliyatni amalga oshirishga qodirlik va tayèrlik bilan bog’landi va mazkur aloqadorlikning qonuniyligi tahlil qilindi.

Kasbiy kompetentsiyalar hozirgi kunda innovatsiyalarni tatbiq etish uchun kreativlikka bog’liq bo’lgan innovatsion ta’lim texnologiyalariga asoslangan kasbiy kompetentli o’qituvchi faoliyatidagi ijodiy qobiliyatdir.

Kompetentsiyaga asoslangan yondashuvga muvofiq, fanlarni o’qitishning mohiyatini yangicha tushunish, fan bilimlarini o’zlashtirish o’qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayoniga organik ravishda kiritilgan shartlarni aniqlash zarurati tug’iladi. Fizika o’qituvchisining kasbiy kompetensiyasini sifat jihatidan yangi ta’lim turi sifatida shakllantirishni

hisobga olgan holda, fizika fanidan dolzarb mavzular tayyorlashning sifat jihatidan yangi xususiyatlarini aniqlash kerak. Shu bilan birga, pedagog kadrlar tayyorlashda kompetentsiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish maxsus fanlar tayyorlash mazmuni va jarayoniga jiddiy tuzatishlar kiritishni taqozo etadi. Kompetentsiyalarni shakllantirishga yo’naltirilgan ta’lim – o’quvchilarning egallangan bilim, ko’nikma va malakalarini o’z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo’llay olish imkoniyatidir. Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim o’quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo’lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o’z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog’lom raqobat hamda umummadaniy ko’nikmalarini shakllantiradi. Bu esa kelajakda bo’lajak fizika fani o’qituvchilarining kelgusidagi pedagogik faoliyatlarida yuqori salohiyatga, mahoratli va pedagogik kompetentsiyaga ega bo’lgan , fizika bo’limlaridagi masalarni sodda yo’l bilan yechishda , virtual laboratoriya mashg’ulotlarini tashkil etishda, mustaqil ta’lim ishlarida, o’quvchilarni fizika faniga qiziqtira olishda, nazariy olgan bilimlarini amaliyotda qo’llay oladigan malakali kadr bo’lishlariga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Boboxojayev U.S., Ismanova O.T. Fizika yonalishi talabalarida
loyihalash faoliyatini shakllantirishda zarur pedagogik tavsiyalar. FerGU. 30-31oktabr. 2023 g. s.439-441
2. Krasnova L. Ye. Texnologiya formirovaniya professionalьnoy kompetentsii uchitelya fiziki v pedvuze: dis.kand. ped. nauk: 13.00.08. – Yelabuga, 2002. – 188 s
3. Muslimov .N.A va bohsqalar “Kasbiy kompetentlikni shakllantirish texnologiyasi/Monografiya.-T. :"Fa” va texnologiya “nashriyoti.2013
4. https://doi.org/10.5281/zenodo.10993090

FIZIKA DARSLARIDA EKOLOGIYA MADANIYATNI RIVOJLANTRISH

A.M.Karimov; A.B. Ne’matullayev
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologiya tushunchasining mazmun mohiyati ochib berishi bilan birga fizika fanini o’qitish orqali o’quvchilarning atrof-muhitni asrashga bo’lgan munosabatini oshirishda ekologik bilimlardan foydalanish tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: ekologiya, fizika, o’quvchi, tabiat, ekologik madaniyat

Kirish. Ko‘pchilik uchun fizika va ekologiya tushunchalari bir-biriga mos kelmaydigan ko‘rinadi. Zero, fizika va uning natijalarini sanoatga joriy etish atrof-muhitni ifloslantirishning asosiy manbalaridan biri sifatida ko‘rsatilgan. Energetika, atom sanoati va fizika yutuqlaridan keng foydalanadigan boshqa ko‘plab tarmoqlar atrof-muhitga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. “Ekologiya” atamasining turli talqinlari mavjud. Ekologiya mustaqil fan sifatida biologiya fanlariga tegishli bo‘lib, "ekologiya" atamasining o‘zi nemis evolyutsion biologi E.Gekkel tomonidan taklif qilingan. Ekologiyaning ushbu "biologik" tushunchasi bilan bir qatorda, zamonaviy jamiyatda atrof-muhitning texnogen ifloslanish darajasi haqidagi g‘oya sifatida "ekologiya" tushunchasi mavjud.

Muhokamalar. Inson faoliyatining atrofdagi dunyoga ta'siri shunchalik yaqinlashdiki, insonning tabiatga aralashuvi endi tartibsiz va cheksiz bo‘lishi mumkin emas. Bularning barchasi ma'lum bir tarzda tartibga solinishi kerak, aks holda tsivilizatsiya ekologik falokatga duch keladi. Ekologik muammolarni hal etish ko‘p jihatdan ekologik ta'lim va yosh avlodni tarbiyalashga bog‘liq. Talabalar tabiat qonunlarini yaxshi bilishlari, tabiat hodisalarining o‘zaro bog‘liqligini tushunishlari, turli jarayonlarning tabiiy jarayoniga aralashish oqibatlarini oldindan ko‘ra bilishlari va baholay olishlari kerak. Shuning uchun bo‘lsa kerak, fizika maktabda ekologik ta'limni rivojlantirish jarayonida birinchi o‘rinlarga qo’yilishi kerak. Sababi maktab o‘qituvchisi tajribasi shuni ko‘rsatdiki, fizika o‘qituvchilari ham ekologik ta’limga katta hissa qo‘shishlari mumkin. Bir qarashda fizika va ekologiya fanining manfaatlari bir-biriga ziddek tuyuladi. Axir, ekologiya tabiatdagi munosabatlarni o‘rganadi, fizika esa ilmiy-texnika taraqqiyotining asosi bo‘lgan va tabiatdagi buzilishlarni keltirib chiqaradigan fandir. ko‘plab tabiiy o‘zaro ta'sirlar. Biroq, yunon tilidan tarjima qilingan "fizika" "tabiat" degan ma'noni anglatishini unutmasligimiz kerak. Menimcha, fizikadan atrof-muhitni saqlash vositasi sifatida foydalanish kerak. Bugungi kunda fizika bo‘yicha o‘quv jarayoni juda qizg‘in. Ekologiya fanini fizika bilan bog`lash uchun ushbu fan mazmuniga ekologik xarakterdagi

bilimlarning qanday turlari kiritilishi lozimligini aniqlash kerak. Har qanday mavzudagi ekologik ma'lumotlarning miqdorini aniqlash juda qiyin masala. Uning aniq qarori o‘qituvchining ish tajribasiga, dars davomida ekologiya elementlariga ajratilishi mumkin bo‘lgan vaqtga bog‘liq. Ammo atrof-muhit muammolarini o‘rganishga butunlay bag‘ishlanishi mumkin bo‘lgan fizika darslari ham mavjud:

Issiqlik dvigatellarini o‘rganish, samaradorlik;

Energiya resurslari mavzusini o‘rganishda;

Tabiatdagi suv aylanishi;

Atmosfera;

Yadro fizikasi va boshqalar.

Xulosa. O‘quvchilarning ekologik ta'lim imkoniyatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga ta'limning barcha shakllari orqali erishish mumkin: auditoriya va sinfdan tashqari ishlar, fakultativ kurslar, fakultativ mashg‘ulotlar, atrof-muhit mazmuni bilan fizik muammolarni hal qilish, talabalarning ekologiya bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari va boshqalar. Ikkinchi ming yillikning oxiriga kelib, insoniyat murakkab o‘zaro bog‘liqlik va global ekologik muammolar dunyosiga kirdi. Insonning tabiiy jamoalarga tez va o‘sib borayotgan aralashuvi bizning atrof-muhitimiz mavjudligiga haqiqiy xavf tug‘dirdi. Bugungi kunda Yer aholisini tashvishga soladigan asosiy muammolardan biri ekologik muammolardir. Tabiat bilan hamnafas yashashga qodir shaxsni tarbiyalash maktabning eng muhim vazifasidir. Talabalar tabiat qonunlari nafaqat odamlar manfaati uchun qo‘llash maqsadida, balki inson o‘zini o‘rab turgan dunyo uyg‘unligini buzmasligi uchun ham o‘rganiladi degan fikrni tushunishi kerak. Bu hayotiy pozitsiyani mustahkamlash muhim: tabiatga beparvo, mas'uliyatsiz munosabat axloqsizlikdir; tevarak-atrofimizdagi tabiatning qadr-qimmatini his qilish insonning ma’naviy olamini boyitadi, uning axloqiy tamoyillarini yuksaltiradi.

ADABIYOT.

1. Боймирзаев К, Жумахонов Ш. Экология асослари ва табиатдан фойдаланиш. Наманган, 2003

2. Sangirova Z. B. va boshq.Tabiiy fanlar Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 192 b.

3. Турдиқулов Э. Физика ўқитишда ўқувчиларга табиатни мухофаза қилишга оид таълим-тарбия бериш. - Т.: Ўқитувчи, 1992.

4. Karimov A. ECOLOGICAL EDUCATION AND UPBRINGING IN TEACHING OF PHYSICS //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B2. – C. 439-442.

FIZIKADAN BAHOLASHGA OID MASALALARNI TURLARGA AJRATISH

J.J.Soyipov

Namangan davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktab fizika kursida fizikadan baxolashga oid masalalarni turlarga ajratish va ularni yechish orqali o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasiga etibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: tajriba, fizik jarayon, nazariy bilimlar, standart masalalar, eksperimental, grafik, fizik kattalik, refleksiv, taqribiy qiymatlar,

Kirish. Maktab fizika ta’limi jarayonida ya’ni fizik eksperimentlar, namoyishlar o‘tkazish va laboratoriyalar bajarish orqali o‘quvchilarda o‘quv tadqiqotchilik ko‘nikmalari shakllangan bo‘ladi, ammo o‘quvchilarda tadqiqot o‘tkazish bu tajriba o‘tkazish yoki laboratoriya bajarishdan iborat bo‘ladi degan sodda tushunchalar shakllangan bo‘ladi. Shuni hisobga olgan holda o‘quvchilarga dastlab tabiatda va texnikada oddiy laboratoriya sharoitida bajarib bo‘lmaydigan yoki bajarish uchun moddiy-texnik ta’minot imkoniyati javob bermaydigan fizik jarayonlar xaqida ma’lumot berish kerak va bunday fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish va animatsiyasini yaratish yoki hayoliy eksperiment o‘tkazish, tasavvur qilish orqali tadqiq etish lozimligi tushuntiriladi. Agar o‘quvchi barcha turdagi tadqiqotlarni o‘tkazish ko‘nikmasiga ega bo‘lsa, unda umumlashgan o‘quv tadqiqotchilik ko‘nikmasi shakllangan yoki rivojlangan bo‘ladi.

Natijalar. Fizikadan amaliy mashg‘ulotlarda yuqoridagi ko‘rsatmalar asosida o‘quvchilarda o‘quv tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi baholashga oid masalalar orqali yanada takomillashtirish mumkin. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun baholashga oid masalalar shartli ravishda uch turga bo‘lgan holda o‘quvchilarga taqdim qilish lozim.

1- tur masalalarda fizik hodisa va jarayonni xarakterlaydigan biror bir kattalikni aniqlab, uning qiymatini baholash talab qilinadi.

Bunday masalalarni o‘ziga xos jixati o‘quvchi albatta fizik jarayon yoki hodisani reallikka yaqinlashgan fizik modelini yaratishi va hayoliy eksperiment o‘tkazishi lozim.

2-tur masalalarida nazariy ilmiy tadqiqotlarda foydalaniladigan formulalarni qo‘llanish chegarasini etiborga olish kerak bo‘ladi. Ba’zi bir masalalarda har bir formulani foydalanish oralig‘ini baholash talab qilinadi. Baholashib oid bunday masalalarni ishlashda o‘quvchi asosan matematik bilimlariga tayanishga to‘g‘ri keladi.

3-tur masalalarida asosiy ideal fizik modellashtirish va analogiya asosiy o‘rin oladi. Bunday masalalarda fizik jarayon yoki hodisani xarakterlaydigan biror bir fizik parametrni aniqlash talab qilinmasdan faqatgina qandaydir obektni xarakterlovchi fizik kattalikni topish talab qilinadi.

Muhokamalar. Yuqorida ko‘rib chiqilgan uchta baholashga oid masalalar mazmunan fizik topshiriq shaklda berilgan bo‘lib, o‘quvchilar bunday masalalarni ishlash davomida kichik bir ilmiy tadqiqot olib borgandek bo‘lishadi. Masala o‘ta murakkab emas, ammo fizik jarayon, hodisa yoki obektni tavsiflovchi bir yoki ikki kattaliklardan boshqa masala yechimi uchun kerak bo‘lgan fizik kattaliklarni turli manbalardan izlab topish obektni ideal fizik modelini yaratish, fizik kattaliklarni taqqoslashi, xatolikni baholashi, formulani qo‘llanishi oralig‘ini aniqlashi kabi faoliyat turlarini amalga oshiriladi.

O‘quvchilarni umumlashgan o‘quv tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlanganlik darajasi baholash va tashxislashga o‘qituvchi yuqorida keltirilgan faoliyat turlarini bajarilishiga katta etibor qaratishi lozim. Ma’lumki har qanday ilmiy tadqiqotlar natijasi o‘quv-metodik, ilmiy maqolalar yozish, konferensiyalarida ma’ruza qilish kabi faoliyat turlari yordamida amalga oshiriladi va baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Усова А.В., Тулькибаева Н.Н. Практикум по решению физических задач Для студентов физ.-мат. фак. — М.: Просвещение, 2001. — 206 с.: ил
2. Soyipov. J.J. Mexanika bo‘limidagi baholashga oid masalalarni ishlash orqali o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish. Namangan davlat universiteti. Ilmiy axborotnomasi. 2022-yil. 5-son 998-1002 betlar
3. Soyipov. J.J. Umumta’lim maktablarida fizika o‘qitishda masalalar yechishning axamiyati. “Ilm fan taraqqiyotida zamonaviy metodlarning qo‘llanilishi” nomli konfrensiya 2021-yil, 21-oktabr, 151-156 b

REVIVAL OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN PHYSICS TEACHERS

N.Pulatova; M.Tuychiboyeva
Namangan state university

Abstract: This article describes the ways of developing the pedagogical activity of the future physics teacher through the formation of professional competence.

Key words: physics, professional competence, pedagogical activity, education, competence, knowledge.

In higher education institutions of the world, creative models of improving the readiness of future teachers to organize the educational process based on the competence approach are being put into practice. In the new concept of education until 2030 adopted by international organizations and developed countries, it is recognized as "the main driving force of educational development and an important activity leading to the goals of sustainable development." Therefore, major projects are being implemented on the improvement of the teaching methodology, the development of didactic and methodical training of students based on advanced foreign experiences, the creation of electronic information and educational resources, the improvement of the educational process based on creative models, and the use of modern information and communication technologies.

According to N.A. Muslimov, competence means the acquisition of knowledge, skills and abilities necessary for professional activity by a specialist and their practical application at a high level. "Competence" is the highest peak of mastering and practical application of knowledge, skills, abilities, skills, experience and abilities that form the fundamental basis of a person's professional, personal and life activities.

The concept of "professional competence" includes professional activity

was connected with the ability and readiness to carry out pedagogical activities, and the legality of this relationship was analyzed.

Professional competences are innovations today

is the creative ability in the work of a professionally competent teacher based on innovative educational technologies that depend on creativity for implementation.

In accordance with the competence-based approach, it is necessary to understand the essence of science teaching, to determine the conditions that are organically included in the process of developing the teacher's professional competence, assimilation of science knowledge. Taking into account the

formation of the professional competence of the physics teacher as a qualitatively new type of education, it is necessary to determine the qualitatively new features of the preparation of current topics in physics. At the same time, the implementation of a competency-based approach to teacher training requires serious adjustments to the content and process of training special subjects.

Competence-oriented education is an opportunity for students to apply acquired knowledge, skills, and abilities in their personal, professional, and social activities. Education based on a competency-based approach forms students' independence, active citizenship, initiative, ability to use media resources and information and communication technologies wisely in their activities, conscious choice of profession, healthy competition and general cultural skills. This means that future physics teachers who have high potential , skill and pedagogical competence in their pedagogical activities in the future will be able to solve problems in physics departments in a simple way , organize virtual laboratory classes , independent educational work , and be able to interest students in physics and helps them to become qualified personnel who can apply theoretical knowledge in practice

USED LITERATURE:

1. Boboho'jayev U.S., Ismanova O.T. Physics students Pedagogical recommendations necessary for the formation of design activities. FerGU. October 30-31. 2023 g. pp. 439-441

2. Krasnova L. E. Technology formation of professional competence uchitelya physical and pedvuze: dis.cand. ped. date: 13.00.08. - Elabuga, 2002. - 188 p

3. Muslimov .N.A. and Bhoshkalar "Technology of formation of professional competence/Monograph.- T. "Fa" and technology "publishing house. 2013

ANIQ VA TABIIY FANLARNI O’QITISHNING INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

N.A.Sayidov; Z.O.Burhanova

Namangan muhandislik texnologiyalari instituti

Annotatsiya: Maqolada Aniq fanlarni o’rganishda o’quvchilar ko’plab muammoli vaziyatlarga duch keladilar. Shuning bilan bilimlarni sifatli darajada yetkazib berishga pedagoglardan katta mahorat va o’quvchilarni darsga qiziqtirish kerak.

Kalit so’zlar: aniq fanlar, pedagogika, kompyuter texnologiyalari, fizika-taxnika qismlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), ilmiy-metodik muammolar.

Hozirgi kunda aniq fanlarni sifatli darajada o’qitish pedagoglar oldida turgan muammolardan biri hisoblanadi. Aniq fanlarni o’rganishda o’quvchilar ko’plab muammoli vaziyatlarga duch keladilar. Shuning bilan bilimlarni sifatli darajada yetkazib berishga pedagoglardan katta mahorat va o’quvchilarni darsga qiziqtirish kerak. Fizikanini o’qitishda kompyuterlardan foydalanishda Fizika texnikasida bu usullar quyidagi mezonlarga ko'ra tasniflanadi:

- ✓ o'qituvchidan talabalarga ma'lumot uzatish usuli;
- ✓ o'qituvchi faoliyatining xususiyatiga ko'ra;
- ✓ o'quvchilar faoliyatining tabiatiga ko'ra.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) - ta'lim resurslariga kirishni kengaytirish (nazariy jihatdan cheksiz hajm va kirish tezligi bilan), o'qituvchi bilan o'zaro aloqani oshirish, individual o'quv yo'llarini qurish va talabalar bilimini ob'ektiv nazorat va monitoring qilish uchun elektron ta'lim muhitida o'qitish. Ushbu muammolarni hal qilishda AKTdan foydalanish samaradorligi quyidagi omillar bilan bog'liq:

- ✓ axborotni taqdim etishning turli usullari;
- ✓ yuqori darajadagi ravshanlik;
- ✓ turli jarayonlarni simulyatsiya qilish qobiliyati;
- ✓ asosiy tarkibni o'zlashtirishdan chalg'itadigan odatiy ishlardan ozod qilish;
- ✓ jamoaviy tadqiqot ishlarini tashkil etishga yaxshi moslashish;
- ✓ ta'lim darajasiga, kognitiv qiziqishlarga va boshqalarga qarab
- ✓ talabalarning ishiga tabaqalashtirilgan yondashuv imkoniyati;
- ✓ tezkor nazoratni tashkil etish va o'qituvchillarga yordam berish.

Fizika darslarida AKTdan foydalanish usullari:

- ✓**kompyuterda modellashtirish;**
- ✓**kompyuter ko'rgazmalari;**
- ✓**laboratoriya - kompyuter ustaxonasi;**
- ✓**kompyuter testlari. Fizika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish quyidagi muammolarni yanada muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi:**
- ✓**vizual ma'lumotlarni taqdim etishning keng imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'quvchilarning obrazli tafakkurini rivojlantirish;**
- ✓**axborotni qayta ishlash va taqdim etishning dinamik usullaridan foydalanish orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish;**

Hozirgi vaqtda ta'limning haqiqiy muammosi o'quvchilar tomonidan bilimlarni ijodiy o'zlashtirishdir. Bu talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda uning shaxsini rivojlantirish va o'z-o'zini rivojlantirishni kafolatlashi mumkin. Hozirgi vaqtda ta'limning haqiqiy muammosi o'quvchilar tomonidan bilimlarni ijodiy o'zlashtirishdir. Bu talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda uning shaxsini rivojlantirish va o'z-o'zini rivojlantirishni kafolatlashi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, axborot – kommunikatsiya texnologiyalari o’quvchilarni qiziqarli olamga olib kirishda o’qituvchilar imkoniyatlarini kengaytiradi, bunda o’quvchilar axborotlarni mustaqil ravishda izlab topadilar, tahlil qiladilar va boshqalarga yetkazadilar. O’quvchilarning darsdan tashqari ishlarni tashkil etishda axborot texnologiyalardan keng foydalanish birinchi navbatda, turli hisobotlarni tayyorlash, o’z ustida ishlash kabilardan iborat bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Berkinov, A. A., Ergashev, J. K., Turaqulov, B. T. U., Toshpulatova, D. K., & Ungarov, M. N. U. (2020). Technology for the development of students ‘Educational and creative activities in solving problems in molecular physics. South Asian Journal of Marketing & Management Research, 10(11), 71-74.
2. Berkinov, A., & Umirov, J. (2021). Molekulyar fizika bo’limini kompyuter texnologiyalardan foydalanib o’qitish технологического образование, 4(4). metodikasining o’rni. Физико
3. Nurmatov, K., & Berdiqulov, E. (2021). Quyosh elementlari konstruksiyalari. Физико-технологического образование, (5).

TALABALARNI INNOVATSIYAGA JALB ETISH TEXNOLOGIYASI

A.Eshkaraev

Termiz davlvt muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik texnologiya g‘oyasi – qo‘yilgan modul maqsadidan kelib chiqib kafolatlangan natijaga ta’lim sub’ektlari birgalikda intilishlari uchun ularning tanlagan interaktiv metodlari dars mashg‘ulotini ijobiy natijaga olib kelishi, yangi zamonaviy metodlar – ta’lim oluvchilarining birgalikda fikrlashi, o‘qituvchining talabaga ta’sir qilish texnologiyasi dars mashg‘ulotini olib borishning asosiy qismi bo‘lishi yoritilgan. Interaktiv metodlar ta’lim sub’ektlari (o‘qituvchi va talaba)ning birlashgan xatti-harakatida namoyon bo‘lishi dolzarb mavzu hisoblanib ushbu maqola uning yechimi bo‘la olishi asoslangan .

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiya, sub’ektlar, o‘quv, metodlar, o‘qituvchi, talaba, natijalar, shakl ,vosita, usul, metod.

KirishTa’lim texnologiyasining innovatsion modeli – bu belgilangan vaqt va mavjud sharoitda asosiy maqsadni amalga oshirish va bashorat qilingan o‘quv natijalariga erishishni kafolatlaydigan ta’limning eng maqbul shakli, vositasi, usuli, metodikasi va texnologiyasining majmuidir.

Metodologiya Ta’lim texnologiyasining innovatsion modeli quyidagi elementlarni o‘qishga qiziqtirishga yo‘naltirilgan usul va texnologiyalarni belgilash;o‘quv jarayonini yakka va jamoa holda tashkil etish;o‘quv mashg‘ulotlari rejasini tuzib chiqish, unga asoslangan holda o‘kitish kutilayotgan natijalarga erishish uchun zarur bo‘lgan o‘qituvchi vazifalarni belgilashdir.

O‘quv faoliyatida oldindan kutilayotgan natijalar – bu o‘qitish natijasida talaba egallashi va u tomonidan bajarilishi zarur harakatlar bo‘lib, bu harakatlar orqali o‘qituvchi talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarni dars mashg‘ulotida qo‘yilgan o‘quv maqsadiga mos ekanligini bilish va haqqoniy xulosalash (baholash) imkoniga ega bo‘ladi. Bunda: talabaning dastlabki bilimlari aniqlanadi. Pedagogik texnologiya g‘oyasi – qo‘yilgan modul maqsadidan kelib chiqib kafolatlangan natijaga ta’lim sub’ektlari birgalikda intilishlari uchun ularning tanlagan interaktiv metodlari dars mashg‘ulotini ijobiy natijaga olib keladi. Yangi zamonaviy metodlar – ta’lim oluvchilarining birgalikda fikrlashidir, o‘qituvchining talabaga ta’sir qilish usuli dars mashg‘ulotini olib borishning asosiy qismi bo‘ladi. Interaktiv metodlar ta’lim sub’ektlari (o‘qituvchi va talaba)ning birlashgan xatti-harakatida namoyon bo‘ladi .Fizika o‘qituvchisi ham o‘zining psixiologik testlarini o‘tkazib berish maqsadga muvofiqdir. Jumladan: «O‘quv faoliyatdagi intilish», «Muvaffaqqiyatga erishish», «Sen kim», «Sen qandaysan», «O‘zingni angla», «O‘zingga baho ber» kabi testlar talabaning tafakkuri fikrlarini aniqlaydigan eng ustuvor yo‘nalishdir deyiladi. M: Taqqoslash testlari. «Sen o‘z fikrning ilmiy g‘oya innovatsiyalarini bayon qila olasanmi» kabi testlar. Buning natijasida talaba o‘ziga nima o‘zgarish bo‘layotganini sezadi. Talabani barcha ruhiy

holatlari o‘zgaradi. M: His qilish, qabul qilish, diqqatni jamlash, xotirani kuchaytirish, taasurot va fikrlash jarayonini ijobiy tomonga o‘zgarishga sabab bo‘ladi.Talabalarning mustaqil o‘quv metodlaridan biri - bayon qilingan fakt va materiallarni mustaqil tahlil qilish hamda yangi tushunchalar mohiyatini va faoliyat usullarini ochish bo‘yicha o‘quvchilar mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil qilishdan iborat.Izlanish metodi o‘qituvchining suhbat formasida axborot berishdan ko‘ra ko‘proq bayon qilingan fakt materiallarni mustaqil tahlil qilish hamda yangi tushunchalar mohiyatini va faoliyat usullarini ochish bo‘yicha o‘quvchilar faolligini tashkil qilishdan iborat Izlanish metodining mohiyati shundan iboratki, yangi qonun, qoidalarni kashf etish talabalar ishtirokida o‘qituvchi tomonidan emas, balki o‘qituvchining rahbarligi ostida va uning yordami bilan talabalarning o‘zlari mustaqil amalga oshiradi.

Izlanish metodi asosida o‘rganishda, fakt material talabaga o‘qituvchi tomonidan beriladi, hamda birgalikda tahlil qilinadi. Talaba o‘qituvchining yordamida yangi tushunchaning mohiyatini ochib beradi. Tadqiqot xarakteridagi topshiriqlarning bilishga oid topshiriqlardan farqi talabalarning mustaqil o‘quv – bilish faoliyatining axborotlar yig‘ish va uni tahlil qilish, muammolarini mustaqil ravishda qo‘yishdan tortib to ularni hal qilish, yechimni tekshirish va yangi bilimlarni amalda qo‘llanishgacha bo‘lgan siklni o‘z ichiga oladi.

Xulosa. Talabalar tadqiqotni xuddi ilmiy tadqiqot singari, kuzatish, materiallar to‘plash va ularni tahlil qilishTadqiqot xarakteridagi topshiriqlarning xususiyatlaridan biri, dastlabki to‘plangan materiallar tahlil etiladi va yukori samaradorlikka erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Sultonova O‘.N. Journal Impact Factor -.:7.445 ; vol -.:7 issue, 12 desember 2019 Res 7 (12) 16-22 B. www.journalijar.com

2.Sultanova. O‘.N. “The Place of Competent Approach in Interdisciplinary Relations is a Guarantee of High Efficiency”. In IJICCE, Impact Factor -.:7.488 Volume 9, Issue 5, May 2021.

FIZIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILAR MUSTAQIL O‘QUV FAOLIYATI.

A.Eshkaraev
Termiz davlvt muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya: Ta’lim jarayonining samaradorligi o‘qituvchining, o‘quvchilar mustaqil faoliyatini faollashtirishga bo‘lgan intilishlari bilan aniqlanadi. O‘quvchilarning intiluvchanlik, izlanuvchanlik, topqirlik, xislatlarini tarbiyalash, mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish va shakllantirish bosh vazifadir. Agar o‘quvchi o‘qituvchini faol tinglasa, uy vazifalarini va boshqa topshiriqlarni namunali bajarsa, mustaqil darslikni va boshqa qo‘shimcha adabiyotlarni o‘rganib, fan to‘garaklariga qatnashsa, bunday o‘quv jarayonini faol tashkil etilgan bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: mustaqil, o‘quv, pedagogik ,texnologiya, sub’ektlar, o‘quv, metodlar, o‘qituvchi, talaba, natijalar, shakl ,vosita, usul, metod.

Kirish. Agar o‘qituvchi dars davomida va darsdan tashqari ishlarda mavzularni tushunarli, sodda qilib bayon qilsa, ko‘rgazmalilik, hamda ta’limning texnik vositalarini, yangi innovatsion va noan’anaviy uslublardan foydalansa, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, o‘quv jarayoni individual va tabaqalashgan ta’lim tamoyili asosida tashkil qila olsa, ta’lim natijalari samarali bo‘ladi. Fizika darslarida o‘quvchilar mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etishda quyidagi yo‘nalishlarda tashkil qilishi mumkin: darsda mavzuga doir matni mustaqil o‘rganish;mavzuga oid mashqlarni mustaqil bajarish;eksperimental va hisoblashga doir masalalar yechish;test topshiriqlarini mustaqil yechish;tajriba va kuzatishlar o‘tkazish;jadvallar, rasm, grafik, elektr zanjirlari bilan ishlashko‘rgazmali qurollar va boshqa o‘quv vositalari bilan ishlash;mavzuga oid materialni kompyuter yordamida o‘rganish;fizik boshqotirma, topishmoq va turli individual topshiriqlarni, vazifalarni bajarish va h.k.

Metodologiya Qaysi turda bo‘lishidan qat’iy nazar, mustaqil ishlar ma’lum bir savol va topshiriqlar yordamida amalga oshiriladi. Topshiriqlar oddiydan murakkabga qarab yo‘naltiriladi va har bir topshiriq ma’lum bir didaktik maqsadni ko‘zlangan bo‘ladi. Mustaqil ishlarning alohida turlarni o‘zaro bir-biri bilan o‘zviy aloqada bo‘ladi va ma’lum sharoitda ular qo‘shilib ketishi mumkin. Masalan: fizik tajribalarni bajarish frontal tarzda amalga oshirilishi mumkin, bunda o‘quvchilar faoliyati ko‘chirma xarakterga ega bo‘ladi. Tajribalar esa, o‘rganilgan materialni mustahkamlash maqsadida

o‘tkaziladi. Ma’lumki, darsda mustaqil ishlarni tashkil qilishda, o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Agar o‘quvchilar qo‘yilgan masalani tushunsa va bajarish kerak bo‘lgan ishga qiziqsagina, yangi bilimlar yaxshi idrok qilinadi. Maqsad va vazifalarni o‘rtaga qo‘yishda, o‘quvchilarning mustaqil bilishga, o‘zini namoyon qilishga intilishini va bilim olishga chanqoqligini hisobga olish zarur. Agar shu ehtiyojlarni qondirishga sharoit yaratilgan bo‘lsada, o‘quvchilarni mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etishda bilishga bo‘lgan qiziqishini oshirish murakkab masala bo‘lib, o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi samaradorlik natijasi ana shu masalaning qanday hal qilinishiga bog‘liq holda yuzaga chiqadi. O‘qituvchi dars boshlanishidan bilimga qiziqish paydo bo‘lishi muhimligini e’tiborga olgan holda metodikaning turli aspektlarini o‘ylaydi. Ularning eng muhimlari 3 ta holatga tegishli: birinchidan, o‘quvchilar diqqatini dars maqsadi va vazifalariga qaratish; ikkinchidan, takrorlanayotgan va yangidan o‘rganilayotgan material mazmuniga qiziqish uyg‘otish; uchinchidan, o‘quvchilarni ular uchun qiziqarli bo‘lgan ish shakliga kirishishini ta’minlashdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Sultonova O‘.N. International Jurnal oh F CrossRef indexed. Independent learning of students

2.Sultanova O‘.N. “Vased on students’competency-based approach to physics colve 3.Sultanova O‘.N. Technology for solving problems using graphical methods in

FIZIKA KURSIDA ZAMONAVIY ENERGIYA MANBALARIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH.

O‘.N.Sultonova

Termiz davlat muxandislik va agrotexnologiyalar universiteti


Annotatsiya.Ushbu maqolada BMT Bosh Assambleyasining 2015-yil 25-sentabrdagi 70-sessiyasida qabul qilingan rezolyusiyada “2030-yilga kelib ekologik toza energiya ishlab chiqarish tadqiqoti va texnologiyasi, jumladan qayta tiklanadigan energiya manbalari va ularning samaradorligini oshirish, ilg‘or texnologiyalardan foydalanishda xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish, energiya infratuzilmasi, zamonaviy energiya texnologiyalariga sarmoya kiritishni rag‘batlantirish” asosiy dolzarb vazifalardan biri etib belgilanganligini e’tiborga olib ushbu maqola yoritildi.

Kalit so‘zlar. Energiya, manba, zamonaviy , ekologik , bilim, fotoenergetika, elektr, fotoo‘zgartkichlar.

Kirish.O‘quvchilarning zamonaviy energiya manbalariga oid kompetensiyalarni shakllantirish, tasavvur qilish qobiliyatlarini rivojlantirish, ekologik toza energiya ishlab chiqish va undan samarali foydalanish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Bu esa fizika fanini o‘qitishda zamonaviy energiya manbalariga oid kompetensiyalarni shakllantirishning metodik tizimini ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.


Quyosh energetikasi. Quyosh fotoenergetikasi deganda, fizikada fundamental qonunlardan biri, ichki fotoeffekt qonuni asosida quyosh yorug‘lik nurlanish energiyasi elektr yoki issiqlik energiyasiga (isitish tizimi, issiq suv va hakozo) aylantirib berish sohasi tushuniladi. Bunda quyosh yorug‘lik nurlanishini yaxshi yutadigan materiallardan (asosan kremniy xom-ashyo materiali hisoblanadi) turli xildagi va mexanizmdagi fotoo‘zgartkichlar yoki fotoaylantirgichlar, fotoelementlar hosil qilinadi. (tayyorlanadi). Quyosh optik nurlanish energiyasi Yer sharining 1 m^2 yuzasiga o‘rtacha 1370 J energiya tushishi aniqlangan. Bundan ko‘rinadiki, kelajakda insoniyat turmush tarzida quyosh energiyasidan foydalanishni yanada takomillashtirish, yangi zamonaviy konstruksiyalarni yaratish va barcha sohalarda energiya manbai sifatida foydalanishni keng joriy etish rivojlanib borishi kutilmoqda. Quyosh optik nurlanish energiyasini elektr energiyasiga aylantirishda quyosh fotoelementlari yoki ulardan tashkil topgan (1-rasm) quyosh panellari (quyosh batareyalari) va ular asosidagi quyosh fotoelektrik sistemalaridan foydalaniladi 4,Fotonning yutilishi elektron-kovak juftligini hosil qilishga olib keladi. 2. Elektr maydon ta’sirida p-n o‘tish chegarasidagi ba’zi elektronlar va teshiklar rekombinatsiyasi kuzatiladi. 3. P-n o‘tish chegarasida elektronlar va teshiklar musbat hamda manfiy qutblarga ajraladi. 4. Qutblarga ajralgan elektron va kovaklar elektr zanjirida elektr tokini hosil qiladi. 5. Qutblar qisqa tutashtirilganda yoki ularga

iste’molchi ulanganda elektronlar va kovaklarning shu qismda rekombinatsiyasi hosil bo‘ladi .



1–rasm. Quyosh batareyasining eng sodda modeli

Panel quyoshdan olingan energiyani elektr energiyasiga aylantirish orqali ishlaydi. Quyosh energiyasidan elektr energiyasi olish 2.-rasmda keltirilgan konstruksiya orqali amalga oshiriladi. Quyosh nurlanishi (1) panel (batareya) yuzasiga (2) tushadi va panelda yorug‘lik energiyasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri elektr energiyasiga aylantiriladi. Kontroller (3) yordamida quyosh panelida (batareyasi) olinadigan elektr energiya nazorat qilinadi. Akkumulator (4) elektr energiyasini to‘plash va kunning tungi qismida ishlatish uchun xizmat qiladi. Invertor (5) o‘zgarmas 12 V kuchlanishli elektr tokini o‘zgaruvchan (6) 220 V kuchlanishli elektr tokiga aylantirib beradi.



2-rasm. Quyosh energiyasidan elektr energiya olish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1,Abdiev U.B., Xaliyarov J.X. Fizikada zamonaviy energiya manbalariga oid elementar tushunchalarni shakllantirish metodikasi / O‘quv-uslubiy qo‘llanma – Termiz, 2021. – 28 b.

2. A.B.Alxasov. Vozobnovlyaemые istochniki energii / M.: Izdatelskiy dom MEI, 2016. 270 c.

3. Germanovich V., Turilin A. Alternativnые istochniki energii i energosberejenie. Prakticheskie konstruksii po ispolzovaniyu energii vetra, solnsa, vodы, zemli, biomassы.-SPb.: Nauka i texnika, 2014. – 320 s.

4. Robert Ehrlich. Renewable energy / 2013 by Taylor & Francis Group, LLC

INNOVASION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI- YUQORI SAMARADORLIK GAROVIDIR.

O‘.N.Sultonova
Termiz davlat muxandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya Ushbu maqolada, ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarini o’quv jarayonida joriy etish ko’lamini kengaytirish, bu yo’nalishda ilg’or tajribalardan foydalanish, har bir fan bo’yicha bu sohada aniq rejalarni tuzish va amalga oshirish, ilmiy va ilmiy-metodik ishlarda o’quv – tarbiya jarayonida innavatsion ta’lim texnalogiyalarning keng joriy etilish orqali ta’lim sifatini yanada oshirish shuningdek, dars jarayonini metodik qo’llanmalar orqali, slaydlar,multvediya vositalari orqali yuqori saviyada tashkil etishga oid tavsiyalar ,metodik tavsiyalar ,fan va amaliyot hamkorligi muammo siofatida o’rganilib dolzarb mavzuning yechimi o‘z ifodasini topgan.


Kalit so‘zlar talabalar, innovatsion, texnologiya ,ilmiy metodik,o’quv – tarbiya .ta’lim . sifat, slaydlar,multvediya, laboratoriya ,amaliy.

Kirish. Ta’lim texnologiyasining innovatsion modeli – bu belgilangan vaqt va mavjud sharoitda asosiy maqsadni amalga oshirish va bashorat qilingan o‘quv natijalariga erishishni kafolatlaydigan ta’limning eng maqbul shakli, vositasi, usuli, metodikasi va texnologiyasining majmuidir. Innovatsion ta’lim texnologiyasi to‘g‘risida G.V.Repkina, Ye.V.Zayka kabi pedagog va psixologlar « Ta’limni rivojlantirish uchun shunday shart sharoitlar yaratish lozimki, unda talaba o‘quv jarayoniga intilsin, bu esa talabani ijobiy tomonga o‘zgarishga muxit yaratadi va o‘ziga ehtiyoj, majburiyat sezadi». Talaba uchun bilimini boyitib borish uning ehtiyojiga aylanadi, u endi majburiy ravishda emas, kelajak uchun bilim kerakligini, o‘z istagi bilan o‘rgana boshlaydi.Talabalarning maxsus tayyorgarligini ko‘rish uchun testlar o‘tkaziladi

Materiallar va usullar. Ta’lim texnologiyasining innovatsion modeli quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:o‘qitish maqsadlarini aniq ifodalash;nazariy va amaliy materialni tanlash hamda uni o‘quvchilarga yetkazishning yo‘llarini aniqlash;mavzuning tayanch tushuncha va iboralarini ajratish;o‘qishga qiziqtirishga yo‘naltirilgan usul va texnologiyalarni belgilash;o‘quv jarayonini yakka va jamoa holda tashkil etish;o‘quv mashg‘ulotlari rejasini tuzib chiqish, unga asoslangan holda o‘quv faoliyatidan oldindan kutilayotgan natijalarni aniqlash;

Fizika fanidan “Suyuqlik va uning xossalari” mavzusida talabalarning kompetensiyalarini shakllantirishda dars mavzusiga oid muammoli vaziyatni vujudga keltirish orqali talabalarda innovatsion qiziqishlari motivatsiyani uyg‘otishga harakat qilamiz.

1. Stakanning qaysi biridagi suv sho‘rroq?
2. Muz, ayniqsa qor parchalari yorug‘lik nurlarini juda kuchli sindiradi. Agar nurni kamroq sindirsa, tabiatda qanday holatlar yuz beradi?

1. Стаканнинг қайси биридаги сув шўрроқ?		2.Муз, айниқса қор парча-лари ёруғлик нурларини жуда кучли синдиради. Агар нурни камроқ синдирса, табиатда қандай ҳолатлар юз беради?	

“Suyuqlik va uning xossalari‘‘ mavzusida talabalarning suyuqliklarning asosiy xossalari, fizikaviy va kimyoviy xususiyatlarini eshitish, gapirish orqali o‘z fikrini og‘zaki aniq va tushunarli bayon qila olishlari, suvning tabiatdagi va inson organizmidagi ahamiyati, kimyoviy formulalarini yozish orqali ularning yozma nutqi shakllanadi, fizik hodisalarning fanlar bilan aloqadorligini, mavzuga oid fizik terminlarning boshqa tillarda nomlanishini

bilishi va o‘z bilimiga asoslangan holda boshqalar fikrini hurmat qilgan holda qat’iy fikrga ega bo‘lish, turli muammoli vaziyatlarda, o‘z bilim va ko‘nikmalariga tayangan holda har bir fizik hodisa, tushuncha va qonuniyatlar asosida qaror qabul qila olishi orqali talabada ushbu kompetensiya shakllanadi. Masalan,

Расмда суюқликнинг қандай хусусиятлари намоён этилганини сўзлаб беринг?		Берилган фанлардан қайси бири берилган расмдаги суюқлик хоссасини тавсифлайди	

“Suyuqlik va uning xossalari” mavzusini o‘rganishda suyuqlik haqidagi manbalarni topish, tanlash va undan samarali foydalanish, suyuqlik xossalari, xususan, suvning inson hayotidagi ahamiyati, kundalik turmushdagi qo‘llanilishini tahlil qilish orqali mazkur kompetensiya shakllantiriladi.

“Suyuqlik va uning xossalari‘‘mavzusini mustahkamlash uchun yer yuzidagi suv va quruqlik maydonlari nisbati, sho‘r va chuchuk suv havzalari, yomg‘ir va qorning hosil bo‘lishi, inson organizmidagi suyuqlik miqdori va uning almashinish jarayonini tushunish, qish va yokunlaridagi ichayotgan suyuqlik (suv) nisbatlarini asoslay olish, sog‘lom turmush tarziga amal qilishda suyuqlikning ahamiyati haqida hayoti davomida o‘qib-o‘rgangan, bilim, tajribasiga tayangan holda masala yechimiga mustaqil ravishda intellektual yondashish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

1. Расмдаги физикавий ҳодисада суюқлик ўзининг қандай хоссаларини намоён қилмоқда?		2.Берилган расмнинг суюқликка алоқадорлигини изоҳлаб беринг?	

2. Tajribalar o‘tkazish, va xulosa chiqarish

“Suyuqlik va uning xossalari” mavzusini o‘tishda talabalarga suyuqlik hajmi, zichligi, massasi, issiqlik sig‘imi, formulasi, birliklari hamda ularni qanday o‘lchash haqida bilim beriladi. Mavzuni mustahkamlash fizik kattaliklarni o‘lchash, aniqlash va amaliyotda qo‘llay olish maqsadida masalalar beriladi.

Munozara bo‘limi. Texnika oliy ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitishning metodik tizimi o‘qituvchining innovatsion faoliyati, talabaning mustaqil ta’lim olishi didaktik jarayonining psixologik-pedagogik komponentlarini innovatsion talim muhitida tajriba faoliyati variativligini soddalashtirib borish asosida aniqlashtirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Sultonova O‘.N. International Jurnal of Advanced Research F CrossRef indexed. Independent learning of students on tihe bass of competence based approach isa guarentee of high efficiency.” Journal Impact Factor -.:7.445 ; vol -.:7 issue, 12 desember 2019 Res 7 (12) 16-22 B. www.journalijar.com

2. Sultanova. O‘.N. “The Place of Competent Approach in Interdisciplinary Relations is a Guarantee of High Efficiency”. In IJICCE, Impact Factor -.:7.488 Volume 9, Issue 5, May 2021.

3. http://ijircce.com/admin/main/storage/app/pdf/Sx97XFNk9dc709DHPqRISxu4gNd3dfKKSZYTV5ug.pdf

FIZIKADAN MASALALAR YECHISHNING ALOXIDA USLUBI

R.G‘.Ikramov[1];R.M.Jalalov[2]; O.T.Ismanova[2]

Namangan muhandislik texnologiyalari instituti[1]; Namangan davlat universiteti[2]


Annotatsiya: ushbu tezisda maktab fizika darslarida fizika fanidan masalalar yechishning aloxida uslublari o‘qitish metodikasi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: fizikadan masalalar, noma’lum son, tenglama

Fizikadan masalalar yechish uquvchi va talabalarda fizikadan olgan bilimlarini mustahkamlashda aloxida o‘rin egallaydi.

Masala yechishning turli o‘quv qo‘llanmalari usullari bayon qilingan, shu bilan birga ayrim masalalarni yechish jarayoni turli tenglamalar tuzish undan noma’lumni topishga to‘g‘ri keladi. Shu sharoitda noma’lumlar soni tenglamalar sonidan ko‘p bo‘lib qolishi mumkin. Bunday sharoitda noma’lumlarni masala shartida ko‘zda tutilmagan nisbatlardan foydalanib, tenglama va noma’lumlar sonini tenglashtirish oqali yechish mumkin.

Masala. Voltmetrga o‘zgaruvchi qarshilik (rezistor) ketma-ket ulangan xolda tok manbaiga ulandi. Agar rezistor qarshiligi uch marta kamaytirilsa voltmetr ko‘rsatishi qancha o‘zgaradi.



Yechish: berilgan elektr zanjiri uchun ushbu tenglamani tuzish mumkin. $U_1 = I_1 R_B = \dfrac{\varepsilon R_B}{R + R_B + r}$ bunda U_1 - voltmetr ko‘rsatishi, R_B - uning qarshiligi ε - manbaning EYK si, I_1 - zanjirdagi tok kuchi

ikkinchi hol uchun $I_2 = \dfrac{\varepsilon}{\dfrac{R}{3} + R_3 + r}$ chunki, $U_2 = I_2 R_B$ $U_2 = 2U_1$

Ulardan $2U_1 = \dfrac{\varepsilon R_B}{\dfrac{R}{3} + R_3 + r}$ (2) Uchinchi hol uchun $I_3 = \dfrac{\varepsilon}{R_3 + r}$

Voltmetr ko‘rsatuvchi kuchlanish $U_3 = \frac{\varepsilon R_B}{R_3 + r}$ (3)

masala shartiga binoan $k = \frac{U_3}{U_1}$ ni aniqlash kerak. ushbu to‘rtta tenglamaga kiruvchi yettita kattalik noma’lum. Bu holda quyidagi qisqartirishni kiritamiz. $\varepsilon R_B = b$ $R_B + r = R_0$ u holda tenglamalar

$$U_1 = \frac{b}{R + R_K} \quad (5) \quad 2U_1 = \frac{3b}{R + 3R_0} \quad (6) \quad U_3 = \frac{b}{R_0} \quad (7) \quad k = \frac{U_3}{U_1} \quad (8)$$

Noma’lumlarni yana kamaytirish uchun (7) ni (5) ga va (6) ga bo‘lib , (8) ni xisobga olsak $\frac{U_3}{U_1} = \frac{R + R_0}{R_0}$, $\frac{U_3}{2U_1} = \frac{R + 3R_0}{3R_0}$ dan

$k = \frac{R + R_0}{R_0}$ (9) $\frac{k}{2} = \frac{R + 3R_0}{3R_0}$ (10) bu sistemada ikki tenglama (9), (10) da uchta noma’lum bor. (9) va (10) sistemani $k = \frac{R}{R_0} + 1$ *ва* $\frac{k}{2} = \frac{R}{3R_0} + 1$

Unda $\frac{R}{R_0} = C$ desak $\begin{cases} k = C + 1 \\ 3k = 2C + 6 \end{cases}$ dan C ni chiqarib k - ni topamiz.

$C = k - 1$ *дан* $3k = 2(k-1) + 6$ *дан* $3л = 2л - 2 + 6$

$k = 4$

Xuddi shunga o‘xshash masalalarni fizikaning boshqa bo‘limlaridan ham keltirish mumkin.

Xulosa. Fizika mutaxassisligi bo‘yicha o‘quvchilarni olimpiadalarga tayyorlashda masala shartidan kelib chiqib tuzilgan tenglamalarda noma’lumlar soni tenglamalar sonidan ko‘p bo‘lgan xollar uchun o‘quvchilarni tayyorlashlik, o‘quvchini bilim va ko‘nikmasini oshishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.Sadriddinov, A.Raximov, A.Mamadaliyev, Z.Jamolova. “Fizika o‘qitish uslubi asoslari” Namangan 2003
2. N.Sadriddinov, “Fizika o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanma, Namangan 2010 y.
3. Bugayev A.I.Metodika prepodavaniya fiziki v sredney shkole. M:"Prosvesheniye".1981.
4. Yerunova L.I. Urok fiziki i yego struktura pri kompleksnom reshenii zadach obucheniya.M.: "Prosvesheniye" .1988.

ФОРМИРОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ САМООБРАЗОВАНИЯ СТУДЕНТОВ

Ш.К.Мухитдинова

Наманганского государственного университета

Аннотация: В данной работе рассматривается проблема организации самообразовательного процесса обучения, с помощью внедрения инновационной деятельности студентов в вузе.

Ключевые слова: инновационная деятельность, самообразовательный процесс, компетенция, творческое мышление.

Самостоятельная учебная нагрузка определяется как часть учебной нагрузки, предусмотренной для освоения конкретного предмета в учебной программе бакалавриата или магистратуры.

Самостоятельный процесс – это процесс совокупности задач, которые учащийся выполняет самостоятельно и под руководством преподавателя.

Основная цель организации самостоятельного обучения заключается в закреплении и обогащении полученных знаний по науке (модулю), развитии практических навыков и компетенций в работе с информацией, саморазвитии, вербальной и заключается в формировании профессиональных компетенций путем работы в невербальной форме, которое позже будет называться инновационной деятельностью.

Организация самостоятельного образования должна служить успешному решению следующих задач:

-достижению формирования профессиональных компетенций, позволяющих обучающимся развиваться, получать самостоятельные знания и формировать инновационную деятельность;

-подготовка зрелого специалиста, способного глубоко анализировать вопросы и проблемные ситуации в конкретной области и находить оптимальные пути их решения;

-формирование способности студента мыслить самостоятельно;

-обеспечение развития общекультурных и профессиональных компетенций, навыков самостоятельной деятельности и творческого мышления у студентов.

Таким образом, формирование умений самообразовательной деятельности студентов обеспечивается интегративной системой заданий, включающей в себя самоанализ, анализ деятельности однокурсников, разрешение профессиональных проблемных ситуаций [4]. Опытно-экспериментальная работа показала, что формирование умений самообразовательной деятельности проходит более успешно в рамках

уровневой задачной системы, которая позволяет формировать и совершенствовать специальные, методико-практические и исследовательские самообразовательные умения. Предложенная система эффективна, об этом мы можем судить, анализируя отличительные признаки. Результатом и целью системы повышения самообразования будущего учителя, как важного элемента уровня его профессиональной готовности, является овладение студентами умениями самообразовательной деятельности от репродуктивного до творческого уровня. Показателями, характеризующими данные уровни, являются: • овладение специальными профессиональными знаниями; • овладение новыми технологиями изучения источников информации; • овладение умениями и навыками самообразовательной деятельности; • проявление творческой инициативы при решении специальных профессиональных задач. • познавательная самостоятельность и активность. Изучая самообразовательную деятельность студентов и анализируя литературу, мы выделяем три уровня формирования умений самообразовательной деятельности будущих учителей: репродуктивный, реконструктивный и творческий, каждый из которых является более высоким по сравнению с предыдущим. Нами разработана технология формирования у студентов умений самообразовательной деятельности, основой которой является методика формирования умений самообразовательной деятельности с помощью решения заданий и задач с оценкой уровня их сформированности.

СПИСОК ЛИТЕРАТУР:

1. Ананьев Б.Г. К психофизиологии студенческого возраста // Современные психолого-педагогические проблемы высшей школы. – Л., 1974.
2. Закирова Г.Д., Наренова М.Н., Кеншинбай Т.И., и др. Реформирование высшего образования в Казахстане и Болонский процесс: информационные материалы для практических действий. – Алматы, 2009.
3. Кузинёва Е.Г. Формирование умений самообразовательной деятельности у будущих учителей начальных классов: диссертация на соискание академической степени магистра педагогики и психологии. – Костанай, 2011.
4. Лесков Л.В. Семантическая вселенная: МБК-концепция // Вестник МГУ, философия. Апрель. 1994.
5. Щукина Г.И. Активизация познавательной деятельности учащихся в учебном процессе. – М., 1979.

FIZIKA FANIDAN NAMOYISH VA LABORATORIYA TAJRIBALARINI O‘TKAZISHDA MEDIA RESURSLARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

O.D.Suvonova

Amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola fizika fanidan namoyish va laboratoriya tajribalarini o‘tkazishda media resurslar tarkibiga kiruvchi dasturlardan foydalanish yo‘llari bayon qilingan.

Kalit so’zlar: namoyish eksperimenti, laboratoriya eksperimenti, mediaresurs, pedagogik dasturiy vositalar, “Phet simulation” dasturi, “Physics at school” dasturi.

Mediaresurslardan ta’lim tizimida, ayniqsa fizika faninidan namoyish va laboratoriya tajribalarini o‘tkazishda foydalanish - darsliklarning elektron versiyalari, elektron darsliklar, elektron plakatlar, hodisa va jarayonlarning virtual modellari, test dasturlari va laboratoriyalarning virtual stendlarini yaratish, masalalar yechish va hokazo bosqichlardan iborat bo‘lib, talaba va o ‘quvchilarning fizika faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda, hodisa va qonuniyatlarni chuqurroq anglab yetishlarida, masofaviy va mustaqil ta’lim olishlarida muhim ahamiyatga egadir.

Mediaresurslarning asosini pedagogik dasturiy vositalar tashkil etadi. Pedagogik dasturiy vositalar–kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o‘qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o‘quv fani bo‘yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta’minot, qo‘shimcha va yordamchi vositalar kiradi.

Fizikani o‘qitishda nazariy bilim berish va masala yechish mashg‘ulotlari bilan bir qatorda fizikadan namoyish va laboratoriya ishlarini o‘tkazish ham uning muhim komponentlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Chunki, fizika fani eksperimental fan bo‘lganligi uchun u namoyish eksperimenti va laboratoriya mashg‘ulotlari asosida o‘rganiladi. Ma’lumki, ta’lim bosqichlarida fizika o‘qituvchilari shu kungacha namoyish eksperimenti, laboratoriya ishlarini an’anaviy usullarda tashkil qilib kelmoqda. Lekin, hozirgi kunda axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan bir vaqtda laboratoriya mashg‘ulotlarini ham zamonaviy usullarda tashkil etishga zaruryat tug‘ilmoqda. Shuning uchun ham real fizik laboratoriya mashg‘ulotlarini zamonaviy darajada kompyuterda modellashtirish, ya’ni fizikadan virtual laboratoriyalarni yaratish fizika ta’limida dolzarb muammolarning biridir. Bu kabi muammolarni bartaraf qilish maqsadida keyingi yillarda real fizik laboratoriya ishlarini kompyuterda modellashtirish, ya’ni fizikadan virtual laboratoriyalarni


yaratish bo‘yicha bir qancha ilmiy ishlar olib borilayotganining guvohi bo‘lishimiz mumkin.


Ta’lim tizimida samarali natijaga erishishimiz uchun foydalanishimiz mumkin bo‘lgan bir necha dasturiy vositalar yaratilgan va kun sayin, davr talabiga mos ravishda rivojlanib bormoqda. Fizikadan namoyish va laboratoriya eksperimentlarini o‘tkazishda dasturiy vositalardan foydalanish talabalar va o‘quvchilar tasavvurlarini kengaytirishda, ularning bilimlarini yanada oshirishga asos bo‘ladi

Fizikani o‘qitishda ana shunday rivojlanishda davom etayotgan yetakchi dasturiy vosita sifatida “Phet simulation” dasturi va “Physics at school” dasturlarini misol sifatida keltirish mumkin. Bu ikki dastur fizika mavzularini nazariy jihatdan amaiyotda qo ‘llash imkonin beradi.



Phet simulations dasturi





“Physics at school” dasturi

“Phet simulation” dasturida o‘qituvchilarga fizik jarayonlarni modllashtirish uchun uslubiy ko’rsatmalar berilgan, shuningdek 100 dan ortiq fizik jarayonlar modellashtirilgan va 10 dan ortiq laboratoriya ishlarinig virtual ko ‘rinishlari ishlab chiqilgan. “Physics at school” dasturi esa android talqinida ishlaydi. Kompyuter orqali foydalanish uchun “Start BlueStacks” dasturini kompyuterga o‘rnatish kerak. Shu orqali bu dasturdan ham fizikaning barcha bo‘limlariga oid namoyish va laboratoriya eksperimentlaridan foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ta’limda fizik hodisalarni namoyon qilishda media resurslardan foydalanish yaxshi natijalar bermoqda. Yuqorida keltirilgan dasturlardan ma’ruza jarayonida qo‘llash natijasida qisqa vaqt ichida kerakli axborotni tinglovchi va o‘quvchilarga ko‘rgazmali qilib yetkazish imkoniyati bor. Bu esa o‘quv samaradorligini oshirishning muhim omili bo‘lib xizmat etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduraxmonov Q.P. , Hamidov V.S., Xolmedov H.M. Fizika fanidan virtual laboratoriya ishlarini bajarish uchun uslubiy qollanma. TATU. 2007 y.

2. D.A. Begmatova va b. Fizika o‘qitish metodikasi Toshkent “Metodist nashriyoti” 2024 y.

ASTRONOMIYA DARSLARINI TASHKILLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.

K.F.Yusupova
Qo’qon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada astronomiya dars jarayonlarida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida foydalanish lozim vazifalari haqidagi kerakli ma’lumotlar va manbalar keltirib o’tilgan. Maqolada raqamli texnologiya, ta’limda raqamli texnologiyadan foydalanish, raqamli texnologiyani ta’lim tizimi vostilari, raqamli texnologiyasini ustunliklari.

Kalit so’zlar. Ta’lim, raqamli texnologiyalar, ta’limda raqamli texnologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta’lim, Internet tizimi.

Hozirgi axborotlashgan zamonga kelib dunyoda ta’lim berish va ta’lim olish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Chunki aynan sifatli ta’lim yosh o’sib borayotgan kelejakni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham davlatlar ta’lim sohasiga kata mablag’ ajratmoqdalar. Bu borada bizning O’zbekistonda ham ulkan ishlar olib borilmoqda Shunday bo’lishiga qaramay ta’lim tizimimizda hali o`z yechimini kutayotgan qator masalalar bor. Yosh o’sib kelayotgan avlodni vaqtini mazmunli tashkillash, hamda ularni axborotning salbiy jihatlariga vaqt sarflamasliklari uchun nazoratni kuchaytirish zarur. Hozirgi axborot texnologiyalari kuchaygan bir vaqtda o’quvchilarga mazmunli va sifatli darslarni tashkillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar rivojlangan bir paytda o’quvchilar turli qo`shimcha materiallarni o’zlashtirish uchun ham yirik xajmdagi adabiyotlar va kata qappaygansumkalarni ko`tarib yurishga majbur bo’may qoldi. Endilikda ta’limni raqamlashtirish jarayoni boshlandi. Ta’lim tizimining hozirgi holati noan’anaviy ta’lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta’lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o‘zlashtirish an’anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, masofaviy meditsina xizmatlari ko‘rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlar saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin. Va shu bilan bir qatorda astronomiya darslarini har xil 3D-texnologiyalar bilan o’qitish darsni yanada sifatli qilib berishga yordam beradi. Bu esa o’quvchilarning ilmiy salohiyatini oshishga yordam beradi. O’quvchilarni bo’sh paytlarini mazmunli tashkillash uchun ham juda qulay hisoblanadi. Astronomiya darslarini o’quvchilarga o’qitish uchun grafikli

harakatlanuvchi rasmlarda foydalanib o’tish samarali va darslarni qiziqarli ko’rinishiga yordam beradi.

Xulosa. Ma`lumotlarni kuzatish natijasida quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: Xulosa sifatida aytish mumkinki, raqamli texnologiyalarni turli sohalarga nafaqat ta’lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda katta rol o‘ynashini ko’rishimiz mumkin. Zamonaviy ta’limni tashkil etish va ta’lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi va astronomiya darslari qiziqarli va jozibali o’tishiga yordam beradi. Bugungi kun auditoriyalari o’n yil avvalgilaridan juda kata farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta’lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo’lgani kabi O’zbekistonda ham raqamli avlodning yetti ekranli avlodi-televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smart soatlari paydo bo’lmoqda. Bunday zich raqamli muhitga o’quvchilarni tayyorlash va ulardan unumli foydalanish zarur. Bu esa ta’lim sifatini yaxshilashga yordam beradi. Yosh o’sib kelayotgan avlodlarni kelajakda yetuk insonlar qilib tarbiyalash muhim ro’l o’ynaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1.Yuldashev,U.A., Xudoyberdiev, M.Z.,&Axmedov, T.B.(2021). O‘quv jarayonining sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. // Academic research in educational sciences, 2(3), 1262-1268.

2.Yuldashev U.A. Use of video lesson creative technologies in the process of electroni ceducation // Scientific-Methodical Journal-T 2021.

FIZIKADAN KEYS TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH USULLARI

D.N.Mamadjonov
Namangan davlat unversiteti.

Annotatsiya. Maqolada o‘rta ta‘lim maktablarida fizika oqitilishi holati, tahlili va keys texnologiyasidan foydalanish misolida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni fizika ta'limi sifatini oshirishga qaratilgan yondashuvlar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so`zlar. Texnologiya, case-study, keys texnologiyasi, innovatsion, kognitiv**.**

O‘quv jarayonida fizika fani o‘qituvchilarini o‘zlari innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirishlari lozim, ular, o‘yin dizayni, aqliy hujum, keyslar, treninglar, vaziyatni tahlil qilish, jamoaviy ijodiy yechimlar usuli va boshqalarni o‘z faoliyatlarida qo‘llashlari orqali o‘quvchilarda asosiy kompetentsiyalarni shakllantirib, zamonaviy sharoitlarda muammolarga tahliliy tanqidiy fikrlash bilan yondashadigan yoshlarni tarbiyalashga erishishlari mumkin bo‘ladi.

Fizika darslarida vaziyatni tahlil qilish texnologiyasidan (case-study) foydalanish asosan guruhda ishlash bilan o‘quvchilarda yangi bilimlarni olish va murakkab amaliy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini egallashga imkon yaratadi.

O‘quv mashg‘ulotlarida talabalarni rivojlantirishning mumkin bo‘lgan zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan biri bo‘lgan keys-stadi usuli muayyan aniq vaziyatni ko‘rib chiqish va tushunishdan iborat bo‘lib, u nafaqat har qanday amaliy muammoni aks ettiradi, balki ushbu muammoni hal qilishda qo‘llanilishi va o‘rganilishi kerak bo‘lgan ma‘lum bilimlar to‘plamini yangilaydi[1]. Keys bilan samarali ishlash, o‘quvchilarni amaliy materiallar bilan individual mustaqil ishlashiga ham, muammoni tahlil qilish va mumkin bo‘lgan yechimlarni muhokama qilishga ham imkon yaratadi. Bu texnologiyaning yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, bilim o‘quvchiga tayyor shaklda berilmaydi, balki uni o‘quvchi o‘z faoliyatida o‘zlashtiradi va mustahkamlaydi.

Vaziyatni tahlil qilish texnologiyasi bo‘yicha muammoni aniq shakllantirishda, "Nima uchun?", "Ijobiy natijaga qanday erishish mumkin?" va hokazo kabi savollarni berishga ko‘poq e‘tibor qaratiladi.

Bu texnologiya bilan ishlashning an‘anaviy sxemasi quyidagi bosqichlar ketma-ketligida amalga oshiriladi.

1. Birinchi bosqich muayyan vaziyat bilan tanishishdan boshlanadi va bunda muammoli vaziyatni tushunish va vaziyat bo‘yicha qaror qabul qilishni tushunishdan iborat bo`ladi.
2. Qidiruv bosqichi topshiriq materiallaridan olingan va mustaqil ravishda to‘plangan ma‘lumotlarni baholashni o‘z ichiga oladi va u yechimni aniqlash va uni baholash uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni topish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi.
3. Muhokama bosqichi muqobil yechimlar imkoniyatlarini muhokama qilish va muqobil fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi.
4. Munozara bosqichida o‘quvchilarni alohida guruhlari o‘z qarorlarini himoya qiladilar va yechim variantlarini taqqoslash va baholash amalga oshiriladi.
5. Natijalarni solishtirish bosqichida o‘quvchilarni turli guruhlarida qabul qilingan qarorlarni taqqoslash orqali har bir guruh o‘z qarorlarini asosli himoya qilishini o‘z ichiga oladi.

6. Yakunlovchi bosqichda guruhlarda turlicha yechimlar topilib yakuniy natijalar umumlashtiriladi va individual qarorlarning o‘zaro bog‘liqlikdagi manfaatlari baholanadi.

Yuqoridagi bosqichlar ketma-ketligida to‘la va har tomonlama munozaralardan so‘ng muammo yechimi bo‘yicha yakuniy natijaga o‘quvchilar bevosita o‘z faoliyatlari orqali keladilar. Albatta yaxshi keys texnologiyasi quyidagi talablarga javob berishi lozim. Bunda keysning yaratilishi qo‘yilgan maqsadga aniq mos kelishi, ma'lum darajadagi qiyinchilikning mavjudligi, real hayotdagi hodisalar jihatlarini tasvirlashi, ya‘ni amaliyotga yaqinligi, zamonga mos dolzarbligi , tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi, bahs chiqara oladigan bo‘lishi va bir necha yechimlarni mavjudligi kabi holatlarni o‘zida aks ettirishi kerak[2].

Yuqorida aytganimizdek, maktab ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha fizikani o‘qitish jarayonida amaliyotga yo‘naltirilgan vazifalar va vaziyatlar (holatlar) katta o‘rin o‘ynaydi. Shuning uchun hayotda uchrab turadigan quyidagi holat misolida keys-stadi texnologiyasi tadbiqini ko‘rib chiqaylik.

Biz 10-11-sinflar uchun “elekrtomagnetizmdan solenoidda magnit maydon yusaga kelishi” misolida holatni quyidagicha ifodaymiz.

Maktab o‘quvchilari yig‘ishtirib to‘plagan eski temir tersaklar ichidan dastlab metalni, alyuminiyni va plastiklarni qo‘lda ajratib, so‘ngra mashinalarga ortilgan, keyinchalik temirlarni alohida alyuminiy va plastikalarni alohida avtomat ravishda ajratib mashinaga yuklab beradigan maxsus texnika yaratilgan.

Ish savollari

1- Qanday fizik hodisadan foydalanib metalni aralashmadan ajratib olish mumkin bo‘lgan.

2- Og‘ir metallarni yuklash uchun nimalarga e‘tibor qaratish kerak .

Ish jarayonida o‘quvchilar ushbu holatlar haqida qo‘shimcha ma‘lumotlarni internetdan, turli elektron ommaviy axborot vositalaridan va adabiyotlardan ko‘rishadi. Ish ustida ishlash o‘quvchilarda ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otadi. Natijada o‘quvchilar elekromagnit hodisasi va undan foydalanish yo‘llarini qidirish bilan texnik fikrlash qobiliyatlari namoyon qilib navbatdagi darsga qiziqish bilan ma‘ruza va taqdimotlar tayyorlaydilar. Shuningdek, ushbu ish bilan ishlash o`quvchilarni texnologiyada va kundalik hayotda elektromagnetizmni turli yo‘nalishlardagi keng imkoniyatlarini ochishga va loyiha shaklida tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanishga undaydi.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash kerakki, keys texnologiyasidan foydalanish o‘quvchi shaxsini rivojlantirish, fizikani o‘rganish va o‘zlashtirishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish omillaridan biri bo‘lib, fizika fanidan nazariy bilimlarni qo‘llashning dalil bazasi va namoyishi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA ELEKTRON RESURSLAR RO'YXATI

1.Д.Н.Мамаджонов, Х.О.Кучкаров, А.Б.Набиев “Установка для демонстрации силы лоренца в электролитах” "Qishloq va suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni qo'llash samaradorligi" // Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to`plami. 23-24 fevral 2024 йил 1-том

2. Nabiyev A.B. Mamadjanov D.N.Qo’chqarov B. X Elektromagnetizmdan namoyishli tajribalar o’tkazish uchun universal qurilma. O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga foydali model paten. № FAP 2449

KAHOOT DASTURIDAN FOYDALANIB FIZIKA DARSLARINI TASHKIL QILISH.

M.Kurbanov[1]; M. Nurmatova[2]

O‘zbekiston milliy universiteti[1]; Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazi[2]


Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o’rta ta’lim maktablarida fizika fanidan dars mashg’ulotlarini tashkil qilishda foydalanish mumkin bo’lgan elektron ta’lim resurslari imkoniyatlari, xamda ularga qo’yiladigan talablar xaqida so’z boradi**.**

Kalit so’z. Ta’lim, metod, usul, elektron ta’lim resursi, texnalogiya, axborot, dasturiy vosita

Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o’quv jarayonida qo’llashga bo’lgan e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo’lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o’quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o’rgatilgan bo’lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o’zlari qidirib topishlariga, mustaqil o’rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o’zlari keltirib chiqarishlariga o’rgatadi.

Kahoot! o‘yinga asoslangan o‘quv platformasi bo‘lib, maktablar va boshqa ta’lim muassasalarida ta’lim texnologiyasi sifatida foydalaniladi. Uning o‘quv o‘yinlari „kahoots“ foydalanuvchi tomonidan yaratilgan ko‘p tanlovli viktorinalar bo‘lib, ularga veb-brauzer yoki Kahoot orqali kirish mumkin! ilova. Kahoot! talabalar bilimini tekshirish, formativ baholash uchun yoki an’anaviy sinf faoliyatidan tanaffus sifatida foydalanish mumkin. Kahoot! trivia viktorinalarini ham o‘z ichiga oladi. Ushbu ta’lim platformasi Wooflash, Socrative yoki Quizlet kabi boshqa texnologik o‘quv vositalariga o‘xshaydi.

Kahootdan foydalanish uchun quyidagi oddiy amallarni bajarish lozim:
1.Ushbu havolaga *https://www.kahoot.com/wp-login.php* kiring va «Ro’yxatdan o’tish» (Sign Up) tugmasini bosib shaxsiy akkauntingizni yarating.




2. So’ngra o’z statusingizni, ya'ni "O’qituvchi" (Teacher) tanlang.

3. "Maktab" (School) tugmasini bosing.

4. Shaxsiy (1) *elektron pochtangiz* va (2) *porolingizni* kiriting. So’ngra (3) «Ro’yxatdan o’tish» tugmasini bosing.

5. Kahoot ilovasidan bepul foydalanish uchun "Basic bilan davom eting" tugmasini bosing Kahoot Kahoot ilovasida samarali foydalanish uchun sahifaning chap tomondagi muhim yorliqlarni o’rganib chiqishimiz lozim.



Kahoot ijtimoiy ta’lim uchun mo‘ljallangan bo‘lib, o‘quvchilar interaktiv doska, proektor yoki kompyuter monitori kabi umumiy ekran atrofida to‘planib o‘naladigan o‘yin dasturidir. Saytdan Skype, Zoom, Google Meet, Google Hangouts kabi ekran almashish vositalari orqali ham foydalanish mumkin. O‘yin oddiy, barcha o‘yinchilar o‘qituvchidan yoki boshqa shaxs tomonidan yaratilgan savollarga javob berish kerak. Ushbu savollarga berilgan javoblar natijasi mukofot tarzida ballarga o‘zgartiriladi. Keyin har bir savoldan keyin ekranda ballar reytingi ko‘rinadi. Kahootdan foydalanishda veb-interfeysi orqali turli veb brauzerlardan va mobil qurilmalar foydalanish mumkin. 2017 yil sentyabr oyidadan boshlab Kahoot dasturini uy vazifasini bajarish uchun mobil versiyasini ishga tushirdi.

Kahoot yordamida o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishingiz mumkin. Darslarni o‘ynoqi va faol tarzda o‘tishiga yordam beradi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kahoot!

2. C.Wynne, A.Hartner, S.Israilova va bosh. Pedagogik maxorat va ta’lim texnalogiyalari bo’yicha uslubiy qo’llanma. Toshkent. Baktria press - nashriyoti.2023

3. Nuraliyev Sh. O‘quvchilar bilimini baholashda Kahoot! O‘yin dasturidan foydalanish. Research and education issn: 2181-3191 volume 1 | issue 6 | 2022

FIZIKA LABORATORIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Sh.X. Berdiyev
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu ishda umumta’lim maktablarining fizika laboratoriya darslarida zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanishning samaradorliklari haqida ma’lumot berilgan. Asosiy e’tibor o‘quvchilarning kengroq dunyoqarash va chuqur bilimli bo‘lishi uchun zarur omillarga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Fizik tajriba, dasturiy taminot, hodisa, virtual laboratoriya, model, modellashtirish.

Kirish. Ta’limni komputerlashtirish muammosi pedagogika fanida taxminan yarim asr oldin paydo bo‘lgan zamonaviy yo‘nalish. Kompyuterlashtirish jarayoni shunday ketmoqdaki bir necha yildan keyin har bir tinglovchi kompyuter bilan ta’minlanadi. Shuning uchun kompyuterlardan o‘quv jarayonlarida foydalanishning uslubiy-o‘quv qo‘llanmalarini ishlab chiqish kerak. O‘qituvchilar o‘quvchi va tinglovchilarga fizika dasturiga mos keluvchi dasturlarni qo‘llashi, elektron darsliklar va topshiriqlarning qulay va tushunarli tomonini ko‘rsatishi kerak. Elektron darslikni barcha fan pedagoglariga o‘z darslarida qo‘llash va shu yordamida ma’ruza o‘tish vazifasi yuklatiladi.

Fizika bo‘yicha mavzularni tushuntirishda PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimotlardan foydalanib, mavzuni tushunish darajasini bilib olish maqsadida maxsus dasturiy vositalar yordamida amalga oshirishi mumkin. Masalalar yechish va tajribalarning o‘tkazilishi, natijalarni tezkorlik bilan hisoblash va grafik tarzda ifodalashda kompter texnikasidan foydalanish zarur. Bu ishlar insonlar tomondan bajarishi mumkin, lekin xatolik belgilangan chegarada bo‘lishiga kafolat berilmaydi. Xatolikning miqdori ortishi, qiymati bir xilda saqlanishini faqatgina kompyuterda ishlatilayotgan modelda bexatar va osongina namoyon qilish iloji bor. Boshqa tomondan tajribani o‘tkazishda Yer elektromagnit maydoni, aylanish yo‘nalishi, harorat kabi qo‘shimcha omillarning ta’sirini hisobga olmasak ham bo‘ladi. Olingan natijani to‘g‘ri hisoblash va tahlil qilishda yuqorida keltirilgan omillar(o‘lchash xatoligi, elektrognit maydon ta’siri, tashqi muhit harorati, qo‘shimcha kuchlar)ni hisobga olish hisoblash jarayonini ancha murakkablashtiradi. Shuning uchun bunday murakkabliklarni osonlashtirishda zamonaviy dasturiy vositalar, ayniqsa, dasturiy ta’minot va kompyuterlardan dars jarayonida kengroq foydalanish qulaydir.

Zamonaviy dasturiy vositalar umum ta’lim maktablarining laboratoriya darslarida o‘quvchilarning bilim doirasi, dunyoqarashini, tasavvurlash qobiliyatini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Chunki fizika va astronomiya

darslari ko‘plab nazariya va predmetlarni o‘rganishga, yangi texnika va texnologiyalarni, axborot vositalarini o‘zlashtirishga qaratilgan.

Murakkab jarayonlarni o‘rganishda modellarning roli katta. Kompyuter yordamida soddalashtirilgan model ishga tushiriladi. Avval boshlang‘ich shartlari, so‘ng turli qadam bilan xisoblash amalga oshiriladi. Olingan natijalar kompyuter xotirasida fayl shaklida saqlanadi. Agarda dastur ishlashi biron-bir sabab bilan to‘xtab qolsa, shu yerda ishga tushirish iloji mavjud. Natijalarning taxlilini aksariyat xolatlarda ikkinchi qadamda amalga oshirish kuzatiladi. Buning uchun boshqa dastur ishga tushirilib, uning yakuniy natijasini grafik shaklida monitor ekranida paydo bo‘lishi bilan yakunlanadi. Fizika darslarida zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- o‘quv jarayonida va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning asosiy kompetentsiyalarini shakllantirish;
- o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish;
- o‘quvchilar tomonidan kompyuter savodxonligini o‘zlashtirish va kompyuter savodxonligi darajasini oshirish;

Xulosa. Umumlashtirib shuni aytish mumkinki, fizika fanini o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishda AKT vositalaridan, dasturiy ta’minotlardan foydalanish muhim ahmiyat kasb etadi. Bu fizikaning mohiyatini kamaytirmasdan, balki uni oson tushunishga imkoniyati paydo bo‘lishini ta’minlaydi. Bu holat o‘z navbatida ta’limda kompleks tushunchaning shakllanishiga asos bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Tigay O.E. Xamidov V.S. Axmedova N.A. Djalalov T.A.Fizika fanidan virtual laboratoriya ishlarini bajarishga oid metodik qo‘llanma. Toshkent 2013.

2.G. Yo‘ldasheva. Fizika fanini o‘qitishda dasturiy vositalar va virtual laboratoriyalar. 2 (6) 2021. ARES 612-616.

3.O. I. A. Et al., “Improving pedagogical conditions for developing a responsible attitude to virtual learning in future teachers,” Psychology and Education Journal, vol. 58, no. 1, pp. 4035– 4041, Jan. 2021, doi: 10.17762/PAE.V58I1.1445.

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MATEMATIKA

M.Samadova

Termiz davlat muxandislik va agrotexnologiyala universiteti

Annotasiya. Xalqaro tashkilotlar tomonidan yaratilgan 2030-yilgacha rivojlantirish ta’lim konsepsiyasida “Bilimning poydevoriga ega bo‘lish, raqamlashtirish sharoitida ta’lim berish jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish,talabalarda raqamlishtirish asosida,bilim oilsh iqtidorini rivojlantirish, xamkorlik qobiliyatlari va bilishga qiziqishni rivojlantirish”[1] asosida matematika o‘qitish metodikasini takomillashtirish.

Kalit so‘zlar. Raqamlishtirish, rivojlantirish, integrativ, zamonaviy,mexanizm.

Fanlararo integrativ yondashuv mexanizmlarini rivojlantirish, talabalar ijodiy tafakkurini rivojlantirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash, raqobatbardosh sharoitida mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan amaliy loyihalarni qo‘llash bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Butun dunyoda hozir katta e’tibor ostida turgan tushunchalar bular “raqamli savodxonlik, “raqamli ta’lim”, “raqamli ta’lim muhiti”, “raqamli didaktika” bo‘lib hisoblanadi. Hozirgi vaqtda raqamlashtirish inson faoliyatining barcha sohalarini ishonch bilan tezkor egallab bormoqda. Jamiyat oldida endi ana shu raqamli kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lgan mutaxassislarni tarbiyalash vazifasi turibdi. Bugun dunyoda yoshlarga zamonaviy ta’lim berish va bu orqali mamlakat barqaror rivojini ta’minlash asosiy muammolardan biriga aylandi. Shiddat bilan rivojlanish kechayotgan hozirgi davrda axborot olish va undan to‘g‘ri foydalanishni o‘rganish yoshlar oldidagi asosiy maqsadga aylangani ayni haqiqat O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida qullanilayotgan axborot tizimlari va raqamlashtirishni tahlili shuni ko‘rsatdiki, Hemis va Moodle tizimlari keng qo‘llanilib kelinmoqda. Lekin ularda intellektual tizimlarning imkoniyatlariga asoslanib integratsiya qilish muhimdir. Ushbu muammoni hal qilish uchun, birinchi navbatda, matematika o‘qitish faoliyatini rivojlantirishning maqsadli, mazmunli va tarkibiy parametrlarini o‘rganildi. Oliy ta’limni innovatsion rivojlantirish matematika o‘qitish ta’lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqani kuchaytirish, ilmiy-tadqiqot faoliyat natijalarni tijoratlashtirish, shuningdek, xalqaro hamkorligni mustahkamlash dolzarbligini hisobga olgan xolda, o‘qitish metodikasi, bo‘limni raqamlashtirish orqali uslubiy yangilanishini naxzariy, amaliy, laboratoriya mutanosibligi faoliyatlarining maqsadli mazmunli va tarkibiy parametrlari takomillashtirishni talab qiladi. .Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Mamlakatimizda yuqori taraqqiyotga erishish uchun raqamli yondashuv asosida bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va

shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Davlat xizmatlarini yo’lga quyib butun aholiga raqamli ta’lim berish ularda raqamli murojat ko‘nikmalarini, telefon va kompyuterlardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘lga qo‘yilmoqda. Oliy ta’lim barcha jasblariga tayyorlashda chuqur bilim, malaka ko‘nikmalarni shakllantirish ta’lim mazmuniga yangicha yondashuvni talab etadi. Texnika oliy ta’lim muassasalarida, matematika fanining o‘qitishda fanlararo bog‘lanishlar asosida ta’lim berishni kuchaytirmog‘imiz fizika fani, umumkasbiy va ixtisoslik fanlarni o‘qitishda fizika faning qonunlaridan foydalanish mumkin ekanligini unitmasligimiz lozim.. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda talabalarningfaol ishtirokini ta’minlash, yoshlar bilan muttasil ish olib borish uchun avalambor katta bilim va tajriba sabr-toqat talabchanlik zarur ekanligini o‘qituvchilar his etmoqlari lozimdir.;o‘qitishning innovatsion shakl, metod va vositalarining mohiyatini anglash va o‘quv jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llanilishini tashkillashtirish hamda nazorat qilishzarur degan xulosaga kelish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Maxmutov M. Maktabda problemali ta’limni tashkil qilish. –T.: O‘qituvchi, − 1977. –195 b.

2.Metodika fakultativnых zanyatiy po fizike. /Pod red.. –M.: Prosveщyeniye, − 2021.

PRAGMATIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

S.Mingasharova

Termiz davlat muxandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon oliy ta’lim muassasalarida matematika fanini o‘qitish, talabalarning pragmatik kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish muammosi yoritib berilgan.Xorijiy mamlakatlarda matematika fanlarni o‘qitishda pragmatik kompetentlikni rivojlantirishga bo‘lgan e’tibor hoziri davrda dolzarb muammo sifatida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda.Shu bois oliy ta’lim muassasalarida talabalarning pragmatik kompetentlikni,kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning dasturiy metodik ta’minotini takomillashtirish hamda ijodiy faoliyatini rivojlantirish, ta’lim jarayonidagi o‘quv faoliyatini zamonaviy texnologiyalardan faydalanib tashkil etilishi muammo sifatida yoritib berilgan,

Kalit so’zlar: Texnika, talabalar, pragmatik, kreativ, nutq tafakkur, modernizatsiyalash, axborot-kommunikatsiya,mexanizm, muammo.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2021 y 6-may kuni matematika o‘qitish tizimini takomillashtirish yuzasidan o‘tkazilgan yig’ilishda: “Yangi O‘zbekistonning yoshlarii zamonaviy ko‘nikmalarni egallagan, axborot texnologiyalarini puxta o‘zlashtirgan,xorijiy tillarni qunt bilan o‘zlashtira oladigan, pragmatik kompetentlikni rivojlantirish kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, dunyoqarashi shaxs bo‘lib shakllanishi zarur. Bu ezgu maqsadga erishish uchun oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlari, o‘qitish uslubi, darsliklar mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish jahon andozalariga tenglashtirish bo‘yicha boshlagan ishlarimizni albatta mantiqiy yakuniga yetkazamiz»deb ta’kidlangani. Pragmatik kompetensiya – shaxsning bayon (aytiladigan, yoziladigan fikrni) qilish qoidalarini talqin qilish va qo‘llash, bayonlarni (fikrlarni) turli kommunikativ funksiyalar uchun kommunkantlarning (muloqot ishtirokchilarining) xususiyatlari va kommunikasiyaning ijtimoiy va madaniy kontekstiga muvofiq ravishda qo‘llash qobiliyati hisoblanadi. Uning komponentlari

a) ijtimoiy komponent - buning talqini ,kommunikasiyaning ijtimoiy kontekstlari va muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy rollarini talqin qila olish qobiliyati; kommunikasiyaning ijtimoiy maqbul uslubini tanlay olish qobiliyatidir;

b) ijtimoiy-lisoniy sosiolingvistik komponent hamsuhbatning ijtimoiy siymosini portretini yaratish uchun nutq bayonini ijtimoiy ma'nolar, registrning variasiyalari va modallik talqin qilish qobiliyatidir. Kommunikasiya maqsadiga tanlangan ijtimoiy yo‘nalishlarga erishish uchun zarur til va nutq vositalaridan foydalanish qobiliyati;

v) ijtimoiy-madaniy komponent bunda madaniyatlararo shaxslararo o‘zaro faoliyat sharoitlarida ona tili va o‘rganilayotgan tilning mamlakatlarining madaniy aspekti haqida olinayotgan axborotni talqin qila olish qobiliyati;

g) nutq komponenti (hamsuhbat tomonidan amalga oshirilgan nutq janrlari tanlovini, nutqiy bayonning kogerentligi talqin qila olish qobiliyati; kommunikativ vazifalarni bajarish uchun nutqiy muloqotni qurish qoidalariga muvofiq nutqiy muloqotni tanlash va amalga oshirish qobiliyati;

d) kompensator komponent bunda qayta so‘rab olish, aniqlik yaqqolik kiritish, axborot-ma'lumotnoma so‘z resurslaridan foydalanish yo‘li bilan til va ijtimoiy-madaniy

masalalarda tushunilmagan joylarni, bo‘shliqlarni to‘ldirish qobiliyati. Tarixiy meroslarimizda kompetensiyaviy bilim olishga yo‘naltirilganlik g‘oyalarining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati va muhimligi masalalari haqida ko‘plab fikr-mulohazalar bayon etilgan. Ilokutiv amal (akt), ya'ni bayonni talaffuz etish: har qanday bayonning og‘zaki-verbal, sintaktik va semantik aspektlariga muvofiq mos keladigan fonetik, faktik va ritual amallarni o‘z ichiga oladigan faktik (amalga oshirilgan) bayon va uning o‘z-o‘zidan ayon ma'nosi;

O‘zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi:kommunikativ axborotlar bilan ishlash;o‘zini o‘zi rivojlantirish;ijtimoiy faol fuqarolik; milliy va umummadaniy ;Chet tillarini o‘rganish, fan va texnikaga tadbig etish hamda foydalanish kompetensiyasi.Pragmatik kompetensiyani ma'noli kontekstda ifodalashning besh turga ajratatib tushinamiz. Birinchi tur aynan kontekstli deb nomlanadi. Ikkinchi tur ijtimoiy-lisoniy deb yuriilshadi. Uchinchi tur ijtimoiy-madaniy tur hisoblanadi. To‘rtinchi tur – psixologik. So‘nggi tur esa – ritorik. So‘ngi bir necha yil davomida pragmatik hodisalarni u yoki boshqa darajada tasvirlaydigan bir qator turli modellar paydo bo‘lganligini ta'kidlash lozim. Bu tushinchalar o‘z individual istiqboli perspektivasi bilan bir-biridan farq qilsada, ularda bir qator umumiy xossalar, tomonlar mavjud. Birinchi navbatda, bu modellarning ikki tomonlili strukturasi bilan bog‘liq. Barcha bunday modellarda bayonning bevosita kodini tashkil etuvchi qandaydir bir lisoniy (lingvistik), boshqacha tarzda esa grammatik deb nomalanadigan komponent mavjudligini anglatadi. Kommunikasiya maqsadiga bog‘liq ravishda tilni kontekestual qo‘llashga qaratilganlik (tayanish, mo‘ljallanganlik) ikkinchi komponent bo‘lib xizmat qiladi. Pragmatik kompoetensiyaning bunday kontekst va ma'noning bog‘liqligining ikki tomonga yo‘naltirilganligi hossasi barcha modellarda kuzatiladi. Bu xorijiy tilgni o‘rganayotgan bilim oluvchilarning pragmatik kompetensiyanisini shakllantirishning muhimligini ko‘rsatadi.

Demak, pragmatik kompetensiya bayonlarni qurish, ularni mantga birlashtirish (diskurs) bilimlar, qoidalar yig‘indisidan, bayonni turli kommunikativ funksiyalar uchun qo‘llash malakasi, kommunikantlarning o‘zaro faoliyatining xususiyatlari va ijtimoiy-madaniy okntekstga muvofiq tarzda qura olish malakasini ifodalaydi. Ushbu kompetensiya bayonni kommunikativ va pragmatik maqsadga muvofiq qura olish qobiliyatida ifodalanadi. Pragmatik kompetensiya quriladigan uchta tamoyil mavjud. Ulardan birinchisi – ifoda etilayotgan fikrning (narsa, hodisa, tushuncha, voqeaning) ma'nosi. Ikkinchi tamoyil – hamsuhbatlarning bir-birlari bilan va kontekstning ular bilan o‘zaro faoliyati, va kontekstning o‘zi esa uchinchi tamoyil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Majidova n.d., “o’zbekistan-koreya: o’zaro hamkorlikning bugungi kuni va istiqbollar”,toshkent Muslimov n.a. va b. innovatsion ta’lim texnologiyalari/ o’quv- metodik qo’llanma. – toshkent, 2015. – 208 b.

FIZIKA FANINI MUAMMOLI MULOQOT ASOSIDA O‘QITISH USULI.

D.N.Mamadjonov
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya. Muammoli muloqot texnologiyasi asosida fizika darslarida o‘tkazgichlarni ketma-ket ulash misolida muammoli vaziyatlarni shakillantish, ularni alternativ fikrlar asosjda etaklovchi savol javoblar orqali o`quvchilarni mustaqil tarzda o`quv faoliyatlarini rivojlantirish usuli ko‘rsatilgan.

Kalit so`zlar. muammo, muloqot, vaziyat, kashfiyot, texnologiya, o‘tkazgich, zanjir, ketmaket ulash, parallel ulash.

Respublikamiz davlat ta`lim standartlari va dolzarb normativ hujjatlarida zamonaviy maktab ta‘limi nafaqat bilimlar yig`indisini o‘zlashtirishga, balki shaxs rivojiga, bilish va yaratuvchanlik qobiliyatlarini o‘sishiga, mustaqil tarzda universal o`qish o‘rganish faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerakligi belgilab berilgan.

Bunday vazifalarni fizika ta‘limida amalga oshirishni samarali innovasion usullaridan biri - muammoli dialogik o`qitish texnologiyasidan foydalanishdir. Muammoli muloqot asosida o‘qitish texnologiyasi o‘quvchilarni o‘quv jarayoniga tizimli yondashuvlariga, qiziqishlarini uyg‘otishga, o‘zlarini baholash va nazorat qilishga hamda o‘zaro muloqot aloqalarini o‘sishiga imkon yaratadi.

Muammoli ta‘lim asosida o‘quv muammosi yotadi, ya‘ni, darsda noma‘lum yangi bilimni o‘quvchi o‘z maqsadiga erishish uchun uni o‘zi kashf qilishi kerak. Shu bilan birga, u ilmiy bilishning barcha bosqichlarini bosib o‘tadi, ya‘ni gipotezani ilgari surishdan tortib, uni sinab ko‘rishgacha, kashfiyot mantiqini tushunishgacha. O‘qituvchining vazifasi esa, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarishdan iborat. Muammoli darslarda o‘quv materiali kiritilgach, uni o‘quvchilar o‘ylaydilar, tahlil etadilar va qayta ishlov bosqichida ijodiy ilmiy bilimlarni yaratadilar.

Muammoli muloqot texnologiyasi asosida o‘qitish darslari quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

№	Dars bosqichi	Bosqichning tarkibiy qismlari
1	Muammoli vaziyatni yaratish	Buni uch xilda tashkillash mumkin: -hayron qoldirishli yoki qiyinchilikli muammoli vaziyat; -yetaklovchi va natijaga olib keluvchi muloqot; -uyg`otuvchi-undovchi usulni qo‘llash bilan o‘quv mavzusini tayyor holda o‘qituvchi bilan yaratish.
2	Muammoni shakllantirilishi	Tashkillash ikki xilda bo‘ladi: -izlanish mavzusini aniqlash; -izlanish maqsadini shakllantirilishi.
3	Bilimlarni faollashtirish	Tashkil etilishi - o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha o‘quvchilarda mavjud bilimlarni takrorlash.
4	Yangi bilimlarni qo‘llash	Kashfiyotni ikkita mumkin bo‘lgan yo‘li bor . 1.Faraz orqali (farazni olg‘a surish va farazni tekshirish) 2. Yetaklovchi muloqot orqali o‘rnatilgan muammodan voz kechish yoki u muammoni yechish
5	Yangi bilimlarni qo‘llash	Bunda o‘quv faoliyatida yangi bilimlarni qo`llashi kerak
6	Refleksiya, uyga vazifa	Darsni yakunlash, uyga vazifa.

Rivojlantirib o‘qitishning amalga oshirishda muammoli muloqot texnologiyasi alohida ahamiyatga ega. U bilimlarni yuqori sifatda o‘zlashtirishga, ijodiy qobiliyatlarini va salohiyatlarini samarali rivojlanishiga hamda faol shaxsni tarbiyalashga imkon yaratadi. Muammoli muloqot texnologiyasi umumpedagogik xarakterga egaligi uchun uni har qanday fan mazmunida va har qanday ta‘lim darajasida amalga oshirish mumkin bo‘ladi va shuning uchun har bir o‘qituvchiga ob‘yektiv zarur usul sanaladi.

Muammoli muloqot texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan 8-sinf darsidan o‘tkazgichlarni ketma-ket ulash mavzusini ko‘rib chiqaylik.

Dars maqsadi:

– o‘tkazgichlarni ketma-ket ulash, hamda ketma-ket ulangan zanjirdagi qonuniyatlar haqida tasavvurni shakllantirish.

Ta‘lim masalasi:

– o‘tkazgichlarni ketma-ket ulash tushunchasini o‘zlashtirishni ta‘minlash;

– tok kuchini, qarshilikni, kuchlanishni ketma-ket ulashda topish formulasini o‘zlashtirishni ta‘minlash.

Tarbiyalovchi:

– fizikaga eksperimental fan munosabatida qarash tarbiyasini davom etdirish.

Rivojlantiruvchi:

– predmetga qiziqishni, mantiqiy fikrlashni, diqqat e‘tiborni, kuzatuvchanlikni, ijodiy va tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishni, fizik terminlardan foydalanib monologli nutqni, guruhda ishlash ko‘nikmasi kabi muhim xususiyatlarni rivojlantirish.

Darsning borishi: muammoli vaziyatni yaratish, muammoni shakllantirish, bilimlarni yangilash, faollashtirish, dolzarblashtirish, yangi bilimlarni kashf qilish, fikrlar, farazlarni tekshirish, muammo bo‘yicha xulosa, yangi bilimlarni qo‘llanishi, Refleksiya, Uyga vazifa

ADABIYOTLAR

1. Беспалько В. П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М., 2001.

2. Кларин М. В. Педагогическая технология в учебном процессе. – М., 2003.

3. Д.Н.Мамаджонов, Х.О.Кучкаров, А.Б.Набиев “Установка для демонстрации силы лоренца в электролитах” "Qishloq va suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni qo'llash samaradorligi" // Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to`plami. 23-24 fevral 2024 йил 1-том

4. Nabiyev A.B., Mamadjonov D.N. O’rta ta’limda fizik tajribalar o’tkazish imkoniyatlarini kengaytirish davr talabi deb qaralmog’i lozim “Zamonaviy ta’lim” 2022 yil №11

KREDIT-MODUL TIZIMIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHNING SAMARALI FAOLIYAT VA TAMOYILLARI

B.S.Ruzimatova
Farg‘ona politexnika instituti
ruzimatovabarno50@gmail.com tel.

Annotatsiya: Мақолада олий таълимда кредит-модуль тизимида мустақил ишларни ташкил қилиш usul va tamoyillari келтирилган. Мустақил ишни вазифаларини ўзига хос хусусиятлари инобатга олинган.

Kalit so'zlar: kredit-modul tizimi, mustaqil ta’lim.mustaqil ta’lim turlari va vazifalari.

Malakali kadrlarni tayyorlashda ta’lim jarayonlarinin samarali tashkil etish muhim o‘rin tutadi.Ta’limga kredit-modul tizimini joriy etish shular jumlasidandir.

Ta'lim tizimining modul-kredit tizimi – bu ta'lim jarayonini tartibga solish doirasida va kreditlar ko'rinishidagi bilim miqdorini hisobga olgan holda individuallashtirish, o'z o'zini o'qitish va bilimlarni ijodiy rivojlantirish darajasini oshiruvchi ta'lim texnologiyasidir.

Ta'limda kredit texnologiyasi joriy etilishining samaradorligi va sifatini ta'minlash uchun kredit texnologiyasining qonunchilik bazasi, standartlar, o'quv rejalari, lavozim tavsiflari, o'quv kursi mazmunini tanlash asoslari, o'qitish tamoyillari va uslublarini, ta'lim jarayonini tashkil qilish, kredit tizimida talabalarning mustaqil ishlashini (TMI) ishlab chiqish zarur.

TMI ta'lim sifatini oshirish va bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan ta'limning kredit tizimini joriy etish sharoitida talabalarning mustaqil ishlarini to'g'ri va samarali tashkil etish muammosi dolzarb ahamiyatga ega.

Talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil qilish uchun oliy o‘quv yurti o'qituvchisi uni tashkil etish tamoyillarini bilishi va ularga maslahat berishi lozim: Bu faoliyat quyidagi tamoyillarni o‘z ichiga oladi:

- tizimlilik va izchillik tamoyillari;
- faollik tamoyili;
- individual yondashuv tamoyili;
- mavjudlilik tamoyili;
- ko'rigazmalilik tamoyili;
- vaqt taqsimoti va uy vazifasning hajmi tamoyili.

TMIlarni bajarishda quyidagi uch darjali faoliyat ko‘rinishda amalga oshirilishi mumkin:

1) reproduktiv faoliyat (o'quv materialini o'zlashtirish va ishlab chiqarish, namuna bo'yicha bajariladigan mustaqil ishlarni o'rgatish: muammolarni yechish, jadval, diagrammalarni to'ldirish; bu turdagi ishlarning maqsadi bilimlarni mustahkamlash, ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat);

2) reproduktiv va amaliy faoliyat (o'quv materiallarini o'z tajribasi asosida o'zlashtirish, materialni amaliyotda, faoliyatda, mustaqil ishlash jarayonida tekshirish, reja, tezislar, izohnomalar tuziladi);

3) ijodiy faoliyat (talaba bajarilayotgan ishning usul va vositalarini mustaqil tanlashi, o'quv materialini tanqidiy baholashi va undan samarali fikrlash va faoliyat uchun foydalanishi lozim, shu darajada kurs va diplom ishlari bajariladi)

TMI vazifalarning individualligini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak, shuningdek, har bir talabaning tayyorgarligi va qobiliyat darajasini hisobga olish kerak; mavzu bo'yicha avval tayyorlangan masalalarning xulosa bilan muhokama qilinishi.

TMIni kompyuter va axborot texnologiyalari asosida tashkil etish mumkin va ularni amalga oshirishni quyidagi usullar orqali amalga oshirish mumkin: elektron darslik, o'qitish uchun kompyuter uchun dasturlar, boshqaruv dasturlari, namoyish dasturlari, kompyuter modellari va boshqalar.

Respublikamiz oliy ta'limning zamonaviy amaliyotida talabalarning mustaqil ishlarini samaradorligi oshirish uchun turli usullar va metodlardan foydalaniladi. Bular orasida: talabalarga mustaqil ishlash metodikasini o'rgatish; o'quvchilar kognitiv faoliyatini o'z-o'zini boshqarishni shakllantirish; kelgusi ta'lim va kasbiy faoliyat uchun o'quv materiallarini o'zlashtirish zarurligini namoyish etish orqali mustaqil ishlashga rag'batlantirishdan iborat.

ADABIYOTLAR:

1.Ўринов В. “Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасаларида ECTS кредит-модуль тизими”. Асосий тушунчалар ва қоидалар. 10 август 2020.
2.Есипов Б.П. Самостоятельная работа учащихся на уроках. – М.: Учпедгиз, 1961. – С. 239.
3.Ruzimatova Barnokhon, Polvonov Bakhtiyor .The formation of creative think in teaching physics. India. International engineering journal for research end development.2020.297 p.

FIZIKA O‘QITISHNING EKSPERIMENTAL USULI ORQALI O‘QUVCHILARGA MOTIVATSIYALAR BERISH


U.V.Turdaliyev
Namangan davlat universiteti
email: ulugbekturdaliyev9508@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqolada maktab o‘quvchilariga motivatsiyalar berish, fizikadan dars mashg‘ulotlarini namoyish tajribalar yordamida o‘tkazish usullarining samaradorligi va kognitiv faoliyatni rivojlantirish haqidagi bilimlar “Yupqa linza yordamida tasvir yasash” mavzusi misolida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: eksperimental tajriba, motiv, kognitiv qiziqish, o‘quvchi, maktab, linza, stimul, o‘quvchi, his-tuyg‘u, tasvir.

Kirish. O‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish, eksperimental tajribalarni bajarish asosida ularning kognitiv faoliyatini faollashtirish mumkin. Bu sohada I.Y. Lapinoy tomonidan fizika darslarida o‘quvchilarning kognitiv qiziqishni rivojlantirishga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borilgan [1]. Uning ta’kidlashicha, fizikaning asosiy qoidalarini eksperimental isbotlanishi o‘quvchilarni fizikaga fan sifatida hurmat bilan qarashga undaydi.

Natijalar. Bilimlarni ijodiy o‘zlashtirishning asosiy shartlaridan biri bu ma’lum motivlar (**Motiv** (psixologiyada) - inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo‘luvchi omil, vaj motiv shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo‘luvchi ichki turtki hisoblanadi) tizimi bo‘lib, bu tizim “rag‘batlantiruvchi”, “kognitiv ehtiyoj” va “kognitiv qiziqish” tushunchalari bilan bevosita bog‘liqdir. O‘quvchilarning barqaror kognitiv qiziqishlarini shakllantirish masalasini ularda bilimga nisbatan ijobiy hissiy munosabatni yaratmasdan, faqat faol o‘zlashtirish lozimligiga qaratilgan talablar asosida muvaffaqiyatli hal etib bo‘lmaydi [2]. Psixologlar va o‘qituvchilarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, kuchli ijobiy his-tuyg‘ularni keltirib chiqaradigan materiallar befarq va zerikarli narsalarga qaraganda osonroq qabul qilinadi va shakilanadi. Huddi shunday salbiy his-tuyg‘ular aks ta’sirni keltirib chiqaradi. Masalan, notanish va noqulay formulalarni ko‘rish darslikni o‘qishni istamaslikka olib kelishi mumkin [3].



1-rasm. Yupqa linzada buyum tasvirining geometrik chizmasi.

Muhokamalar. Maktab fizika kursining 9-sinf dasrligida mavjud bo‘lgan “Yupqa linza yordamida tasvir yasash” mavzusini odatiy va yangi usuldagi dasr ishlanmalari

orqali o‘tilishini tahlil qilish mumkin. Odatiy usulda o‘qituvchi darslikda berilgan malumotlar asosida mavzuni tushuntiradi va linzada buyum tasvirini hosil bo‘lishini optik nurlarning geometrik chizmalari yordamida ifodalab, chizmaning holati (tasvirning vaziyati, o‘lchami) haqida o‘quvchilarga malumot beradi (1-rasm). Mashg‘ulot yakunida o‘quvchilarga malum fokus oralig‘idagi buyum tasvirini chizmalar yordamida hosil qilishni topshiriq sifatida berish mumkin. Ikkinchi usulda ham fan o‘qituvchisi darslikda mavjud malumotlar asosida mavzuni tushuntiradi, ammo 1-usuldan farqli ravishda linzada buyum tasvirini hosil bo‘lishini eksperement o‘tkazish orqali ko‘rsatib beradi (2-rasm). Namoyish tajriba davomida buyumlarni turli vaziyatlardagi tasvirlari kuzatiladi va bu vaziyatlarning har biriga alohida ma'lumot berib o‘tiladi. O‘quvchilarda tasvirlarning hosil bo‘lish sabablari va turli masofalarda tasvirning vaziyati o‘zgarishi haqida bilimlar paydo bo‘ladi [4]. Mashg‘ulotning yakuniy bosqichida qurilmalar yordamida o‘quvchilarning o‘zlari linzada biror buyumning tasvirini hosil qilib ko‘rishadi (albatta bu bosqich o‘qituvchi nazorati ostida bo‘lishi zarur). Aynan shu bosqich o‘quvchilar motivatsiyasini shakllantirishda muhum hisoblanadi.



2- rasm. Mashina buyumining yig‘uvchi linzadagi tasviri

Xulosa. Fizik nazariyalarning mantiqiy mukammalligi, qonunlarning ta’riflari va formulalarining aniqligi va lakonizmi, “isbotlangan” formulalar maktab o‘quvchilarida o‘quv faoliyatidan estetik zavqlanishni keltirib chiqaradi va ularning bilim faoliyati uchun ishonchli stimulga aylanadi. Fizik qonun va nazaryalarning eksperimental tajriba asosida isbotlanishi o‘quvchilarda olingan bilimlarga nisbatan mustahkam ishonchni paydo qiladi. Bunday usul bilan olingan bilimlar takomillashib boradi va uzoq vaqtlar davomida o‘quvchi yodida saqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ланина, И. Я. Методика развития познавательного интереса учащихся при обучении физике.- СПб.: Изд-во гос. пед. института им. А. И. Герцена, 1984. — 85с

2. Голин, Г. М. Вопросы методологии физики в курсе средней школы. - М.: Просвещение, 1987.- 128 с.

3. Бугаев, А. И. Методика преподавания физики в средней школе. - М.: Просвещение, 1984.- 284 с.

4. U.Turdaliyev. Optika o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Namangan-2023. 94 bet.

INKLYUZIV TA’LIMNING USLUBIY VA NAZARIY JIHATLARI, TUSHUNCHASI VA MOHIYATI.

B.T.Abdulazizov[1]; I.M.Eshboltayev[2]; D.R. Masodiqova[2]

[1]Namangan davlat universiteti; [2]Qo‘qon davlat pedagogika instituti

dilruxsormasodiqova@gmail.com

Annotatsiya: Tushunchalarning etimologiyasi integratsiya, inklyuziya, ularning mazmun sohasini aniqlash. Falsafiy, huquqiy, sotsiologik, psixologik va pedagogik fanlarga qo‘shilish toifasi.

Kalit so‘zlari: ilmiy adabiyotlar: yondashuvlar va atamalarning o‘zgaruvchanligi. Inklyuziv ta’lim psixologik-pedagogik tadqiqot predmeti sifatida. Inklyuziv amaliyotni rivojlantirishning dolzarbligi.

Asosiy oqim va inklyuziya kabi atamalar sog‘lom bolalar va nogiron bolalar birgalikda o‘qitiladigan va tarbiyalanadigan pedagogik jarayonni belgilash va tavsiflash uchun ishlatiladi.

“Integratsiya” atamasi lotincha integrare - to‘ldirish, to‘ldirish so‘zidan kelib chiqqan. Pedagogikada “ijtimoiy integratsiya” atamasi 20-asrda paydo bo‘lgan. va dastlab AQShda 20-asrning 60-yillaridan boshlab irqiy va etnik ozchiliklar muammolariga nisbatan qo‘llanilgan. Bu atama Evropa nutqiga kirdi va nogironlar muammolari kontekstida qo‘llanila boshlandi.

21-asrning boshlariga kelib, chet ellarda keng ijtimoiy-falsafiy ma’noda integratsiya mavjudlik shakli, oddiy odamlar va nogironlarning birgalikdagi hayoti sifatida tushuniladi, bu alohida imkoniyati cheklangan shaxsning barcha sohalarda cheksiz ishtirokini ta’minlaydi. ijtimoiy jarayonlar, ta’limning barcha darajalarida, dam olish jarayonida, mehnatda, turli ijtimoiy rol va funksiyalarni amalga oshirishda va bu huquq dunyoning aksariyat rivojlangan mamlakatlarida qonuniy ravishda mustahkamlangan.

Xorijiy pedagogika integratsiyani oddiy bolalar va nogiron bolalarning birgalikda yashashi va o‘qishi, bu jarayonni iqtisodiy,
tashkiliy, didaktik va uslubiy xarakterdagi chora-tadbirlar bilan qo‘llab-quvvatlash va hamrohlik qilish imkoniyati deb hisoblaydi[2].

Mainstreaming (ingliz tilidan mainstream , ya’ni tekislash, umumiy naqshga keltirish) - chet el adabiyotida qo‘llaniladigan tushuncha bo‘lib, nogiron o‘quvchilarning turli xil dam olish dasturlari doirasida tengdoshlari bilan muloqot qilish strategiyasini bildiradi, bu ularga ijtimoiy aloqalarini kengaytirish imkonini beradi. Qoida tariqasida, bu erda ta’lim maqsadlari qo‘yilmaydi .

Ushbu assotsiatsiya shakllarining asosiy kamchiliklari (integratsiya, asosiy oqim), tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, ta’lim muhitining nogironlar ehtiyojlarini qondirishga qodir emasligi. Nogiron bola mavjud ta’lim sharoitlariga moslashishga majbur bo‘ladi, ular umuman o‘zgarmaydi. Ya’ni, nogiron bola ommaviy ta’lim muassasasida o‘qish uchun kognitiv va shaxsiy rivojlanish nuqtai nazaridan yetarlicha tayyor bo‘lishi kerak. O‘quv jarayonini engillashtirish uchun bolaga defektologik, psixologik va pedagogik yordam tizimini joriy etish rejalashtirilgan.

Inklyuziv ta’lim - (frantsuzcha inclusif - shu jumladan), umumiy ta’lim (asosiy) maktablarda alohida imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish jarayonini tavsiflash uchun

ishlatiladigan atama. Inklyuziv ta’lim - bu har bir bolaga mavjud jismoniy, intellektual, ijtimoiy, hissiy, lingvistik va boshqa xususiyatlarga qaramay, umumiy (yagona, yaxlit) ta’lim va tarbiya (rivojlanish va ijtimoiylashuv) jarayoniga qo‘shilish imkoniyatini beradigan ta’lim. keyinchalik kattalarga jamiyatning teng huquqli a'zosi bo‘lishga imkon beradi, segregatsiya va izolyatsiya xavfini kamaytiradi.

Nogiron talabalar va ularning sog‘lom tengdoshlari o‘rtasida[1].

Ta’lim tizimiga inklyuziyani joriy etish maxsus ta’limning ahamiyatini pasayishiga olib kelmasligini alohida ta’kidlash kerak. Inklyuziv ta’lim ta’lim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, nogiron bolaga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish variantidir. Barcha maxsus bolalar normal rivojlanayotgan tengdoshlari bilan ijtimoiy va ta’lim sohasidagi o‘zaro munosabatlar tajribasini boyitishi kerak, ammo har bir bola o‘z rivojlanishi uchun qulay va foydali bo‘lgan ta’lim modelini tanlashi kerak. Ta’lim inklyuziyasi, ehtimol, bolaning birgalikda o‘qishi amaliy bo‘lmagan hollarda o‘z chegaralariga ega bo‘lsa, ixtisoslashtirilgan muassasada o‘qish imkoniyatini ta’minlash, ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishga g‘amxo‘rlik qilish, shu jumladan birgalikda bo‘sh vaqtni o‘tkazish; dasturlar.

ADABIYOTLAR:

1.Kovalev E.V., Staroverova M.S. Ta’lim integratsiyasi (inklyuziya) ta’lim tizimini rivojlantirishning tabiiy bosqichi sifatida // Inklyuziv ta’lim. 1-son. - M.: Maktab kitob markazi, 2010. - 272c.

2.Nazarova N.N. Integratsiyalashgan (inklyuziv) ta’lim: genezisi va amalga oshirish muammolari // Ijtimoiy pedagogika. 2010. No 1. P.77-87.

3.Imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta’limni tashkil etish: Darslik / Rep. ed. S.V Alyoxina , E.N. - M.: MGPPU, 2013. 324C.

4.R. Eshimov “Imkoniyati cheklangan yoshlar ta’lim tizimidagi muammolar va ularni bartaraf etish” O‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –Guliston: GulDU, 2019. – 142 b.

5.R. Eshimov “Inklyuziv ta’limda kompyuter imitatsion modellar asosida dars o‘tishning ijobiy tomonlari” “Uzluksiz ta’lim tizimida modulli o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash istiqbollari: muammo va yechimlar” mavzusida xalqaro miqyosida ilmiy-amaliy konferensiya. – Toshkent: O‘zPFITI, 2018.

TEXNIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA FIZIKADAN AMALIY MASHG’ULOTLARNI TASHKIL QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

K.A.Raximov
Qo‘qon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: maqolada, texnika oliy ta’lim muassasalarida fizikadan amaliy mashg’ulotlarni tashkil qilishning o’ziga xos xususiyatlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: mustaqil ta’lim, o’quv qo’llanma, amaliy kompetensiyalar, kosmik texnika.

Bugungi kunda texnik yo’nalishdagi oliy ta’lim muassasalari uchun barcha fanlar singari fizika fanidan ham ma’ruza matnlari, o‘quv qo‘llanmalari va darsliklari yaratilib, ular takomillashtirilmoqda. Biroq bunday o‘quv vositalarida aksariyat predmedlar bo‘yicha nazariy bilimlarning mazmuni aks ettirilgan bo‘lib, texnik yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalari talabalarining umumta’lim va kasbiy bilimlarni egallashlaridagi o‘zaro bog‘lanish yetarlicha ta’minlanmagan. Bunday bog‘lanishni shakllantirish uchun texnik yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalaridagi barcha yo‘nalishdagi o‘quv dasturlarini va umumkasbiy fanlar bo‘yicha jumladan, fizikadan shunday dasturlar bilan taqqoslash orqali fizika kursining mazmunini kasbiy, jumladan texnik predmetlarning mazmuni bilan uyg‘unlashtirish, ular orasida muntazam predmetlararo aloqa, integratsiyasini tashkil etish bugungi kunning haqli talabidir. Darhaqiqat texnik masalalar bo‘yicha bilimlar, o‘quv va malakalarni chuqur o‘zlashtirishi uchun, talabalarning fizikaning politexnik mazmunidan keng foydalanish va e’tiborni ko‘proq texnik qurilma va mexanizmlarning fizikaviy ishlash prinsiplariga qaratmoq lozim. Fizik bilim o‘quv va ko‘nikmalarsiz texnik qurilmalarning tuzilishini va ishlash jarayonini tushinish qiyinligini tushunish qiyin emas. Fizika kursida tanlangan texnik mazmundagi materiallar yangi texnik qurilmalarni ishlash mexanizmini, ularning hayotdagi muhim o‘rnini ko‘rsatishga imkon beradi. O‘rganilgan materialni mustahkamlash va chuqurlashtirishda texnik mazmunga ega bo‘lgan masalarni yechish, bu borada ham juda muhim tadbirlardan hisoblanadi [1].

Texnik yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalari uchun amaliy mashg‘ulotlarni, jumladan masalalarni rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etishi tabiiy. Mutaxassislarning texnik yo‘nalishda kasbga erishishlari, ularning o‘z sohalariga kompetentliklari, ularda texnik qurilmalar, ularning ishlash prinsiplari kabi amaliy o‘quv va ko‘nikmalarning shakllantirganliklari bilan belgilanadi.

Texnik yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalar uchun masalalarni tanlash, professor - o‘qituvchidan katta mahorat, ijodiy yondashuv, tajriba va metodik bilim talab qiladi. Gap shundaki, texnik qurilmalar, ularning ishlash prinsiplari, fizikaning turli sohalariga tegishli qonunlarga dahldor bo‘lib, ular haqidagi bilim, malaka va ko‘nikmalar, turli qiyinchilikdagi masalalarni yechish bilan kechadi. Bunday masalalar, texnik soha yo‘nalishiga ko‘ra ko‘proq mexanikaga, molekulyar fizikaga, elektromagnetizmga yoxud optikaga tegishli bo‘lib, talabalarda, aktiv mushoxada yuritishni, tafakkurni shakllantirishni taqozo qiladi. Fikrlashning bunday stiliga erishish, aksariyat talabalarning masalalar yechish madaniyatining yetarlicha yuksak bo‘lishi, bu sohada tayyorgarligi yuqori bo‘lishini talab qiladi [2].

Hozirgi zamon fizikasining barcha bo‘limlari texnika bilan uzviy bog‘langan. Masalan mexanikaning taraqqiyoti minglab yillar davomida texnika taraqqiyotini belgilab kelgan.

Ya’ni transport, qurilish va qishloq xo‘jaligi mashinalarining ishlashi mexanika prinsiplariga asoslangan. Aviatsion va kosmik texnika ham mexanikaning taraqqiyoti tufayli paydo bo‘lgan. Demak, fizik bilim va ko‘nikmalarsiz texnik qurilmalarning tuzilishi va ishlash jarayonini tushunish qiyin bo‘lishi aniq. Demak, bunday muammoni hal qilishda fizikaning politexnik mazmunini boyitish va undan amalda foydalanish katta ahamiyat kasb etadi [3].

Texnik yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarida quyidagi maxsus kasbiy fanlarni o‘zlashtirishda fizikadan politexnik mazmundagi nazariy bilimlar hamda masalalardan foydalanish mashinasozlikda foydalaniladigan turli xil qurilmalarning tuzilishi va ishlash prinsiplarini chuqur va puxta o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Talabalarning fizika fani va maxsus fanlarni bilishga bo‘lgan qiziqishlari shakllanadi. Fanlararo aloqalar amalda ko‘rsatiladi. O‘tilgan mavzuni o‘zlashtirish darajasi yuqorilashadi. Bilishga bo‘lgan qiziqish shakllanadi. Bilishga bo‘lgan qiziqish o‘z navbatida talabalarning mustaqil bilim olishiga olib keladi. Mustaqil bilim olish jarayonida darslikdan tashqari qo’shimcha adabiyotlar bilan ishlash ko‘nikma va malakalari shakllanadi. Ko‘nikma va malakalarning paydo bo‘lishi talabalarni ilmiy izlanishga yo‘naltiradi.

ADABIYOTLAR

1.Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma.-T.; 2013yil.
2.Мирзахмедов Б.М., Джўраев М., Ғофуров Н., Сагатова Г. ва бошқалар - Физика ўқитиш методикаси 2-қисм Нукус-2011 йил.
3.Muslimova, A.F. O‘z-o‘zini takomillashtirishga va ijodiy o‘zini namoyon qilishga intilishlarni rivojlantirish / A.F. Muslimova // O‘rta maxsus kasb ta’limi. - 2010 yil - № 4.

O‘TA O‘TKAZUVCHANLIK FIZIKASINI O‘QITISHDA “YOUTUBE” PLATFORMASI IMKONIYATIDAN FOYDALANISH HAQIDA

M.A. Abdimuratova; B.Ya. Yavidov
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu tezisda o‘ta o‘tkazuvchanlik fizikasining ta’lim tizimida o‘qitilishi masalasi haqida so‘z yuritiladi. U ham bo’lsa, o‘ta o‘tkazuvchanlik fizikasi fani o‘qitilishida “Youtube” platformasi imkoniyatidan foydalanish haqida. O‘quv mashg‘ulotlarida mavzuga oid “Youtube” ta’limiy video-lavhalarini namoyish qilish o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishini orttiradi, darsni yanada mazmunli va qiziqarli bo‘lishiga, pirovardida, o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: o‘ta o‘tkazuvchanlik fizikasi, o‘qitish metodikasi, video-dars.

O‘quvchini fanga qiziqtirish eng dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Shu sabab, zamonaviy ta’limning maqsadi o‘quvchiga faqat bilim berish bo‘libgina qolmay, balki o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish, uning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, rivojlantirish va uni raqobatli jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan, o‘z qobiliyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqara oladigan shaxs etib tarbiyalashdir. Yurtimizda bu borada tizimli ta’limiy islohatlar olib borilmoqda. Xususan, fizika fanini o‘qitish, fizika sohasiga yoshlarni jalb qilish va ularni fizika faniga bo‘lgan qiziqishlarini yanada rivojlantirish kabi keng ko‘lamli masalalar mamlakat Prezidenti qarorida o‘z aksini topgan [1].

O‘quv mashg‘ulotini qiziqarli qilish va o‘qitish metodikasini yanada takomillashtirish uchun har xil mobil ilovalar, elektron kitoblar, filmlar, dasturlar yaratilgan. Bu kabi raqamli texnologiya vositalari ta’lim samaradorligi oshirishga ijobiy ta’sir etishi umume’tirof etilgan jihatdir. Fizika fanini o‘qitishda ham raqamli texnologiya vositalaridan unumli foydalanish orqali fizikaviy qonunlar, xilma-xil formulalar, rang-barang tajribalari va hodisalar mohiyatini o‘quvchilar oson qabul qila oladigan darajada sodda ko‘rinishda tushuntirish mumkin. Raqamli texnologiya vositalari, xususan, maktab yoki oliy o‘quv yurtlarida fizika fani mavzusini to‘liq yoritish yoki biror tajribani amalga oshirish mumkin bo‘lmagan hollarda o‘qituvchining katta yordamchisi bo‘lishi mumkin. Xususan, o‘ta o‘tkazuvchanlik (O‘O‘) mavzusini o‘tishda, maktab va oliy o‘quv yurtida quyi haroratlarni yaratuvchi va moddaning O‘O‘ xossalarini namoyish etish imkonini beruvchi asbob va uskunalar bo‘lmasa, mavzuga oid kinofilm yoki video-lavhalar namoyish etish mavzuni mohiyatini o‘quvchiga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘O‘ fizikasiga oid kinofilm va video-darslar respublikamiz ta’lim portallarida yo‘qligi bois, ularni internet

tarmog‘ining “Youtube” portalidan olib, namoyish qilish mumkin. Shuni alohida ta’kidlash joizki, “Youtube” portalida joylashtirilgan fanga oid video-lavhalarning ta’lim jarayonlaridagi ahamiyati, chet el olimlar tadqiqotlariga ko‘ra, tabora ortib bormoqda [2]. Misol tariqasida, O‘O‘ hodisasiga asoslangan tez-yurar temir yo‘l “Maglev” ulovi haqidagi video-lavhani [3] namoyish etish orqali nafaqat O‘O‘ ning asosiy xossasi Meysner effekti [4] bilan o‘quvchilarni tanishtirish, balki O‘O‘ hozirda transportda qo‘llanila boshlaganini ham ko‘rsatish mumkin [5]. “YouTube” video-lavhalarining dars jarayonidagi foydali tomonlari talaygina: (i) o‘quvchilar e’tiborini tez tortadi, diqqatni bir joyga jamlashga yordam beradi; (ii) o‘rganilayotgan jarayon, harakatlar o‘quvchilar ko‘z oldiga tez keladi va tushinib olish koeffitsientini oshiradi; (iii) video-lavhalar o‘quvchilarga modellar va voqelik o‘rtasidagi munosabatni tushunishga yordam beradi; (iv) fanni yanada qiziqarli o‘rganishga va o‘quvchilarni o‘ziga jalb qilishga yordam beradi (v) video-lavhalar o‘quvchilarga o‘tkazish imkonsiz bo‘lgan tajribalarni ko‘rish imkoniyatini beradi; (vi) soatlab-kunlab vaqt ajratishimiz kerak bo‘lgan voqelikni qisqartirilgan videolar orqali tez tushinib olsa bo‘ladi; (vii) videodarsliklar jonli tajribada topilgan shovqinni olib tashlashga va o‘quvchlarga bilim olishda faolroq bo'lishga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimining vazifasi o‘quvchiga shunchaki bilim berish emas, balki uning ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir. Bu jarayonda esa o‘qituvchidan mashg‘ulotlarni qiziqarli qilib tashkillashtirishi talab qilinadi. Yuqorida keltirilgan misollar esa o‘quv jarayonini yanada qiziqarli o‘tishiga yordam beradi. Xususan, internet tarmog‘idagi “Youtube” portalidagi ta’limiy video-lavhali darslar – bugungi kunimiz va kelajagimizdagi fizika mashg‘ulotlarining faol bir qismiga aylanishi dolzarb metodik va tashkiliy masala bo‘lib, kun tartibida qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1.O‘zR Prezidentining qarori, 19.03.2021 yildagi PQ-5032-son.
2.S. Richtberg and R. Girwidz. J.Phys.: Conf. Ser. **1287** (2019) 012057
3.https://www.youtube.com/watch?v=Hi7tN_B1BT8
4. https://www.youtube.com/watch?v=HRLvVkkq5GE
5.https://www.youtube.com/watch?v=XjwF-STGtfE

FIZIK JARAYONLARNI TAHLIL QILISH VA MODELLASHTIRISHDA ANIQ INTEGRALNING AHAMIYATI

J.A.Egamov; M.F.Mamitov
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada aniq integralning fizikadagi ahamiyati va qo'llanilishi ko'rib chiqiladi. Maqola doirasida aniq integralning nazariy asoslari, fizikada qo'llanilishi (masalan, mexanika, elektr va magnit maydonlar, va termodinamika) va konkret misollar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: Aniq integral, fizika, mexanika, elektr maydoni, termodinamika, ish, elektr energiyasi, issiqlik almashinuvi, matematik modellashtirish.

Kirish. Aniq integralning asosiy maqsadi berilgan funksiyaning cheklangan intervalda maydonini hisoblashdir. Fizikada aniq integralning qo'llanilishi, ko'plab jarayonlarni tahlil qilish va modellashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Aniq integral, berilgan funksiyaning chegara qiymatlari oralig'idagi maydonini hisoblash uchun ishlatiladi. Matematikada asosiy formulalardan biridir:

$$\int_a^b f(x)dx = F(b) - F(a)$$

bu yerda F — f funksiyaning antiderivatividir.

1. Mekanika: Ish va energiya

Muammo: Jismining x yo'nalishidagi harakatida kuchning o'zgarishini hisoblash. Agar kuch $F(x)$ funksiyasi shaklida berilgan bo'lsa, unda ish W ni aniqlash formulasi:

$$W = \int_{x_1}^{x_2} F(x)dx$$

Isbot:

1. **Kuch va ish**: Ish kuchning harakatdan o'zgarishini ko'rsatadi. Agar kuch doimiy bo'lsa, ishni hisoblash ancha oddiy bo'ladi:

$$W = F \cdot d$$

Bu yerda d — harakat masofasi. Agar kuch o'zgarib turadigan bo'lsa, har bir kichik dx oraliqda ishni aniqlashimiz kerak.

2. **Integralni olish**: Har bir kichik ishni $dW = F(x)dx$ ko'rinishida ifodalash mumkin. Shundan kelib chiqib, umumiy ishni hisoblash uchun integral olishimiz kerak.

3. **Natijani olish**: Integrallash orqali biz ishning umumiy qiymatini olishimiz mumkin:

$$W = \int_{x_1}^{x_2} F(x)dx$$

Misol: Jismning $F(x)=3x^2$ kuchi bilan $x=1$ dan $x=3$ gacha harakatlanayotganini tasavvur qiling. Ushbu kuchning bajaradigan ishini hisoblang.

Ishni hisoblash:

$$W=\int_1^3 3x^2\,dx$$

Hisoblash:

1. Integrallash:

$$W=3\int_1^3 x^2\,dx=3\left[\frac{x^3}{3}\right]_1^3=[x^3]_1^3=3^3-1^3=27-1=26$$

2. Natija: $W=26$ joule

2. Termodinamika: Issiqlik o'tkazish

Muammo: Biror jismining haroratini T_1 dan T_2 gacha oshirishda o'tkazilgan issiqlik miqdorini hisoblash. Agar issiqlik sig'imi $C(T)$ bo'lsa, unda issiqlik miqdori:

$$Q=\int_{T_1}^{T_2} C(T)dT$$

Isbot:

1. **Issiqlik sig'imi**: Har bir temperatura o'zgarishi uchun issiqlik sig'imi (C) farqlanadi. Har bir dT ga mos ravishda o'tkazilgan issiqlikni $dQ=C(T)dT$ shaklida ifodalash mumkin.
2. **Integrallash**: Umumiy issiqlikni hisoblash uchun integral olishimiz kerak:

$$Q=\int_{T_1}^{T_2} C(T)dT$$

3. **Natijani olish**: Ushbu integralni hisoblash orqali T_1 dan T_2 gacha o'tkazilgan umumiy issiqlik miqdorini aniqlaymiz.

Misol: Agar issiqlik sig'imi $C(T)=5T$ bo'lsa, jismining haroratini $T_1=10$ °C dan $T_2=30$ °C gacha oshirish uchun o'tkazilgan issiqlik miqdorini hisoblang.

Xulosa. Aniq integral fizikada nazariy va amaliy jihatdan keng qo'llaniladi. U turli fizik jarayonlarni modellashtirish va tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR

1.Serway, R. A., & Jewett, J. W. (2014). *Physics for Scientists and Engineers*. Cengage Learning.
2.Young, H. D., & Freedman, R. A. (2014). *Sears and Zemansky's University Physics*. Pearson.
3.Feynman, R. P., Leighton, R. B., & Sands, M. (2011). *The Feynman Lectures on Physics*. Addison-Wesley.

ATOM FIZIKASI KURSINI O‘QITISHDA KOMPYUTER SIMULYATSIYASIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

D.M.Urazkulova

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti


Annotatsiya.Mazkur tezisda fizika fanini o‘qitishda uchrayotgan dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Simulyatsiyalar orqali o‘qitish uslubi atom va yadro fizikasi kabi mavzularni tushuntirishda yengillik berib, ushbu texnologiyalar o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliy ravishda tushunish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: simulyatsiya,fizika,atom , PhET Interaktiv simulyatsion dastur.

Bugungi kunga kelib rivojlanayotgan dunyoning ko‘plab davlatlarida fizika va boshqa fan o‘qituvchilari o‘zlarining o‘quvchilarini bilimlarni samarali o‘zlashtirishga jalb qilishda yetarli muammolarga duch kelishmoqda. Bilamizki, fizika fani maktablarda va oliy ta’lim muassasalarida murakkab fanlardan biri sifatida takidlab kelinadi. Shuningdek, fizika fani rivojlanishida kuzatish, o‘lchash, hisoblash va eksperiment metodlarining mavjudligi sabab boshqa fanlardan farq qiladi. Shu sabab o‘quvchilar bu kabi qiyin jarayonlarni tasavvur qilishda qiyinchiliklarga duch keladi va ularning fanga bo‘lgan qiziqishlari pasayishiga olib keladi [1]. O‘quvchilarning fizika fani bo`yicha bilimlarni o`zlashtirish darajasi pasayayotganining bir qancha sabablari bor. Masalan, barcha maktablarda DTSga to‘gri keladigan o‘quv va laboratoriya xonalarining yo‘qligi bo‘lsa, boshqa tomondan, o‘qituvchi va o‘quvchilar dars vaqtida web-saytlardan foydalanish uchun yetarlicha teran fikrlash va ijodkorlik qobiliyatiga ega emasligidir. Hozirda konstruktiv ta’lim muhitini joriy qilish va o‘quv amaliyotiga moslashtirilish oqibatida bir qancha muammolar bartaraf etilishi ko‘zda tutilmoqda. Uni targ‘ib qilish uchun fizika o‘qituvchilari kompyuter simulyatsiyalarini pedagogikaga bog‘liq holda integratsiyalash orqali o‘qitish tajribalarini o‘rganib chiqmoqdalar. Konstruktiv ta’limning vazifalari fizika o‘qituvchilari dasturiy simulyatsiyalarini qanday foydalanishiga qarab, qay tarzda tasvirlashlarini, o‘quv jarayonlariga qanday yo‘naltirishi, ularning ta’lim-tarbiyaga o‘zaro ta’sirini va albatta fizika o‘qitishga integratsiyalash muammolarini topishdan iboratdir. Atom fizikasini simulyatsiya orqali o‘qitish, o‘quvchilarning nazariy tushunchalarini amaliy ko‘rinishida tushunishiga katta hissa qo‘shadi. Simmuliyatsiyalar atom tuzilishi, kvant mexanikasi va boshqa atom fizikasiga bog‘liq bo‘lgan tushunchalarni o‘quvchilar tushunishini osonlashtiradi. O‘quv jaroyonida foydalanishi mumkin bo‘lgan simulyatsiyalarga quyidagilar kiradi:

- Atom modeli simulyatyatsiyalari - o‘quvchilar atomning strukturasi va elektron orbitalari bilan tanishishida interaktiv simulyatsiyalar;

- Kvant mexanikasi - elektronlarning energiya darajalari va to‘g‘ri harakatini ko‘rsatadigan simulyatsiyalar;
- Atomlararo kuchlar – atomlar orasidagi kuchlarning o‘zaro ta’sirini ko‘rsatadigan vizual modellar;



1-rasm. PhET Interaktiv simulyatsion dastur ko`rinishi.

O‘qitishda simulyatorlardan interaktiv darslar, laboratoriya ishlari, mustaqil o‘rganish, tahlil va muammolarni yechishda foydalanish mumkin. Umuman olganda simulyatsiya orqali o‘qitish uchun hozirgu kunda eng yaxshi dasturlarga PhET Interactive Simulations (1- rasm) dasturini misol keltirish mumkin. Bu dastur orqali aynan atom fizikasiga oid ko‘plab simulyatsiyalarni amalga oshirish mumkin [2]. Shuningdek, Quantum Experience va LabXchange platformalari ham eng ilg`or simulyatsion dasturlar qatoridandir.

Xulosa. Ushbu simulyatsiyalar orqali atom fizikasi bo`limini o‘qitish o‘quvchilar uchun yanada qiziqarli va bilimlarni samarali o‘zlashtirish imkoniyatlarini paydo qiladi.Barcha umumta’lim maktablarda bu jarayon bilan darsni tashkillashtirish bilan bir qatorda, o‘qituvchi uchun tushuntirishda qulayliklar yaratadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.GUO Zhen-Hua. Practice and reform in the teaching of atomic physics. Department of Physics, Baoji 721007, China.

2.https://phet.colorado.edu/en/simulations/build-an-atom

PROGRAMMING AS A PHYSICS TEACHING TOOL

B.Sultonov
Tashkent State Transport University
e-mail: sultonov.ba@tstu.uz

Abstract: The article discusses the use of Python programming for teaching physics, especially in complex topics such as quantum mechanics. Methods of modeling and visualization of processes such as quantum harmonic oscillator and tunneling using specialized libraries are described. The importance of programming in the educational process for improving the understanding of abstract concepts and the development of critical thinking among students is emphasized.

Keywords: Programming, Python, physics, quantum mechanics, visualization, modeling, learning.

Introduction: In the modern educational process, programming is becoming an important tool for teaching physics, especially in the context of complex topics such as quantum mechanics. Using programming languages such as Python can significantly improve the understanding of abstract concepts by modeling and visualizing physical processes. This paper examines the application of programming to solve the problems of quantum harmonic oscillator and tunneling.

Research method: Within the framework of the study, the Python programming language and its libraries were used: NumPy — for working with multidimensional arrays and performing mathematical operations, SciPy — for scientific and technical calculations, Matplotlib — for data visualization and graph creation, Qmsolve — a specialized library for solving problems of quantum mechanics. The problem solving process includes the following steps: Determining the system parameters: parameters such as the stiffness coefficient k and the frequency ω are set. Calculation of potential energy: a function describing the potential energy $V(x) = \frac{1}{2}kx^2.$ Hamiltonian assembly: A Hamiltonian matrix is formed, taking into account both kinetic and potential energy. Solution of the Schrodinger equation: The qmsolve library is used to calculate eigenvalues and eigenfunctions, which allows you to determine energy levels and wave functions.

Results: As a result of the application of the described methods, the behavior of a quantum harmonic oscillator was successfully modeled. Students were able to calculate energy levels and visualize wave functions, which significantly improved their understanding of the topic. In addition, the tunneling process was simulated, which helped students realize how particles can pass through potential barriers despite the lack of energy. The results

showed that programming in teaching physics not only simplifies the process of learning the material, but also develops students' critical thinking and analytical abilities. Interactive simulations make the study of physics more exciting and motivating, which is especially important in the context of modern educational standards. Programming allows you to conduct experiments and explore physical phenomena that would otherwise be difficult to access.

Conclusion: Programming is becoming a powerful tool that contributes to an in-depth understanding of physics and increases the effectiveness of learning. Integrating programming into the educational process can significantly improve the quality of teaching and students' interest in physics.

REFERENCES

1.Султонов Б. А., «Программирование как инструмент для обучения физике», 2024
2.«Методы использования языков программирования в обучении физике», Ё. Одилов, 2021г

TALABALARNI LOYIHAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINING O‘RNI

O.T.Ismanova
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Oliy ta’lim tizimida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan mutaxassislarni xalkaro standartlar asosida tayyorlashning zamonaviy usullardan biri loyihaviy faoliyat usuli hisoblanadi. Ushbu ishda laboratoriya ishlari bajarish va fizik eksperimentlar o‘tkazish orqali talabalarni kognitiv faoliyati aktivlashtirish usullari yoritilgan.

Kalit so’zlar: ta’lim, laboratoriya ishi, mashg‘ulot, loyihaviy faoliyat, fizik eksperiment, talaba, kreativlik, aerodinamik qarshirik, virtual laboratoriya.

Ta’lim sifatiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar sifatida qaralayotgan ta’lim mazmuni va uni berish usullarini takomillashtirish bo‘yicha juda ko‘p ilmiy tadqiqotlar va o‘rganishlar olib borilmoqda. Ta’lim sifatini oshirish uchun xorijiy davlatlarda keng qo‘llanilayotgan zamonaviy usullardan biri “loyihaviy faoliyat” usuli hisoblanadi. O'qituvchining kasbiy malakasii nafaqat o'quv faoliyatini tashkil etishni, balki ularning o'quv dasturlarini loyihalash, o'quv-uslubiy materiallarni ishlab chiqish, zamonaviy ta’lim texnologiyalarni qo'llash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari oliy ta’limda fanlar kesimida talabalarni loyihaviy faoliyatlarini samarali tashkil etishlari zamon talabi hisoblanib kadrlar sifatiga ijobiy tomonlama sezilarli ta’sir qiladi.

Fizikadan laboratoriya ishlari yuqoridagi ko‘nikmalarni shakllantiruvchi asosiy mashg‘ulot turi hisoblanadi, chunki laboratoriya ishlari tushunchasiga deyarli barcha o‘quv standartlarida quyidagicha ta’rif berilgan: laboratoriya ishi mahsus qurilmalarni qo‘llash (laboratoriya, texnologik, o‘lchov asboblari, stend va kompyuter majmuasi) yordamida o‘tkaziladigan amaliy o‘quv mashg‘uloti bo‘lib, uning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat: laboratoriya, texnologik va o‘lchov qurilmalari foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish, obyektni yoki jarayonni xarakteristikasini o‘rganish va tashkil etish uchun tajriba o‘tkazish, kuzatuv olib borish yoki modellashtirish kabi ilmiy-eksperimental tadqiqot tashkil etish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi.

Laboratoriya ishlari bajarish va fizik eksperimentlar o‘tkazish orqali talabalarni kognitiv faoliyati aktivlashadi, chunki real tajriba o‘tkazish orqali olingan natijalarni talaba tahlil qiladi, taqqoslash orqali to‘g‘riligiga ishonch hosil qilishi kerak. Shuning uchun talabalarda ijodiy va kreativ fikrlashlari rivojlanishi uchun laboratoriya ishi bajariladigan qurilmani yig‘ish, ishchi formula keltirib chiqarish kabi bir necha faoliyat turlarini talabalar bajarishlari kerak. Buning uchun esa talabalarga laboratoriya ishi sifatida fizik topshiriq berish lozim. Fizik topshiriq tuzish va bajarish imkoniyati “Umumiy fizika”

kursini mexanika, molekulyar fizika, elektr va magnetizm bo‘limlarida mavjud. Shuning uchun ushbu bo‘limlarga tegishli bir nechtadan fizik topshiriqlar tuzib talabalarga mustaqil ish sifatida berish lozim. Talaba fizik topshiriqlarni bajarish uchun avval topshiriqqa mos mavzu bo‘yicha nazariy malumotlar bilan tanishadi va muammoni aniqlaydi, so‘ngra ushbu muammo asosida fizik masala tuzadi. Ushbu masalani analitik yechimi uchun olingan ifoda ishchi formula bo‘lib hisoblanadi va o‘lchash mumkin bo‘lgan kattaliklarni aniqlab u asosida laboratoriya qurilmasini yig‘adi. Qurilma yig‘ish o‘ziga xos orginal yechimlarni topishni talab qiladi, bu esa talabalarda yuqorida ta’kidlaganimizdek ijodiylik va kreativlikni rivojlantiradi. Olingan natijani to‘g‘ri ekanligiga ishonch hosil kilish uchun jadval yoki internet ma’lumotlari bilan taqqoslash uchun izlanadi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi.

Oliy o‘quv yurtida fizika ta’limi jarayoniga loyihaviy usulni qo‘llash va talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlash metodikasidan ko‘rdiki ushbu ta’lim jarayonini amalga oshirish uchun ta’limni tubdan isloh qilish shart bo‘lmay balki hozirgi ta’limga ijodiy yondashib yuqorida bildirilgan takliflar asosida mutaxasislik kafedralar amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ta’lim bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Виленский М.Я., Образцов П.И., Уман А.И. Технологии профессионально-ориентированного обучения в высшей школе. Педагогическое общество России, М., 2004

2.Аршинов В.И. Эксперимент как форма научной практики. Материалистическая диалектика как общая теория развития. М., 1982 г. С 1-3.

3.А.С. Черняева. “Структура научного знания”. Учебное пособие для аспирантов и соискателей. – Красноярск: СибГТУ, 2013 г.

4.А.Г. Шеина. Физический практикум. Часть 2: Учебное пособие Под ред. А.Г. Шеина; ВолгГТУ. Волгоград, 2003. - 193 с.

5.Рахмонов Р.К., Методические разроботки к лабораторным работам по физике. Душанбе. ЭР-гриф. 2019.

УНИВЕРСАЛЬНАЯ УСТАНОВКА ДЛЯ ДЕМОНСТРАЦИИ ОПЫТОВ ПО ЭЛЕКТРОМАГНЕТИЗМУ

Д.Н.Мамаджонов

Наманганского государственного университета

Аннотация. В работе описано проведение экспериментов по электромагнетизма, вновь созданной установке для обучения физики в средней школе

Ключевые слова. эксперимент, технология, электроника, сила Лоренца

Как известно, что физика экспериментальная наука, а потому все излагаемые утверждения необходимо дополнить опытными доказательствами. В настоящее время из за отсутствие учебных лабораторных оборудований в школах уроки проводятся сухим и скучным пересказом учебных материалов, что отрицательно влияет на проявлению интереса учеников к физике и в дальнейшей подготовке будущих специалистов по нано технологии, электронике, электротехнике и высоко технологичных отраслей, к которым остро нуждается наша Республика. **Актуальность** данной проблемы отражены и на постановлениях Президента “О мерах по повышению качества образования и совершенствованию научных исследований в области физики” в которой указаны на необходимости принятия меры по созданию лабораторного и учебно-методического обеспечения, в том числе за счет внебюджетных средств; Постановление Президента Республики Узбекистан, от 14.03.2021г. № ПП-5032.

Также, такие работы значительно повышает качество образование, отвечая требованиям сегодняшнего дня, поскольку 2023 год объявлен Годом заботы о человеке и качественного образования.

Впервые в среднем образование целью визуальной демонстрации силы Лоренца в электролитах, демонстрации движение цветных ионов при воздействии электрическое и магнитное полях и проведения дополнительных опытов по электромагнетизму создана установка, на которой, в пластиковую кювету заливают электролиты, выбранные в соотвествии с требованием наглядности. В зависимости от постановки опыта выбирают цилиндрические или плоские электроды, также с помощью элементов входящих в состав установки и магнита проводятся дополнительные опыты.

Суть установки заключается в следующем: один из электродов в виде цилиндра с небольшой 3-4 см. высотой и большим радиусом из

медной пластины устанавливается в кювет, содержащий бесцветный электролит KNO_3. Другой электрод в виде стержня из графита устанавливается в центре цилиндра. При подаче напряжение между этими электродами возникает ток. Если снизу кюветы приложить магнитное поле, жидкость начинает вращаться. При смене полярности напряжение, жидкость вращается в обратную сторону. Для наглядности вращений капают на жидкость несколько капли раствор марганцовки.

При отключение магнитного поля вращение прекратится. Такое демонстрация убедительно показывают действие силы Лоренца на движущиеся заряды ионов электролита. Подбирая формы электродов на этой установке можно демонстрировать следующие физические явления:

- электрический ток и закон Ома в жидкостях
- явления электролиза, законы Фарадея, гальванопластика
- распределение электрическое поле в среде
- принципы работы масспектроскопии

Кроме этих работ с помощью источника постоянного тока и вспомогательных элементов, входящие в состав данного устройства, можно проводить все необходимые демонстрации по изучению свойств и действий постоянного тока, которые указаны в учебниках. Особые черты данной установки в простоте изготовление из пластиковой кюветы, лёккостью изготовление в нужной форме электродов. Подготовкой двух разных жидких электролитов одинаковой плотностью, которые при диссоциации отрицательные цветные и положительные бесцветные ионы в электрическом поле двигались в противоположном направлении. Эти факторы существенно повышает наглядность и качество демонстративных опытов по электричеству.

ЛИТЕРАТУРА

1.Михеев П., Вращающаяся жидкость. Квант журнал. №7. 1990г. С.51-53.
2.С.Г.Калашников Электричество. Учебного пособия для студентов физических специальностей высших учебных заведений. Москва, Физматлит, 2003г.

NOMERLANGAN GRUPPALAR TASNIFI

A.A.Usubjonov; F.M.Sharipov; Sh.Z.Mirzayeva

Namangan davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu tezisda klassik sistemalardan bo’lgan nomerlangan gruppalarning algoritmik xossalarini o’rganishga bag’ishlangan.

Kalit so‘zlar: gruppa, nomerlangan gruppa, hisoblanuvchi ajraluvchi gruppa, negativ algebra va pozitiv algebra.

Kirish.N.X.Qosimov[1] ishlarida hisoblanuvchi ravishda ajralib turadigan algebralarning eng umumiy effektiv, strukturaviy va topologik xususiyatlari o'rganilib, bunday algebralarning eng muhim turlari bayon qilingan. Negativ nomerlash va pozitiv algebralar A.I.Maltsev[1], Yu.L.Yershov, A.S.Morozov, S.P.Odintsov va V.L.Selivanov tomonidan har xil nuqtai nazardan o'rganilgan.

Asosiy ta’rif va tushunchalar.

Ta’rif-1.[1] Bizga berilgan “*” binar amal aniqlangan G gruppa va $\nu:\omega\to G$ akslantirish uchun shunday f hisoblanuvchi funksiya topilib

$$\nu n * \nu m = \nu\left(f\left(n,m\right)\right)$$

tenglik o’rinli bo’lsa, $\left(G,\nu\right)$ juftlikka *nomerlangan gruppa* deyiladi.

Ta’rif-2.[1] Agar ν nomeratsiya negativ (pozitiv, hisoblanuvchi) bo’lsa u holda $\left(G,\nu\right)$ nomerlagan gruppa *negativ (pozitiv, hisoblanuvchi)* deyiladi.

Nomerlangan gruppalarning algoritmik tavsiri.

Ta’rif-3.[1] ν nomeratsiya yechilgan deyiladi, agar η_ν munosabat hisoblanuvchi bo’lsa.

Nomerlangan ekivalentlik $\eta=\left\{\left\langle x,y\right\rangle / \nu x=\nu y\right\}$.

Ta’rif-4.[2] Agar nomerlangan ekivalentlik hisoblanuvchi ajraluvchi bo’lsa, nomerlangan gruppa *hisoblanivchi ajraluvchi* deyiladi.

Quyidagi teorema shuni ko'rsatadiki, negativ gruppalar hisoblanuvchi ajraluvchi gruppalarning sodda bo’lmagan misollari hisoblanadi.

Teorema-1. Har qanday $\left(G,\nu\right)$ negativ gruppa *hisoblanuvchi ajratiluvchi nomerlangan gruppa* bo’ladi.

Isboti. η_ν nomerlangan ekivalentlikni ν yopilma operatorini, $[\ ]_\nu$ orqali belgilaymiz. Ya’ni $[\alpha]_\nu$ opetator ν - yopiq to’plamni o’z ichiga oladigan eng kichik to’plam va u α ni o’z ichiga oladi. Shuni aytishimiz mumkinki, α to’plam z raqamni rad etsa, agar $Z\notin[\alpha]_\nu$ bo’lsa, ya’ni $\nu z\neq\nu a$ va ixtiyoriy $a\in\alpha$. $\nu a\neq\nu b$ bizga berilgan bo’lsin, ν - yopiq, hisoblanuvchi α to’plamni, ya’ni α ni b dan ajratuvchini quyidagicha hosil qilamiz:

0-qadam: $\alpha^0=\{a\},\ \beta^0=\{b\}$

1-qadam: $\nu 0 \neq \nu a,\ \beta^1 = \beta^0 \cup \{0\},\ \alpha^1 = \alpha^0;$

$$\nu 0 \neq \nu b,\ \alpha^1 = \alpha^0 \cup \{0\},\ \alpha^1 = \alpha^0 \cup \{0\}.$$

e+1-qadam: Biz $\alpha^e \cup \beta^e$ ga tegishli bo'lmagan birinchi $z \in \omega$ ni tanlaymiz va tekshirishni boshlaymiz «ushbu to'plamlarning har biri z tomonidan rad etilganligini». Agar z tomonidan α^e rad etilsa, u holda bilamizki

$$\alpha^{e+1} = \alpha^e,\ \beta^{e+1} = \beta^e \cup \{z\}.$$

Agar z tomonidan β^e $\alpha^{e+1} = \alpha^e \cup \{z\}$ rad etilsa, agar unday bo’lmasa, u holda z tomonidan α^e va $\alpha^{e+1} = \alpha^e$ $\beta^{e+1} = \beta^e \cup \{z\}$ rad etiladi. Ya’ni ν ni negativligidan «z tomonidan α^e (yoki β^e) rad etilishi» hisoblanuvchi sanaluvchi munosabat.

$$\alpha = \bigcup_{e \geq 0} \alpha^e,\ \beta = \bigcup_{e \geq 0} \beta^e$$

deb hisoblaylik.

Agar hisoblanuvchi ravishda sanaluvchi to'plamning to'ldiruvchisi ham hisoblanuvchi ravishda sanaluvchi to’plam bo'lsa, u holda to'plam hisoblanuvchidir. Shunday qilib bunda $\alpha \cup \beta = \omega$, α hisoblanuvchi sanaluvchi va β ham hisoblanuvchi sanaluvchi. U holda bu to’plam hisoblanuvchi deyiladi.

Endi tekshiramiz, ya’ni α ni ν - yopiqligini. $u \in \alpha$ va $\nu\upsilon = \nu u$ lar berilgan, agar $u < \upsilon$ bo’lsa, u hoda qandaydir e uchun $u \in \alpha^e$, $\upsilon \notin \alpha^e \cup \beta^e$ bo’ladi. U holda α to’plamni keyingi bironta qadamda υ rad qilmaydi. Bu esa shuni bildiradiki qandaydir $e^1 > e$ qadamda β^e to’plam ν tomonidan rad etiladi. Ya’ni $\upsilon \in \alpha$. agar $\upsilon < u$ bo’lsa u holda $\nu \in \alpha$ bo’ladi. Teskari holda α^e tomonidan rad etilmay qoladi, bundan $u \notin \alpha^e$. Bu ziddiyat. Demak α ham ν - yopiq hisoblanuvchi to’plam hisoblanadi. Teorema isbotlandi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1.Касымов Н.Х. Рекурсивно отделимые нумерованные алгебры // УМН. - 1996. – Т.51. – №3 – С. 145–176.

2.Ибрагимов Ф.Н. К теории рекурсивно отделимых моделях. // Вестник НУУз. – 2006. – №2. – С. 23 – 27.

3.Usubjonov A.A., Sharipov F.M. Nomerlangan gruppalarning xarakteristikasi // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi – 2024-yil №6 56-61 sahifa.

FIZIKA FANIDA MUAMMOLI O‘QITISH

R.M.Jalalov; O.T.Ismanova; U.V.Turdaliyev; Sh.Q.Muxitdinova
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: ushbu tezisda maktab fizika darslarida fizika fanini muammoli o‘qitish uslublari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: muammoli vaziyat, masalalarni xal qilish, muammoli o‘qitish, fizikadan masalalar.

Kirish: Muamoli o‘qitishda fizika o‘qituvchisi murakkab tushunchalarni tushuntirishda sistemali ravishda muammoli vaziyatlar hosil qilib boradi va o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini shunday tashkil kiladiki, ular mustaqil ravishda faktlarni tahlil qilib, xodisalarni kuzatib xulosa chiqaradilar va umumlashtiradilar. Tushuncha va qonunlarni ta’riflaydilar, bilimlarini yangi muammoli vaziyatlarga qo‘llaydilar, masala yechadilar, labarotoriya ishlarini bajaradilar.

Asosiy qism: Muammoli o‘qitish o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiruvchi muammoli vaziyat xosil qilish bosqichidan boshlanadi. Keyingi bosqichlari: muammoni aniqlash, uni xal qilish usullarini aniqlash, muammoni xal qilish, xulosani ta’riflash va yakun yasashdan iboratdir.

Muammoli vaziyat qiyinligi o‘quvchilar tomonidan uni hal etishga kuchlari yetadigan bo‘lsin va bu qiyinchilikni yengishga ularda qiziqish uyg‘ota olsin, Masalan, kutilmagan muammoli vaziyatlarni quyidagicha xosil qilish mumkin: issiq xonada efirni bug‘latib suvni muzlatamiz /bug‘lanish xodisasi/, kuchli bo‘ronda uydan tom ajrab yuqoriga ko‘tarilib ketishi kuzatiladi. /Bernulli qonuni/. Bularni fizika nuqtai nazardan qanday tushuntiriladi? Muammoli o‘qitish bir necha xil bulishi mumkin.

1.O‘qituvchi muammoni qo‘yib uni o‘zi xal qiladi yoki u fanda qanday qilinganini ko‘rsatadi /muammoli bayon qilish/.

2. O‘qituvchi muammoli vaziyatni hosil qilib, uni xal qilishga o‘quvchilarni xam jalb qilib boradi. /Evristik suxbat/.

3. O‘qituvchi muammoni ta’riflab uni xal etishni o‘quvchilarning uzlariga tavsiya etadi /eksperimental masala, uy vazifasi va kuzatish ko‘rnishida/.

4. O‘qituvchi muammoni o‘quvchilarning o‘zlari qo‘yishlari va uni xal etish yullarini topishga undaydi.

Endi muammoli vaziyatlarni xosil qilish yullarini kurib chikaylik.

O‘rganiladigan xodisaning fan,texnika va xayotdagi axamiyatini ochish orqali muammoli vaziyat xosil qilish.

O‘rganiladigan materialni texnika va xayotda qo‘llanishini juda ko‘p temalarda aytib, o‘quvchilarning fikrlashlarini aktivlashtirishga imkoniyat juda katta, chunki fizika texnikaning asosini tashkil qiladi.

Shuni ham aytish kerakki, o‘quvchilar ijtimoiy tarmoqlardan, televideniyadan, ommabop kino va adabiyotlardan, ridiodan, ... ,. dan ko‘plab informatsiyalar oladilar. Shuning uchun

o‘quvchilarga ular eshitgan texnika,... yutuqlarining mohiyatini o‘rganiladigan xodisa orqali bilish va ochib berish mumkinligini aytib, unga o‘quvchilar e’tiborini jalb qilish lozim. Buni misolda kuraylik:

1.Mexanikaning asosiy masalasi harakatdagi jismning ixtiyoriy paytdagi xolatini aniqlashdan iborat ekani, mexanika uni xal qilishini aytib, buni texnikadagi axamiyatiga to‘xtalamiz. Bu asosiy masala snaryadlarning, ballistik raketalarning, uchuvchisiz samolyotlarning, sun’iy yo‘ldoshlarning trayektoriyalarini xisoblashda zarurligini, bu usulda juda katta aniqlikda xisoblanayotgani, sputniklar aniq trayektoriyalarda uchayotgani ("Venera","Mars") kosmik kemalarini aniq uchrashib stikovka kilinayotganini aytib, uni axamiyati qancha kattaligini uqdiramiz.

2. Suyuqliklarda elektr tokini o‘rganishda muxim texnik masalani xal qilinishi, ya’ni toza mis va boshqa metallarni olinishida, qoplash ishlarida axamiyati kattaligi aytib o‘tiladi.

3.Fotoeffektni o‘qtishda televideniya, lentaga tovushni yozish va eshittirish, quyosh batareyallarida fotoeffektni axamiyatini aytib, sputniklarda quyosh batareyalari o‘rnatilgani, yengil bo‘lishi, apparatlarni elektr energiya bilan ta’minlashi, lunaxod 1 yil davomida elektr energiya bilan ta’minlanganini aytib o‘tiladi.

4. Amper, Lorens kuchlarining o‘tishda dvigatellarni, tezlatgichlarni ishlashidagi axamiyatiga to‘xtalamiz.

Bu uslublarning axamiyati katta bo‘lib, uni xikoya tarzida berish ma’quldir. M: ishqalanishni zararini o‘quvchilar bilsalarda foydasini bilmaydilar. Uni foydasi xaqida xikoya qilib, agar ishqalanish bo‘lmasa odam yerda yura olmaslgi, transporterlarda paxtani yuqoriga chiqarib bo‘lmasligi, skripka, g‘ijjaklardan tovush chiqmasligi, haqida xikoya kilamiz.

Xulosa. Bu usullar o‘rganiladigan materialni, hayot bilan bog‘laydi, axamiyatini ko‘rsatib beradi. Mavzuni o‘tib bergandan keyin uni texnikadagi moxiyatini ochib berishga yana bir to‘xtalib o‘tish o‘quvchilar diqqatini unga jalb qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.N.Sadriddinov, A.Raximov, A.Mamadaliyev, Z.Jamolova. “Fizika o‘qitish uslubi asoslari” Namangan 2003

2.Бугаев А.И.Методика преподавания физики в средней школе. М:"Просвещение".1981.

3.Ерунова Л.И. Урок физики и его структура при комплексном решении задач обучения.М.: "Просвещение" .1988.

4.Mamadaliyev.A. Xunar-texnika bilim yurtlarida fizika o‘qitishning ayrim masalalari. Namangan,1987.

TEXNIK YO‘NALISHDAGI OTM TALABALARIGA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

B.Z.Mislidinov
Namangan muhandislik-qurilish

Annotasiya: Ushbu maqolada texnik yo‘nalishdagi talabalarga fizika o‘qitishda laboratoriya mashg‘ulotlari uchun dasturiy ishlanma strukturaviy tuzilmasi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: ta‘lim, raqamli texnologiya, dastur, ishlanma, elektron darslik, model


Kirish. Bugungi kunda ta‘lim sohasini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Raqamli texnologiyalarni ta’lim sohasiga tadbiq etish davom etmoqda. Shunday ekan, texnik yo‘nalishdagi talabalarga fizika fanlarini o‘qitishda ularning axborot-texnologik kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni o‘rni muhimdir.

Ta‘limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni, ta‘lim sifatini oshirishni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishning nazariy va metodik masalalarini soha olimlaridan U.Sh.Begimqulov, elektron ta‘lim resurslarini takomillashtirish masalalari N.A.Muslimov kabi respublikamiz olimlarining ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topib, ta‘lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash metodlari mazmuni, usullari hamda ta‘lim sifatini oshirishda elektron-dasturiy ta‘minotning samarali o‘rni yoritilgan. Oleksandr O. Martyniuk va Ivan O. Muzyka ishlarida raqamli texnologiyalardan laboratoriya ishlarida foydalanilgan ammo laboratoriya ishlarida dasturiy ishlanmalar yaratilmagan.

Ta‘limda raqamli texnologiya bu – kompyuter dasturlari yordamida ikkilik sanoq tizimida ishlab chiqilgan, ta‘lim jarayonini tashkil etish, boshqarish hamda uning natijalarini inson omili ishtirokini kamaytirish asosida avtomatlashgan sistema asosida tashkil etish imkoniyatini beruvchi dasturiy ta‘minot.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ishda fizika o‘qitishda texnik yo‘nalishdagi talabalar uchun laboratoriya mashg‘uloti uchun ishlab chiqilgan dasturiy ishlanma modeli muhokama qilinadi. Talabalar ushbu dasturiy ishlanmadan foydalanib fizika fanini o’zlashtiradilar.

Natijalar va muhokamalar. Biz ushbu ishimizda texnik yo‘nalishdagi talabalar uchun laboratoriya mashg’ulotlari uchun dasturiy ishlanma ishlab chiqdik. Ushbu dasturiy ishlanma tuzilmasi 1-rasmda ko‘rsatilgan. Ushbu dasturiy ishlanmalardan foydalanish orqali talabalar fizika fani bo’yicha bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishadi. Undan tashqari OTM hududidan tashqarida(uyda, transport vositasida va h.k) mustaqil o’rganish imkoniyati mavjud. Qolaversa talaba fanni o’zlashtirish uchun kutubxonada fan bo’yicha resurslar qidirmaydi.Yana eng muhim jihati talabaning vaqti tejaladi.



1-rasm. Laboratoriya mashg‘ulotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasining modeli

Xulosa qilib aytganda texnika yo‘nalishidagi talabalarga fizika o‘qitishda dasturiy ishlanmalardan foydalanishi ular uchun qulay hisoblanadi. Buning natijasida talabaning fanni o‘zlashtirish darajasi oshadi, uning fizik jarayon va hodisalarni mohiyani anglash va tushunishi osonlashadi, o‘zini fan bo‘yicha sintez va analiz qilish darajasi oshadi, fizik dunyoqarashi kengayadi va fanga bo‘lgan qiziqishlari oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Begumqulov U.SH. Pedagogik ta‘lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dok. diss.-Toshkent: TDPU, 2007. -B. 305.

2. Muslimov N.A. Kasb ta‘limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Ped. fan. dok. diss. avtoref.-Toshkent: TDPU, 2007.-47 b.

3. Jalolova P.M.Atom fizikasini raqamli texnologiyalardan foydalanib o‘qitish asosida talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi. Ped.fan.d-ri.diss.-Chirchiq, 2022, 28-b

AYLANMA HARAKAT QONUNLARINI O‘QITISH METODIKASI

R.M.Jalalov[1]; T.T.Ismanov[2];U.R.Maxmudov[3]

[1]Namangan davlat universiteti; [2]Namangan davlat pedagogika instituti; [3]TATU farg‘ona filiali

Annotatsiya: ushbu tezisda maktab fizika darslarida aylanma harakat qonunlarini o‘qitish metodikasi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: aylanma harakat qonunlari, burchak tezlik, burchak tezlanish, inersiya momenti

Aylanma harakat fizikada muhim bo‘limlardan biri bo‘lib, unda jismlarning o‘q atrofidagi harakati o‘rganiladi. Aylanma harakatni tushunish o‘quvchilarning ham nazariy bilimlarini, ham masalalar yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu mavzuni o‘qitishda quyidagi metodik qadamlar foydali hisoblanadi:

1. Mavzuning nazariy tushunchasi

O‘qituvchi avval aylanma harakatning asosiy tushunchalarini tushuntirishi kerak:

Aylanma harakat – jismning qo‘zg‘almas o‘q atrofida harakatlanishi.

Burchak tezligi – jism o‘q atrofida birlik vaqtda qancha burchakka builishi, qanday burchak chizganligini ko‘rsatuvchi tezlik.

Burchak tezlanish — jismning burchak tezligining vaqt birligidagi o‘zgarish tezligi.

Inersiya momenti — jismning massa va shakliga qarab aylanishga qarshiligini ko‘rsatadi.

Aylanma harakat dinamikasi – Nyutonning ikkinchi qonunining aylanma harakatdagi tatbiqi.

Aylanma harakat mavzusini tushuntirishda masala va missollar yechish muhim rol o‘ynaydi**.** Masalalar o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalarga aylantirishda juda muhim omillardan hisoblanadi. Quyida aylanma harakat masalalari va ularning yechimlarini keltiramiz:

1-Masala

10 kg massali disk doimiy 2 rad/s2 burchak tezlanish bilan aylantirilmoqda. Agar diskning radiusi 0,5 m bo‘lsa, 5 sekunddan keyin diskning burchak tezligi va markazga intilma tezlanishini toping.

Yechimi:

Burchak tezligi $\omega = \omega_0 + \varepsilon t = 0 + 2 \cdot t = 10$ rad/s.

Markazga intilma tezlanishi $a_n = \omega^2 R = 10^2 \cdot 0.5 = 50$ rad/s^2

2- Masala

Massa 4 kg bo‘lgan va radiusi 0.3 m bo‘lgan silindr aylanma holatdan tik yurishga o‘tadi. Silindrning kinetik energiyasini toping.

Yechimi:

Inersiya momenti $I = m R^2 = 4 \cdot 0.3^2 = 0.18\ kg \cdot m^2$

Kinetik energiya $E = I \omega^2 = 0.18\ \omega^2$

Aylanma harakat qonunlari asosidagi metodik takliflar:

2. Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan metodlar

Vizualizatsiya va modellashtirish: Aylanma harakatni yaxshi tasavvur qilish uchun, o‘quvchilarga geometriya va simmetriya haqida tushuncha berish kerak. Masalan, diskning aylanishi modellashtirilgan holda taqdim etilishi mumkin.

Interaktiv darslar: Masalalarni guruhda birgalikda yechish orqali talabalarning muammo yechish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Eksperimentlar: Aylanma harakatning energiyani saqlash va quvvat dinamikasini o‘quvchilar o‘zlari tajriba orqali kuzatishlari mumkin.

3. Qo‘llab-quvvatlovchi vositalar

Aylanma harakat qonunlarini tushuntirish uchun quyidagi vositalardan foydalanish mumkin:

Simulyatsiyalar: Masalan, Fizika simulyatsiyalarini yaratish uchun PhET yoki boshqa virtual laboratoriyalardan foydalanish.

Qo‘lga tushadigan modellar: Aylanma harakatni kuzatish uchun oddiy disklar, silindrlar va charxpalaklardan foydalanish mumkin.

Xulosa. Aylanma harakat qonunlarini o‘qitish, to‘g‘ri uslubiy yondashuv va masalalar orqali amalga oshirilishi kerak. Har bir nazariy ma’lumotning amaliy ko‘rinishi bo‘lgan masalalar talabalarga aylanma harakat qonunlarini tushunishga yaxshi yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Habibullayev, E.Nazirov «Fizika izoxli Lug‘ati »T.2002
2.«Yosh fizik ensiklopedik Lug‘ati» T. 1989
3. A.S.Yenoxovich «Kratkiy spravochnik po fizike» M. 1969

GEOMETRIYA KURSIDA TEKISLIKDA AFFIN ALMASHTIRISH VA INVERSIYANI O`QITISH USLUBIYOTI

I.N.Tillabayev; H.Abdusattorova; M.F.Ergashaliyeva

Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Tekislikdagi harakatlar, tekislikda affin almashtirishlar, o‘xshash almashtirishlarni nazariy va amaliy ma`lumotlarga asoslanib misollarni yechish uslubiyotini ifodalanadi.

Kalit so‘zlar: Tekislikdagi harakatlar, o‘xshash almashtirishlar, to‘g‘ri chiziq, nuqta, harakatda burchak, harakatda parallel to‘g‘ri chiziq, affin almashtirishlar va inversiya.

Tadqiqot metodologiyasi. Tezisda «Tekislikdagi Affin almashtirishlar» haqida bo‘lgani uchun, biz shu haqda qisqacha to‘xtab o‘taylik .

Biror P tekkislik tanlaymiz. P tekkislik ixtiyoriy ikkita $B=\{O,\bar{e}_1,\bar{e}_2\}$, $B'=\{O',\bar{e}_1',e_2'\}$ affin reperini tanlaymiz. $\forall X \in P$ nuqta B reperiga nisbatan x, y koordinatalarga ega bo‘lsin.

Ta’rif. Tekkislikning B reperiga nisbatan x,y koordinatali M nuqtasiga B' reperiga nisbatan shunday x,y koordinatali M' nuqtasini mos keltiradigan almashtirishga affin almashtirish deyiladi.

Affin almashtirishni A ko‘rinishda belgilaymiz. Affin almashtirishning ta’rifidan $A: M(x,y)_B \to M'(x],y')_{B'}$ kelib chiqadi.

Affin almashtirishning xossalari.

1) A almashtirishda to‘g‘ri chiziq to‘g‘ri chiziqqa o‘tadi.

2) A almashtirishda M_1, M_2, M_3 kollinear nuqtalar $(M_1M_2M_3)=(M_1^1M_2^1M_3^1)$ tenglikini qanoatlantiruvchi M_1^1, M_2^1, M_3^1 nuqtalarga o‘tadi.

3) A almashtirishda parallel to‘g‘ri chiziqlar parallel to‘g‘ri chiziqlarga o‘tadi.

4) A almashtirishda uchta o‘zaro kollinear bo‘lmagan nuqtalar yana uchta o‘zaro kollinear bo‘lmagan nuqtalarga o‘tadi.

5) A almashtirishda «orasida yetadi» munoabati saqlanadi, ya’ni $A: M_1 \to M_1^1, M_2 \to M_2^1, M_3 \to M_3^1, (M_1M_2M_3) \to (M_1^1M_2^1M_3^1)$. Agar tekkislikda biror l yo‘nalishga parallel proyeksiyalash orqali o‘rnatilgan affin almashtirish uchun invariant nuqtalarning geometrik o‘rnidan tashkil topgan invariant to‘g‘ri chiziq mavjud bo‘lsa, u holda A almashtirishni perspektiv-affin almashtirish deyiladi.

Invariant to‘g‘ri chiziqni perspektiv-affin almashtirishning o‘qi deyiladi. Tekkislikda pespektiv-affin almashtirishga nisbatan uning nuqtalari orasida o‘rnatilgan moslikni ba’zan turdosh moslik deyiladi.

Turdosh mosligi kollinear vektorlar nisbatini yoki bir to‘g‘ri chiziqqa tegishli yoki parallel to‘g‘ri chiziqqa tegishli kesmalarning nisbatini saqlaydi.

Har qanday affin almashtirish koordinatalar orqali quyidagi

$$\begin{cases} x' = a_1 x + b_1 y + c_1, \\ y' = a_2 x + b_2 y + c_2, \end{cases} \qquad \Delta = \begin{vmatrix} a_1 & b_1 \\ a_2 & b_2 \end{vmatrix} \neq 0 \qquad [2.1]$$

chiziqli formulalar bo‘yicha analitik ifodalanadi.

Agar $\Delta > 0$ bo‘lsa, u holda affin almashtirishni 1-tur almashtirish deyiladi.

$\Delta < 0$ bo‘lsa 2-tur almashtirish deyiladi.

[2.1] formulalardan affin almashtirishning quyidagi xususiy xollari kelib chiqadi:

1) $\begin{cases} x' = x, \\ y' = ky, \end{cases} \quad \Delta = \begin{vmatrix} 1 & 0 \\ 0 & k \end{vmatrix} = k$ k > 1 да к-коэффициентли чузилиш; k < 1 да k-коэффициентли кимсилиш;

2) $\begin{cases} x' = x + cy, \\ y' = y \end{cases} \quad \Delta = \begin{vmatrix} 1 & 1 \\ 0 & 1 \end{vmatrix} = 1, \quad C = \dfrac{x' - x}{y}$ – koeffisiyentli siljish;

3) $\begin{cases} x' = x + c_1, \\ y' = y + c_2, \end{cases} \quad \Delta = 1$ parallel ko‘chirish;

4) $\begin{cases} x' = \lambda x, \\ y' = \lambda y, \end{cases} \quad \Delta = \lambda^2$ λ – koeffisiyentli gomotetiya.

Affin almashtirishni invariant nuqtalar soniga nisbatan turlash ham mumkin.

invariant to‘g‘ri chiziqqa ega bo‘lgan affin almashtirishni $\overrightarrow{MM'} \not\parallel l \quad (m \notin l)$ uchun qiyshiq qimsilish $\overrightarrow{MM'} \parallel l (M \notin l)$ bo‘lganda siljish, MM' kesmaning o‘rtasi l ga tegishli bo‘lsa qiyshiq simmetriya, $\overrightarrow{MM'}$ vektor l to‘g‘ri chiziqqa perpendikulyar bo‘lganda l to‘g‘ri chiziqqa qimsilish kabi almashtirishlarga ajratiladi.

1-masala.

$$f : \begin{cases} x' = 2x - 3y + 1, \\ y' = x - 2y + 1 \end{cases}$$

formulalar orqali aniqlangan affin almashtirishning qandayligini aniqlang.

Yechilishi. 1) Almashtirishning invariant nuqtalarini topamiz, buning uchun $x' = x,\ y' = y$ tengliklardan foydalanamiz.

$$\begin{cases} x = 2x - 3y + 1, \\ y = x - 2y + 1; \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x - 3y + 1 = 0 \\ x - 3y + 1 = 0. \end{cases}$$

f almashtirish invariant to‘g‘ri chiziqqa ega va uning tenglamasi $x - 3y + 1 = 0$, demak f o‘qi $x - 3y + 1 = 0$ ko‘rinishdagi tenglama orqali anqlangan turdosh mosligidir.

2) $M(0,0)$ nuqta uchun uning aksining koordnatalarini topamiz.

$$x'=1,\quad y'=1,\quad M'(1,1).$$

$\overrightarrow{MM'}(1,1)$ vektor o‘qning $\vec{a}(3,1)$ yo‘naltiruvchi vektoriga kollinear bo‘lmaydi, demak u qiyshiq qimsilish bo‘ladi.

3) MM' kesmaning o‘rtasi $x_0=\frac{1}{2},\ y_0=\frac{1}{2}$ koordinatalarga ega. M_0 nuqtaning koordinatalari turdosh mosligi o‘qining tenglamasini qanoatlantiradi, demak u qiyshiq simmetriyadan iboratdir.

Javob: $x-3y+1=0$ o‘qli qiyshiq simmetriya.

Muhokama:Maqoladagi Tekislikning harakati va affin ko‘chirish mavzulari uchun hisoblashlarga doir, isbotlashga doir masalalardan namunalar yechish uslubiyoti ko‘rsatilgan.

ADABIYOTLAR

1.Dadajonov N.D., Jo‘rayeva M.Sh. «Geometriya» 1-qism, Toshkent- «O‘qituvchi» 1979.
URL:https://elib.buxdu.uz/index.php/kutubxona/o-zbek-tilidagi-adabiyotlar/item/ 5830
2.Саранцев Г.Н. «Сборник задач на геометрические преобразования» Москва – «Просвешение»-1981.
URL:https://sheba.spb.ru/shkola/geometr-08-1981.htm
3.Атанасян, А.С.Базўлов В.Т.Геометрия ч.1, Москва «Провеҳение» 1986.
URL: https://www.studmed.ru/atanasyan-l-s-atanasyan-v-a-sbornik-zadach-po-geometrii-chast-1_47e3159070d.html.

IDEMPOTENT MATEMATIKANING TRADITSION MATEMATIKA VA FIZIKA O’RTASIDAGI MOSLIK

M.M.Karimov, F.A.Sharipov, X.B.G’ulomjonova

Namangan davlat universiteti

Anatatsiya: Idempotent matematika asosida oddiy arifmetik amallarni bazaviy amallarning (maksimum yoki minimum kabi) yangi to’plami bilan almashtirish yotadi, bunda sonlar maydoni idempotent yarim xalqalar va yarim maydonlar bilan almashadi. Zamonaviy idempotent analiz (yoki idempotent hisob, yoki idempotent matematika) V. P. Maslov va uning izdoshlari tomonidan Moskvada 80-yillardan boshlab yaratilmoqda. E. Xopf va G. Shokelar o’z ishlarida ba’zi taxminiy natijalarni ifodalashdi.

Kalit sozlar: Idempotent, o’lchov, qo’zg’almas nuqta, operator, simpleks, matritsa, kvant va traditsion

Idempotent matematikani sonlar maydoni ustidagi traditsion matematika dekvantovaniyasining natijasi deb qarash mumkin, bunda h Plank doimiysi mavhum qiymatlar qabul qilib, nolga intiladi. Bunday nuqtai nazar G. L. Litvinov va V. P. Maslovlar tomonidan taqdim etilgan. Boshqacha aytganda, idempotent matematika haqiqiy va kompleks sonlar maydonlari ustidagi traditsion matematikaning asimptotik versiyasi bo’ladi.

Idempotent matematikani asosiy paradigmasini idempotent moslik prinsipi ifodalaydi. Ushbu prinsip Nils Borning kvant nazariyasi uchun mashhur moslik prinsipi bilan chambarchas bog’langan. Ma’lum bo’lishicha, maydonlar ustidagi oddiy matematikaning bir qator muhim, qiziqarli, foydali konstruksiyalari, natijalari bilan idempotent yarim xalqa va yarim maydonlar (yarim maydon va yarim xalqa idempotent qo’shish bilan) ustidagi shunga o’xshash konstruksiyalar va natijalar o’rtasida evristik moslik mavjud.

Idempotent moslik prinsipining sistemali va ketma-ket qo’llanilishi ko’p hollarda kutilmagan ko’pxillik natijalarga olib keladi. Natijada traditsion matematika bilan bir qatorda uning “soyaviy” idempotent versiyasi paydo bo’lyapti. Klassik fizika kvant fizikasi bilan qanday bog’langan bo’lsa, bu “soyaviy” versiya ham traditsion matematika bilan shunday bog’langan.

Ko’p munosabatlarda idempotent matematika traditsion matematikadan soddaroq. Biroq traditsion konstruksiya va natijalardan ularning idempotent analoglariga o’tish ko’pincha netrivial bo’ladi.

Dekvantovaniya

S to’plamda 2 ta algebraik amal berilgan bo’lsin: $\oplus$ qo’shish va $\otimes$ ko’paytirish.

Agar S to’plamning $\forall x, y, z$ elementlari uchun quyidagi shartlar bajarilsa, yarim xalqa deyiladi:

- $\oplus$ qo’shish va $\otimes$ ko’paytirish assotsiativ, ya’ni

$$\forall x, y, z \in S \text{ lar uchun } (x \oplus y) \oplus z = x \oplus (y \oplus z);$$

$$(x \otimes y) \otimes z = x \otimes (y \otimes z);$$

- $\oplus$ qo’shish kommutativ, ya’ni

$$\forall x, y \in S \text{ lar uchun } x \oplus y = y \oplus x;$$


- $\otimes$ ko'paytirish $\oplus$ qo’shishga nisbatan distributiv:

$x \otimes (y \oplus z) = (x \otimes y) \oplus (x \otimes z)$ va $(x \oplus y) \otimes z = (x \otimes z) \oplus (y \otimes z)$.

S yarim xalqaning birligi deb shunday $1\in S$ elementga aytiladiki, bunda barcha $x\in S$ lar uchun $1\otimes x=x\otimes 1=x$. S yarim xalqaning noli deb shunday $0\in S$ elementga aytiladiki, bunda $0\neq 1$ va barcha $x\in S$ lar uchun

$$0\oplus x=x,\ 0\otimes x=x\otimes 0=0.$$

S yarim xalqa idempotent yarim xalqa deyiladi, agar barcha $x\in S$ lar uchun $x\oplus x=x$ o’rinli bo’lsa. 0 va 1 elementlari bilan S yarim maydon deyiladi, agar S to’plamning ixtiyoriy noldan farqli elementi uchun teskari element mavjud bo’lsa.



R haqiqiy sonlar maydonini va barcha nomanfiy R_+ haqiqiy sonlar yarim maydonini (oddiy qo’shish va ko’paytirish amallariga nisbatan) qaraymiz. $x\mapsto u=h\ln x,\ h>0$ o’zgaruvchilarning almashtirilishi $\Phi_h: R_+\to S=R\cup\{-\infty\}$ akslantirishni beradi. R dagi qo’shish va ko’paytirish amallarini S ga Φ_h akslantirish yordamida o’tkazamiz, ya’ni

R_+ dan $R^{(h)}$ ga o’tish.

$$u\oplus_h v=h\ln(\exp(u/h)+\exp(v/h)),$$
$$u\otimes v=u+v,\ 0=-\infty=\Phi_h(0),\ 1=0=\Phi_h(1)$$

bo’lsin. Shunday qilib S R_+ ga izomorf $R^{(h)}$ yarim xalqaning strukturasini egallaydi.

Tekshirish qiyin emaski, $h\to 0$ da $u\oplus_h v\to\max\{u,v\}$ va $u\oplus v=\max\{u,v\}$ qo’shish va $u\otimes v=u+v$ ko’paytirish amallariga nisbatan S $0=-\infty$ nol va $1=0$ birlik elementli yarim xalqa hosil qiladi. Bu yarim xalqani $R_{\max}$ orqali belgilaymiz: u idempotent, chunki barcha elementlar uchun $u\oplus u=u$. Bunda $R_{\max}$ yarim xalqa yarim maydon bo’ladi. Bu yerda kvantovaniya protsedurasiga o’xshashlik ravshan, h parametr Plank doimiysi rolini o’ynaydi, shuning uchun R_+ yarim maydonni “kvant” ob’yekti kabi, $R_{\max}$ yarim xalqani esa uning “dekvantovaniya” natijasi kabi qarash mumkin. $h<0$ uchun shunga o’xshash protsedura $\oplus=\min,\ \otimes=+$ amalli $R_{\min}=R\cup\{+\infty\}$ yarim xalqani beradi. Bu holda $0=+\infty,\ 1=0$. $R_{\max}$ va $R_{\min}$ yarim xalqalar izomorf. $R_{\max}$ yoki $R_{\min}$ ga o’tish Maslov dekvantovaniyasi deyiladi. Tushunarliki, R yoki C dan $R_{\max}$ ga o’tish $x\mapsto|x|$ akslanish va Maslov dekvantovaniyasi yordamida amalga oshiriladi. $\oplus=\max,\ \otimes=\min$ amalli $R\cup\{-\infty\}\cup\{+\infty\}$ idempotent yarim xalqani $R,\ C$ maydonlarning yoki R_+ yarim maydonning “ikkilamchi dekvantovaniya”si natijasida olinishi mumkin. O’nlab qiziqarli izomorf bo’lmagan idempotent yarim xalqalarga misollar hamda dastlabkidan yangi yarim

xalqalarni hosil qilishning standart usullari G. Cohen, S. Gaubert, J.P.Quadrat, J.S.Golan, M.Gondran, M.Minoux, J.Gunawardena, G.L.Litvinov, V.P.Maslov, G.B.Shpiz larning ba’zi ishlarida ko’rib chiqiladi. Idempotent dekvantovaniya Maslov dekvantovaniyasining umumlashmasi bo’ladi. Bu matematik konstruksiyalar va natijalardagi maydondan idempotent yarim xalqalar va yarim maydonlarga o’tish.

Maslov dekvantovaniyasi, masalan, E.Shredinger va E.Xopflarning klassik ishlarida qo’llanilgan yaxshi ma’lum logarifmik almashtirishga bog’liq. “Koul-Xopf almashtirishi” termini ham qo’llaniladi.

ADABIYOTLAR

[1] M. Akian, Trans. Amer. Math. Soc. **351**, 4515 (1999).
[2] J. M. Casas, M. Ladra and U. A. Rozikov, Linear Algebra Appl. **435** (4),852 (2011).
[3] P. Del Moral and M. Doisy, Math. Notes. **69** (2), 232 (2001).
[4] P. Del Moral and M. Doisy, Theory Probab. Appl. **43** (4), 562 (1998); **44** (2), 319 (1999).
[5] R. L. Devaney, *An introduction to chaotic dynamical system* (Westview Press 2003).
[6] G. L. Litvinov and V. P. Maslov (eds.), Idempotent mathematics and mathematical physics (Vienna 2003), Contemp. Math., 377, Amer. Math. Soc., Providence, RI, 2005.
[7] G. L. Litvinov, J. Math. Sciences. **140** (3), 426 (2007).
[8] V. P. Maslov and S. N. Samborskii (eds.), Adv. Soviet Math. **13**, Amer. Math. Soc., Providence, RI, (1992).
[9] A. N. Shiryaev, *Probability, 2 nd Ed.* (Springer, 1996).
[10] M. M. Zarichnyi, Izvestiya: Mathematics. **74** (3), 481 (2010).

FIZIKADAN PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASH JARAYONIDA NANOTEXNOLOGIYALAR SOHASIDAGI YANGILIKLAR VA ERISHILGAN YUTUQLARDAN FOYDALANISH

A.M.Madaliyev

Qo‘qon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Maqola fizika fanidan pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirishga, talabalarning bilim darajasi va amaliy ko‘nikmalarini oshirishga, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirishga va kelajakda nanotexnologiyalar sohasida faol ishtirok etishga tayyorlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Fizika, pedagog kadrlar tayyorlash, nanotexnologiyalar, yangiliklar, yutuqlar, o‘qitish, innovatsion fikrlash, amaliy ko‘nikmalar, zamonaviy texnologiyalar

Kirish. XXI asrda dunyo tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda, texnologiyalar insoniyat hayotining barcha sohalarini qamrab olmoqda. Ushbu o’zgarishlarning markazida nanotexnologiyalar turmoqda. Nanotexnologiyalar sohasidagi kashfiyotlar va yutuqlar ilm-fan, texnologiya, tibbiyot, energetika va boshqa sohalarda inqilob qilmoqda.

Tadqiqot metodlari va muhokamalar. Hozirga qadar nanotexnologiya va nanomahsulotni ta’riflovchi yagona standart mavjud emas. Nanotexnologiya termini birinchi bo‘lib Norio Taniguti tomonidan 1974 yilda ishlatilgan. U bu termin bilan bir necha nanometr o‘lchamga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni nazarda tutgan. O‘tgan asrning 80-90-yillarida Erik K. Dreksler bu terminni o‘zining “Yaratuvchi mashinalar: kelayotgan asr - nanotexnologiyalar asri” (*“Engines of Creation: The Coming Era of Nanotechnology”*) va “*Nanosystems: Molecular Machinery, Manufacturing, and Computation”* kitoblarida ishlatgan.

Miniatyurizatsiyaning zamonaviy tendensiyasi shuni ko‘rsatdiki, moddaning kichik zarrasi ajratib olinsa, bu modda o‘zining umuman yangi xususiyatlarini namoyon qilar ekan. Ayrim materiallarning nanozarralari juda yaxshi katalitik va adsorbsiion xususiyatlarini namoyon qilsa, boshqalari ajoyib optik xususiyatlariga ega bo‘lib qoladi. Masalan, organik materiallarning juda yupqa plenkasini Quyosh batareyalari ishlab chiqarishda foydalaniladi. Bu batareyalar past samaradorlikka ega bo‘lishadi, lekin arzon va mexanik ta’sirlarga chidamli. Sun’iy nanozarralarni nanoo‘lchamli tabiiy birikmalar – oqsillar, nuklein kislotalari va boshqalar bilan ta’sirlashishga erishilmoqda.

Nanoobyektlar 3 sinfga bo‘linadi: uch o‘lchamli zarralar, ular o‘tkazgichlardan, plazma sintezi va yupqa plyonkalarni tiklash va boshqa yo‘llar bilan olinadi, ikki o‘lchamli obyektlar – molekulyar va ion qatlamlashtirish yo‘li bilan olingan plyonkalar, bir o‘lchamli obyektlar – viskerlar, molekulyar qatlamlashtirish usuli orqali olinadi. Bundan tashqari nano kompozitlar ham mavjud bo‘lib, ular nanozarralarni qandaydir matritsaga kiritish yo‘li bilan olingan materiallar hisoblanadi. Molekulyar va ion qatlamlashtirish usullari real

monoqatlamlar olishning ishonchli usullari hisoblanadi. Tabiiy va sun’iy yaratilgan organik nanozarralar alohida sinfni tashkil qiladi. Hajmga ega materiallardan tashqari nanozarralarning fizik va kimyoviy xususiyatlari ularning o‘lchamiga juda ham bog‘liq bo‘lganidan nanozarralar o‘lchamini eritmalarda o‘lchash usullariga bo‘lgan qiziqish ortmoqda. Bu usullarga nanozarralar trayektoriyalarini tahlil qilish, dinamik nur sochilishi, sedimentatsion analiz va ultratovush usullari kiradi.

Nanotexnologiya oldida turgan muhim masalalardan biri – molekulalarni ma’lum yo‘l bilan gruppalashtirish, o‘zaro tizimlashtirish va natijada yangi materiallar, qurilmalar olishdir. Bu muammo bilan kimyoning bo‘limi – supramolekulyar kimyo shug‘ullanadi. Bu bo‘lim alohida molekulalarni emas, molekulalar orasidagi o‘zaro ta’sirni o‘rganadi. Bu kuchlar molekulalarni tartiblashtirish asosida yangi modda va materiallar hosil qilishi mumkin. Tabiatda shunday kuchlar va jarayonlar mavjud. Masalan, biopolimerlar maxsus tuzilmaga kelish xususiyatiga ega. Oqsillar ham turli birikmalar hosil qilish xususiyatiga ega.

Natijalar. Nanotexnologiya sohasi juda tez rivojlanmoqda va har kuni yangi kashfiyotlar va yutuqlar kuzatilmoqda. Quyida so‘nggi yillarda erishilgan ba'zi muhim yutuqlarni sanab o‘tamiz: nanomedikamentlar, nanomateriallar, diagnostika, Quyosh energiyasi, batareyalar, kompyuterlar, sensorlar, to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi.

Xulosa. Nanotexnologiyalar sohasidagi zamonaviy yutuqlar va ularning fizika fani bilan bog‘liqligi o‘rganilgan, nanotexnologiyalarni fizika fanidan pedagog kadrlar tayyorlash jarayoniga integratsiyalashning usullari va imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan, nanotexnologiyalarni o‘qitishda zamonaviy o‘quv materiallari, usullar va texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari, nanotexnologiyalar sohasidagi yangiliklarni o‘rganish va qo‘llash orqali talabalarda innovatsion fikrlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga erishilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.F.Bertino. Introduction to Nanotechnology. World Scientific. 2022. p.-234.
2. R. V. Lapshin (2004). «Feature-oriented scanning methodology for probe microscopy and nanotechnology» (PDF). Nanotechnology(IOP) 15 (9): 1135-1151. DOI:10.1088/0957-4484/15/9/006. ISSN 0957-4484. 1135-1151 p.
3. James E. McClellan III, Harold Dorn. Science and Technology in World History. Second Edition. Johns Hopkins university press, 2006. p.263.
4. R. V. Lapshin. Encyclopedia of Nanoscience and Nanotechnology / H. S. Nalwa. -USA: American Scientific Publishers, 2011.-Vol. 14.-P.105-115.

MOLEKULYAR FIZIKA FANINI O’QITISHDA ELEKTRON TA’LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH

B.T.Abdulazizov[1]; M.M.Qo’chqorova[2]

[1]Namangan davlat universiteti; [2]Qo‘qon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu ishda molekulyar fizika darslarida elektron ta’lim resurslaridan foydalanishning samaradorliklari haqida ma’lumot berilgan.

Tayanch so’zlar: elektron ta’lim resurslari, pedagogik dasturiy vositalar, elektron testlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, molekulyar fizika.

Bugungi kunda axborot vositalaridan barcha sohalarda keng qo‘llanilgan bir vaqtda, fanlarni kompyuter dasturlari orqali fizik xodisalarni, tajribalarni namoyish qilish va kuzatishda, fizika kursida turli fizik jarayonlarni o‘rganishda pedagogik dasturiy vositalardan keng foydalanish mumkin. Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o’quv jarayonini qisman yoki to’liq avtomatlashtirish uchun mo’ljallangan didaktik vosita bo’lib, ular ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o’qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Oliy ta’lim muassasalarida o’qitishning axborot texnologiyasidan samarali qo’llash kompyuterning imkoniyatiga moslab tuzilgan o’quv-metodik materiallarning sifatiga bog’liq.

Zamonaviy axborot texnologiyalardan ta’lim tarbiya jarayonida quyidagi shakllarida foydalanish mumkin:

-muayyan predmetlarni o’qitishda kompyuter dasturlari;

-ta’lim oluvchilarning guruhli va frontal ishlarini tashkillashtirishda ayniqsa fizika fanining molekulyar fizika sohasi darsliklarida to’liq yoritib berish qiyin bo’lgani uchun o’quvchilar (talabalar) ga sohani tushunish qiyinchiliklar tug’diradi. Molekulyar fizika mavzularni “Kompyuterda modellashtirish” mashg’uloti va “Virtual laboratoriya” ishlari bilan to’ldirilsa fizika darslarida samaradorlik oshadi. Molekulyar fizikaga tegishli laboratoriyalarni kompyuter texnologiyasidan foydalanib online rejimda bajarishlari o’quvchilar (talabalar)ga mavzuni kengroq tushunishiga imkon yaratadi. So’nggi yillarida fizika bo’yicha yozilgan o’quv kitoblarning elektron variantlari tayyorlanmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar fizik jarayonlarni o’quvchilarga (talabalarga) modellashtirish imkoniyatini beradi. Zamonaviy texnologiyalar fizika darslarida qo’llanilsa o’quvchilar (talabalar) ni izlanuvchanlikka ijodiy fikr yuritishga ish natijalarini tahlil qilishga talabalarni bilim olishini faollashtiradi, o’qitishning mazmunini differentsiallashtiradi va bilim olishini individuallashtiradi, talaballarning bilimlarini modellashga va mustaqillikga o’rgatadi, turli o’quv vositalaridan kompleks foydalanishga ko’niktiradi, kompyuter yordamida o’z bilimini tekshirishga, yo’l qo’ygan xatolarni aniqlashga va ularni tuzatishga o’rgatadi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan foydalangan holda o’quv jarayonini tashkillashtirilsa o’quvchilar (talabalar) fanga qiziqish bilan yondashadilar. Molekulyar fizika bo’limi fizikaning eng murakkab bo’limlaridan biri hisoblanadi, chunki bu bo’limdagi jarayonlarni o’quvchilarga yaqqol tajriba sharoitida ko’rsatish murakkab va bunda o’quvchilarning ijodiy

fikrlashidan foydalangan holda tasavvur qilish orqali jarayon va tushunchalar o’rgatiladi. Masalan, molekula va atomlarni kichik sharchalar kabi tasavvur qilish, ularni oson tushunishga imkon yaratadi.

Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari - majmuaviy integral (butun, bog‘liq) tizim bo‘lib, unda ta’lim maqsadlari asosida belgilangan ko‘nikma va malakalar o‘quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, ularda muayyan ma’naviyaxloqiy sifatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat elementlarining ma’lum tartibga solingan to‘plamdir. Elektron ta’lim resurslaridan o‘quv jarayonida to‘liq foydalanish natijasida quyidagilarga erishiladi:

1) xotiraga qabul qiladilar, anglaydilar, yig‘adilar, biroq xatosiz, ongli ravishda qayta tiklamaydilar;

2) bevosita o‘qituvchi hamkorligida tahlil qiladilar, taqqoslaydilar, umumlashtiradilar, namuna bo‘yicha amaliy harakatlarni bajaradilar;

3) muammolarni yechish jarayonida mustaqil izlanadilar, kutilayotgan natijaga erishishning yo‘l va vositalarini mustaqil ravishda aniqlaydilar. Zamonaviy dasturlash vositalarida tayyorlangan elektron ta’lim resurslarining sifati darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, ta’lim berish jarayoni shuncha natijali bo‘ladi. O‘qitishning interfaol usullarini bilish kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, unda ta’lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan va biladigan, o‘ylayotgan narsalarini tushuntirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Elektron ta’lim resurslari qo‘llanilgan darslarda o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi pedagogik hamkorlik o‘quvchini dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanishga olib keladi, fanga bo‘lgan qiziqishlari doimiyligini ta’minlaydi. Ta’lim tizimida yil sayin rivojlanib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta’lim jarayonini sifat va mazmun jihatdan yanada yuqori bosqichga ko‘tarishga xizmat qilmoqda. Bunda albatta, ta’lim jarayonini mazmunli tashkil etish uchun zamonaviy texnik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI

1. Djo’rayev M. “Fizika o’qitish metodikasi” . Toshkent. TDPU 2013.
2. Xayitov A.G’. Dars jarayonini kompyuterlashtirish xususida // Uzluksiz ta’lim. 2004, № 3–son B. 46-52.
3. Berkinov, A. (2020). Molekulyar fizikada talabaning ijodiy qobilyatini rivojlantirishda chet tillarining ahamiyati. Архив Научных Публикаций JSPI.
4. M.T.Hojiyev, K.T.Olimov. Elektron darsliklarni yaratish texnologiyasi va sifatini baholash metodikasi. – T. “Fan nashriyoti” 2005 y. 72-b.
5. B.Q.Xo’jaev, Sh.Sh.Olimov. Yangi pedagogik texnologiyalar. Nazariya va amaliyot. – Buxoro: Buxoro nashriyoti. 2004 y. 120-b.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA ASTRONOMIYA O‘QITISHGA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

B.T.Abdulazizov[1]; Q.P.Umurqulov [2]; Sh.D.Umurqulova[3]

[1]Namangan davlat universiteti; [2]Qo‘qon davlat pedagogika instituti; [3] Qo’qon shahar kasb hunar maktabi o’qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqola Umumta’lim maktablarida raqamli texnologiyalar vositasida astronomiya o‘qitishga pedagogik yondashuvlar mavzusiga bag’ishlangan bo’lib, ta’limda raqamli texnologiyalarning o’rni, kompyuter dasturlaridan dars mashg’ulotlarida foydalanishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so’zlar: raqamli texnologiya , interaktivta’lim texnologiyalari, sun’iy intelekt, hisoblash-kommunikatsion infratuzilma, intellektual on-line ta’lim

Bizning tadqiqotimizning pedagogik muammosi umumiy ma’noda o‘quvchilarga, birinchi navbatda, raqamli ta’lim muhitida bilim va munosabatlarni shakllantiradigan ma’lumotlar orqali maktabda shakllanadigan bilim va munosabatlarga zid bo‘lgan maqsadli ta’sirni ko‘rib chiqishimiz kerak.

Ta’limda raqamli texnologiya bu – kompyuter dasturlari yordamida ikkilik sanoq tizimida ishlab chiqilgan, ta’lim jarayonini tashkil etish, boshqarish hamda uning natijalarini inson omili ishtirokini kamaytirish asosida avtomatlashgan sistema asosida tashkil etish imkoniyatini beruchi dasturiy ta’minot. [2]

Bunday ta’limni tashkil etishda esa bugungi kunda nashr adabiyotlarining takomillashtirilgan ko‘rinishlari multimediali ishlanmalar hamda virtual laboratoriya topshiriqlari, interaktiv ta’lim texnologiyalari qo‘llanib yaratilgan, fanning ma’ruza, amaliy, laboratoriya, mustaqil ta’lim shakillari to’liq yoritilgan elektron darsliklarni qo‘llash zarur

Interaktiv ta’lim texnologiyalari – kompyuter dasturlari vositasida ishlab chiqilgan avtomatlashtirilgan ta’minot bo‘lib, o‘quvchilarga mashg‘ulotga oid ma’lumot hamda uning o‘zlashtirilganligini tekshiruvchi topshiriqlarni taqdim etadi. Talaba topshiriqni bajargandan so‘ng natijaning to‘g‘ri yoki xatoligini inson omili ishtirokisiz qayta ishlab, tahlilini beradi. Bunda ikki tomonlama aloqa va qaytar aloqa bo‘lishi zarur. Ta’lim jarayonida faqat fanning ma’lumolarini taqdimot, virtual ishlanma va turli ma’lumotlar ko‘rinishida taqdim etib, bir tomonlama aloqaning o‘rnatilishiga olib keluvchi vositalar bu ta’limda axborot texnologiyalari xisoblanib, raqamli texnologiyalarning AKTdan farqi avtomatlashtirilgan dasturiy ta’minot asosida interaktiv xizmat ko‘rsatish jarayoni mavjud bo‘lishidadir. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash auditoriya mashg‘ulotlaridan tashqari o‘quvchilarning mustaqil o‘z ustida ishlash hamda o‘zlashtirilgan bilimlarini individual baholashga o‘rgatish jarayonida samarador texnologiya hisoblanadi

Bunday ta’lim jarayonida olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an’anaviy ta’lim shakllariga nisbatan samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli

xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyani, bulutli texnologiyalarni, masofaviy meditsina xizmatlari ko‘rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot etishtirish va uni etkazib berishni, turli xildagi tovarlar saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin

Raqamli texnologiyalar quyidagi tizimli o‘zgarishlarda namoyon bo‘ladi:

ta’lim, ishlab chiqarish va boshqaruvdagi virtualizatsiya jarayonlarining amalga oshishi;

yangi kadrlar va yangi ish joylarining paydo bo‘lishi;

avtomatik boshqaruv va nazorat usullarining tatbiq qilinishi;

katta ma’lumotlar bazalari (big data) tarkib topishi;

sun’iy intellekt va intellektual boshqaruv tizimlarning amalga oshishi

Raqamli texnologiyalarning asosiy rivojlanish bosqichlari sifatida esa quyidagilarni keltirishimiz mumkkin [1.]

Boshqaruv jarayonlarini kompyuterlashtirish va avtomatlashtirishning amalga oshirilishi (shu jumladan, ARM, ERP, EDI, SRM, SAPR, ASU, ASUTP va boshqalar);

on-line platformalarning hayotga tatbiq qilinishi (qidiruv tizimlari, elektron savdo maydonlari, masofaviy ta’lim, ijtimoiy tarmoqlar);

bulutli va virtual texnologiyalarning hayotga kirib kelishi;

katta ma’lumotlarning preduktiv analitikasi, buyumlar interneti, robototexnika, additiv texnologiyalarning keng miqyosda ishlatilishi (shu jumladan, 3D-printerlar), sun’iy intellekt

turli xildagi raqamli texnologiyalarning ishlashi;

tezkor internet borligi;

raqamli texnologiyalar sohasida tayyorgarlik ko‘rgan kadrlar resurslari, intellektual on-line ta’lim platformasining mavjudligi;

ta’lim uchun zarur moddiy-texnik, o’quv-uslubiy va dasturiy ta’minotni borligi.

Mediata’limning maqsadi, birinchi navbatda, maktab o‘quvchilarini raqamli texnologiyalar muhitida hayotga tayyorlash, maktab o‘quvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining manipulyativ ta’siridan immunitetni shakllantirishdir [3].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ЮНЕСКО халқаро меъёрий ҳужжатлари. // Ўзбекча нашрининг масъул муҳаррири Л.Саидова. – Тошкент. «Адолат», 2004. –Б 19-62.

2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. – 704 б.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Республикада ахборот технологиялари соҳасини ривожлантириш учун шарт-шароитларни тубдан яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5099-сонли Қарори. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 30.06.2017 й.

MAKTABDA ELEKTR TOKI QONUNLARINI INTERFAOL USULLAR VA ELEKTRON DASTURLAR YORDAMIDA O‘QITISH YO‘LLRI

I.O.Zaxidov

Namangan davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablari fizika kursining elektr toki qonunlarini interfaol o‘qitishda “Baliq skeleti” grafik organayzeridan foydalanish yo’li “O‘tkazgichning solishtirma qarshiligini aniqlash” mavzusi misolida ko‘rsatib berilgan


Kalit so‘zlar: elektr energiyasi, fizika fanini o‘qitish, elektr qarshiligi, “Baliq skeleti” grafik organayzeri, elektron dastur, solishtirma qarshilik, nazariy xulosalash va umumlashtirish.

Kirish. Davlatimizda fizika fanini o‘qitish sifatini yaxshilash, ta’lim jarayoniga innovatsion va axborot texnologiyalarini integratsiyalash, ta’lim texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning aqliy salohiyati, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida kasbiy sohalarga yo‘naltirilgan zamonaviy metodik ta’minotni yaratish, ta’lim sifatini ta’minlashga yo‘naltirilgan samarali tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, ta’lim tizimiga qaratilgan e’tibor, tub islohotlar, o‘qitishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari va moddiy-texnik bazasini yaratish, malakali kadrlar bilan ta’minlash, xalqaro ilg‘or tajribalardan keng foydalanish bo‘yicha olib borilayotgan amaliy ishlar natijasida [1] fizika fani o‘quv dasturlari, o‘quv-uslubiy adabiyotlari mazmunini yangilash, o‘quv jarayoniga innovatsion ta’lim texnologiyalarini keng joriy qilinishiga erishildi.

Natijalar. Hozirgi kunda elektr energiyasi kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Chunki uyimizdagi yoritish chiroqlari, televizorlar, muzlatkich, dazmol, kompyuter, elektr plitkasi va boshqa ko‘plab asboblar elektr energiyasidan quvvat olib ishlaydi. Shuningdek barcha ishlab chiqarish korxonalari va muassasalar ham elektr energiyasidan foydalanadi. Umuman olganda elektr energiyasiz hayotimizni va ishlab chiqarishni tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Shu nuqtai nazardan ham umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarga tok qonunlarini darslikda berilgan materiallarini fanlararo aloqadorlik asosida kengaytirish va o‘qitish uslubini interfaol usullar bilan rivojlantirilib, elektron dasturlar yordamida dars samaradorligiga erishish kuchaydi.

Muhokamalar. Misol uchun S-o‘tkazgichning elektr qarshiligi qanday kattaliklarga bog‘liqligini tushuntirishni quyidagicha amalga oshiramiz. O‘tkazgichning elektr qarshiligi o‘tkazgichning uzunligiga, o‘tkazgichning



1-rasm. O‘tkazgichning solishtirma qarshiligini aniqlashda “Baliq skeleti” grafik organayzeridan foydalanish

ko‘ndalang kesim yuzasiga va o‘tkazgichning solishtirma qarshiligi bog‘liq bo‘lib, o‘tkazgichning qanday moddadan tayyorlangani hisobga olinadi.
M - (muhokama) qismida kattalikning formulasini yozish so‘raladi. O‘quvchi elektr qarshiligining formulasi $R = \rho\frac{l}{S}$ ni berilgan daftariga yozadi, hamda

ℓ-o‘tkazgichning uzunligi (birligi-m), S-o‘tkazgichning ko‘ndalang kesim yuzasi (birligi-m^2), ρ -o‘tkazgichning solishtirma qarshiligi (birligi-Om·m) bo‘lib o‘tkazgichning moddasiga bog‘liq. U - (fikrlar umumlashtiriladi) o‘tkazgichning elektr qarshiligi haqidagi fikrlar umumlashtirilib, demak bir xil o‘lchamdagi o‘tkazgichlarning elektr qarshiligi o‘tkazgichning solishtirma qarshiligiga bog‘liq ekan deb o‘tkazgichlarning solishtirma qarshiliklar jadvali har xil moddalar sifatida misol keltirib tushuntiriladi [2].

Xulosa. Fizika darslarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, darslarda ta’lim oluvchilar guruhining faolligiga erishish bilan bir qatorda, ularning yakka-alohida xususiyatlariga e’tibor qaratish ham alohida talab etiladi.

Fizika o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchilarda nazariy xulosalash va umumlashtirishlarga tayangan holda amaliy va nazariy fikrlashni tarbiyalash hamda rivojlantirish juda muhim. Bunda ilmiy fikrlash uchun: tekshirish maqsadini aniq ifodalash; ilgari bajarilgan nazariy yoki eksperimental tekshirishlarga tayanadigan gepotezani ishlab chiqsh; tekshirish metodikasini ishlab chiqish; tekshirishning asosiy bosqichlarini aniqlash; ishlab chiqarilgan metodika va rejaga mos xususiy tekshirishlar o‘tkazish; olingan natijalarning tahlili; xulosalarni ifodalash xarakterli ekanligini esda tutish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 - martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-sonli Qarori//–Toshkent: 2021 yil. – B. 3

2. Umarov A.O. Maktabda elekr toki qonunlarini fanlararo interfaol o‘qitish. 13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika) ixtisosligidan pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi ishi. Farg‘ona, 2024 y.

ASTRONOMIYA O’QITISHDA TABIIY ASTRONOMIK KUZATUVLARNI SAMARALI TASHKIL QILISH ORQALI TA’LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

M.N.Narzullayev[1]; Z.M.Narzullayeva[2]

[1]Buxoro davlat pedagogika instituti; [2]Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Tadqiqot ishida astronomik ta’limda tabiiy astronomik kuzatishlarni tashkil etish orqali ta’lim jarayoni samaradorligini orttirish muammosi ilgari surilgan. Shuningdek tabiiy astronomik kuzatishlarni tashkil etishning nisbatan samarador uslubiyoti bayon qilingan.

Kalit so’zlar: Tabiiy kuzatish, Quyosh, Oy, Sayyoralar, Yulduzlar, Oy fazalari, O’zgaruvchan yulduzlar, Quyosh faolligi, Yulduz turkumlari, Yulduzlar osmoni, ko’rinma harakat, Teleskop,Durbin.

Kirish. Astronomik ta’limda tabiiy kuzatishlar fizikada namoyish va laboratoriya ishlari bilan bir xil ahamiyatga ega. Biroq, ushbu kuzatuvlarni tashkil qilish ularni fizik tajribadan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatuvlar (ba'zi istisnolardan tashqari) dars davomida, samoviy jismlarning joylashishi va noqulay ob-havo tufayli tashkil qilinishida anchagina muammolar mavjud. Bu tashkiliy xarakterdagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. O'qituvchi kursni taqdim etishda talabalar xotirasidan foydalanishga majbur bo'lib, kuzatish paytida talabalar tomonidan olingan ba'zan qisqa muddatli idroklarga murojaat qiladi.

Tasviriy kuzatuvlar mohiyatan kirish bilan bir xil tarkibga ega. Ba'zi hollarda kirish kuzatuvlarini namoyish kuzatuvlar bilan almashtirish kerak; aksincha, ba'zi namoyishlarni kirish kuzatuvlariga aylantirish mumkin.

Amaliy kuzatuv ishlari, yuqorida aytib o'tilganidek, o'quvchilarga o'z bilimlarini bir qator amaliy muammolarni hal qilishda qo'llash imkoniyatini berishga qaratilgan. Ushbu amaliy vazifalarning mazmuni astronomiyaning hayotga qo'llanilishi va mamlakat mudofaasini qurish vazifalari bilan bog'liq bo'lgan nazariya va hayotda qo'llanilishini bilishdan kelib chiqadi.

Kuzatuvlarni tashkil etish. Kuzatuvlarni qo'yishdagi asosiy qiyinchilik, agar aniq ob-havoni oldindan bilishning iloji bo'lmasa, ularni darsdan tashqari vaqtda olib borish zarurati. Shuning uchun yuqorida tavsiflangan barcha kuzatuvlar ikki guruhga bo'linishi kerak: o'qituvchining bevosita rahbarligi bilan umumiy va individual - vazifalarga muvofiq.

ADABIYOTLAR:

1.*Нарзуллаев М.Н.* Использование астрономических знаний в формировании экологической культуры студентов // Международный академический вестник Научный журнал. 45:1 (2020). С. 64.

2. *Ochilov B.M., Narzullaev M.N.* Increasing the efficiency of solar heat treatment of liquid foodstuffs with the help of reflecting systems // Applied solar energy, 1996. № 2 (3). Pp. 78-79.

3.Нарзуллаев М.Н. Роль астрономии в повышении эффективности экологического образования. Материалы республиканской научно-практической конференции. с.204 Бухара 2013.
4.Narzullayev M.N. QUYOSH FAOLLASHUVINING NAVBATDAGI TSIKLI. ФИЗИКА ФАНИНИНГ РИВОЖИДА ИСТЕЪДОДЛИ ЁШЛАРНИНГ ЎРНИ РИАК-XII-2019 Республика илмий анжумани Тошкент – 2019
5.Narzullayev M.N.Astronomiya oquv qo’llanma Buxoro 2022 yil.
6.Narzullayev M.N.Astronomik taqvim. Buxoro-2017 yil
7.Narzullayev M.N.Yulduz turkumlari o’quv uslubiy qo’llanma Buxoro 2018

FIZIKA PRAKTIKUMIDAN ZAMONAVIY YANGI AVLOD O‘QUV ADABIYOTLARINI YARATISHDA FANLAR INTEGRATSIYASI


X.M.Kurbanov[1]; M.Kurbanov[2]; Sh.M.Sodiqova[2]

[1]TDTrU, [2]O‘zbekiston milliy universiteti

Annotatsiya. Maqolada fizika fanidan laboratoriya ishlari uchun o‘ziga xos innovatsion yondashuv asosida zamonaviy yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish metodikasi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Laboratoriya, innovatsion texnologiyalar, ijodkorlik, texnik iqtidor, kasbga yo‘naltirish, kasbiy kompetensiya, malaka, ko‘nikma, elektr asboblar, Maple dasturi.

O‘zbekiston mustaqil milliy demokratik davlat sifatida rivojlanish yo‘lini tanlagandan so‘ng, dastlabki yillardayoq, yurt oldiga yuksak madaniyat va ma’naviyatga hamda jahon andozalari darajasidagi ta’lim va tarbiyaga erishish vazifalari qo‘yildi. Bu vazifalar, ma’lumki, bosqichma-bosqich, islohotlar yo‘li bilan amalga oshirilmoqda. Islohotlar taqdirida yuqori malakali mutaxassislarning hal qiluvchi rolini inobatga olgan holda, endilikda xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot nazariyasi, fan, texnika va yangi innovatsion texnologiyalar asosida yetuk mutaxassislar tayyorlash tizimi ishlab chiqildi va amalga oshirila boshlandi. Bu borada yangi ta’lim tizimi talablariga javob beradigan yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratishni dolzarb masala qilib qo‘ydi.



1-rasm. Laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish modeli

Jumladan, maqolada texnik OTM da laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish bilan bog‘liq yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish masalalari qaraladi.

Texnika oliy ta’limi muassasalarida fizikadan laboratoriya mashg‘ulotlarini shakllantirish va ularni o‘tkazish uch bosqichli shaklda, ya’ni zamonaviy lazer va elektron elektr o‘lchov asboblar bilan tanishtirish bosqichi va asosiy fizikaning fundamental qonunlari o‘rganiladigan bosqich hamda ixtisoslik fanlarini o‘zlashtirishga oid kasbiy yo‘nalishidagi laboratoriya mashg‘ulotlari bosqichiga bo‘lib tashkil etish maqsadga muvofiq (1-rasm).


Maqolada umumiy fizika fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarni o‘tkazishning yuqorida bayon etilgan metodikasi laboratoriya ishlari uchun o‘ziga xos zamonaviy yangi avlod o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Birinchi bosqich mashqlarni hamda ikkinchi va uchinchi bosqichdagi ish majmualarini bajarish uchun tayyorlangan qo‘llanmalar texnik-muhandislik OTM ning xususiyatlarini, bo‘lajak mutaxassislarning ijodkorlik va texnik iqtidorlarini, malaka mahorati va ko‘nikmalarini rivojlantirishni hamda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishni hisobga olgan holda yaratildi (2-rasm).




2-rasm. Laboratoriya ishining mazmunini takomillashtirilgan modeli.

Shuningdek, talabalarda zamonaviy optik-elektron o‘lchov asboblar bilan ishlash ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun quyidagi mashqlarni bajarish tavsiya etilgan. Elektron multimetr yordamida fizikaviy kattaliklarni o‘lchash talabalar tomonidan frontal ko‘rinishda mashqlarni bajarish amalga oshirildi (3-rasm).



3-rasm. Multimetr yordamida bajariladigan mashqlar.

Maqolada texnik-muhandislar uchun zarur bo‘lgan lazer o‘lchagichlar bilan tanishish va undan foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish maqsadida quyidagi mashqlarni bajarish amalga oshirildi (4-rasm).



4. Lazer masofa o'lchagich.

1. Lazer masofa o‘lchagich yordamida uzunlikni va qoplama sifatini aniqlash. 2. Burchak ostida uyning balandligini aniqlash. 3. Lazer masofa o‘lchagich yordamida yuza va hajmni o‘lchash. 4. Lazer masofa o‘lchagich yordamida obyektni to‘g‘ri va qiyaligini aniqlash.

Bunday lazer o‘lchagichlar bilan ishlaganda talabalarda turli xil qurilish-montaj va ta’mirlash ishlarini zudlik bilan amalga oshirish ko‘nikma va malakalari shakllanadi. Bu esa o‘z navbatida ixtisoslik fanlarini chuqurroq o‘zlashtirishga zamin yaratadi.

Ikkinchi bosqichda fundamental fizik nazariyalarning asosida yotadigan fundamental laboratoriya ishlari bajariladi: masalan, Nyuton qonunlari, butun olam tortishish qonuni, molekulyar-kinetik nazariya asoslari, Kulon qonuni, fotoeffekt, issiqlik nurlanish qonunlari va Plank doimiysini aniqlash bo‘yicha laboratoriya ishlari va hokazo. Bunday laboratoriya ishlarining soni so‘nggi yilda ancha orti va shubhasiz, fizika ta’limining ilmiy salohiyatini oshirishiga yordam beradi. Fundamental-ijodiy laboratoriya ishlarining, shuningdek, fizik

hodisalarni aks ettiruvchi ishlarning maqsadi fizik hodisa va qonuniyatlarni o‘rganish, fizik parametrlarni aniqlash, fizik kattaliklarning ba’zi omillarga bog‘liqligini o‘rganish. Ammo fundamental-ijodiy tavsifdagi laboratoriya ishlarining asosiy maqsadi ma’ruza va laboratoriya mashg‘ulotlarda olgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni qo‘llash asosida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Fundamental-ijodiy tavsifdagi laboratoriya ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda quyidagi aniq masalalardan birini eksperimental yechish tavsiya etiladi:

1. Laboratoriya qurilmasining zarur elementlari va sxemasi beriladi va tajriba muammosi qo‘yiladi, uning yechimini talabalar aniqlashlari kerak. 2. Fizik hodisani o‘rganish taklif qilinadi, laboratoriya qurilmasining sxemasi beriladi, o‘rganish usullari talabalar tomonidan amalga oshiriladi. 3. Fizik kattalikning qiymatlarini, ularning funksional bog‘liqligini aniqlash bo‘yicha muammo qo‘yiladi. Bunday muammoni hal qilishda avvalgi ma’ruzalarda talabalarga ta’lim berish jarayonida olingan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar kerak bo‘ladi. Vujudga keltirilgan muammoli vaziyatning murakkabligiga qarab yo‘naltiruvchi savollar beriladi.

Ishda taklif qilingan model asosida fundamental laboratoriya ishlarining tavsifnomalari yaratilib, o‘quv jarayoniga tatbiq etilgan. Masalan, “Plank doimiysini aniqlash” va “Elektronning solishtirma zaryadini magnetron metodi bilan aniqlash” laboratoriya ishlari.

Uchinchi bosqich ixtisoslik fanlarini o‘zlashtirishga oid kasbiy yo‘nalishdagi laboratoriya ishlarini bajarish jarayonida ixtisoslik fanlarini yaxshi o‘zlashtirishda texnik-muhandislik kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga muhim zamin yaratiladi.

Masalan, “Elastiklik modulining cho‘zilish va egilishdan aniqlash”, “Suyuqliklarning ichki ishqalanish koeffitsentini Stoks metodi bilan aniqlash”, “Qattiq jismlarning temperaturaviy chiziqli va hajmiy kengayish koeffitsiyentini aniqlash”, “Nyuton halqalari yordamida linzaning egrilik radiusini aniqlash” laboratoriya ishlarini bajarish jarayonida ularning amaliy tatbiqlariga e’tibor qaratilgan (1-jadval).

Tadqiqot ishida taklif qilgan model asosida kasbiy xususiyatga ega bo‘lgan laboratoriya ishlarining tavsifnomalari yaratilgan. Shuningdek, barcha bosqichda talabalar tomonidan bajarilgan laboratoriya ishlarining

hisoboti yakka tartibda va seminar-trening asosida amalga oshirildi. Hisobotni seminar-trening shaklida tashkil etishda har bir talaba ishni topshirish jarayonida taqdimnomalar yaratib himoya qila olishini, murabbiylar uchun qisqa vaqt ichida talabalarni baholash bilan bir qatorda ularda tadqiqotchilik qobiliyati, ijodiy yondashish kabi hislatlar mavjudligini baholash imkonini beradi.

Maqolada laboratoriya ishlaridan samarali foydalanishda uning ilmiy-o‘quv mazmundorligini aniqlash va boshqarish alohida o‘rin tutishi ko‘rsatib o‘tilgan. Laboratoriya ishlari fizik tushunchalar, hodisalar qonuniyatlarni ochishda muhim rol o‘ynaydi. Laboratoriya ishlarining ilmiy-o‘quv mazmundorligini aniqlash bilan bir qatorda, asosiy fizikaviy tushunchalarni, hodisalarni, qonunlarni talabalar mustahkam o‘zlashtirishiga o‘qitish jarayonida eksperimentlarni muammoli ko‘rsatish orqali erishish mumkin. Biz bu imkonyatni fizika kursi bo‘limlari: mexanika, molekulyar fizika va termodinamika, elektr va magnetizm, optikaga oid xorijdan olingan laboratoriya ishlarini tahlil qilish orqali ko‘rsatdik.

1-jadval

Texnik-muhandislik OTM da ixtisoslik fanlarini o‘zlashtirishda fizikadan laboratoriya ishlarining amaliy qo‘llanilishi bo‘yicha metodik tavsiyalar

Laboratoriya ishlarining nomi	An’anaviy laboratoriya mashg‘ulotlarida talabalar aniqlaydigan asosiy fizikaviy kattaliklar	Noan’anaviy laboratoriya mashg‘ulotlarida talabalar egallaydigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar
Elastiklik	Elastiklik modulini aniqlash	Mustahkam bino, ko‘prik, samolyot,

modulining cho‘zilish va egilishdan aniqlash	ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, uning fan va texnikada qo‘llanilishi sohalariga umumiy holda yondashilgan, biroq talabalarning kasbiy xususiyatlari e’tiborga olinmagan.	avtomobil va qurilishlar uchun ishlatiladigan beton, po‘lat, kabi materiallarning mustahkamligini, katta deformatsiyalarda materiallar- ning egilishi, o‘zini qanday tutishini, ular qanday sharoitlarda yemirila boshlashini oldindan bilishi zarur. Natijada har bir ixtisoslik fanlarini mazmunidan kelib chiqib ularni o‘zlashtirishga va kasbiy mahoratlarini oshirishga zamin yaratiladi.

Quyida laboratoriya ishlarining ilmiy-o‘quv mazmundorligini aniqlash va ana shu aniqlangan asosiy fundamental tushunchalarning talabalar tomonidan o‘zlashtirilishiga qaratilgan tadqiqotlardan namunalar keltiramiz. Laboratoriya ishlarining mazmuninidan kelib chiqqan holda fizik tushunchalarni quyidagicha guruhlash mumkin:

a) laboratoriya ishlari orqali talabalar o‘zlashtiradigan asosiy fundamental tushunchalar;
b) asosiy fundamental tushunchalarning mohiyatini ochishda xizmat qiladigan yordamchi tushunchalar.

Mazmunlari ochilgan, o‘qitish maqsadlariga to‘liq muvofiq keladigan fizik tushunchalarni talabalar ongiga mustahkam singdirish yana alohida metodik tadbirlarni taqozo qiladi. Hozirgi kun o‘qitish metodida faol tavsiya qilinadigan samarali yo‘llardan biri - bu innovatsion ta’lim texnologiyalari. Agar bu metod o‘zining yuqori darajasi bilan alohida o‘rin tutuvchi laboratoriya ishlarini himoya qilish (seminar-trening) jarayoniga tatbiq qilinsa, yuqoridagi maqsad to‘liq amalga oshirilishi mumkin. Innovatsion ta’lim texnologiyalarining mohiyati shundaki, bunda o‘qituvchi biror o‘quv muammosini hal etadigan vaziyatni vujudga keltirish yo‘li bilan ijodiy izlanish jarayonini bevosita boshqaradi va talabalar faoliyatini shu muammoni yechishga yo‘naltiradi. Biz bu imkonni laboratoriya ishlarining ilmiy-o‘quv mazmundorlik xaritasini tuzish orqali amalga oshirdik. Ular quyidagi 2-jadvalda berilgan.

2-jadval

Laboratoriya ishlarining ilmiy-o‘quv mazmundorlik xaritasi

Laboratoriya ishlarining nomi	**Laboratoriya ishi orqali talabalar o‘zlashtiradigan asosiy fundamental tushunchalar**	**Asosiy fundamental tushunchalarning mohiyatini ochishda xizmat qiladigan yordamchi tushunchalar**
Nyuton halqala ri yordamida lin- zaning egrilik radiusini aniqlash	Kogerent manba, Nyuton halqalari, yorug‘lik interfe- rensiyasi, yo‘llar farqi, fazalar farqi, monoxroma tik yorug‘lik, kogerent yorug‘lik to‘lqinlari.	To‘lqinlar, to‘lqinlar amplitudasi, faza, to‘lqin uzunligi, tebranishlar davri, tebranishlar chastotasi, yig‘uvchi linza, tabiiy yorug‘lik.

Maqolada amaliy mashg‘ulotlarni bajarish jarayonida olingan natijalarni Maple dasturi yordamida hisoblab chiqildi. Zarur hollarda bajarilgan hisoblashlarni grafik yoki sonli ifodalarda ham olish mumkin.

Umuman oliy ta’limi muassasalarida fizikadan laboratoriya mashg‘ulotlarini shakllantirish modeli asosida yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish o‘z navbatida yetuk mutaxassis tayyorlashning muhim omili bo‘lib hizmat qiladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tursunov Q.Sh., Uzoqova G.S., Qurbonov M. Fizika o‘qitishning nazariy asoslari. Darslik. – Qarshi. “Intellekt”-nashriyoti, 2022. 232 bet.
2. Kurbanov X.M. va b.Elektromagnetizm va optika. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2023. 240 bet.
3. Kurbanov M.. Fizikadan namoyish eksperimentlarining uslubiy funksiyalarini kengaytirishning nazariy asoslari. Monografiya, Fan, T.: 2008. 117- bet.

STAGES OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN STUDENTS

Kh.M.Akramov
Namangan state university

Abstract. The article examines the development of creative thinking skills in school-age children, the possibilities of students, the process of their development. In the educational process, the focus is on the choice of ways to improve the development model of students' creative thinking skills and content, forms, tools, methods and techniques for developing students' thinking skills.

Keywords. Creative Thinking Skills, Competence, Technical Creativity, Methodological Foundations, Development Model, Activation Methods, Advanced Foreign Experience, Guidelines, Shaping Factors, Creative And Social Activity.

In the developed countries of the world, education is recognized as a key factor in ensuring sustainable development, and the concept of international education until 2030 defines “quality education and active socialization of youth” as an urgent task. This, in turn, leads to the need to familiarize students with the types of work that contribute to the rapid socio-economic development of society, improve pedagogical mechanisms for teaching innovative technologies in the labor market, develop advanced foreign experience and pedagogical opportunities to develop creative thinking skills.

Analysis of studies on the development of creative thinking skills among students in developed countries shows that the process of forming creative thinking among students does not occur spontaneously, but develops as a result of systematic purposeful pedagogical activity. Also, the gap between the modern requirements for the process of orientation of schoolchildren to technological education through their creativity and their knowledge, skills, abilities and competencies, the existing didactic system does not meet the needs of society. This, in turn, is important for developing creative thinking skills.

As a result of successive reforms in our country, it is necessary to deepen the methodological foundations for the development of creative thinking of schoolchildren, to educate proactive, courageous youth, capable of taking responsibility for the life of the country. future. The strategy of actions for the further development of the Republic of Uzbekistan defines areas such as “intellectually developed, independent thinking, a firm outlook on life,” which, in turn, emphasizes the need to consider this process as a didactic system.

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev dated February 7, 2017 No. PF-4947 "On the strategy for the further development of the Republic of Uzbekistan", January 25, 2018 "On measures to radically improve the public administration system." general secondary, secondary specialized and vocational education "Resolution No. PF-5313 of April 29, 2019, Resolution No. PF-5712" On the Concept for the Development of the Public Education System until 2030 ".

This study, to a certain extent, will serve the implementation of the tasks set by the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated April 6, 2017 No. 187 "On the approval of state educational standards for general secondary and secondary specialized, vocational education." education ”and other relevant regulations.

A number of educational scientists in Uzbekistan studied the methodological foundations of developing students' skills of creative thinking, technical creativity of young people, the development of creative thinking skills in secondary school students, research problems of students, psychological problems of youth orientation. to research activities. At the same time, research in the field of problems of the theory of developing education is being studied and scientific and methodological foundations have been developed.

Some of the educational psychologists studied the problems of the development of technical creativity, the development of the thinking abilities of students of general education schools.

Although the methodological foundations for the development of students' creative thinking skills are studied by scientists in various fields to study their creative abilities, there are problems in pedagogy that have not found their logical solution in this regard.

In particular, the lack of a methodological base for the development of students' creative thinking skills indicates the need for in-depth scientific approaches and new knowledge. Improving the development model of students' creative thinking in the learning process:

- the choice of the content, forms, means, methods and techniques of the process of developing the creative thinking of students of secondary schools on the basis of advanced foreign experience;

-development of scientific and methodological recommendations aimed at developing students' creative thinking skills through pedagogical processes carried out in educational and production complexes.

The model for the development of students' creative thinking skills should be improved on the basis of the introduction of technologies into the content of science, the integration of advanced foreign experience and an orientation towards taking into account the requirements of the content of education.

The content of the development of creative thinking skills in students should be selected on the basis of activation methods, taking into account the individual characteristics of students (games with creative thinking; creative games; puzzles; exercises - brainstorming; games - brainstorming; activating questionnaires).

Factors in the development of students' creative thinking skills in teaching natural and technical sciences (scientific and technical development process, problems of production processes in the environment, socio-demographic relations, creative literacy of family members, personal creativity, psychological counseling, leadership function of the class teacher (necessity determination of indicators of the formation of creative thinking based on the positive impact of natural, technical sciences).

Scientific and methodological recommendations have been developed for the organization of pedagogical processes aimed at developing the thinking abilities of students in teaching natural and technological sciences on the basis of a creative, heuristic, active approach. The choice of methods is carried out as follows:

- improving the development model of students' thinking based on the development of teaching natural and technical sciences;

- Enrichment of the content of the development of thinking skills in students through the choice and application of methods focused on creative thinking;

- Improvement of the pedagogical process based on the creation of favorable conditions for the expression of students' creative attitude to their chosen activity.

- identification of factors in the development of students' thinking skills, indicators of the formation of thinking skills and the development of scientific and methodological recommendations for the effective organization of the pedagogical process in this area.

Developing students' creative thinking skills in teaching natural and technical sciences, using students in the process of career guidance; The use of the opinions of parents and teachers as guidelines in their activities aimed at the formation of independent thinking about choosing a profession in accordance with their interests and abilities, serves to increase the scientific and pedagogical effectiveness of the process of their professional orientation.

In this regard, the formation of creative and social activity in teaching technology is based on the positive influence of factors (environmental relations, socio-demographic relations, professional literacy of family members, creativity, psychological counseling, the role of the class teacher, school subjects). We see that the foundation of professional work has been formed, and this foundation has contributed to the development of creative abilities in students.

In addition, the opportunities for students to use the factors of the formation of creative and social activity in teaching technologies have been increased.

Therefore, it is necessary to develop scientific and methodological recommendations for the organization of pedagogical processes in educational and production complexes on the basis of a creative, heuristic, practical approach aimed at developing students' creative and social activity.

As a result, the mechanisms for the formation of creative and social activity of students in teaching technologies will be improved.

References:

[1]. President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev Strategy of actions in five priority areas of development of Uzbekistan for 2017-2021. January 7, 2017.

[2]. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan. On measures to radically improve the system of general secondary, secondary specialized and vocational education Tashkent, January 25, 2018.

[3]. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan. On the approval of the Concept for the development of the public education system of the Republic of Uzbekistan until 2030. National database of legislation dated April 29, 2019 No. 19.06 / 5712/3034.

[4]. Sharipov Sh., Muslimov N. "Technical creativity and design" .- T.: 2011.

[5]. Dzhuraev Kh.O., Kulieva Sh.Kh., Turabekov F.S., Karimova M.N. "Technical creativity and design". - T. ,, Turon zamin ziyo ”2015.

[6]. Dolgunin V.N., Ivanov P.A., Pronin V.A. "Methods of scientific and technical creativity" FGBOUVPO "TSTU" 2014

ВОЗМОЖНОСТИ ВИРТУАЛЬНЫХ ЛАБОРАТОРНЫХ РАБОТ В АТОМНОЙ И ЯДЕРНОЙ ФИЗИКЕ

Г.С. Палванова

Национального университета им. Мирзо Улугбека

С развитием компьютерной технологии и цифровизации образовательного процесса значительно изменился подход к обучению в области физики. В частности, виртуальные лабораторные работы становятся важным инструментом в изучении сложных тем, таких как атомная и ядерная физика. Особенно в области ядерной физики, который связан с ядерным излучением. К лабораторным работам и персоналам, который используют радиоактивные источники требуется специальное разрешение. Виртуальные лабораторные работы позволяют обходить эти проблемы. Эти виртуальные ресурсы позволяют студентам проводить эксперименты, изучать физические процессы и анализировать данные, не выходя из учебного заведения [1-3].

Преимущества виртуальных лабораторных работ

1. **Доступность и удобство**: Виртуальные лаборатории могут быть доступны в любое время и из любого места, что позволяет студентам обучаться в собственном темпе и повторять эксперименты по мере необходимости.

2. Безопасность: Работая с виртуальными инструментами, студенты могут избежать риска, связанного с экспериментами, которые могут быть опасными или требовать использования радиоактивных материалов.

